XIX asr oxirida yuzaga chiqqan jadid taraqqiyparvarlarining ijtimoiy-siyosiy g'oyalari XX asrning boshlariga kelib amaliy harakatga aylana oldi. Garchi jadid taraqqiyparvarlari bu kurashda jismoniy jihatdan mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, biroq ma'naviy nuqtai nazardan g'olib bo'lgan holda, keyingi davr avlodlarining qalbida ozodlikka intilish, yosh avlodda yorqin kelajakka ishonch tuyg'ularni shakllantirishda o'zlaridan chuqur iz qoldirdilar.

1929-1939-yillarda bolsheviklarning zulmi va istibdodi natijasida ona vatanini tark etishga majbur bo'lgan turkistonlik ziyolilar tomonidan Fransiyaning poytaxti Parij shahrida nashr etilgan "Yosh Turkiston" jurnali ham shubhasiz jadidchilik harakatining hosilasi edi. Ushbu kitobga ana shu "Yosh Turkiston" jurnalida chop etilgan vatan, millat taqdiriga bevosita daxldor bo'lgan eng dolzarb maqolalar, arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvidan joriy o'zbek alifbosiga tabdil etilgan holda kiritildi.

ISBN 978-9910-9916-4-6

Turkistonlik muhojirlar tomonidan 1929-1939-yillarda nashr etilgan "Yosh Turkiston" jurnalidagi maqolalar to'plami

Turkiston HURRIYATI YO'LIDA

Muslimbek ALIJONOV

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI
DAVLAT MUZEYI

MUSLIMBEK ALIJONOV

Turkiston
HURRIYATI YO‘LIDA

Turkistonlik muhojirlar tomonidan 1929-1939-yillarda nashr etilgan “Yosh Turkiston” jurnalidagi maqolalar to‘plami

“Mahalla va oila” nashriyoti
Toshkent – 2024

UO‘K: 94(575.1):323
KBK: 63.3(5Ў)+66.3
A 49
M. Alijonov,
Turkiston hurriyati yo‘lida [Matn] / Muslimbek Alijonov; Muharrir B.B. Mavlonov. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2024. – 254 b.

Mas’ul muharrir:
tarix fanlari doktori, professor **B.V.Hasanov**

Taqrizchilar:
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) **B.Sh.Irzayev**
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) **G.M.Alijonova**

XIX asr oxirida yuzaga chiqqan jadid taraqqiyparvarlarining ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari XX asrning boshlariga kelib amaliy harakatga aylana oldi. Garchi jadid taraqqiyparvarlari bu kurashda jismoniy jihatdan mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsalar-da, biroq ma’naviy nuqtai nazardan g‘olib bo‘lgan holda, keyingi davr avlodlarining qalbida ozodlikka intilish, yosh avlodda yorqin kelajakka ishonch tuyg‘ularni shakllantirishda o‘zlaridan chuqur iz qoldirdilar.

1929-1939-yillarda bolsheviklarning zulmi va istibdodi natijasida ona vatanini tark etishga majbur bo‘lgan turkistonlik ziyolilar tomonidan Fransiyaning poytaxti Parij shahrida nashr etilgan “Yosh Turkiston” jurnali ham shubhasiz jadidchilik harakatining hosilasi edi. Ushbu kitobga ana shu “Yosh Turkiston” jurnalida chop etilgan vatan, millat taqdiriga bevosita daxldor bo‘lgan eng dolzarb maqolalar, arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvidan joriy o‘zbek alifbosiga tabdil etilgan holda kiritildi.

ISBN 978-9910-9916-4-6

© Muslimbek Alijonov, 2024
© “Mahalla va oila” nashriyoti, 2024

“YOSH TURKISTON” JURNALI HAQIDA O‘YLAR...

Ey sovuq ellardan muz kiyib kelganlar
U qo‘pol tovshingiz qirlarda yo‘q bo‘lsun.
(Cho‘lpon)

“Yosh Turkiston” jurnalining 1929-yil dekabrda chop etilgan ilk soni.

Jahon tarixida Markaziy Osiyoning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti o‘zining murakkab va qarama-qarshilik jarayonlariga to‘laligi bilan ajralib turadi. Mazkur davrda yuzaga kelgan, shakllangan va 1917-yilga

kelib nazariy va amaliy jihatdan kuchli siyosiy harakatga aylangan jadidchilik g‘oyasi (جديدچلك) va ushbu faoliyat namoyondalarining hayot yo‘lini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan ham hozirgi davrda dunyodagi bir qator ilmiy tadqiqot maskanlari jumladan, Xalqaro Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti (IICAS), Indiana universitetining Ichki Osiyo va Ural xalqlari tadqiqotlar markazi, Jorj Meyson universitetining Zatero zamonaviy tadqiqotlar markazi (Zotero on Contemporary Central Asia, George Mason University), Amerika tadqiqotlari jamiyatlari kengashi (The American Counsil of Learned Societies), AQSh kongress kutubxonasi qoshidagi Jon V.Klyug nomidagi olimlar markazi, Shahobiddin Marjoniy nomidagi Tarix instituti kabi ilmiy muassasalar tomonidan Markaziy Osiyoning XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi tarixiga qator ilmiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

O‘zbekistonda ham jadidchilik harakati va taraqqiy-parvarlarning hayotini o‘rganish borasida izchil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Chunki, “Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”[1].

XX asr boshlarida yuzaga kelgan, shakllangan, turli xil to‘siqlar ichra rivojlanib borgan jadid matbuoti ham o‘zida Turkiston xalqining orzu-umidlarini, dard va alamlarini dadil ruh, baland ovoz hamda milliy manfaatlar sahnasidan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. https://president.uz/uz/lists/view/405729.12.2020. https://president.uz/uz/lists/view/4057

turib yoritishi bilan alohida ajralib turadi. Bu borada Ismoil Obidiyning “Taraqqiy”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina”, Abdulla Avloniyning “Shuhrat”, Ubaydulla Asadullaxo‘ja-yevning “Sadoyi Turkiston”, Bo‘lat Soliyevning “El bayrog‘i”, Mahmudxo‘ja Rizayevning “Hurriyat”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Kengash” kabi gazeta-jurnallari XX asr boshlaridagi Turkiston xalqining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy holatining nechog‘lik darajada bo‘lganligi to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni beradi.

Matbuot, XX asr boshlaridagi Turkiston xalqining ong va tafakkurini ochish, millatning o‘zligini tanitish yo‘lidagi xizmati bilan beqiyos ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘z davrida Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuotning millat taraqqiyoti yo‘lidagi muhim o‘rni xususan to‘xtalar ekan: “Jaridalarg‘a dunyodagi barcha yangi va eski xabar va ishlar davlatlar orasidagi robitayi ixtilof va nizo va har bir davlatni quvvati moliya va harbiya va siyosiyasi va hukumatni har kungi yangi zakon va prikaz va tartibnomalari har bir xalqni va din ahlini taraqqiy yo tanazzuli va sababi va hukumati o‘z fuqarosi to‘g‘risig‘a qilib turgan yaxshi va yomon tadbir va hokimdorligi va muddaosi har bir mamlakatni tijorat, sanoat, ziroat to‘g‘risindagi xabar va mulohazalar ulamo, hukamo va udabo tarafidan xalqqa tegishli nasihatlar hukmron va xar hil ma’mur va mansabdorlarni adli yo yojivar va zulmi va fuqarolarni bul to‘g‘ridagi arz va dodi xulosayi dunyog‘a neki kerakdur va tirikchiliqg‘a lozim bo‘ladur jarida va majallalarg‘a yozilib turar, xalqg‘a daf’i zarar va jalbi manfaat uchun yo‘l ko‘rsatib turar... Sho‘ylaki jarida oyinayi jahonnomadir”[2] deb yozganida butkul haq edi.

[2] M.Behbudiy. Gazeta nadur // Borar yo‘ling Turkistondir. – T.: “Akademnashr”. 2023. –B. 76-76.

Shu boisdan ham SSSR deb atalmish zulm imperiyasining tajovuzlari natijasida 1924-yilgacha Turkiston deb atalgan go‘zal vatanimizni tark etishga majbur bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz Germaniya, Hindiston, Misr, Turkiya va boshqa ko‘plab mamlakatlarda o‘sha davrning qudratli quroli bo‘lgan gazeta-jurnallarga asos solib, ularning sahifalarida Turkistonni ozod etishga doir chaqiriqlar bilan chiqqan edilar. Fransiyaning poytaxti Parij shahrida turkistonlik muhojirlar tomonidan chop etilgan “Yosh Turkiston” jurnali (1929-1939) ham ana shunday matbuot nashrlaridan biri edi.

Turkistonda bir necha yillar mobaynida davom etgan sovet bolsheviklari tomonidan “Bosmachilik harakati” deb nom olgan, mohiyatan milliy istiqlolchiliik harakatlari hamda “Milliy Ittihod” kabi soxta hamda uyushtirilgan jinoiy ishlar natijasida bir guruh Turkistonlik ziyolilar dastlab Afg‘onistonga undan Yevropaga chiqib ketdilar. U yerda biroz muddat istiqomat qilganlaridan so‘ng Turkiyaga ko‘chib o‘tishib, 1920-yillarning o‘rtalaridan e’tiboran bolsheviklar siyosatiga qarshi siyosiy kurashni boshlab yubordilar. Bu davrda Turkistonlik muhojirlarning ko‘zga ko‘ringan vakillari tomonidan gazeta va jurnallar tashkil qilinib, unda bolsheviklarning Turkistonda yuritayotgan genotsid xarakteriga ega bo‘lgan manfur siyosatini jahon afkor ommasiga bong urib olib chiqa boshladilar.

1917-1924-yillar mobaynida Usmon Xo‘ja (1878-1968), Mustafo Cho‘qay, Sadriddinxon Mufti Sharifxo‘jayev (1878-1946), Zakiy Validiy To‘g‘on (1890-1970), Tohir Chig’atoy (1902-1987), Abdulvahob O‘qtoy (1904-1962) va boshqalar Turkistondan tashqarida ham siyosiy faoliyatlarini olib borib, Turkiston xalqining mustaqillikka doir talablarini jahon afkor-ommasiga olib chiqish, dunyo miqyosida tarqalib ketgan Turkiston muhojirlarni o‘zaro fikr va maslak atrofida

birlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lishdi.

1920-1922-yillarda o‘rta ta’lim maktabini tamomlagan Turkistonlik yoshlar bir guruh taraqqiyparvarlarining tashabbusi bilan Baku, Moskva, Peterburg, Turkiya va Germaniyadagi turli o‘quv yurtlariga yuborildilar. Turkistonlik yoshlar o‘qishni tamomlagach yurt uchun xizmatga kirishib, keyinchalik o‘lkani ozod qilish maqsadida bir necha gazeta va jurnallar tayyorlab chop ettirdilar. “Yosh Turkiston” jurnali ana shunday nashrlardan biri edi.

Avvalo, jurnalning nomi nega “Yosh Turkiston” deb nomlanganligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tish zarur.

Bilamizki, turkistonlik jadid taraqqiyparvarlari o‘lkani iqtisodiy va siyosiy nuqtayi nazardan yetuk kadrlar bilan ta’minlash maqsadida 1919-1923-yillarda Baku, Tiflis (Tbilisi), Parij va Germaniyaga ko‘plab yoshlar o‘qishga yuborilgan edi. Ayniqsa, bu borada 1922-yilda Germaniyaga yuborilgan va keyinchalik Turkiston o‘lkasidagi bolsheviklarning qatag‘on siyosati soyasida Olmon zaminida qolishga qaror qilgan bir guruh yigit-qizlar ushbu jurnalning asoschilari bo‘ldilar. Taxmin qilish mumkinki, yuragida Turkistonning ozodlikka olib chiqish istagi yonib turgan yoshlar, jurnalga ham “Yosh Turkiston” deb nom berishganligi bejiz emas.

“Yosh Turkiston” jurnali 1929-1939-yillar orasida Parijda nashr etilgan bo‘lib[3], uning ilk soni 1929-yilning dekabr oyida chop etilgan. Ushbu jurnalning maqsadi Mustafo Cho‘qay tomonidan yozilgan “Bizning yo‘l” nomli ilk maqolada aniq va lo‘nda shaklda keltirilgan. Turkiston Muxtoriyatining sobiq bosh vaziri bo‘lmish Mustafo Cho‘qay jurnalning maqsadini

[3] Ba’zi tadqiqotlarda jurnalning chop etilgan joyi sifatida Germaniya poytaxti Berlin ko’rsatilgan bo’lsa-da, lekin jurnalning o‘zida jurnal tahririyati manzili sifatida Parij ko‘rsatilgan.

ochiqlab: *"Yangidan chiqa boshlag'on har bir siyosiy majmua va gazetaning o'quvchilariga o'z siyosiy g'oya, yo'li ham maqsadini tanitib ketish odati bordir. Qonun holiga kirib qolg'on bu odatga biz ham iyaramiz (ergashamiz – M.Alijonov). Yo'limizni anglatish uchun uzun izohlarga ehtiyoj yo'q. Yo'limiz va maqsadimiz: "Biz Turkiston istiqlolchilari elimizning erki va yurtimiz Turkistonning qurtulishi uchun kurashamiz" jumlasinda xulosa etila biladir. Turkistonliklarga bundan boshqa yo'l yo'q, bo'la olmas va bo'lmasin"* deb yozdi[4].

Haqiqatdan ham, o'n yil mobaynida "Yosh Turkiston" jurnali muhojir turkistonliklarga siyosiy hayotini davom ettirish yo'lida xizmat qildi.

Har soni o'rtacha 40 sahifali "Yosh Turkiston" jurnali bir necha bo'limdan iboratdir. Jurnalning bosh maqolalarini asosan Mustafo Cho'qay yozgan bo'lib, uning maqolalari Turkistonning o'ta dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi. Ahad Andijon ushbu jurnal haqida to'xtalar ekan: "Jurnal bilan tanisharkansiz, "Yosh Turkiston" faqatgina Turkistondagi emas, balki butun sho'ro mamlakatidagi hayotni izchil kuzatib borgani, ayniqsa, Turkiston jumhuriyatlaridagi sho'ro siyosatini o'z paytida, keng ko'lamda tanqid qila olganiga guvoh bo'lasiz" deb ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham jurnalda chop etilgan maqolalar bilan tanishar ekansiz, mualliflar "Pravda vostoka", "Qizil O'zbekiston", "Farg'ona", "Yangi Farg'ona", "Sharq haqiqati" va boshqa ko'plab Turkistonda chop etilgan gazeta-jurnallardan iqtiboslar keltirganliklariga guvoh bo'lasiz.

Jurnaldagi maqolalarni asosan uchta odam yozgan. Bular Mustafo Cho'qay, Tohir Chig'atoy va Abdulvahob O'qtoylar edi. Ular jurnal faoliyatida muhim uchlikni tashkil etgan edilar. Dastlab Mustafo Cho'qay haqida to'xtalib o'tsak.

[4] Mustafo Cho'qay. "Yosh Turkiston" jurnali 1929-yil dekabr, № 1. –B. 3-4.

MUSTAFO CHO'QAY
(1891-1941)

Mustafo Cho'qay 1891-yil 7-yanvarda To'rg'ay o'g'li Cho'qayning oilasida, Oqmasjid shahrida dunyoga kelgan[5]. Yosh Mustafo 1902-yilda Toshkentga kelib rus gimanaziyasiga o'qishga kirib uni 1910-yilda eng a'lochi bitiruvchilardan biri sifatida tamomlagan. Turkiston general gubernatorining tarjimonlik bo'yicha taklifini rad etgan Mustafo Cho'qay, Sankt-Peterburg universitetining huquqshunoslik fakultetida o'qishni davom ettirdi. Iqtidorli qahramonimiz 1914-yilda huquqshunoslik fakultetini muvaffaqiyatli tamomlab, 1917-yil aprelda Orenburgga keladi. Mustafo Cho'qay Peterburgdan Orenburgga qarab kelar ekan, u turkistonliklarning mustamlakachi hukumat qo'li ostida naqadar xo'rlanayotganligini, huquqsiz qoldirilganligini o'z ko'zi bilan ko'rdi va bu hodisalar kelgusida Mustafo Cho'qayning zehniyatida ulkan evrilishga olib keldi: "Men Peterburgdan Orenburg tomon ketib borayotganimda yo'lda Penza shahrida o'z turkistonliklarimizga duch kelib qoldim. Bu yerda Turkiston ishchilari bilan to'lgan o'nlarcha vagonlar bir chetga chiqarib tashlangan ekanlar. Belgilangan yerga yetisha olmay qoldirib ketilgan, unutilgan turkistonliklar o'zlari ham nima qilishlarini bilmay o'tirar edilar. Bu bechoralarning holi oqibatlaridan xabar oladigan bir kishi ham yo'q. Shu tarzda unutilgan turkistonliklar nima qilishlarini bilmay nochor ahvolda qolgan edilar...Nihoyat, o'zim borib ishchi askar

[5] H.Oraltay. Alaş-Türkistan Türklerinin Milli Istiqlal Parolasi. – Istanbul: 1973. –S.75.

sho‘rosi boshliqlari va viloyat komissari bilan qisqagina bir majlisda bo‘lib, ishchilarni Turkistonga qaytarib yuborish qarorini chiqartirdim”[6]. Bu hol shubhasiz mustamlakachi hukumatga nisbatan Mustafo Cho‘qayning qalbida cheksiz nafrat va kurash tuyg‘usini alangalatgani aniq.

1917-yildagi oktyabr inqilobidan keyin bolsheviklar kuchayishi bilan Turkiston musulmonlarining Toshkentdagi siyosiy faoliyati tugatilgach Qo‘qonda O‘rta Osiyo turklari tarixidagi birinchi zamonaviy davlat tuzilmasi Turkiston Muxtoriyati e’lon qilindi. Tashkil etilgan hukumatda Mustafo Cho‘qay avval tashqi ishlar vaziri, keyin esa bosh vazir lavozimlarida faoliyat olib bordi. Alohida qayd etish kerakki, Mustafo Cho‘qayning Qo‘qon Muxtoriyati davridagi faoliyati juda ham murakkabliklar ichida kechdi. Chunki, bolsheviklar hukumati Muxtoriyatni rivojlantirishga, jumladan uni qurol bilan o‘zini ta’minlashiga mutlaqo imkon qoldirmadi. O‘sha yillarning murakkabliklari to‘g‘risida Mustafo Cho‘qayning o‘zi “Turkistonda u vaqt dahshatli ochliq hukm surmakda edi. Mamlakatimizga g‘alla yetkazib turgan temiryo‘llar butunlay rus askar hukumati va rus ishchilari qo‘lida edi. Butun Turkistonda harbiy qurol ishlata oladigan bir nafar ham kishi yo‘q edi. Bu og‘irliqlar bir tarafda tursin, mamlakat uchun eng muhim bo‘lg‘on davlat boshqaruvi shakli masalasi ustida turkistonliklarning o‘z oralarida yakdil birlik yo‘q edi”[7] deb ta’kidlagan edi.

1918-yilning fevralida Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgach Mustafo Cho‘qay Orenburg, Mang‘ishloq, Boku va Tbilisi shaharlarida bolsheviklar hukmronligiga qarshi siyosiy faoliyatini davom ettiradi. Biroq, bu shaharlar ham birin-ketin bolsheviklar qo‘liga o‘tgach (1921-yilning mart

[6] M.Cho‘qay. Istiqlol jallodlari. –T.: “Tirilish nashriyoti”. –B. 16.
[7] M.Cho‘qay. “Yosh Turkiston” jurnali. 1932-yil yanvar. – №. 26. –B. 5.

oyida) Rossiyani tark etib Istanbulga boradi. Lekin, Istanbulda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lolmagach, u yerda bir necha oy qolib xotini bilan Parijga ko‘chib ketadi.

Mustafo Cho‘qay turmush o‘rtog‘i Mariya bilan (1921-yil Istanbul)

Mustafo Cho‘qay 1929-yilning dekabr oyida “Yosh Turkiston” jurnalining ilk sonini aynan Parij shahrida tayyorlab nashr ettiradi.

Mustafo Cho‘qay jurnal muqovasida aks etgan “Yosh Turkiston” yozuvi ostiga “Turkiston milliy istiqlol fikriga xizmat etuvchi oyliq majmuadir” so‘zlarini yozgan. Mustafo Cho‘qay 1929-1939-yillar oralig‘ida ushbu jurnalning jami bo‘lib 117 sonini nashr etishga muvaffaq bo‘ldi.

Siyosiy kurashda matbuotning ulkan kuchiga ishongan Mustafo Cho‘qay “Yosh Turkiston” jurnali va boshqa jurnallarda jami bo‘lib 700 dan ortiq maqolalar e’lon qilgan. Jurnalda eng ko‘p maqola yozgan muallif Mustafo Cho‘qay bo‘lib, uning 230 ta maqolasi nashr etilgan. Bu borada u yaqqol peshqadam

hisoblanadi. Mustafo Cho‘qay o‘z maqolalarini “M”, “M.Ch”, “Ch.M”, “Mustafo” va “Ch” kabi imzolar bilan e’lon qilgan[8].

Mustafo Cho‘qayning “Yosh Turkiston” jurnalida chop etilgan maqolalariga nazar tashlasak, unda XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va falsafiy muammolari teran fikrlar va tanqid asosida mushtariylarning diqqat e’tibor markaziga olib chiqilganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, u tarixning mohiyati haqida to‘xtalar ekan, uni yozishda muarrix adolatli bo‘lish kerakligini, tarixdagi voqea va hodisalarga doimo xolislik nuqtayi nazaridan turib baho berish shartligini ta’kidlaydi. Jumladan u: “Tarix yozishning ikki yo‘li bor. Birinchi yo‘l: muarrix haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealarni diqqat bilan to‘playdir, ularni jarayon etdiklari zamonning sharoit va vaziyatiga qarab tekshiradir, ma’lumot va istihborot manbalarini sinchkovlik bilan tekshiradir, to‘plag‘on ma’lumotini o‘zining ilmiy vijdoni tarozisida tortadir va ma’lumotg‘a betaraf (obyektiv) bir qiymat berib ularni tahlil (analiz) etadir. Ilmiy tarix, so‘zning haqiqiy ma’nosi bilan, mana shu usul ila yoziladir.

Ikkinchi yo‘l: Muarrix istagan natijasini avvaldan belgilab oladi-da u natijaga ko‘ra voqealarni tahlil qiladi, hatto maqsadi ro‘yobga chiqqan taqdirda, voqealar o‘ylab ham topadi, shoyon ishonchligi emasligi oshkor bo‘lg‘on manbalardan iste’foda etadi. Bunday bir tarixchi yozuvchida betarafona ilmiy tahlil o‘rniga faqat firqa yolg‘oni hukm suradi. Sovetlar idorasi ostidag‘i xalqlarning milliy harakatlari haqida yozuvchi bolshevik muarrixlar bu ikkinchi qism muarrixlaridir”[9] deb yozgan holda, bolsheviklar tarixni yozishda o‘ta noxolislikka

[8] Tülay Köseoğlu. Sovyetler’in Türkistan’i Dönüştürme Siyasetine Muhalefet: Yaş Türkistan Dergisi (1929-1939). Doktora Tezi. – İstanbul: 2014. –S. 136.

[9] M.Cho‘qay. “Yosh Turkiston” jurnali. 1931-yil dekabr. – №. 25. – B. 4-11.

yo‘l qo‘yayotganliklarini hamda tarix ularning qo‘lida sinfiy kurash quroliga aylantirilganligini qat’iy turib ta’kidlaydi.

Mustafo Cho‘qay “Yosh Turkiston” jurnalining 1931-yilgi 18-sonida chop etilgan maqolasida “Milliy ziyoli deganda kimni tushunish kerak?” degan savolni o‘rtaga tashlab, bu mavzuda atroflicha o‘zining mulohazalarini bildirgan. Mustafo Cho‘qayning fikricha, har bir tahsil ko‘rgan odamni ziyoli deyish to‘g‘ri emas. Balki “...gazeta orqasidan yurgan, aniq va yalpi g’oya tevaragida to‘plang‘on o‘qimishlilarnigina ziyoli...”[10] deb atash mumkin. Shu bilan birga u milliy ziyolilar qatlamiga o‘z xalqining siyosiy, ijtimoiy va ruhoniy yo‘lida xizmat etayotgan ziyolilarnigina kiritish mumkin deb hisoblagan.

Mustafo Cho‘qay Turkistonning milliy manfaatlari yo‘lida taraqqiyparvarlar bilan birgalikda kurash olib bordi, maslakdoshlarining yutuqlaridan sevindi, keyinchalik ularning aksariyati g‘addor sovet qatag‘on mashinasi tomonidan yanchib tashlangach, butun vujudi o‘t bo‘lib yondi, cheksiz g‘am va anduh Mustafoning qalbini butkul chulg‘ab oldi. U tomonidan yozilgan quyidagi so‘zlar ana shu g’am-anduhning nechog‘lik og‘ir ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi: “Qadarning og‘ir zarbalarig‘a biz anchag‘ina sovuqqonliq ila chidashqa o‘rganishib qolg‘on edik. Vatanimiz qizil jallodlarining qonli diktaturasi ostida... Turkistonda bu kun, Moskov diktaturasina qurbon tushgan bir yo bir necha yaqini uchun qalbida, ruhida motam tutmag‘on bir oila yo‘qdir. Asablar ham hissizlashib qolg‘on va umumiy milliy fojiamizning so‘ngsiz teranligi ichinda, hatto eng yaqin odamlarimizning-da ziyoyi sezilmay o‘tib ketaturg‘on bo‘lib qolg‘on edi. Faqat, ba’zi ziyolilarda bordirki, bundan og‘ir fojialar ichindada

[10] M.Cho‘qay. “Yosh Turkiston” jurnali. 1931-yil may. – №. 18. – B. 4-11.

insonning yuragini olovlantirib dahshatli yaralar ochadir… Inson bu ziyolilar haqinda xabar olg‘oni zamon asablar yangidan avvalgi hassosligini kesib ketadir va butun fojialarni yangidan yashamoqqa boshlaydir… Mana shunday holni biz hozir yashab turibmiz”.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1931-yilda “Milliy ittihod” ishi doirasida qamoqqa olinib, keyinchalik Moskvada otib tashlangach, bu to‘g‘rida o‘ziga yetib kelgan xabarga Mustafo Cho‘qay dastlab ishonmadi, aniqrog‘i ishona olmadi: “Xususiy muxbirimiz uzoq Hindistondan bizga Munavvarqorining Sovet hukumati tomonidan otib o‘ldirilganligi haqinda qisqacha bir xabar yo‘llamishdir. Bu xabar bizga dekabr oyining boshlarida kelib yetushgan esa-da, shoyad to‘g‘ri chiqmas deb ko‘nglimizda saqladig‘imiz umid ila qo‘shimcha ma’lumot kutib turg‘on edik. Biz Sovet hukumatining umuman milliy ruhga, xususan turkchilikka qarshi ko‘rinishda hech bir jinoyatdan tortinmayoturg‘onlig‘ini juda yaxshi bilamiz. Buningla barobar biz Munavvardan xayolanda ayrila olmadik. Faqat, birinchi xabarni tasdiqlayturg‘on ikkinchi bir maktub ham yetib keldi… Munavvarqori Sovet hukumati tomonidan qatl etilgan”[11].

Mustafo Cho‘qay Munavvarqorini bolsheviklari nega o‘ldirganliklari to‘g‘risidagi savolga javob izlab o‘tirishning hojati yo‘qligini, javob shundoq ham aniq ekanligini urg‘ulab, bu buyuk siymoning o‘ldirilishining birgina sababi “Munavvar” shaxsiyat ekanligidaligini ta’kidladi. Haqiqatdan ham Munavvarqori Turkistonda milliy davlatchilik g‘oyasining eng matonatli, sabotli va eng nomusli targ‘ibotchilaridan biri edi

[11] M. Cho‘qay. “Yosh Turkiston” jurnali. 1934-yil yanvar. – №. 50. –B. 2-3.

Mustafo Cho‘qay “Endi mening qurolim so‘zdir” degan aqidasiga butun umr sodiq qolgan holda, mafkura olamidagi kurashini Fransiyada o‘n besh yil mobaynida davom ettirdi. Biroq, II jahon urushida Germaniya tomonidan Fransiya bosib olingach ko‘plab insonlar kabi Mustafo Cho‘qay ham qamoqqa olinadi. Jazoni o‘tash davrida yuqtirib olingan sil kasalligi, garchi u qamoqdan tez fursatda ozod etilgan bo‘lsa ham, uning sog‘ligida o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Davlat va jamoat arbobi, noshir va jurnalist, Turkiston xalqining asl farzandlaridan biri bo‘lmish Mustafo Cho‘qay 1941-yilning 27-dekabrda Berlindagi kasalxonada vafot etdi.

TOHIR CHIG‘ATOY
(1902-1987)

Jadid taraqqiyparvarlarining kenja avlodi bo‘lgan Shokir Sulaymon “Turkiston” gazetasining 1923-yilgi sonlaridan birida “Uchqun” nomli she’rini e’lon qilgan. Unda muallif Germaniyaga o‘qishga yuborilgan o‘quvchilarni uchqunga o‘xshatib, ular bir kun kelib vatanga yorug‘ nur bo‘lgan holda qaytishiga, jaholat, ilmsizlik soyasi ostida zulmatga cho‘mgan Turkiston zaminini qaytadan yoritishiga umid bildirgan edi. Ana shu “uchqun”larning ichida Tohir Shokir (Chig‘atoy) ham bor edi.

Tohir Shokir (Chig‘atoy) 1902-yilning 27-mart sanasida Toshkentda tug‘ilgan. Uning otasi Shokir hoji Roziqboy o‘g‘li Toshkentdagi obro‘li xonadon sohiblaridan biri edi.

Yosh Tohir ilk tahsilni Toshkentdagi yangi usul maktabida olgach, keyinchalik rus-tuzem maktabida o‘qishni davom ettirdi. Tohir tahsil olish davomida Istanbulga borib o‘qishni

istayotgan bo‘lsa-da, biroq shart-sharoitlar taqozosi o‘laroq Ufa shahridagi Madrasayi-oliyaga borib ilm olishni davom ettirdi. Ufadagi tahsil davomida ham yosh va g‘ayratli Tohirning qalbida Istanbulga borib o‘qish istagi hamon olovlanib turar edi. Shu maqsadiga erishish yo‘lida u 1917-yilda Ozarbayjonga borib Turkiyaning Bakudagi elchisi bo‘lmish Mamduh Shavkat Asandalga uchrashadi. Tohir Bakuda tahsil olayotgan yillarda ushbu elchi janoblari bilan yaqindan aloqa o‘rnatgan, elchi ham uning ilm yo‘lidagi tirishqoqligi sabab Tohirni o‘z bolasidek yaxshi ko‘rib qolgan edi. Tohir o‘zining Istanbulga borib o‘qish istagini bildirgach, Mamduh Shavkat unga Istanbuldan ko‘ra Yevropaga borib o‘qishni maslahat beradi. Tohir Chig‘atoy keyinchalik o‘z xotiralarida bu to‘g‘rida eslar ekan: “U (ya’ni elchi Mamduh Shavkat – M.Alijonov) doimo menga “O‘g‘lim, sen Istanbulga borib bekor qilgan bo‘lasan. Istanbulning bugungi holi ishga yaramas. Sen yo‘lini topib Ovro‘paga ket” deya nasihat qilardi” deb yozgan.

Tohir Chig‘atoy bir nechta do‘stlari bilan Idil-Ural mintaqasining Ufa shahridagi Oliya madrasasida bir yilcha tahsil olsa-da, bir tarafdan iqlimning noqulayligi, ikkinchi tomondan moddiy qiyinchiliklar sabab o‘qishni davom ettira olmasdan, Bakuga yo‘l oladi. Unga bu safarda Abdulvahob O‘qtoy va Sobir Turkistonli hamrohlik qiladi.

Tohir Chig‘atoy 1921-yilgacha Ozarbayjonda o‘qish bilan birga, bakulik taraqqiyparvarlarning milliy harakatlarida faol ishtirok etadi, yig‘in hamda majlislarda qatnashadi.

1921-yilda Ozarbayjondan Toshkentga qaytgan Tohir Chig‘atoy necha yillardan beri Ovro‘pada o‘qish istagining ro‘yobi ustidan chiqadi. Nega deganda, ayni shu paytda Turkistonlik talabalarni Germaniyaga o‘qishga yuborishga doir da’vatlar boshlangan, ayniqsa Buxoro bu borada faol ish olib borayotgan paytlar edi. 1922-yilning kuzida Buxorodan

Germaniyaga 70 ga yaqin talaba yuborilib, yosh Tohir ham ularga ergashgan holda Germaniyaga yo‘l oladi. Keyinchalik, Tohir Chig‘atoyning rafiqasi Saodat Chig‘atoy turmush o‘rtog‘ini o‘zining sarf-xarajati bilan Germaniyaga o‘qishga ketganini yozgan[12]. Boshqa bir ma’lumotga ko‘ra esa, Tohir Chig‘atoyni Germaniyaga o‘qishga yuborishga o‘sha paytlarda Turkiston o‘lkasida bosqinchi bolsheviklarga qarshi milliy istiqlolchilik harakatlarini olib borayotgan Anvar Poshsho homiylik qilgan.

Tohir Germaniyaga kelgach bu yerda bir muddat nemis tilini o‘rganadi, bu masalada unda ushbu mamlakatda orttirgan Sombart va Bernhard ismli do‘stlari katta yordam beradi.

Tohir Chig‘atoy nemis tilini puxta o‘zlashtirgach dastlab Berlin universitetida, keyin esa Heydelbergdagi Ruprext-Karls universitetining Falsafa fakultetida o‘qiydi hamda doktor Philning ilmiy rahbarligi ostida oliy ta’limni tugatadi.

Tohir Chig‘atoy dastlab Berlinda Geh Shumaher, professorlar Sumbart, Bernhard, Dessoir, Dietze kabi olimlardan ilm o‘rgangan bo‘lsa, Heydelbergda esa A.Veber, Brinkman, Lederer, Altman, Gumbel, Salin, Sommerfeld, Ekkard, Manheyim, Salz, Bergstrasser kabi olimlarning ma’ruzalarini tingladi. Ushbu olimlarning ichida professor Lederer Tohirning kelgusida yetuk sotsiolog olim bo‘lib yetishishida katta hissa qo‘shgan bo‘lib, u universitetda talabalarga dars berish bilan birga, ayni paytda Vashington shahridagi Sotsiologiya institutining direktori sifatida ham faoliyat olib borar edi.

Bundan tashqari Tohir Chig‘atoy huquqshunoslik ilmiga qattiq mehr qo‘ygan bo‘lib, bu fanni o‘zlashtirish yo‘lida u professorlar Tomas, Jellinek, Heinsheymer, Perels, Gailer

[12] Hakan Torun. Tahir Çağatay’ın hayatı ve faalietleri. - S. 7.

kabi olimlardan dars olgan. Shuningdek, u falsafa borasidagi ilmlarni Geh Rikkert, Jaspers, Hoffman, Bubnoff, Faus kabi olimlardan o‘zlashtirgan.



Chapdan: Tohir Chig‘atoy, Mustafo Cho‘qay va Abdulvahob O‘qtoy.

XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlab Germaniyada tahsil olayotgan talabalarni Turkistonga qaytarish vazifasi faol tarzda amalga oshirila boshlandi. Natijada 1927-yilning yozgi ta’til vaqtida yurtga qaytgan Solih Muhammad va Nasriddin Sherahmad qayta Germaniyaga qo‘yib yuborilmadi. Hatto, bunga chiday olmagan Nasriddin Sherahmad o‘z joniga qasd qiladi va tasodifan o‘lmay qoladi[13].

Bolsheviklar tomonidan vatanda olib borilayotgan ushbu xatti-harakatlar kelgusida avj olishi aniq bo‘lgan qatag‘on siyosatiga ulanib ketishini oldindan his qilgan Fayzulla Xo‘jayev, Germaniyaga maktub yo‘llagan holda, talabalarni qolganini qanday qilib bo‘lsa ham o‘qishni bitirishga va

[13] Sh. Turdiyev. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. –T.: Akadem-xizmat. – B. 18.

yurtga qaytib kelmaslikka buyurdi. Tohir Chig‘atoy ham mavjud vaziyatni chuqur his qilgan holda Berlinda qolishga qaror qiladi hamda tahsilni davom ettirgan holda, keyinchalik Turkistonning iqtisodiyoti va sotsiologiyasi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi.

Tohir Chig‘atoy 1932-yilda Berlinda istiqomat qilayotgan qozonlik tatar taraqqiyparvari, gazetachi va siyosat arbobi Muhammad Ayoz Is’hoqiyning qizi Saodat bilan turmush quradi. Qayd etish lozimki, Saodat Chig‘atoy ham kelgusida yetuk olima sifatida nom qozondi.

Tohir va Saodat Chig‘atoy (1932-yil).

Tohir Chig‘atoy chuqur ilmiy faoliyat olib borgan holda “Turkiston paxta xo‘jaligi (Berlin, 1934-yil), “Turkiston milliy adabiyoti va adiblar fojiasiga doir” (Berlin, 1934-yil), “Turkiston milliy harakati va Mustafo Cho‘qay” (Istanbul, 1950-yil), “Turkistonga doir doir ba’zi jarayonlar haqida qarashlarimiz” (Istanbul, 1952-yil), “Qizil imperalizm” (Istanbul, 1958-yil) va boshqa shular kabi qator asarlarni yaratdi.

O‘z paytida Tohir Chig‘atoyning maslakdoshi va dard-doshi Abdulvahob O‘qtoy u to‘g‘risida quyidagilarni yozgan edi: “Doktor Tohir Shokirbek yigitlikning eng qizg‘in chog‘ini o‘z yurti va xalqining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy turmushiga sarf etib yurgan g‘ayratli yoshlarimizdan biridir. Essizki, uning maslagi orqasindan ketish bir qancha Turkiston yoshlarig‘a muyassar bo‘lmag‘on. Ovro‘pada falsafa va iqtisodiyot bo‘yicha tahsil etmakchi bo‘lg‘on Turkiston yoshlari to 1922-yildayoq Sovet hukumatining rahmsiz hujum va tadbirlariga giriftor qiling‘onlar. Biz Tohir Shokirbek tug‘onimizni muvaffaqiyatli odimlari bilan olqishlarkanmiz undan yanada buyuk vazifalar kutamiz”.

Ayniqsa, Tohir Chig‘atoyning Berlinda turkistonlik talabalar va muhojirlar tomonidan tashkil etilgan “Yosh Turkiston” jurnalidagi faoliyati ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U ushbu jurnal sahifalarida “Bir Turkistonlik”, “Chig‘atoy”, “Eson Tursun”, “Tohir Shokir”, “Toshbolta”, “Temur o‘g‘li” kabi taxalluslar ostida maqolalar e’lon qildi. Shu bilan birga tadqiqotchi Hoqon Torun, “Oltoy No‘yon”, “Yosh turkistonlik”, “Turkiston istiqlolchisi”, “M.N.”, “N.M.”, “Boysung‘ur”, “Bilgin”, “Otkeltir”, “Turkistonlik turk” kabi taxalluslarni ham Tohir Chig‘atoyga oid ekanligini qayd etib o‘tgan[14].

Tohir Chig‘atoy “Yosh Turkiston” jurnalida “Turkistonda maktab siyosati”, “Hindiston-Turkiston”, “Turkistonda Rusiyaga qarshi isyonlar”, “Unutilmas tarixiy vahshiylik”, “Andijon qo‘zg‘oloni haqida”, “Turkistonda 1916-yil isyoni”, “Turkistondagi yer osti boyliklari”, “Turkistondagi sovet matbuotiga bir qarash”, “Turkistonda ochlik”, “Turkistonda maorif ishlari” va boshqa shular kabi qator maqolalarni e’lon qildi.

[14] Hakan Torun. Tahir Çağatay’ın hayatı ve faalietleri. - S. 50.

Jumladan, u o‘zining “Turkistonning yer osti boyliqlari” nomli maqolasida o‘lkaning nihoyatda boy konlarga hamda ma’danlarga ega ekanligi qayd etib: “Turkistonning ko‘p tog‘larida vulqoniy toshlar ko‘p uchratilgani sababli u tog‘larning ma’danlarga boy bo‘lishi kutilgan bir hol edi. To eski zamonlarda Turkistonda oltin ham tosh-tuz konlaridan heyli miqdorda oltun va tuz chiqorilg‘oni tarix ila isbotdir. Samarqanddan o‘tadirgan nahrning (daryo – M.Alijonov) “Zarafshon” (oltin sochuvchi atalashida kechmishda uning xususida oltin koni bor bo‘lg‘ondan bo‘lsa kerak. Faqat, o‘tmishda u konlar yerli aholi tarafidan ibtidoiy usullar ila ishlatilgandir)” deb yozdi.

Shu bilan birga Tohir Chig‘atoy ushbu maqolasida konlarning o‘rganilishiga doir muhim tarixiy ma’lumotlarni ham keltirib o‘tgan. Xususan muallif: “Turkiston yer osti boyliqlarining ilmiy tadqiqi XIX asrning 80-yillaridan e’tiboran, Mushkatov ismli tekshiruvchining sayohatlari ila boshlangan. Bu olim Turkistonni tekshirib ko‘rar ekan ko‘mir va yer moyi (neft) konlarini axtarar edi. Mushkatovdan keyin bir qancha rus va ovro‘palik olimlar va sayyohlar ham Turkistonda fanniy tadqiqotlarni olib bordilar. To‘plagan ma’lumotlari asosida bir qancha asarlarni ham yozdilar. Hozirg‘acha olib borilg‘on tekshirishlarning natijasi va to‘plang‘on ma’lumotlar Turkistonda mana shu ma’danlarning konlari bor ekanligini ko‘rsatadir: oltin, tirik kumush (simob), boqir, to‘tiyo, kumush, qo‘rg‘oshin, temir, mang‘on, surma, mis, toshko‘mir, yemak tuzi, gugurt, achchig‘ tosh, neft…” deb ta’kidlagan holda, ushbu yer osti boyliklaridan Turkiston xalqi hech bir manfaat ko‘rmayotganligini afsus bilan qayd etib, o‘z maqolasini quyidagi alamli jumlalar bilan tugatgan:

"Essiz, bu boyliqlar va boshqa boyliqlar ham bugungacha ayniqsa Rusiyaning obodligʻi va ruslarning rohati uchun (Turkistonning) bagʻrindan qazib chiqarilmoqdadir"[15].

Shu bilan birga Tohir Chigʻatoyning "Yoʻlboshchimiz Munavvarqori" nomli maqolasi ham muhim ahamiyatga egadir. Chigʻatoyning ushbu maqolasi "Yosh Turkiston" jurnalining 1934-yil 50-sonida chop etilgan boʻlib, unda muallif Turkiston jadidlarining yetakchilaridan biri boʻlgan Munavvarqorining oʻlka taraqqiyparvarlik harakatida tutgan oʻrni toʻgʻrisida mulohazalar yuritgan. Ushbu maqolada Tohir Chigʻatoy: "Turkiston xalqi ichidagi yangi uygʻonish harakatining har tarmogʻini tekshira boshlasangiz unga Munavvarqorining ismisiz kirib boʻlmaydir. Xalqimizning kirib qoldigʻi falokatini, bu falokat yoʻlining xatarlarini toʻgʻri koʻrib, unga qarshi choralarni qidira boshlagʻon kishi Munavvarqori edi. Ichida boʻlib turdigʻimiz asrning boshlarida yurtimizgʻa kirib kela boshlagʻon "Usuli-jadid" maktablarining haqiqiy shaklini Munavvaqori maydongʻa qoʻydi. U hech bir vositasiz boshladigʻi bu ishni xoh rus hukumati, xoh mutaassiblar tomonidan koʻrsatilgan qarshiliqlar, ogʻirliq, haqorat, yegan tayoqlarigʻa qaramasdan davom ettirdi. U oʻz matonati, oʻz eʼtiqodi orqasinda oz vaqt ichida bu oqimni (jadidchilikni – M.Alijonov) yoqlovchi bir xalqni va uni qalbida tashuvchi yoshlar dastasini yetishtira bildi… Toshkentdagi Munavvaqorining oʻzi tarafidan idora etilgan ibtidoiy, rushdiy namuna maktabi boshida boʻlgʻoni holda yildan yilgʻa ortib mamlakatning har tarafina yoyilgʻon jadid maktablari bir tarafdan eski maktablar, ikkinchi tomondan hukumatning yerli xalq uchun tashkil qilgan maktablarga qarshi bir tahlika shaklini olmishdir" deb yozish bilan birga,

[15] Chigʻatoy. "Yosh Turkiston" jurnali. 1931-yil may. – №. 18. – B. 21.

yangi usul maktablari uchun Munavvarqorining oʻzi darsliklar tuzganligini yozdi.

Tohir Chigʻatoyning "Istilo timsoli" nomli maqolasi ham muhim va dolzarb mulohazalarni oʻzida jamlaganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Unda muallif, Turkiston shaharlarining koʻpchiligida baʼzi eski tarixiy binolar xususan madrasalar buzilib, oʻrnida qizil maydonlar qurilganligini, Leninning koʻplab haykallari tiklanganligini tanqid qiladi. Tohir Chigʻatoy Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan bu ishlar bekorga qilinmayotganligini uqtirgan holda, Turkiston zaminida qizil maydonlar va Lenin haykallarining turishi millatning tafakkurida qullik sindromining yanada chuqurroq singishiga olib kelishini urgʻulaydi. Tohir Chigʻatoy: "*Toshkentda Leninning Sovetlar ittifoqining hech bir yerida qiyosi boʻlmagan eng yuksak bir haykalini qoʻymoq haqinda qaror chiqarildi va oʻtgan yil (1936-yil nazarda tutilmoqda – (M.Alijonov) sentyabr oyining 17-sanasidan boshlab hukumat binosigʻa yaqin qizil maydonda haykal qoʻyuv hozirligʻina kirishildi. Toshkentda qoʻyilmoqchi boʻlgʻon Lenin haykali loyihasi Moskov haykaltaroshlaridan Kruliyuf tarafindan tuzilmishdir. Loyiha boʻyicha yuksakligi 12 metr boʻlishi koʻzda tutilgʻon edi. Biroq Lenin nomi Toshkentda "Lain" (Iblis, shayton – M.Alijonov) shaklida aytilar edi*" deb yozib, bunday haykallar toshkentlik "qizil afandilar" aytgandek oʻzbek xalqiga ilhom bagʻishlamasdan, aksincha xalqda bolsheviklarga nisbatan maʼnaviy qaramlikni kuchaytirishini urgʻulagan.

Ayniqsa uning sheʼr mulkining sultoni Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan "Turkiston milliy mafkurasi va Alisher Navoiy" asari muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi.



"Turkiston milliy mafkurasi va Alisher Navoiy" asari, 1939-yil

Tohir Chig'atoy shubhasiz, Alisher Navoiyning asl muxlisi, muhibi edi. Uning ushbu asari shubhasiz shoir va mutaffakirning hayoti va faoliyati bo'yicha muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Dastlab, muallif ushbu asarida Alisher Navoiyning tarimayi holini bayon qilib, uning yoshligidanoq ulkan iste'dod sohibi ekanligini qayd etadi: "Alisher Navoiy 844-hijriy yilda Hirotda dunyog'a kelmishdir. Otasi kichik Bahodir Xuroson hukmdori Sulton Abulqosim Bobur yonida muhim bir ma'muriyatda edi. Bu suvratla yosh chog'indayoq saroy ahlina hatto Sulton Boburning o'ziga ma'lum bo'lg'on Alisher maktab hayotini mustaqil Xuroson hokimi Sulton Husayn Boyqaro bilan birga kechirmishdir. Hatto, Sulton Husayn bilan Alisher orasinda shu bola chog'laridayoq bir-birina yordamda bo'lmoq ustida ahdu-paymon yasalg'onlig'i hikoyat qilanadir. U bu jihatdan yolg'iz oilasi doirasidagina

emas, hatto shaxsan sultonning taqdirlovlariga sazovor bo'la boshlag'on edi. Shaxsan milliy adabiyotimizning muhim bir siymosi sanalg'on Sulton Abulqosim Bobur yosh Alisherning milliy iste'dodini tezgina kashf etmish va uni har turli yo'llar bilan qo'llab-quvvatlay boshlamishdir".

Tohir Chig'atoyning ushbu asarini mutolaa qilib amin bo'lish mumkinki, muallif uchun Alisher Navoiyning ijodiy va ilmiy merosini o'rganish, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy turmushining negizini tashkil etadi, shu boisdan ham u o'zbek xalqini Navoiyni o'rganishga, har narsadan avval ushbu masalani o'z o'rniga qo'yishga da'vat etadi.

II jahon urushi boshlangach 1939-yilda Berlindan Turkiyaga oilasi bilan birga ko'chib o'tgan Tohir Chig'atoy bir muddat ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi. 1948-yildan boshlab Anqara universitetida til, tarix va geografiya fakultetida sotsiologiyadan ma'ruzalar o'qidi. Uning ilm-fan sohasidagi ishlari e'tirof etilib, Tohir Chig'atoyga 1953-yilda dotsent, 1962-yilda professor ilmiy unvonlari berildi.

Tohir Chig'atoy haqida akademik Ergash Fozilovning quyidagi xotiralari ayniqsa diqqatga sazovor: "Men 1969-yili Anqarada bo'lib o'tgan xalqaro turkiyshunoslar kongressida professor Tohir Chig'atoy, uning rafiqasi mashhur tilshunos olima Saodat Chig'atoy va professor Ibrohim Yorqinlar bilan birinchi bor uchrashdim. O'shanda men u yerda "XI-XIV asrlardagi turkiy yozma yodgorliklar tilining tasnifiga doir" degan mavzuda ma'ruza qildim. Ma'ruzamdan so'ng oldimga professor Tohir Chig'atoy va uning rafiqasi Saodatxonim Chig'atoylar birinchi bo'lib kelib tabriklashdi va ular ko'zlariga yosh olib, o'zlarining birinchi bor o'zbek olimi bilan uchrashayotganlaridan xursandliklarini izhor qildilar, uylariga mehmonga taklif etdilar. O'sha konferensiyada Tohir Chig'atoy ham, Ibrohim Yorqin ham o'zlarining asl toshkentlik bo'lib,

20-yillarning boshlarida Buxoro va Turkiston respublikalari rahbarlari tomonidan Germaniyaga o‘qishga yuborilganlari, lekin keyinchalik o‘qishni bitirib, u yerdan vatanlariga qaytgan do‘stlarining qatag‘on qilinganlarini eshitib, O‘zbekistonga qaytishdan qo‘rqib, xorijda qolib ketganliklari, hozir esa Toshkentda qavm-qarindoshlari bo‘lishiga qaramay, hamon bu yerda o‘zlarining hayot ekanliklari haqida xabar yetkazishni va salomlarini topshirishlarini so‘radilar. Men O‘zbekistonga kelgach, ularning qarindoshlarini topib, Tohir Chig‘atoy va Ibrohim Yorqinlarning Turkiyada hayot ekanliklari xabarini yetkazgan va sog‘inchli salomlarini ham topshirgan edim”[16]
Ergash Fozilov 1972-1979-yillarda ham Turkiyaga borgan paytda Tohir Chig‘atoyning uyida mehmon bo‘ladi. E’tiborli jihati shundaki, 1979-yilgi Chig‘atoylar xonadoniga qilingan tashrifdan so‘ng, Ergash Fozilovga Turkiyadagi Sovet elchixonasi rahbari tomonidan dakki ham beriladi. Tasavvur qilyapsizmi, hatto o‘tgan asrning 80-yillariga kelib ham, ustiga-ustak SSSR degan zulm saltanati chok-chokidan so‘kilib ketayotgan bir davrda ham Germaniyada tahsil olgan talabalar to‘g‘risida gapirish, ularning hayoti va faoliyatiga qat’iyan taqiqlangan edi.

XVIII asrda yashab o‘tgan fransuz notig‘i va siyosatchisi Jorj Jak Danton o‘z qaydlarida “Siz oyoq kiyimingiz tagida vatanni olib ketolmaysiz” deb yozgan edi. Biroq, Tohir Chig‘atoy o‘z yuragida vatanni olib keta olishni uddalay oldi. Buni esa u xorijda o‘tgan butun hayoti davomida, ayniqsa “Yosh Turkiston” jurnalidagi faoliyati bilan isbotlay bildi. Tohir Chig‘atoy 1987-yil 27-iyunda Bursada vafot etgan.

[16] Sh. Turdiyev. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. –T.: Akadem-xizmat. – B. 156-157.

ABDULVAHOB O‘QTOY
(1904-1962)

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Turkiston tobora globallashib, rivojlanib borayotgan Yevropa taraqqiyoti va sanoatidan ortda qola boshladi. Natijada, o‘lkada an’anaviy musulmon ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, Yevropa ilm-fanini o‘rganish va amaliyotga joriy etish to‘g‘risida bong uruvchi ziyoli taraqqiyparvarlar guruhi shakllandi. Jadid taraqqiyparvarlari Turkistonda oliy ta’lim muassasalarining yo‘qligi va bu borada amaliy tajriba ham pastligi sabab yoshlarni chet ellarda o‘qitish, ayniqsa, Yevropa ilm-fani yutuqlari bilan yoshlarni yaqindan tanishtirish orqali Turkistonni erk va ozodlikka olib chiqishni maqsad qilgandilar (Qayd etish kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston yoshlarini xorijda o‘qitish to‘g‘risida XX asrning 10 yillaridayoq bong urgan edi). Bu yo‘lda ziyolilar “Ko‘mak” tashkilotini tuzib o‘zbek yoshlarini xorijda o‘qitish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Ushbu tashkilotning yuzaga kelishida Maorif komissariyati O‘zbek bilim hay’ati qoshidagi o‘rta, oliy maktablarda o‘quvchi o‘zbek yoshlarining “Adabiyot” to‘garagi asosiy o‘zak bo‘lib xizmat qildi. 1922-yil 2-mayda asos solingan “Ko‘mak” uyushmasi tomonidan Germaniyaga jo‘natilgan talabalar orasida Abdulvahob O‘qtoy ham bor edi.

Abdulvahob O‘qtoy 1904-yilning 10-fevralida Toshkentda tug‘ilgan. Otasi toshkentlik savdogar Is’hoqbek, onasi esa Obidaxonimdir. Is’hoqbek va Obidaxonim o‘n bir farzandning ota-onasi edi. Abdulvahob O‘qtoyning oilasini yaqindan bilgan Vali Qayumxon “Professor O‘qtoy Turkistonning kibor, ziyoli va taraqqiyparvar oilasiga mansub edi. Uning oilasi bilan bizning oilamiz o‘rtasida yaqin aloqalar mavjud edi. Abdulvahobning oilasi Toshkentda katta obro‘-etiborga ega

edi. U vatanga bo'lgan milliy tuyg'uni eng avvalo oilasida oldi" deb ta'kidlagan.

Vali Qayumxon to'g'ri qayd etganidek yosh Abdulvahob ilk ta'limni ota-onasidan oladi. Shundan so'ng u ta'limni Munavvarqorining jadid maktabida davom ettirdi. Toshkentdagi bu maktabning ta'limi olti yil davom etdi. O'qtoy 1916-yilda ushbu maktabni tugatdi. Vali Qayumxon o'zining "Professor O'qtoyni eslab" nomli maqolasida "U tahsilini jadidlar tomonidan tashkil qilingan maktabda da'vom ettirdi va bu maktabni 1916-yilda tamomlab o'z bilimini yanada oshirish maqsadida 1917-yilda Bakuga safar qildi" deb yozadi.

O'qtoy 1917-yilda Ozarbayjonga Tohir Chig'atoy bilan birga keldi. Ozarbayjonga muallimlar maktabida o'qish niyatida borgan Tohir Chag'atoy O'qtoyning kelgusi hayotida nafaqat yaqin do'sti, balki Turkistonni ozod qilish yo'lida olib borilgan milliy kurashdagi yaqin do'stlaridan biri bo'ldi. Ularning nechog'liq yaqin do'st bo'lganligini O'qtoyning quyidagi jumlalaridan anglash mumkin: "Tohir bilan do'stligim juda eskidir. Bu do'stlik qardosh Ozarbayjonda boshlandi, Germaniyada ildiz otdi, Turkiyada esa rivojlandi".

Abdulvahob O'qtoy yoshligidanoq tibbiyotga chuqur qiziqish bildirgan bo'lib, ushbu kasbni mukammal egallashni orzu qilar edi. Tohir Chig'atoyning rafiqasi Saodat Chig'atoy ham o'zining "Turk yurti" jurnalida yozgan maqolasida Abdulvahob O'qtoyning tibbiyotni juda chuqur o'rganish istagida bo'lganligini qayd etgan. Yana Saodat Chig'atoyning yozishicha O'qtoyning tibbiyotni chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishining sababi chaqaloqligida vafot etgan ukasining achchiq xotirasi hamda turkistonliklarning tez-tez turli hil kasalliklardan aziyat chekishi edi. Shu boisdan ham Abdulvahob O'qtoy shifokor bo'lish yo'lida harakat qildi. U shu maqsadi yo'lida bir guruh turkistonlik talabalar bilan

XX asr boshlaridagi ilm-fan markazi bo'lmish Germaniyaga yo'l oldi.

O'qtoy 1922-yilda Berlinga kelib tahsil olishga kirishdi. Tahsilning ilk yillarida nemis tilini bilmagani uchun avvalo ushbu tilni mukammal o'zlashtirish maqsadida jiddu-jahd bilan harakat qildi, kutubxonalarda izlandi, nemis oilalari bilan yaqindan tanishdi, do'stlar orttirdi. Abdulvahob O'qtoy bilan birgalikda 1922-yilda Germaniyaga kelgan toshkentlik yana bir Turkiston farzandi Sattor Jabbor o'sha yillarning umumiy manzarasini tasvirlab quyidagilarni yozadi: "Biz 1922-yilning so'ngi oylarida Olmoniyaga kelgach eng avvalo nemis tilini o'rgana boshladik. Buyuk Turkistonni talab, yondirib, ezib kelgan rus monarxistlari, Pyotr Velikiy Ovro'paga yuborish uchun talaba topa olmagan vaqtlarini eslariga olmasdan "Sartlar Ovrupada nima qiladir?" degan istehzolar bilan matbuotda (Berlinda chiqadirgan "Rur" gazetasida) qichqirishib o'tgan edilar. U qorni katta janoblar bizni Ovro'pa madaniyatiga munosib ko'rmagan edilar. Rus millatchilarining bu sovuq va qo'pol qarashlariga qarshi Germanlar tomonidan yaxshi kutib olindik. Matbuot "Turkiston uyg'ondi, uyg'onsun!" kabi undovlar bilan qizg'in maqolalar yozib o'tdi".

Abdulvahob O'qtoy 1929-yil 20-iyunda Geydelberg universitetining tibbiyot fakultetini tamomlab, Darmshtadt kasalxonasining jarrohlik bo'limida birinchi tibbiy amaliyotini boshladi. Ushbu amaliyot 1929-yil 31-dekabrgacha davom etib va nihoyat shu yili Abdulvahob O'qtoy doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan holda tibbiyot fanlari doktori unvoniga ega bo'ldi. Abdulvahob O'qtoy 1929-yildan boshlab Germaniyadagi turli hil kasalxonalarda faoliyat ko'rsata boshladi. Uning ilk ish joyi Berlindagi Nevkoln nomli kasalxona bo'ldi. Bu yerda u biroz muddat o'z malakasini

oshirgach 1938-yilga qadar doktor Kaufmanning nazorati ostida Germaniyaning turli kasalxonalarida faoliyat olib bordi. Abdulvahob O‘qtoyning Germaniyada yillar davomida duch kelgan eng katta qiyinchiligi nemis shifoxonalari xorijlik shifokorlarga o‘z kasalxonalarida faqat tunda ishlashga ruxsat berganligi edi. Chunki, u oliy tibbiy ta’limni tugatgan bo‘lsada, mehnat qilishni orzu qilgan yurti bo‘lmish Turkistonga qayta olmadi. Bunga Munavvar qori, Ubaydulla Xo‘jayev va boshqa ziyolilarning, ayniqsa, Germaniyada o‘qishni tugatib vataniga qaytgan talabalarning sovetlar tomonidan mafkuraviy dushman sifatida qamalganligi sabab bo‘ldi. O‘sha yillarning og‘ir manzarasini Abdulvahob O‘qtoyning rafiqasi Saida Sherahmedova shunday tasvirlagan edi: “Turkiston va Buxoro Xalq jumhuriyatlari tomonidan amalga oshirilgan yurt farzandlarini Germaniyaga o‘qishga yuborish missiyasi sovet hukumatini qattiq tashvishga solgan edi. Polsha bilan urushning tugashi va keyinchalik Turkistonda milliy istiqlolchilik harakatining nazoratga olinishi Sovet Rossiyasi ma’muriyatini ancha yengil torttirdi. Endi chekka respublikalardagi mahalliy ziyolilar va davlat arboblari tomonidan amalga oshirilayotgan ayni damda esa, bolsheviklar hukumatiga yoqmagan masalalarni hal qilish mumkin edi. Shunday qilib bolsheviklar talabalarni Sovet Ittifoqidan tashqariga yuborish loyihalarini to‘xtatishga harakat boshlab, shu kungacha Germaniyaga o‘qishga borgan talabalarni ham tezroq ortga qaytarishga intildilar. Turkiston gazetalarida Germaniyaga o‘qishga borgan talabalarning inqilob davrida bu o‘lkada panoh topgan eski chor tuzumi tarafdorlari, ya’ni oq ruslar bilan aloqada bo‘lganligi va ularning ta’sirida talabalarning ongi zararli g‘oyalar bilan zaharlangani haqida maqolalar e’lon qilina boshladi. Hattoki bolsheviklar hukumati Turkiston o‘lkasida yoshlarning ko‘nglida Yevropada ilm

olish istagini bug‘ish maqsadida u yerga borgan talabalar nemis maktablariga qabul qilinmagani, ular Germaniyada siyosiy qochoqlar ta’siriga tushganligi haqida mish-mishlar tarqatishdi”.

Abdulvahob O‘qtoy Sovet hukumatining qattiq bosimi ostida 1938-yil 21-fevralda Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga ariza yozadi. Ushbu arizada u Turkiya Respublikasi fuqarosi bo‘lishni xohlayotganini bildirgan. O‘qtoy ushbu arizaga qo‘shimcha ravishda o‘zi to‘g‘risida quyidagi ma’lumotnomani ham ilova qilib keltiradi: “Abdulvahob O‘qtoy 1904-yil 10-fevralda Turkistonda tug‘ilgan. Boshlang‘ich va o‘rta ta’limni 1922-yilgacha Turkiston va Ozarbayjonda olgan. 1923-1929-yillarda Germaniyada tibbiyot fakultetida o‘qigan. U Germaniyada ikki yillik til kursi davomida nemis tilini o‘rgangan. Turkistonda o‘rta ta’lim davrida rus tilini o‘rgangan. Otasi 1933-yil bahorida, onasi 1908-yilda Toshkentda vafot etgan. Uning Turkistonda o‘z mulki bor. Turkistonlik Saida O‘qtoyga uylangan”.

Abdulvahob O‘qtoy rafiqasi Saida Sherahmedovani o‘zidan oldinroq Turkiyaga yuborgan bo‘lib, turmush o‘rtog‘i kelguncha Saida G‘oziy ta’lim instituti va Anqara birinchi o‘rta ta’lim maktabida nemis tilidan dars berish bilan shug‘ullangan. Va nihoyat Abdulvahob O‘qtoy ham Turkiyaga kirishga ruxsat olgach oila jam bo‘lgan holda birga yashay boshlaydilar.

Abdulvahob Oqtoy uzoq yillar Istanbulning Lalilidagi klinikasida mashhur akusher jarroh sifatida ishladi. Uning hamkasblari hatto uni “Jamiyat shifokori” deb chaqirishar edi.

Abdulvahob O‘qtoy Berlin va Istanbulda tibbiyot bilan shug‘ullanishdan tashqari xorijda turib Turkistonning erki va ozodligi yo‘lida ham faol harakatlarni amalga oshirgan. Jumladan, u o‘zining “Yangi Turkiston”, “Yosh Turkiston” jurnallarida chop etilgan maqolalarida Turkistonning erku-

ozodligini kuyladi, mustamlakachi hukumatga qarshi bor qahru g‘azabini matbuot orqali sochdi.

Abdulvahob O‘qtoy jurnal sahifalarida e’lon qilgan maqolalarini “Iltar”, “O‘qtoy”, “Janay”, “Tuyg‘un” kabi taxalluslar ostida e’lon qilib borgan. Abdulvahob O‘qtoy tomonidan jurnallarda yozilgan maqolalar asosan bolsheviklar tomonidan Turkistonda amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy siyosatni tanqid qilishga bag‘ishlangan. Bulardan tashqari, Vatan sog‘inchi, millatparvarlik tuyg‘ulari bilan yozgan she’rlarni ham ijod qilgan. She’rlarini “Tuyg‘un” imzosi bilan yozgan.

O‘qtoyning yozishicha, bolsheviklarning Turkiston hududida olib borgan siyosatining nomi shovinistlikdir. Ushbu siyosatning natijasi o‘laroq Turk nomi millat nomi sifatida, Turkiston nomi esa mamlakat nomi sifatida yo‘q qilindi va bu yerlar O‘rta Osiyo deb atala boshlandi. Chor Rossiyasi bir paytlar boshlab bergan assimilyatsiya siyosatini kommunistik Rossiya to‘xtagan joyidan davom ettirmoqda. Sovet ruslari bu assimilyatsiyani amalga oshirish uchun ko‘p usullardan foydalanmoqdalar. Ana shunday yo‘llardan biri muhojirlik siyosatidir. Bolsheviklar hukumati rus dehqonlarini Turkiston yerlariga vaqt o‘tishi bilan joylashtirish orqali o‘zbek aholisi sonini kamaytirishni hamda dehqonlarni butunlay Moskvaga qaram qilib qo‘yishni maqsad qilgan. Haqiqatdan ham O‘qtoyning yuqorida keltirgan fikrlari bor haqiqat edi. Jumladan, taraqqiyparvar adib, toshkentlik G‘oziy Yunus ham “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 245-sonida e’lon qilgan “Ho‘l balo” maqolasida bolsheviklar tomonidan amalga oshirilayotgan muhojirlik siyosatining dahshatli oqibatlari xususida to‘xtalib “Bu kun mamlakatimizda bo‘lib turg‘on buzg‘unchiliq va yaramasliqlar to‘g‘risida kundalik matbuotda yozilib turg‘on dod-hasratni bir yerga to‘plasangiz es ketar

darajada bir dahshat ko‘z oldingizga kelib bosadir. Atrofni tamom har xil banditlar, o‘g‘rilar, jinoyatchilar bosqon”[17] deb yozgan edi.

Abdulvahob O‘qtoy Parijda chop etilgan “Yosh Turkiston” jurnalida ham o‘z maqolalari bilan faol ishtirok etgan. Abdulvahob O‘qtoyning ushbu jurnalda jami 84 ta maqolasi e’lon qilingan bo‘lib, ulardan 20 tasini “Abdulvahob”, 20 tasini “Janay”, 25 tasini “To‘qtamish o‘g‘li” va 19 tasini esa “Iltar” taxalluslari ostida chop ettirgan[18].

Jumladan, Abdulvahob O‘qtoy jurnalning 1930-yil 3-4-sonlarida “Janay” imzosi bilan e’lon qilgan “Bosmachiliq to‘g‘risida” nomli maqolasida Turkistondagi kommunistik davriy matbuotda “bosmachilik” atamasi qo‘llanilayotganligiga e’tiroz bildirib, asl bosmachilar bolsheviklar hukumatining o‘zidir degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Xususan u ushbu maqolasida “Bosmachi” so‘zi yaxshi so‘z emas… urush vaqtida har bir tomon qarshisidagi dushman askarini “talovchilar to‘dasi” deb atag‘oni kabi, bolsheviklar ham “rus proletariyati diktaturasi”ga qarshi chiqg‘on birinchi Turkiston ixtilolchilarig‘a yuqoridag‘i bosmachi ismini beradilar Biroq, o‘shal davrlarda Turkistondagi sovet hukumatiga kimlar boshliqlik qilar edilar? O‘g‘rilik uchun qamoqda o‘tirgan Feodor Kolesof komissarlar sho‘rosiga rais edi. Bosmachilarg‘a qarshi urush ishlarini idora etgan sovet harbiy komissari Parfilov paxta tozalovchi zavodlardag‘i ishchilar tarafidan berilgan o‘n ming so‘mdan oshiq aqchani o‘z kissasiga solib ketgan bir o‘g‘ri odam edi. Umumiyatla Toshkentdagi bolshevik firqasi o‘g‘rilar bilan to‘la edi” deb ta’kidlagan.

[17] G‘oziy Yunus. Ho‘l balo // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1925-yil 7-oktyabr. – № 245

[18] Ceren Celasun. Türkistanli aydinlardan Abdulvahap Ishakoğlu Oktay (1904-1968): Hayati ve eserleri. Yüksek Lisans Tezi. –Istanbul: 2015. – S. 46-47.

Ayniqsa Abdulvahob O‘qtoyning ustozi Munavvarqoriga bag‘ishlangan maqolasi muhim ahamiyatga egadir. Abdulvahob ushbu maqolasida XIX asr turk xalqiga to‘rt buyuk shaxsiyat yetishib chiqqanligini qayd etib, ulardan biri Munavvarqori ekanligini ta’kidlagan. Muallif ushbu maqolasini 1931-yilda bolshevik jallodlari tomonidan otib tashlangan milliy ziyoli Munavvarqorining xotirasiga bag‘ishlagan. U Munavvarqoriga ta’rif berar ekan “Jaholat uyqusina botmish turklarni uyg‘otibdir va millatga najot yo‘lini ko‘rsatibdir” deb yozadi va Munavvarqorini Ismoil G‘aspiralidan keyingi eng mashhur siymo o‘laroq keltiradi. Xususan, u ushbu mo‘tabar shaxs haqida quyidagilarni yozadi “Munavvarqori bizning Turkistonda milliy maorif, milliy nashriyot va milliy mafkurachilikning sog‘lom urug‘larini sochg‘on va ming turli og‘irliq va to‘sqinliqlarg‘a qaramasdan bularni ko‘kartirishg‘a muvaffaq bo‘lg‘on bir zotdir. Uning ochg‘on milliy maktablari Turkistonning minglarcha bolalarig‘a milliy ruh bergan va ularni yurt ham millat sevgisi ila qurallantirg‘ondir. ushbu satrlarni qoralovchining o‘zi ham Munavvarqorining Toshkentdagi “Namuna” maktabida 6 yil o‘qig‘ondir. Shuning uchun men, ustozimiz Munavvarqorining Turkistonimizning har tomonig‘a yoyg‘on jadid maktablarining ich yuzini yaxshiroq taniyman desam yanglishmasam kerak. Bizning o‘z Turkiston bolalari, turk bolalari, Chingizxon va Temur o‘g‘illari ekanligimizni ilk topqir zehnimizga o‘runlashtirg‘on va bizga yurt ham millat sevgisini bergan maktablar shul “Na’muna” kabi milliy o‘choqlar bo‘lg‘ondir… Munavvar, o‘z ismiga yarashaturg‘on nodir bir xilqat edi. Uning fitriy zakovatidan sochilg‘on nurlar Turkistonning qora muhitini ko‘pdan yorug‘lantirib, xalqimizning yumuq ko‘zlarini ochmishdir. Uyg‘ongan xalqimiz o‘z yo‘lini aniq belgilab, o‘z milliy a’moli orqasidan yugurmakdadir. Dushmanning qilichi, to‘pi uni bu

yo‘ldan to‘xtata olmadi… Buyuk ustozimiz Munavvarqorining pok ruhiga fotihalar…”. Abdulvahob O‘qtoyning yuqoridagi so‘zlaridan yaqqol ko‘rinib turibdiki, uning o‘z ustozi bo‘lmish Munavvarqoriga nisbatan bo‘lgan mehr-muhabbati, hurmati cheksiz bo‘lgan. Buni biz ushbu maqolasi ostiga “Burung‘i “Na’muna” maktabi o‘quvchilaridan: Abdulvahob” deb imzo qo‘yganligidan ham bilishimiz mumkin.

Shu bilan birga O‘qtoyning “Turkiston kultur asarlarining oqibati” deb nomlangan maqolasi ham dolzarb ahamiyatga egadir. Muallif ushbu maqolasida Sovet hukumati tomonidan o‘lka xalqining milliy-madaniy merosiga nisbatan vahshiyona xiyonatlarini ochiq-oydin tanqid qilgan. Jumladan, u “XII-XV asrlardan hozirgi kungacha saqlanib kelingan tarixiy binolar dinamit vositasi ila harob etilib, havog‘a uchirilmakda va Turkistonning xonsaroylari devorlari ostidag‘i marmar toshlar qo‘porilib, ko‘priklar uchun ishlatgani olib ketilmakdadir. Masalan, Xiva shahrindagi “Go‘runushxona”ning marmar bezaklari mahalliy xo‘jaliq bo‘limi tarafidan ko‘chirilib, ko‘prikka ishlatilgan bo‘lsa, Ho‘qanddagi Muhammad Alixon madrasasi buzilib uning ham derazalari ko‘prikka ishlatilgandir” deb yozib, millatning madaniy merosiga nisbatan bolsheviklar tomonidan ko‘rsatilayotgan varvarlarcha munosabatga keskin noroziligini bildirgan.

Abdulvahob O‘qtoy 1962-yilning 12-iyulida Istanbul shahrida cheksiz vatan sog‘inchi ostida vafot etdi.

Shu bilan birga jurnal sahifalarida yuqorida faoliyatlari nisbatan batafsil keltirilgan shaxslardan tashqari jami 87 ta muallifning maqolalari chop etilgan. Ularning ichida Turkiston Milliy Birligi (TMB) tashkilotining bosh kotibi sifatida faoliyat olib borgan Majididdin Ahmad (taxallusi “Dalil”) alohida ajralib turadi. Majididdin Ahmad 1927-1931-yillarda turkistonlik muhojir ziyolilar tomonidan Istanbulda chop

etilgan “Yangi Turkiston” jurnalini ham boshqargan (1930-1931-yillar). Mustafo Cho‘qay tomonidan “Yosh Turkiston” jurnali tashkil etilgach, Majididdin Ahmad ham bu nashr faoliyatida o‘zining maqolalari bilan ishtirok eta boshladi. Umuman olganda Majididdin Dalilning “Yosh Turkiston” jurnalida jami bo‘lib 13 ta maqolasi chop etilgan.

Yuqoridagilardan tashqari “Yosh Turkiston jurnalida Abdurauf Fitrat, Muftiy Sadriddinxon Sharifxo‘jayev, Abdulhamid Cho‘lpon, Mag‘jon Jumaboy, Elbek, Ahmad Hokiy, Abu Nasr Hoji va boshqalarning she’rlari, maqolalari va xotiralari chop etilgan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, 1929-1939-yillarda chop etilgan “Yosh Turkiston”ning 117 ta sonidagi maqolalar, she’rlar, bolsheviklarning zulmi va istibdodi natijasida ona yurtini tashlab ketishga majbur bo‘lgan pokdamon insonlarning achchiq xotiralari, bizni doimo ogohlikka chorlab turishi lozim deb hisoblaymiz. Ushbu kitobni nashrga tayyorlashimizdan ko‘zlangan asosiy maqsad ham shu.

Ushbu kitobni nashrga tayyorlashda o‘zining qimmatli maslahatlarini bergan ustozlarim tarix fanlari doktori, professor B.V.Hasanov va tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) B.Sh.Irzayevlarga o‘zimning chuqur minnatdorchiligimni bildiraman.

Muslimbek ALIJONOV
O‘zR VM huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

SHE’RLAR

TURKISTON

Turkiston – ikki dunyo eshigi bu,
Turkiston – har bir turkning beshigi bu,
Turkiston – Tangri bergan muqaddas joy,
Turkiston – har bir turkka sochar yog‘du.
Moziyda Turkistonni Turon demish,
Turonda turk ulusi topgan yemish,
Turonning taqdiri o‘n dolg‘alidir,
Boshidan og‘ir kunlar kechgan emish.
Turonning tarixi bor misli olov,
Teranroq boqsang o‘tday yonar lov-lov.
Turonning yeri bilan suvi qadim,
Dengizday g‘amiga dil bermaydi dov.
Turonning ikki cheksiz cho‘li go‘zal,
Dengizday qirg‘og‘i yo‘q ko‘li go‘zal,
Turonning to‘lib oqqan daryolari,
Yana bir to‘lib oqsa seli – go‘zal.
Turonning tog‘lari bor osmon oshgan,
Purviqor cho‘qqilarin qorlar bosgan.
Bag‘rida ko‘k buloqlar jimirlaydi,
Yaralib tog‘dan oqqan tomchi yoshdan.
Sahrolari yuzin bosmish qat–qat ajin,
Sassizdir, olgan kabi manguga tin.
Ko‘rinmas jon jonivor sarg‘ish ufqda,
Qumlarda raqs etadi pariyu jin.
Turonning suvlari bor moviy, zilol,
Chayqalib yashnab yotar ulkan Orol.
Bir tomon – yarqiragan Issiqko‘lning,
Bag‘rida dunyo ko‘rgan turkiy ko‘kyol.

O‘rtada Jayxun, Sayxun oqar sarin,
Ikki nahr boqib kelgan turkning barin.
Beshak bu ikki daryo orasinda,
Topgaysan ulug‘ bobong ertaklarin.
Turonning Tiyonshonday tog‘i qalay,
Teng kelmas Tiyonshonga tog‘lar talay!
Turkning cho‘ng g‘ururin yodga olgin,
Viqorli Xontengriga qaray–qaray.
Yo‘qsa u buyuk yurtga o‘xsharmidi?
Ulug‘lar bu zaminni yo‘qlarmidi?
Qazig‘urt xosiyatli tog‘ bo‘lmasa,
To‘fonda Nuh kemasi to‘xtarmidi?!
Bu tuproq ezgu – garchi oddiydayin,
Uqarsan tarix ko‘rsang buni tayin.
Turonga bejiz xumor bo‘lgan emas,
Qachondir Qayxisravu Zulqarnayn.
Bu shunday xush o‘lkaki – tonglari sof,
Botirlar etdi uni sha’n, fayziyob.
Turonning dovrug‘ini ko‘targan ilk
Shavkatli, afsonaviy Afrosiyob.
Turonga yer yuzida yer yetganmi?
Basharda turk eliga el yetganmi?
Bemisl matonatda, zakovatda
Turonning erlariga er yetganmi?
Turonning beklari bor Tarag‘ayday,
Tug‘ilgan undan Temur o‘t bo‘p o‘ynay.
Tanilgan yer yuziga Sohibqiron,
Chaqmoqday qilichini qo‘ldan qo‘ymay.
Turonni maqtamayman manmanlikka,
Dovrug‘in bilar uni olis — chekka.
Anglamoq borasida yulduz sirin

Kim bordir – teng kelolsa Ulug‘bekka.
Asldir xosiyatli turkning qoni,
Tug‘di shu qon Beruniyu Sinoni.
Keldimi bu zaminga ularday zot –
Zabt etgan aqli bilan keng dunyoni?
Kamsitgan kim qadim musiqasin?
Bilarmi u do‘mbira yo ud sasin?
Farobiy ilk bor yasab chalganida,
Dillardan quvmaganmi g‘am sharpasin?
Turk azal olov nomin olmaganmi?
Dunyoning bag‘riga o‘t solmaganmi?!
Talay turk bo‘laklanib taralaganda,
Qozoqda qora o‘tov qolmaganmi?
Arslondek elga Vatan bo‘lgan Turon,
Tiklagan qozog‘im ham unda qo‘rg‘on.
Qozoqning tanti, dono Qosimxoni,
Turonning faxri bo‘lgan qozonib shon.
Odil xon kam uchraydi Nazardayin,
Ulusga Yesimxonning yo‘li tayin.
Taukeday donishmand xon qurgan ekan,
Kultepa degan joyda Qurultoyin.
Bu Turon azal – azal ezgu makon,
Dardiga yupanch topgan har bitta jon.
Turonning tuprog‘ida orom olar,
Tanti er, arslon yurak Abilayxon…
G‘am chekkan o‘z yurtida topar qoim,
Tulpor ham tuqqan yerin qo‘msar doim,
Botishu so‘lg‘a qarab ketgan ulus,
Turondir, bilsang seni tuqqan joying.
O‘rtada Jayxun, Sayxun oqar sarin,
Ikki nahr boqib kelgan yurtning barin,

Beshak, bu ikki daryo orasinda,
Topgaysan ulug‘ bobong hikmatlarin[19].

Mag‘jon Jumaboy. “Yosh Turkiston”.
1929-yil dekabr, № 1.

YAPROQLAR

Kuz chog‘i tuproqlar gezarub qoldilar…
Gezarub qoldilar kuz chog‘i tuproqlar
So‘ng damda yaproqlar qizarub oldilar…
Qizarub oldilar so‘ng damda yaproqlar
Qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar
Bilmadim kimlarning qismati uzilur
Yong‘oqqa yopishib bir changal soldilar
Bilmadim kimlarning umidi yo‘q bo‘lur.
Ey sovuq ellardan muz kiyib kelganlar
U qo‘pol tovshingiz qirlarda yo‘q bo‘lsun

[19] Mag‘jon Jumaboy – Mag‘jon Bekenuli Jumaboyev 1893-yil 25-iyunda Sariqayg‘ir tumanida tug‘ilgan. Qozoq xalqining yetuk shoiri. 1910-yilda Mag‘jon Ufa shahridagi oliy musulmon madrasasi – Madrasayi Oliyada tahsil olgan. 1912-yilda shoirning ilk she’rlar to‘plami nashr etilgan. Mag‘jon Jumaboyning “Turkiston” 1923-yil Toshkentda Turkiston davlat nashriyoti tomonidan chop etilgan shoirning she’riy to‘plamiga mansubdir. “Yosh Turkiston” jurnalida she’r qozoq tilida berilganligi sababli biz she’rning tarjimasini f.f.d.,professor Adhambek Alimbekov tomonidan nashrga tayyorlangan “Qardosh turkiy xalqlar adabiyoti (Qozoq adabiyoti)” nomli xrestomatiyadan oldik. Qarang: Alimbekov A. Qardosh turkiy xalqlar adabiyoti (Qozoq adabiyoti). – T.: 2020. –B. 40-44. Mag‘jon Jumaboy 1937-yil 30-dekabr kuni ig‘vo va bo‘htonlar bilan qamoqqa olingan. Nomigagina tashkillashtirilgan sud ishlaridan so‘ng, benazir iste’dod egasi bo‘lmish Mag‘jon Jumaboy 1938-yil 19- mart kuni otib beshafqatlarcha otib tashlangan.

Ey menim bog‘imda mevani terganlar
Qop-qora boshingiz yerlarga ko‘milsun.

Cho‘lpon. “Yosh Turkiston”. 1929-yil dekabr, № 1.

SURGUN QILINGAN O‘RTOG‘IMDAN

Kafanga o‘ralg‘on Sibirya cho‘lida:
Kishanlar, zanjirlar qo‘l-oyog‘imizda,
Tepki, ot tuyog‘i doim boshimizda,
Hamda qonli qamchin achchiq izg‘irinlar!
Tuganmak bilmagan bu qiynov yo‘lda:
Gala-gala quzg‘un tevaragamizda,
Yig‘ilmoqda qorlar bosqon izimizda,
Suyakimizningda yerlar bu qoralar!

1929-yil sentyabr. Ko‘chirib olivchi: Iltar (Abdulvahob O‘qtoy).

SURGUN QILINGAN O‘RTOG‘IMGA

Kafanga o‘ralg‘on u Sibirya cho‘li
Xalqimizning emas, rusning o‘lim yo‘li!
Qo‘l-oyog‘ingizning kishanin zanjiri
Bilmay chegara bo‘lur yurtimizga!
Erk kurashimizning yengilmas erlari!
Yashaymiz olmoqqa, intiqomingizni,
To‘fon ham ko‘molmas bosqon izingizni!
Shahidlar maqbari bu iymonimizda.

Iltar (Abdulvahob O‘qtoy) “Yosh Turkiston”. 1930-yil aprel-may, № 5-6.

MIRRIX YULDUZIGA

Go‘zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuvg‘oni!
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg‘a tushibsin?
Tuvg‘oningga nechuk sira gapurmasdan turibsin?
So‘yla yulduz, holing nadir, nechik topding dunyoni?
Bizning yerda bo‘lib turgan tubanliklar, xo‘rliqlar
So‘yla yulduz sening dahi quchog‘ingda bo‘lurmu?

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar,
O‘rtoq qonin qonmay ichgan zuluklar
Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar.
Bormi senda o‘ksiz, yo‘qsulning qonin
Gurunglashib, chog‘ir kabi ichganlar?!
Bormi senda butun dunyo tuzugin
O‘z qopchug‘in to‘ldirg‘oli buzg‘onlar?
Bormi senda bir o‘lkani yondirib
O‘z qozonin qaynatg‘uvchi hoqonlar.
Bormi senda qorin qursoq yo‘lida
Elin, yurtin borin yo‘g‘in sotg‘onlar?[20]

Fitrat. “Yosh Turkiston”. 1930-yil dekabr, № 7-8.

[20] Boshqarmadan: Yuqoridagi she’rni shoir Fitrat “millat” va “milliy ruh”ning qiymatini tanib yurgan chog‘ida yozg‘on edi. Bu kunlarda esa Fitrat “Marksist” va “Baynalmilalchi” bo‘lib o‘zining eski “milliy ruhi”ga butunlay orqa o‘girib yuradir. Shunday bo‘lsa ham Fitrat, bizlar uchun, bir turkistonlik shoirdur. Uning qiymatli she’rlari uchun majmuamizning sahifalari doim ochiqdur. (Bizningcha “Yosh Turkiston” tahririyati Fitratni asrash uchun, ushbu she’ri chop etilgani sabab unga ortiqcha gap tegmasligi uchun yuqoridagi izohni she’rga ilova qilib qo‘ygan – M.Alijonov)

ONA FARYODI

Amali muqaddas shahid, sevgili ekan bolam,
U tog‘larni o‘purg‘uvsi qichqirg‘on ko‘z-yoshlarim.
Yashatmoqda meni yolg‘iz intiqoming arslonim,
Yurak dog‘ining shifosi yana intiqom bolam.

Sharafi uchun uchun kurashgan shonli erkin arslonim
Maqbari[21] oltun oltoylar, kafani qorlar bolam!

Yurtida hilpiramag‘uncha qonli yo‘l-yo‘l yaktaging,
Ko‘ndik, yarqiramag‘uncha haq nurila borlig‘ing,
Sajda qilmog‘im gunohdur johil kabi Allohga,
Riyodir sig‘inmoq umidvor bo‘lib amin Allohga!

Qabilasi, yurti, yo‘ldoshi ila erkin arslonim,
Maqbari ulug‘ oltoylar, kafani qorlar bolam!

Shon-sharafsizlikdur, chidab turmak nomard zulmiga,
Isyon qilaman o‘z haqqim uchun tangri amriga,
Ular aytsa-da “Devona qarshi keldi Allohga”,
Bu yerda yutmak istasa “Osiy bu” deb xudoga.

Yurt erki yo‘lida mardona kurashgan erkin bolam,
Maqbari yuksak oltoylar, kafani qorlar bolam!

Abdulvahob O‘qtoy “Yosh Turkiston”.
1931-yil yanvar, № 14.

TO‘LQUN

Har tarafga boshin egib silkinishgan u o‘tlar,
Aza tutib mayinlashib shivir-shivir yig‘larlar;

[21] Maqbari – shajarasi, nasli.

Toshdan-toshg‘a tannin urib chirqirishqon buloqlar,
Zolimlarning zindonidan har tarafga qocharlar.

Ko‘puk sochib, to‘lg‘onib kuldirishqon anhorlar,
Dushmanlarning qarshusig‘a qutlarin yig‘arlar.
Qaltiratib, chaqmoq chaqib yugurishgan bulutlar,
Qasir-qusur miltiq otib shaytonlarni haydarlar.

Qishin-yozin boshinda qora xo‘mrayishqon u tog‘lar,
Dushmanlarning qo‘llarindan qurtuluvni[22] o‘ylarlar.
Bu tog‘larning dillarinda burqurag‘on vulqonlar,
Olov bo‘lib ustiga chiqqach yovlarini titratar.

Sayyid Ali. “Yosh Turkiston”. 1931-yil yanvar, № 14.

TILAK YO‘LIDA

(She’rlar to‘plami “Ko‘zgudan”)[23]

Zo‘r muhitning dengizida men bu kun,
Hech to‘xtamay olg‘a qarab boraman.
Dengiz qo‘rqinch, qora, tubsiz bo‘lsa-da,
Tilak uchun, qo‘rqmay uni kechaman.
Mingan kemam, zo‘r dengizga nisbatan
Juda kichik, juda kuchsiz kemadir;
Shundaysa-da, kuchli muhit dengizin
Yorib, tinmay ilgariga boradir…
Mana, hozir men shu qo‘rqinch dengizning
Eng quturg‘on bir o‘rnida turaman.

[22] Qurtulmoq – qutulmoq, ozod bo‘lmoq.
23 Elbekning ushbu she’riy to‘plami “O‘zbekiston davlat nashriyoti” tomonidan 1926-yil Toshkentda chop etilgan. She’rning o‘zi esa 1922-yil 14-mayda yozilgan – M.Alijonov.

Munda bir vaqt ko‘p yoziqsiz boshlarning
Unga cho‘mub o‘lganini sezaman.
Biroq bular, meni hech bir qo‘rqutmas,
Yurgan yo‘lda meni tupta qaytarmas…
Chunkim menda ko‘p kishilar, bu yo‘lg‘a
Boshlarini berib, qo‘rqmay kirganlar.
Ana ular, hozir bir-bir otlashib,
Shu dengizni kechib o‘tib, keldilar.
Men botg‘uday bo‘lsam gar shul yerda,
Ular meni tezda kelib qutqarar…
Mening bormoq istagan ul yerimga
Ko‘maklashib qoldirmayin eltalar.
Shuning uchun men, qo‘rqmayin ketaman,
Ko‘nglimdagi tilagimga yetaman…

Elbek. “Yosh Turkiston”. 1931-yil iyun, № 19.

SHAHIDLARIMIZGA[24]

Ishlagan, qavargan tanangni ko‘mib,
O‘t[25] kabi qip-qizil qoningni to‘kib,
Chirimas amallar urug‘i ekding
Har qarichig‘a bu ko‘p ulug‘ yurtning!

Mardliqning timsoli shonli shahidlar,
Yo‘limiz izingizdir ey, er yigitlar,
Qilich, to‘plar ila egilmas boshlar,
Bu shan bayrog‘imiz sening amaling!

[24] Iltar (Abduvahob O‘qtoy)ning ushbu she’ri 1929-yil Istanbulda yozilgan.
[25] O‘t – olov, qaynoq, issiq.

Bizning iymonimiz aslo yeyilmas[26],
Bu erlar umidsiz, badbin ham emas,
Biz bor ekan yurtda o‘zgalar qolmas,
Hadafimiz[27] sening ulug‘ amaling!

Kitobi, tumori istiqloli yigit,
Vahshiy bosqinlarning qalqoni shahid,
U oltin Oltoyg‘a ko‘milgan yigit
Ka’bamizning o‘tlari[28] qichqirg‘on qabring!

Iltar. (Abdulvahob O‘qtoy) “Yosh Turkiston”. 1931-yil dekabr, № 25.

BAYROG‘IM[29]

El qoniyla chizilgan
Menligimning timsoli!
Er yoliyla to‘qulg‘on
Ma’budimning xirqasi!

U qonli sassiq lattani
Tepkilab ham parchalab,
Tekkisidur salomlab
U iymonli el sani!

Soqchi u doim senga;
Bir qo‘lida bor bomba,
U birida mash’ala,
Qalqonida mafkura!

Iltar. (Abdulvahob O‘qtoy) “Yosh Turkiston”. 1932-yil iyul. – №. 28.

[26] Yeyilmas – yemirilmas.
[27] Hadaf – maqsad, nishon.
[28] O‘tlar – maysalar.
[29] Ushbu she’r 1932-yil mart oyida Istanbulda yozilgan.

“O‘LMASOY”G‘A[30]

(Bahor munosabati ila)

O‘sma qoshli, bodom qovoq, xumor qora ko‘z jonim,
Tengi bo‘lmag‘on go‘zal jon janonim “O‘lmasoy”im!
Qolmadi ortiq siynamda toqat bu hasratingga,
Ey muqaddas “O‘lmas” yetar ortiq ayriliq bizga!

Erk bog‘ini esladikcha chuvillashar tanlarim,
Men sendan uzoq qoldiqcha ko‘purmoqda qonlarim.
Bog‘, dala, qirda ham yolg‘iz sen ila bu xayolim,
Xayolim sensiz yasharkan bosh sahroda borlig‘im!

Sunbul rayhon orasida seni men ko‘rmaguncha,
Shaldiramoq soy bo‘yida sen yor-yor aytmaguncha,
Rango-rang gul bog‘chasida sen o‘ynab kulmaguncha,
Bahorlar qora qish, yozlar do‘zax osadur menga!

Bulbullar sayramas bo‘ldi ichim chekib oxlarsam,
Bahor zahar sochar bo‘ldi ko‘kragimni ocharsam,
Chunki sen bahor bog‘ida o‘zganing zindonida
Temir qafaslar ichida doim erk hasratida!

U bir kuni rusni bug‘ib qizil qon to‘fonida,
Seni kuldirgan holda yarim oyday erk quchog‘ida,
Azaliy maftun oshig‘ing “Erkinjon”lar[31] maqbari,
Oltoylar qizardi yana qip-zil lola kabi!

Iltar. (Abdulvahob O‘qtoy) “Yosh Turkiston”.
1932-yil may. – №. 30.

[30] Millatparvar yosh turkistonliklar mafkurasi, Turkistonning istiqloli. Ushbu she’r 1932-yil aprel oyida Istanbulda yozilgan.
[31] Erkin yashamoq uchun kurashgan va kurashib yotg‘on Turkiston yigitlari.

DO‘MBIRAMG‘A QULOQ SOL

Do‘mbiramning qulog‘in buray olmayman,
Burmag‘oncha hovliqib tura olmayman.
Boy-kambag‘al teng degan tentak o‘rus!
Tong bo‘lg‘onin dunyoda ko‘ra olmayman!

Quruq o‘tni qaynatsang osh bo‘lmaydi,
Qora balchiq qurutsang tosh bo‘lmaydi,
Yurtning “Biy”i o‘zingdan bo‘lmoq kerak
Qizil o‘rus qirg‘izg‘a bosh bo‘lmaydi.

Tog‘ni, cho‘lni joylag‘on boylar qayda?
Qora qushday kishnagan toylar qayda?
Yilqidag‘i tulporning jilovin tutib,
“O‘rozgil”day o‘ynag‘on oylar qayda?

Qozoq tuya ko‘rmaydi ovullarda,
Qirg‘iz biya ko‘rmaydi qiyalarda,
Turk bolasi qolmadi, qonxo‘r o‘rus!
“O‘rgimchaklar o‘ynaydi uyalarda”!

“Kommunistliq” deganing tuzoq ekan
Aytg‘on so‘zing o‘zingdan uzoq ekan
“Tovarish” deb aldading tuvg‘onimni
Qurtulush deb aytg‘oning uvoq ekan.

Yuqoridan kelaman yo‘lovchiman
Ulug‘ yurtning ahvolini so‘rovchiman
Qizil to‘kkan qonlarning tamlasini[32]
Kun kelgan so‘ng o‘zingdan tilovchiman.

[32] Tamlasi – xuni, qasosi.

Olis ekan kirgan yo'l ketolmayman
Yurt esimga kelgach esa yotolmayman
Ketgan kelmas deb o'zicha ahmoq o'rus
Jondan o'tar, yurtimdan o'tolmayman.

Qizil ko'chib keldim Olmalig'a
Kim ko'nmaydi tangrining solg'onig'a
Turkiston turk bo'lg'onin bilmak kerak
Ishonmayman o'rusning qolg'onig'a.

Qora motam kiyiming yecholmayman
Oq qimizni shopirib icholmayman
Yurtdan kechdi demangiz, qizil qurtlar!
O'lgunimcha yurtimdan kecholmayman.

Do'mbiramning aytqonin angladingmi?
Quloq solib, yaxshiroq tingladingmi?
Bo'lmag'ong'a bo'lur deb tolmag'aysiz
Turkiston turk bo'lg'onin bilmadingmi?

Toyloq Ahmad. "Yosh Turkiston".
1932-yil noyabr. – №. 36

YIGITLAR

Erk maydonida otlar o'ynatib
Shon tarixig'a qoniyla yozib
Ketdi dodamiz meros qoldirib
Istiqlolli yurt bizga yigitlar!

Merosimizni zo'r ila olg'on,
"Sir"ingni[33] nohaq qonga bo'yag'on,

[33] Sir – Sirdaryo.

Erk o'g'risi vahshiy qoratoldan
O'ch olmoq uchun yur yigitlar!

Beshotaringni o'qla to'ldirib,
Bayzo qilichini qindan chiqarib,
Saman otingni safda o'ynatib,
U istiqlolni qutqar yigitlar!

Menlik karnayi chalindi yurtning,
Arafasidur bu, iydi millatning.
Hirpirag'usi bayrog'i yurtning
Otni qamchila Temur yigitlar!

Kursi, chirvong'a jon otqonlarni,
Rusla birlashib qon emganlarni,
U nomusfurush otasizlarni
Kesib parchalada gar yigitlar!

Do'qtur Iltar (Abdulvahob O'qtoy).
"Yosh Turkiston". 1933-yil fevral. – №. 39.

QIT'A

Yurtimning yo'linda duv kelsa qonim
Millatim o'g'runda[34] chiqsa-da jonim
Dunamam[35] yo'limdan budir iymonim
Yurtimla millatim eng buyuk shonim!

Turkistonlik Ahmad Hokiy. "Yosh Turkiston".
1933-yil mart. – №. 40

[34] O'g'runda – g'amida.
[35] Dunamam – qaytmayman.

QIT'A

Yig'lama go'zal yurtim qonli ko'zlaring sel
Uzoqdagi qurtulush[36] yaqin keldi bil!
Yirt, ot qizil pardani qudratli quchingla
Boq yurtingga na yoydi yo'ldosh qilib sifl![37]

Turkistonlik Ahmad Hokiy. "Yosh Turkiston".
1933-yil iyun. – №. 43.

TILAK

Tangri bizga yo'l bersa yuqorilarda uchardiq
Bulutlarni yorib, qanotlarni ochardiq
Da'volashardiq doimo yurtimiz ko'klarida
Qizillarga qor emas, olovlarni sochardiq.

Turkistonlik Ahmad Hokiy. "Yosh Turkiston".
1933-yil iyul. – №. 44.

MILLAT SHAHIDI MUNAVVARQORI RUHINA

Eshitdim Munavvarqorini qizil,
Ayovsiz kesibdir adovat uchun.

Gumon etmas erdim bu vahshiyligi,
Bashardan kutilsin xiyonat uchun.

Munavvarlarning qonin to'kmak nadir,
Karomat yerinda ihonat uchun.

Munavvar gumon etma qonin hadar
Ketar deb uyon qiyomat uchun.

[36] Qurtulush – qutilish, ozodlikka erishish.
[37] Sifl – siflis kasalligi.

Unutma bu millat o'ch olmoqda ko'p
Mahoratli elni himoyat uchun.

Ilmlik jigardan tiniq ruhdan,
Elimga dedim ol adolat uchun.

Bu tarixni zabt et unutma yigit
O'ch olmoqqa bir kun sharofat uchun.

GPUning[38] qaydinda maslak bilan
Munavvar shahid bo'ldi millat uchun.

Abu Nasr Hoji. "Yosh Turkiston".
1934-yil iyul. – №. 55.

MUNAVVARQORI

Yigit ersang, tur, yig'lama tark et bu odatni
Ko'z qadrin anglamoqdadir erlar saodati
Naslingning qonlari ila bo'yalmish bu ko'ylaging
Nechun yotur eling yo'qotib ahli saodatin.

O'ttuz sana munavvar etib xizmat vatan
Ta'lim etardi har na tariq[39] saodati
Oq va qizil, ko'zi ko'k, uzun tishli bo'ridan
O'ch olmasa bo'lurmu qabul el ibodati.

Qatlin eshitgach endi taassufla hatfi
Tarixi Isoviyadagi yavm valodati.
Iymon ila azala etib zar jahlni
El bayrog'in ko'tardi Munavvar shahidni.

Abu Nasr Hoji. "Yosh Turkiston". 1934-yil iyul. – №. 55.

[38] GPU – Главное политическое управление (Bosh siyosiy boshqarma).
[39] Tariq – yo'l.

TURKISTON YOSHLARIGA

Ey Turkiston yoshlari birlashmak zamoni keldi
Kecha-kunduz yotmasdan chalishmoq zamoni keldi
Tutib Chingiz yo'lini savashmoq[40] zamoni keldi
G'ayratlanib yovlarni chiqarmoq zamoni keldi.

O'g'uz kuchi ila bir zamon dunyoni oldi
Jaholat bizlarni qorong'uga soldi
U go'zal Turkiston shimol qo'ynida qoldi
Hozirlanib qurtlarni ovlamoq zamoni keldi.

N.Yo'lchi. "Yosh Turkiston". 1936-yil aprel. – №. 77.

SHARQ NURI

Sharqning qaysi burchagini qarasang,
Yo'qliq, o'lim, zulm, qarg'ish ko'rarding.
Tamug'[41] degan so'zni bilmak istasang,
Sharqni boshdan oyoqqacha yurarding.

Bir zamonlar yer yuzinda o'z boshli,
Ulug' shonli madaniyat tug'dirg'on.
U go'zal sharq shirin tuproq u zamon,
Bo'ldi chetlar panjasida ko'z yoshli.

Sharqning kuni kirsa bulut ostig'a,
Sening sevinch kunlaringni o'ylayman.
Botib borg'on oyg'a qarab oy yo'qsul,
Ulug' nur sevinmasmi? deb so'rayman.

Cho'lpon. "Yosh Turkiston". 1937-yil aprel. – №. 89.

[40] Savashmoq – urushmoq, jang qilmoq.
[41] Tamug' – do'zax.

TARIXIY SIYMOLAR

BIR TURKISTONLIKNING SARVATIGA XIYONAT

(Turkistonlik boy Aminjon Sulaymonov[42] haqida)

Turkistonda rus inqilobi yasag'on bolsheviklar Turkiston xalqining qurtulishig'a (mustaqilligiga – M.Alijonov) tomon intilishiga qurol kuchi ila muqobala etib, uning manglay terila qozong'on butun mahsulotini va anchaq o'z cholishqonliq va mahorati orqasidag'ina to'plang'on sarvatini butunlay g'azb etib[43] barchasini ichki Rusiyaga tashib bitirdilar. Rus proletariyatining tarixda ko'rilmagan bu barbarlig'indan (varvarlik – M.Alijonov) anchaq uzoq sharq, Xitoy, Afg'oniston, Eron va Ovro'pada yashag'on bir necha turkistonliklargina olisda qolib, ming turli mashaqqat bilan to'plang'on sarvatlarining bir qisminigina bolshevik g'azblig'indan saqlay olg'onlar edi. Faqat siyosat yetishmaganlik orqasinda bu bir necha turkistonliklar ham o'z xalqining boshig'a kelgan bu umumiy falokatdan mosuvo qololmay bolsheviklarning turli hiylalariga berilib, ularning "Nep"[44] atalag'on yangi iqtisodiy siyosatlariga aldanib chet o'lkalardagi mol va sarmoyalarini

[42] Ushbu taraqqiyparvar boy to'g'risidagi batafsil ma'lumotni tarixchi olim Bahrom Irzayevning Oyina.uz saytida chop etilgan "Fayzulla Xo'jayev xotinimning akasi bo'lgani uchun jinoyatchi bo'lib qolamanmi?" – Sho'ro otuvga hukm qilgan qorako'lchi monopollarning aybi nima edi" nomli maqolasidan olishingiz mumkin. Qarang: http://forum.oyina.uz/uz/article/1682

[43] G'azb etmoq – talamoq.

[44] NEP (yangi iqtisodiy siyosat) – sovet [davlat]ining kapitalizmdan sotsializmga o'tish davrida amalga oshirgan iqtisodiy siyosati, sotsializm yo'lidagi muhim bosqich. Fuqarolar urushi davridagi iqtisodiy siyosatdan farq qilib, yangi deb atalgan. Bu siyosatning asosini V.I.Lenin ishlab chiqdi. NEP kommunistik [partiya]ning 1921-yilda bo'lib o'tgan o'ninchi syezdida qabul qilingan. Bu siyosat iqtisodiyotning ko'p tarzli bo'lishini e'tirof etdi, erkin tijorat va xususiy mulkni qonunlashtirdi.

vaqtsiz Rusiyaga kirgizmakla so'ngi chaqalarindanda mahrum qoldilar.

So'ng zamonlar Berlin mahkamasinda jarayon etmakda bo'lg'on bir janjal va olmon ham rus muhojirlari matbuotini mashg'ul etgan bir turkistonlikning sarvati[45] ustidagi mojaro ayniqsa Turkiston muhojirlari uchun foje' bir ibrat darsidir.

Olmon mahkamasi (Die II. Zivilkammer des Landgerichts I Berlin) shug'ullanib turgan bu voqea qisqacha shundan iboratdir: Afg'oniston va Olmonyadagi Turkiston muhojirlariga butkul noma'lum bo'lmag'on[46] va Berlinning markazida bir necha muhtasham uylarga ega bo'lg'on Aminjon Sulaymon 1922-yili Olmon bonqasi[47] "Deutsche Bank und Diskonto-Gesellschaft" dan ikki targ'a (Tresor) kiralib bir necha millionlar qiymatini oshadirg'on hissa vasiqalaridan (aksiya) iborat sarvatini omonat etadir[48]. Bundan qisqa zamon o'tkandan so'ng Aminjon bolalarining bir yong'indan talaf bo'lg'onlarig'a oid yurtindan bir teleg'ramma olg'och Buxorog'a ketmak niyati ila darhol Moskovg'a jo'nab ketadir. Shundan keyin uning qayerda ekanligiga oid ochiq bir ma'lumot olish mumkin bo'lmay qoladir. Vaziyat shu holda ekan Aminjonning olmon bonqasidagi sarvatini sovet hukumati turli hiylalarla o'z qo'lig'a tushurmakchi bo'lub qoladir. Berlindagi afg'on safarotida[49] Aminjonning olmon tab'asi bo'lg'onlig'ini, uning Rusiyada yo otilib o'ldirilganligini va yo yo'qolib ketganligini olmon mahkamasiga bildiradir. Faqat bu janjalning ichiga

[45] Sarvat – mol-dunyo, boylik.

[46] Xotuni tomondan Aminjong'a qarindosh bo'lg'on va hol hozirda Berlinda yashaydirg'on buxorolik bir yigit "Yosh Turkiston" boshqarmasig'ada belgilikdir.

[47] Bonqa – bank.

[48] Berlinda chiqadirg'on "Deutsche Allgemeine Zeitung" nomli gazetasining 13.12.1932-sonida chiqqon ertalabki nusxasiga qaralsin.

[49] Safarotxona – elchixona.

Moskovdagi sovet advokatlar uyushmasi hay'at idorasi a'zosindan professo'r Yashunskiy degan birisining Aminjonning "Muxtor vakili" sifatiyla (?!) to'satdan Moskvadan Berlinga kelib chiqishi va Aminjonning olmon bonqasidagi sarvatini talab etishi masalani biroz chuvalturg'on bo'ldi. Haqiqatda, bu Yashunskiy Aminjonning o'z ixtiyoriyla saylab, o'z qo'li ila vakolat qog'ozi yozib yo'llag'on "Muxtor vakili" emas, Sovet hukumati vakilidir. Chunki xususiy mulkiyot haqqini hech tanimaydirg'on Sovet hukumati qanday bir asosga istinod, o'z prinsipiga qarshi, Turkiston "Milliy burjo'y va mulkdori" bo'lg'on Aminjonning Olmoniyadag'i sarvatini qo'lg'a olmoqchi bo'ladir. Mana shuning uchun Olmon mahkamasida Aminjonning "vakolatila" (?) kelganligini iddao etmakda bo'lg'on professo'r Yashunskiyning qo'lindagi vasiqalarning to'g'rilig'ig'a shubha etganligini bildirdi. Mahkama bir necha millionlardan oshadirg'on Aminjonning olmon bonqasidagi sarvatining hozirchalik qaytarilishini va Berlindagi afg'on safarotining da'vosi munosabati ila ochilg'on mahkamaning dalillarini to'plab qat'iy bir da'vo ochilg'uncha muzokarani to'xtatib turajagini e'lon etdi.

Professo'r Yashunskiyning olmon mahkamasiga keltirgan va Aminjonning o'z imzosi ila tasdiq etilganligi so'ylanilgan vasiqalarning soxta bo'lg'onlig'inda zinhor shubha etmaslik kerak. Chunki Aminjonning Moskov safarotxonasig'a bir necha marotaba chaqirilg'onlig'i holda uning sovet tup-rog'idagi olmon safarotxonasig'a bir daf'ada bo'lsun yo'luqa olmag'onlig'i juda tushunarlik bir holdir.

Aminjon tirikmi, surgundami, qamoqdami…bu hikmatni Berlinda aniq bilgan bir kishida ko'rinmay turadir. Mahkama atrofinda esa Aminjon xazinasining ochqichlarini saqlab turgan olmon bonqasi ma'murlari, soxta vasiqalar bilan buklangan sovet ma'muri professor Yashunskiy va vorisliq

iddaosinda bo'lg'on afg'on safaroti turadirlar. Butun janjal Aminjon millionlari saltanatiga hokim bo'lmoq ustidagina javlon etib turibdir. Bizni yolg'iz bir jihatgina aloqalantiradir. U ham: Bir Turkiston boyining sarvati munosabati ila chiqqon mojaro, bir yurtdoshimizning oqibati…

To'qtamish o'g'li. "Yosh Turkiston". 1932-yil. – №. 29.

G'ASPIRALI ISMOILBEK

("Tarjimon" gazetasining chiqishiga 50 yil to'lishi munosabati bilan)

Ismoilbek…

Bu ismni ilk daf'a o'laroq eshitarkan endigina maktab yoshig'a oyoq bosg'on yetti yoshliq kichikkina bir bola edim. Butun kun bola-chaqalari uchun qayg'urg'on otam kechqurun bir holda uyimizga qaytg'onda meni tizzasining bir tomoniga o'tqazub yuzimga qarab: "O'g'lim, ortiq kattagina bola bo'lib qolding. Seni maktabga oborib qo'yay…" dedi. Men esa o'zimdan anchagina ortiq bo'lg'on gavdamga qaraganda og'irroq ko'ringan boshimni liqillatib "Yo'q ota, men maktabga bormayman. Domla uradir…" deb maktabga borishlikdan tortinar edim. Otam meni unatishga[50] urinib: "O'g'lim, seni Qoratut mahallasidagi maktabga emas, Shayhovandtohurdagi Munavvarqorining yangi Ismoilbek maktabiga qo'yaman. U maktabda bolalarni kaltaklamaslar…" derdi.

Bir necha oy o'tkach…og'am meni Shayxhovandtohurdagi shu maktabga keltirib qo'ydi. Bir necha kun kechdi…yosh bolalarni kaltaklamaydirgan bu maktabning "Ismoilbek maktabi" emas, "Na'muna maktabi" ekanligini bilib hayron bo'lib qolg'on edim. Otam yanglishqon edimi? Yohud mudirimiz Munavvarqorining Shayxhovandtohurda "Ismoilbek maktabi"

[50] Unatishga – ko'ndirishga, maktabga borishlikka.

degan boshqa bir maktabi ham bor edimi? Yohud ogʻam meni Munavvarqorining “Ismoilbek maktabi” degan maktabiga olib borish oʻrnigʻa yanglishib, uning “Na’muna” degan maktabiga keltirib qoʻydimi? Mana oʻz-oʻzimga bergan bu soʻroqlarim boshimni koʻpgina ogʻritar edi.

Muallimlarimiz chindanda yaxshi va yumshoq soʻzli, kular yuzli yigitlar edilar. Bularning hech biri mening ogʻalarim va mendan yoshroq qarindoshlarim oʻqiydurgʻon Qoratut maktabidagi yoʻgʻon tayoqli domlagʻa oʻxshamaslar edi. Butun oʻquvchilar muallimlarimizni koʻp suyar edik. Muallimlarimiz ham yoqimli qiliq va totli soʻzlari bilan bizning barchamizni oʻzlariga mahkam bogʻlab olgan edi. Birgina yuqori sinflarda Qur’on va tajvidga[51] doir qoida darslarini beruvchi Abdusome’ qorining oʻtkir qarashlari barchamizni qoʻrqitardi.

Bir kun darsdan soʻng shogirdlar barobar ekan u meni koʻrgach toʻxtadi va yonigʻa yaqinlashgʻonimda boshini to boʻyimgʻacha egib oʻng qulogʻini ogʻzimgʻa qadar keltirdi. Sekingina:

– Afandim, bizning maktab “Na’muna maktabi” toʻgʻrimi?

– Toʻgʻri, buni shu kungacha bilmasmiding?

– Bilardim… faqat bizning yosh muallimimiz Munavvarqorining “Ismoilbek maktabi” degan maktabi qayda?

Maktab hovlisidan to Shayxhovandtohur masjidining zinasiga qadar soʻylashib keldik. Biz bu zina qarshisidagʻi tramvay toʻxtaydirgʻon yerga kelguncha yosh muallim Turkiston bolalarigʻa tez yozuv va tez oʻqituvni oʻrgatadurgan yangi maktablar ochmoq fikrini tarqatgʻon zotning Ismoilbek nominda ulugʻ bir muallim boʻlgʻonligʻini anglatmish va gazeta oʻqiydurgʻon kishilarning bizning maktabga oʻxshash

[51] Tajvid ilmi – “Tajvid” soʻzi arabcha “javvada” (دَوَّجَ) fe’lidan olingan bo”lib, lugʻatda “yaxshilash”, “bezash”, “chiroyli qilish”, “goʻzal qilish”, “mustahkamlash” ma’nolarini anglatadi. Istilohda esa Qur’onning har bir harfini maxraj va sifatlariga e’tibor berib, ma’lum qoidalar asosida tilovat qilish tajvid hisoblanadi.

yangi maktablarga koʻpincha “Ismoilbek maktabi” deb aytadirgʻonlarini soʻylamishdi. Men muallimimning soʻzlarini tinglab, otamning yanglishmagʻonidan sevinib, muallim bilan xayrlashib undan ayrildim. Bundan soʻngra men ham otamgʻa oʻxshab bizning “Na’muna maktabi”ni koʻpincha “Ismoilbek maktabi” deb atab yurdim.

Ismoilbek Gʻaspirali
(1851-1914)

1914-yilning yoz mavsumi. Maktabimizning toʻrtinchi sinfida oʻqirdim. Oʻn yoshda edim. Sentyabr oyining issiq kunlaridan biri – shanba kuni edi. Qarindoshlarimizning bogʻidan oʻtib qaytqonimdan maktabga vaqtida bora olmagʻonimni oʻylab oʻngʻaysizliq sezmakda edim. Toshkentning tekis boʻlmagʻon koʻchalarida yugura-yugura ketarkanman yoʻlda u zamongʻi sinf rahbarimiz – oʻtkir boqishli Abdusome’ qorining baqirishlarini oʻylab yuragimni qoʻrquv bosmishdi. Nihoyat terlab, pishib maktabimizning hovlisiga yetishganimda qiziq bir manzara qarshisida qolmishdim. Butun oʻquvchilar maktabimizning hovlisidagi meva ogʻochlari[52] va soʻrilari ostigʻa yoyilmishlardi. Muallimlarimiz ham hovlining bir chetida doira holida turib soʻylashmakda

[52] Ogʻoch – daraxt.

edilar. “Nima gap?” savolimga sinfdoshlarimdan biri “Bir muallim o‘lganmish. Shuning uchun dars boshlanmayapti” dedi. Ko‘zlarim darhol muallimlarimiz to‘plang‘on tomong‘a tikildi. Ular orasida Munavvarqorini ko‘rmagach nima qilishimni bilmay bo‘zarib qolmishdim. Shu og‘ir daqiqalar o‘tarkan tashqaridan Munavvarqori kirib keldi. Biroz o‘zimga keldim. Demak, o‘lgan boshqa bir muallim edi.

Mudirimiz Munavvarqori muallimlar bilan ko‘rishib, ular bilan qisqag‘ina so‘ylashgandan so‘ng talabalarga qarab: “Sevikli aziz yosh o‘quvchilar! Kechagi juma kuni bayramingizni sizlar har tomonda o‘ynab, kulib o‘tkazayotganingizda biz motam ichida kechirdik. Kecha biz sizga o‘xshash musulmon bolalarig‘a tezgina yozuvni, tezgina o‘quvni o‘rgatadirgan yangi maktablarning pro‘g‘romlarni yasag‘on, bularni o‘z gazetasi orqali barcha musulmon o‘lkalariga tarqatib, millatning uyg‘onuvi va yorug‘liqqa chiquvi yo‘linda katta xizmatlar qilib kelgan ulug‘ muallim, buyuk muharrir Ismoilbekning o‘lganligi xabarini eshitdik...[53] Bu motamni ortiq sizlar bilan birga davom ettirurmiz...”.

U kun dars o‘rnig‘a Munavvarqorining motam munosabati ila so‘yladigi so‘zlarini tinglab uyimizga qaytarkanmiz Hadradagi “Ruskiy-tuzemniy” atalg‘on maktab yonig‘a borg‘onda bu maktabda o‘qiydurg‘on o‘quvchilarning yuksak[54] tovush bilan ruscha bir narsa o‘qug‘onlarini eshitib, bu “yangi” maktabning “jadid” maktabi bo‘lmag‘onlig‘ini ana u zamon sezmishdim.

Bizning Munavvarqori qaramog‘idagi “Na’muna maktabi” ila shunga o‘xshash “Jadid maktablari” Ismoilbekning dunyog‘a ko‘zlarini yumgani uchun ikki kun motam etmishlardi. Muallimlar, yosh fikrli ulamolar va “Jadid maktablari”ning yuqori sinf talabalari esa, anchag‘ina zamon ko‘ksilarida

[53] Ismoilbek 1914-yilning 11-sentyabrda vafot etmishdir.

[54] Yuksak – bu o‘rinda baland manosida.

motam belgilari taqib yurdilar. Turkistonlik Ziyo Said[55] matbuot haqida yozgan bir asarida[56] Turkistonni ruslashtiruv yo‘linda ko‘p tirishqon missioner Ostroumovning[57] Turkiston jadidchilarining ko‘zlarini ochqon “Tarjimon” va “Hayot” (Bakuda Og‘a o‘g‘li Ahmadbek va Alibek Husaynzodalar tarafidan chiqarilmishdir) gazetalarga qarshi qanday hujum etganidan bahs etarkan, Turkiston jadidchilarining “Tarjimon”ni ko‘p sevib o‘qig‘onliqlarini va muharrir Ismoilbek o‘lganda jadidchilardan bir munchasining 30 kungacha o‘z ko‘kraklarini motam belgilari bilan bezab yurganlarinida yozmishdir[58].

* * *

Marhum Ismoilbekning[59] fikrlarini tarqatuvchi “Tarjimon”-ning Turkistonni oqartuv[60] va yorug‘latuv yo‘linda qanday

[55] Ziyo Said – (1901-1938) asl ismi Qosim Dadamuhamedovich Solihov. Toshkent shahrida baqqol oilasida tug‘ilgan. O‘zbek jurnalisti, dramaturgi va tanqidchisi.

[56] Bu o‘rinda Ziyo Saidning kitobi nazarda tutilmoqda. Qarang: Ziyo Said. “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar”. –T.: 1927. –B. 180.

[57] Nikolay Petrovich Ostroumov – (1846-1930) rus sharqshunos va missioneri.

[58] Ziyo Said. “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar”. –T.: 1927. –B. 14.

[59] Ismoil Gaspiralining turmush o‘rtog‘i Zuhra xonim bo‘lib, o‘z davrining ziyoli va o‘qimishli ayollaridan bo‘lgan. Ismoil Gaspiralining jadidchilik faoliyatida uning o‘rni va roli beqiyosdir. Rizouddin ibn Faxriddin ushbu ayol haqida to‘xtalib:“Tarjimon”ning ilk davrlarida yani Ismoilbeyni har tarafdan dushmanlik va qarshilik harakatlari o‘rab olgan paytda unga jasorat bergan va unga ruhan dalda bo‘lgan yagona inson Zuhra honim bo‘lgan edi. Zuhra honim go‘zal, sodda kiyinib, sodda yashashni yaxshi ko‘ruvchi, shu bilan birga Ismoilbeyning yukini yengillashtirishga tirishardi. Kibor va noziktab bo‘lgan bu ayol hassos, marhamatli va mutavoze’ edi. Ismoil Beyning Zuhra honim bilan o‘tgazgan vaqtlari hayotining eng mas’ud davrlari bo‘lgan” deb yozgan. Batafsil ma’lumot uchun qarang: Rizouddin ibn Faxriddin. Mashxur hotunlar (رلنوتاخ روهشم) Orenburg. 1904-yil. Muhammaf Fotih ibn G‘ilmon Karimov matbaasi, – B. 450.

[60] Oqartirish – jadid taraqqiyparvarlari insonlarni johillikdan ilmli shaxslarga aylantirishni “oqartuv” yoki “oqartirish” atamalari bilan ifodalaganlar.

buyuk xizmat qilg‘onlig‘i haqinda umumiy bir qanoat hosil etmak uchun Turkiston jadidchilarining boshlig‘i va buyuk jamoat xodimi sayg‘ili[61] Munavvarqorini tenglamak kerak.

Bundan o‘n bir yil ilgari Munavvarqori tarafidan “Inqilobg‘acha Turkiston maktablari” boshlig‘i ila yozilg‘on bu yozuvning mafhumi “Tarjimon”ning Turkistonning uyg‘onish harakatida va yangi usulda maktablarga ega bo‘lishida qanday muhim rol o‘ynag‘onini ko‘rsatgani uchun bu muhim vasiqa tubanda[62] o‘zicha[63] bosilmoqdadir: “1900-yillarda Turkistonda usuli-jadid maktablaridan hech bir xabar va asar yo‘q edi. Ibtidoiy maktablar – eski maktablar va oliy maktablar esa madrasalar edi. Xorijg‘a chiqib o‘quvchilar uchun Buxoroyi sharifdan yaxshi o‘rin yo‘q, arabcha ila din darslaridan boshqa dunyoda hech bir fan yo‘q, ruscha o‘quvchilar esa kofir[64] edi. Faqat, “Tarjimon” gazetasini o‘quvchilar ichki Rusiya musulmonlari orasidag‘i usuli-jadid maktablari to‘g‘risida bir qadar xabarlar o‘qisalar ham bularning sanalari butun Turkistonda 5-6 tadan oshmas edi. Mana shul vaqtlarda Yettisuv viloyatining To‘qmoq shahrida bir no‘g‘oy domla chiqib, bolalarg‘a yangi usulda e’tiqod va tajvid ilmlari o‘qitarmish degan bir xabar tarqaldi. Toshkentimizning savdogarlaridan bir necha kishini o‘shal ilmlarni o‘rganib kelmak uchun To‘qmoqqa yubordilar. Mannof qori To‘qmoqqa borib bir oy qadar maosh tayin etib, Toshkentning to‘rt dahasidan to‘rtta eski maktabga sayyor muallim etib tayin qildilar. Mannof qori ul maktablarning har biriga navbat ila bir kun borib o‘rganib kelgan yangi ilmlarni shogirdlarga o‘qita boshladi. Men (Munavvarqori) ul zamonda “Tarjimon”

[61] Sayg‘ili – sevikli, yuksak obro‘li.
[62] Tubanda – quyida.
[63] O‘zicha – aslicha, qanday bo‘lsa shunday.
[64] Ya’ni dunyoviy fanlarni o‘qigan kishilar “Kofir” yani “Dindan chiqqan shaxs” deb ayblanar edi.

o‘quvchilaridan bo‘lib usuli-jadid maktablari to‘g‘risida bir qadar ma’lumot hamda bir qadar yangi chiqqon diniy va fanniy risolalar, alifbo va o‘qish kitoblari yiqg‘on edim. Usuli-jadid to‘g‘risidagi xabar va maqolalarni har vaqt ta’qib etib borar edim. Shul sababli Mannof qorining o‘qitishini ko‘rmak va o‘zi ila so‘ylashmak havasiga tushdim. Mannof qorining boradirg‘on to‘rt maktabdan biri menim og‘am A’zamxon domlaning maktabi edi.

1901-yil 15-yanvarda ul maktabga borib Mannof qorining darsini eshitdim. Mannof qori bir jamoa bolag‘a bir soat “O‘quv Qur’on yaxshilab” degan bir sharqi[65] o‘qutdi. 2-soatda: Xudo, Rabbim menim Haqqa” degan bir sharqi o‘qutdi. 3-soatda: esa arabcha bir qasidani arab ohangida bir sharqi qilib o‘qutdi. Shuning ila dars bitdi. Ikkinchi bor ham borib ko‘rdim, yana shul uchinchi navbat bordim, yana shul sharqilardan boshqa bir narsa ko‘rmadim. Faqat sharqi orasida she’rlarning ma’nosidan chiqarib bir qadar tajvid qoidalarin va e’tiqod masalalarin bayon qildi. O‘zi ila so‘ylashdim. U “O‘rganib kelgan yangi ilmlarim shul” dedi.

Mana Turkistong‘a birinchi marotaba kirgan Usuli-jadid Mannof qorining shul sharqilaridan iborat edi.

Boshida xalq bu sharqilarg‘a qiziqib haligi to‘rt maktabni bola ila to‘ldirgan bo‘lsa ham, so‘ngroq borib “Bu yangi maktablarda qilinadirgan boshqa narsa o‘rgatilmas ekan” deb yangi usuldan qayta boshladi. Savdogarlar ham beradurg‘on maoshlarin kesdilar. Shuning ila usuli-jadidning birinchi davrasi Toshkentda tamom bo‘ladir.

Men (Munavvarqori) bu vaqtlarda “Tarjimon”da qanday bir yangi kitobning e’lonini ko‘rsam uni pochta ila oldirib mutolaa qilishg‘a boshladim. Faqat alifboni qay tarzda o‘qitishni bilmayman. Hisobni eski usulda bilaman. 1901-yilning

[65] Sharqi – qo‘shiq, ashula.

fevral oxirida yangi shaharda Mirobod degan bir yerga imom bo'lib bordim, ham shunda bir armanini topib ruscha o'qiy boshladim. Ikki hafta ichida rus harfini tamom qilib bir-biriga qo'shib o'qimoqni o'rgandim. Hisobni yangi yo'lg'a solish to'g'risida undan ma'lumot oldim. Turkcha harflarni ham ruschaga o'xshatib savti-usul[66] ila o'qutg'onda yengil bo'lishini angladim. Shul kunlarda Bog'chasaroyda yangi ochilg'on bir Usuli-jadid maktabining pro'g'romi "Tarjimon"da bosildi. Uni o'qidim. Mana shul kundan boshlab menda muntazam bir Usuli-jadid maktabi ochmoq fikri tug'ildi. Bu xususda mahalla xalqi orasida tashviqot yuritib ularni ham qabul ettirdim. Haftada 12 soat turkcha, 5 soat hisob[67], 2 soat jo'g'rofiya[68], 5 soat diniy darslar qilib 24 soatlik bir pro'g'rom[69] hozirladim. Lozim o'rinlarda haligi armani domladan ma'lumot oldim. Mahalla xalqidan 22 bola yozildi. Endi har narsa hozir. Bir qora taxtagina kerak. Uni ham yasadim. Parta (siyra) o'rnig'a eskicha ishaklar yasadim. 1901-yil 3-iyunda mahalla xalqidan 30 kishi va 22 bolani yig'ib maktabning rasmi-kushodini qildiq (Ta'kid muallifniki). Mana shul kundan boshlab haligi pro'g'rom ila shogidlarni 2 sinfga ayirib yolg'iz o'zim o'qita boshladim. Bu maktab hozirg'acha davom etadir. Turkistonda muntazamroq bir pro'g'rom ila ochilg'on birinchi usuli-jadid maktabi ushbu maktabdir (Ta'kid muallifniki).

Shul kundan boshlab Usuli-jadidning 2-davri kirib kundan kunga taraqqiy eta hozirg'i holg'a keldi. Maktab bir yil qadar davom etgach mahalliy tilda dars kitoblarig'a ehtiyoj sezildi.

1903-yilda bir alifbo tartib etib shogirdlarga undan o'quta boshladim (Ta'kid muallifniki). Bir qadar tajribadan kechgach bosdirishga muvaffaq bo'ldim. Nomini "Adibi avval" qo'ydim.

[66] Savti-usul – tovush usuli.
[67] Hisob – matematika.
[68] Jo'g'rofiya – geografiya.
[69] Pro'g'rom – programma, dastur.

Turkistonda usuli-savtiya ila tartib etilib bosilg'on birinchi maktab kitobi mana shul "Adibi avval" kitobi edi (Ta'kid muallifniki). Imzo: Munavvarqori".

Rus bo'yinturug'i ostidag'i butun turklar, jumladan biz Turkiston turklari milliy uyg'onishimizda buyuk omil bo'lg'on usuli-jadid harakatini "Tarjimon" gazetasining muassisi G'aspirali Ismoilbekdan madyundirmiz[70].

Xalqig'a najot yo'lini ko'rsatgan ulug' muallim va buyuk muharrir Ismoilbek har doim millatning azizlari qatorida eslanajakdir.

Yosh turkistonlik (Tohir Chig'atoy).
"Yosh Turkiston". 1933-yil aprel. – №. 41.

MUNAVVARQORI

Qadarning og'ir zarbalarig'a biz anchag'ina sovuqqonliq ila chidashqa o'rganishib qolg'on edik. Vatanimiz qizil jallodlarining qonli diktaturasi ostida... Turkistonda bu kun Moskov diktaturasina qurbon tushgan bir yo bir necha yaqini uchun qalbida, ruhida motam tutmag'on bir oila yo'qdir. Asablar ham hissizlashib qolg'on va umumiy milliy fojiamizning so'ngsiz teranligi ichinda, hatto eng yaqin odamlarimizning-da ziyoyi sezilmay o'tib ketaturg'on bo'lib qolg'on edi. Faqat, ba'zi ziyolilarda bordirki, bundan og'ir fojialar ichida ham insonning yuragini olovlantirib dahshatli yaralar ochadir... Inson bu ziyolilar haqida xabar olg'oni zamon asablar yangidan avvalgi hassosligini kesib ketadir va butun fojialarni yangidan yashamoqqa boshlaydir...

Mana shunday holni biz hozir yashab turibmiz. Xususiy muxbirimiz uzoq Hindistondan bizga, Munavvarqorining

[70] Madyunlik – qarzdorlik.

Sovet hukumati tomonidan otib o‘ldirilganligi haqinda qisqacha bir xabar yo‘llamishdir. Bu xabar bizga dekabr oyining boshlarida kelib yetushgan esa-da, shoyad to‘g‘ri chiqmas deb ko‘nglimizda saqladig‘imiz umid ila qo‘shimcha ma’lumot kutib turg‘on edik. Biz Sovet hukumatining umuman milliy ruhga, xususan turkchilikka qarshi kurashda hech bir jinoyatdan tortinmayoturg‘onlig‘ini juda yaxshi bilamiz. Buningla barobar biz Munavvardan xayolanda ayrila olmadik. Faqat, birinchi xabarni tasdiqlayturg‘on ikkinchi bir maktub ham yetib keldi…

Munavvarqori Sovet hukumati tomonidan i’dom[71] etilgan (Ta’kid muallifniki).

Munavvarni bolsheviklar nechun i’dom etdilar deb savol berib o‘turmaymiz. Chunki u Munavvar edi. Chunki u, turkchilik mafkurasining, Turkistonda turk milliy davlatchiligi g‘oyasining eng matonatli, sabotli va eng nomusli tarqatuvchisi edi (Ta’kid muallifniki).

Munavvar har zamon Turkistonda yashab turar edi. U ochiq suvratda va Turkistondan, qay yerga bo‘lsa bo‘lsun, chiqib ketishdan bosh tortgan edi.

Munavvar, ruhan teran bir kulturga ega bo‘lib, so‘ng darajada faol bir inson edi. U jonli ish oshig‘i edi, kutilgan tajribalarga yolg‘iz xalq ila to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lish ilagina erishmak mumkin ekanligiga inonar edi. Munavvar, vatanimiz va xalqimizni ko‘p yaxshi tanir edi. U Turkiston sharoitida kundalik yaratilaturg‘on har qanday oz bir jonli ishning tashqaridan bo‘laturg‘on eng dahshatli inqilobiy tashviqotdan qat-qat ortiq foydali va samarali ekanligini bilar edi. Bizni o‘z bo‘yinturug‘i ostig‘a olg‘on dushmanlarimizg‘a qarshi amaliy suvratda qurolli kurash

[71] I’dom etilmoq – qatl etilmoq, o‘ldirilmoq.

yurutishga hozirliqsizlig‘imizni Munavvar bizning boshqa jamoat xodimlarimizning barchasidan ko‘ra yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham u xalqni isyong‘a tashviq etmadi.

Munavvar ko‘p yaxshi bilmishdirki, bizning vazifamizning eng birinchi zarur sharti va asosi – bilim va texnikadir. Bu sababdan u Turkiston yoshlarini bilimga targ‘ib etar edi.

Munavvar, yuzlarcha yosh turkistonliklarning muallimi edi. U, Turkiston yo ishlarig‘a yolg‘iz o‘quv-yozuvnigina emas, juda ko‘p darajada ularg‘a o‘z vatanini va o‘z xalqini sevishni o‘rgatdi. Turkchilik va Turkiston milliy davlatchiligi g‘oyalarining zafar topishi yo‘lidag‘i kurashga faol suvratda qatnashg‘on va hali ham qatnashayotg‘on Turkiston yoshlarining – ko‘pchiligi bo‘lmag‘on taqdirda – buyuk[72] bir qismini Munavvarning maktabidan chiqqanlar tashkil etadi.

Munavvar, so‘zning tom ma’nosi ila, Turkistondag‘i inqilobchi va taraqqiyparvar millatchilikning[73] mujassam timsoli edi. Uning tarafidan daha Chorliq idorasi vaqtinda vujudga keltirilgan maktablar, yosh Turkiston inqilobiy millatchiligining haqiqiy yetakchisi edi. Ruslarning “yerlilar uchun” ochqon eski yarim missioner, yarim po‘lis maktablarini ma’nan o‘ldirgan mana shu Munavvarqorining maktablari bo‘lg‘on edi.

Turkiston yosh naslining muallimi, ruhan ruslashtiruvchiliqning kelishmas dushmani, turkchilik mafkurasi va otashli vatanparvar bo‘lg‘on Munavvar, o‘zining yetuk siymo bo‘luvi ilada, ruslashtirish ishinda eski Chorliq Rusiyasi amaldorlarini necha qat keyinda qo‘yib ketgan Moskov bolsheviklarini rohatsizlantira oldi…

[72] Buyuk – Bu o‘rinda “Katta” ma’nosida.

[73] Bu va keyingi o‘rinlarda “Millatparvarlik” mazmunida qo‘llanilgan.

Munavvarqori
(1878-1931)

Bolsheviklar Munavvarni bir necha qat qamoqqa oldilar. Uning uyini tintuv qildilar. Uyida arobalar[74] to'la kitoblar va har turli qog'ozlar olib ketdilar... Uni bir qancha vaqt qamoqda saqlag'ondan so'ng yana chiqarib turdilar. Chunki Munavvarning zabt etilgan qog'ozlari ichida Sovet hukumatiga uning ustidan ochiq muhokama qilish uchun asos bo'larliq bir narsa topolmaydilar. Munavvar o'zining har bir odamini ta'qib etayotg'onlarini, har so'zini yashirin suvratda eshitib turg'onliqlarini ko'p yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham u har bir xususda so'ng daraja ehtiyotli edi. Lekin o'zining butun milliy-inqilobiy faoliyatining tuhumlarindan, mevalarindan voz kecha olmadi va voz kechmak istamadi. U kommunist firqasi saflarida ham Turkistonning milliy qurtulishi yo'linda mujodala[75] davom ettirarkan yosh turkistonliklardan

[74] Aroba – arava.
[75] Mujodala – kurash, jang.

ko'pining muallimi edi. Munavvarning sarbast tafakkur tarzi, axloqiy matonati va milliy tashviqotlarining tozaligi, uni tanig'onlarning barchasining qalbini muqnatis[76] kabi o'ziga tortar edi.

Mana shuning ham Sovet hukumati uni i'dom etishga qaror bermishdir. Bolsheviklar Munavvarni mahkamasiz[77] o'ldirdilar. Hamda Munavvarni ular hech qanday sovet hududidagi buzg'unchi harakati yuzasidan o'ldirmadilar. Maxsus turk milliy mafkurasini tashig'oni, milliy uyg'onishimizning mujassam timsoli va ruslashtiruvchiliqning har bir shaklining kelishmas dushmani bo'lg'oni uchun o'ldirdilar (Ta'kid muallifniki).

Munavvar o'ldirilmishdir... Biz ortiq uning o'rta va to'lg'ung'ina qomatini, jonli va qop-qora ko'zlarini ko'rmayajakmiz. Uning tovushini bir daf'a eshitmayajakmiz...

Bundan yuz yil qadar avval (1841-yilda) mashhur olmon olimi Fridrix Lest yozmishdi: "Ayrim inson va insoniyat orasida, o'zining ayrim tili va adabiyoti ila, xizmati va tarixi ila, maxsus axloq va odati ila, qonun va muassasalari ila, mavjudiyat, istiqloliyat, taraqqiy, abadiy turarli haqlari ila, egallagan yeri ila bir millat turadir... Bashariyatning madaniylashmasi yolg'iz millatning madaniylashmasi va inkishofi yo'li bilangina mumkindir va tushunila bilir..."

Bu hozirg'i kunning haqiqatig'a o'xshamaydirmi? Bu abadiy haqiqat emasmi? Munavvar bu abadiy haqiqat uchun, xususiy turk tili va turk adabiyoti uchun, turk tarixi uchun, o'z xususiy tarixiy yerimizda mustaqil hayot uchun, turk atalmoq haqqimiz uchun, turk xalqining madaniylashishi va inkishofi uchun o'lmishdir (Ta'kid muallifniki). Moskov bolsheviklari Munavvarni mana buning uchun o'ldirmishlardir.

Yuragida o'z vatanida o'zi og'a, o'zi ega bo'luv haqqi uchun kurash o'ti yong'on turkistonliklar, ayniqsa Turkiston yoshlari, barchamiz qalbimizda Munavvarga yuksak ma'naviy

[76] Muqnatis – magnit.
[77] Mahkama – sud.

shaklni tashiydurmiz. Munavvarning bolsheviklar tomonidan o'ldirilishini biz Moskva hokimlarining bizning milliy ruhimizni o'ldirmak qasdini tamsil etadurg'on bir harakat deb qabul etamiz. Bunga biz milliy mujodalamizni kuchaytirmak va teranlashtirmak ila javob berishimiz kerak. Biz yolg'iz bu usul ila buyuk vatanparvarning, Turkistonda turkiylik g'oyalari uchun kurashgan aziz Munavvarning xotirini loyiq darajada hurmat qila olamiz va qilamiz ham.

* * *

Muxbirimiz Ayniy maktubinda bolsheviklar tomonidan Salimxon Tillaxon ila To'lagan domlaning ham i'dom etilganini bildiradir. Bularning eskida ko'p ko'zga ko'ringan va milliy harakatimizda ahamiyatli rollar o'ynag'on siymolardir. Munavvarning o'ng qo'li bo'lg'on Salimxon, yosh naslimizning aholi orasinda eng sevilgan va milliy g'oyamizg'a chin ko'ngildan berilgan muallimlardan biri edi. Sovet hukumati qachon Munavvarni hibs ettirsa, Salimxonni ham uningla barobar hibs ettirar edi. Endi Munavvar ila birlikda uni ham o'ldirdilar.

Shayxhovandtohur (Shayxhontovur) madrasasining bosh mudarrisi bo'lg'on To'lagan domla, inqilobning birinchi kunlaridayoq, harakatimizning boshqa jabhasinda maydong'a otildi. U o'z vaqtida "Ulamo jamiyati"[78] deb atalg'on kolorikal (yani davlat idora ishlarida ruhoniylarning kuchli o'rni

[78] "Ulamo jamiyati" – 1917-yilning iyun oyida xonlik va shariatga asoslangan avlat barpo etishni maqsad qilgan din arboblari tomonidan tashkil etilgan jamiyat. Raisi Abdumalik hoji Abdunabiyev, faol vakili Sherali Munaypatovich Lapin, Sadriddin Mufti Sharifxo'jayev, Miyon Buzurk Miyon Solihov, Abdusayifxon Saidg'anixon o'g'li va boshqalar ushbu jamiyat faoliyatida ishtirok etganlar. Ushbu jamiyat 1918-yil 13-mayda Turkiston ASSR hukumati qarori bilan tarqatib yuborilgan. Qarang: Ahmedov S. Qizil mustamlaka: e'lon qilinmagan urush. T.: "Info capital books". 2022. –B. 600-601.

bo'lishi tarafdori) jarayonining eng bosh asoschilaridan biri edi. "Ulamo jamiyati"ning, Turkistonning milliy uyg'onishi bobinda o'ziga maxsus va "Jadidchilik"ni qabul etmaydurg'on bir pro'g'romlari bor edi. Lekin umumiy milliy tahlika qarshisida oradag'i bu farqlar yo'qoldi va "Ulamo jamiyati" ham ayni "Jadidlar" kabi Turkistonning milliy qurtulishi uchun mujodala etmishdir. "Ulamolar" ila "Jadidlar" orasindag'i bu janjal o'zaro bir oilaviy janjaldan iborat edi va rus bolsheviklariga bu ishga qorishmoq[79] haqqi berilmagan edi. To'lagan domla, gruppachilik chegaralarining va tortishuvlarining butkul yo'q qilinishi lozim ekanligini va milliy dushmang'a qarshi umumiy kurashda Turkistonning butun kuchlarini birlashtirmak zarur ekanligini birinchi galda anglag'onlarning biri edi. Sovet hukumati uni oktyabr inqilobining boshlaridayoq qamoqqa olg'on edi. U zamon i'dom etilishga ham hukm qiling'on edi. Lekin Munavvar bir yo'lini topib uni bolsheviklarning panjasidan qutqarib olg'on va To'lagan domla Rusiyaga surulgan edi.

* * *

Munavvar, Salimxon[80], To'lagan domla – Turkistondag'i rus proletariyati diktaturasining so'ngi qurbonlari emasdir.

79 Qorishmoq – aralashmoq.

80 Salimxon Tillaxon – (1898-1931) Toshkent shahrining Podaxona mahallasida suvoqchi oilasida dunyoga kelgan. O'zbek madaniyat xodimi. Dastlabki ta'lim-tarbiyani Hasanxo'ja Xoniy va Eshonxo'ja Xoniy maktablarida olgan. So'ng Munavvarqori Abdurashidxonovning "Na'muna" maktabida olgan. Ustozining quvvatlashi va tavsiyasi bilan 1916-1917-yillarda Baku pedagogika institutining iqtisodiyot bo'limida o'qigan. U Bakudan qaytgach O'qituvchilar uyushmasida (1918-1920), "Turk adam markaziyat" (1919-1921), Toshkent eski shahar xalq maorifi bo'limi komissari (1920-1921), Ayollar maorif instituti mudiri (1922-1923), "Nashri maorif" uyushmasi kabi tashkilotlarda faoliyat olib brogan. "Milliy ittihod" ishi doirasida Munavvarqori bilan bir qatorda hibsga oligan. 1931-yil 23-hibsga Moskva shahrida otib tashlangan. 1989-yilda oqlangan. Qarang: Ahmedov S. Qizil mustamlaka: e'lon qilinmagan urush. T.: "Info capital books". 2022. –B. 363-364.

Yillardan beri sovet turmalarinda, surgunlarda azob chekayotg'on ko'p-ko'p ma'ruf[81] odamlarimiz haqida hech bir ma'lumotimiz yo'qdir. Ulardan qanchasi yo'qoldi? Tirik qolg'onlari bormi, yo'qmi? Bu to'g'rida hech bir narsa bilmaymiz... Balki, qadar bizga yangi qayg'uli xabarlar hozirlamoqdadir...

Salimxon Tillaxon
(1898-1931)

Bizning Turkistonda va boshqa turk o'lkalarinda Sovet hukumati butun milliy turk mafkurasini tashuvchilarni muntazam bir suvratda yo'q qilmoqdadir? Mana endi Munavvar ham o'ldirilmishdir. Boshqa qancha odamlarimiz bir yoqda tursin, Ahmad Boytursun[82] qaydadir? Mir

[81] Ma'ruf – taniqli, xalq tanigan.

[82] Ahmad Boytursun – (1873-1938) shoir, olim, turkolog, tarjimon, pedagog, publitsist va jamoat arbobi. 1873-yil 28-yanvarda Tosinsk volosti To'rg'ay uezdida dehqon oilasida tug'ilgan. Ahmad Boytursun dastlab To'rg'ay uyezdidagi rus-tuzem maktabida (1886-1891), keyin esa Orenburgda (1891-1895) o'qigan. 1920-yilda RKP (b) safiga kirgan, 1921-1928-yillarda Qozog'iston xalq ta'limi institutida ishlagan, qozoq tili va adabiyoti, tarixi va madaniyatidan ma'ruzalar o'qigan. 1928-1929-yillarda Ahmad Boytursun Qozoq davlat universitetining

Yoqub Davlat[83] qaydadir? Alixon Bukayxon[84], Abdullaxo'ja qaydadirlar? Biz, matbuotimizda sovet vaxshati qurbonlarini yozamiz: Bolsheviklar tarafidan turkchilikning eng qiymatli mumassillari[85], milliy kultur sohasinda eng katta siymolarimiz uzluksiz o'ldirilib turilg'onliqlari haqinda yozib turamiz.

professori bo'lgan. 1937-yilda esa qatag'onlarning yangi to'lqini paydo bo'lgach, u yana hibsga olindi. 1938-yil 8-dekabrda esa Axmad Boytursun "Xalq dushmani" sifatida nohaq ayblanib otib tashlandi.

[83] Mirqoyub Davlat – (1895-1935) shoir, yozuvchi, publitsist, pedagog. U A.Bukeyxonov va A.Boytursunlar bilan birga XX asrda qozoqlarning milliy o'zligining anglashining tiklanishida katta hissa qo'shgan. Miryoqub Davlat 1885-yil 25-noyabrda Qustanay viloyatining Sariko'pa qishlog'ida tug'ilgan. 1913-yilda Sempalatinsk shahrida qozoq xalqi tarixidagi birinchi oshlarga yordam berish fondi "Janar"ni tashkil etdi. Bu yillarda u Alash harakatini ham tashkil etishda faollik ko'rsatdi, partiya dasturini yozishda ishtirok etdi. 1916-yilgi mardikorlikka olinish qaroriga qarshi kurashdi. 1922-1926-yillarda Orenburgdagi Qozoq xalq maorif institutida o'qituvchilik qilgan. Shuningdek u, Petropavlovsk va Sempalatinsk sud tashkilotlarida hamda Qizilo'rda matbuotida faoliyat ko'rsatgan. Miryoqub Davlat 1928-yilda hibsga olinib, 1930-yilda o'lim jazosiga hukm qilingan. Jazo keyinchalik 10 yillik lagerga surgun qilinish jazosi bilan almashtirilgan. Miryoqub Davlatov 1935-yilda Salovka lagerida 1935-yilning 5-oktabrida og'ir kasallikdan vafot etgan. U 1988-yilda oqlangan.

[84] Alixon Bukayxon – (1866-1937) Alash o'rda hukumati raisi (1917-1920) bo'lgan. Omsk texnik maktabini, keyinchalik Sankt-Peterburg davlat universitetini iqtisodiy fakultetini tamomlagan. Alixon Bukeyxanov Abay Qo'nonboyevning birinchi biografi bo'lgan. U haqida gazetada bir nechta maqolalar chiqargan. 1905-yilda Konstitutsiyaviy demokratik partiya (kadet) a'zosi bo'ldi. 1913-yilda mustaqil „Alash Partiyasi"ga asos solgan va 1917-yilga kelib yangi Alash o'rda muxtor davlati tashkil topishida faol ishtirok etgan. 1917-1927-yillarda Alixon Bukeyxanovga bolsheviklar tomonidan mafkuraviy va siyosiy bosimlar o'tkazilgan. Alixon Bukeyxanov Moskvada SSSR Markaziy nashriyot uyida qo'lga olingan va 1937-yil 27-sentabrda SSSR Oliy sudi tomonidan oliy jazoga hukm qilingan.

[85] Mumassil – tamsil qiluvchi.

Biroq, boshleviklarning bizga qarshi qilib turg‘on bu vahshiyliklariga qarshi bizga qardosh va do‘st sanadig‘imiz millatlar tarafidan hech bir pro‘test[86] tovushi, birgina bo‘lsa ham qayg‘umizg‘a nisbatan darddoshlik so‘zi eshitmaymiz… Bizning turk milliy fojiamiz mana shu o‘lik kabi tovushsizliq va so‘ng darajada parvosizliq yuzindan qat-qat ortmoqdadir.

Mustafo Cho‘qay. “Yosh Turkiston”.
1934-yil yanvar. – №. 50.

YO‘LBOSHCHIMIZ MUNAVVARQORI

Turkiston xalqining so‘ng 30-35 yilliq tarixini obyektiv bir ko‘rish ila tekshiruvchi kishilarning uning har sahifasida yo‘liqmasdan o‘ta olmaydigan bir shaxsiyat bordir. Odatda bu davrning jonli haykali, jonli tarixi demak bo‘lg‘on bu kishi Munavvarqoridir.

Turkiston xalqi ichidagi yangi uyg‘onish harakatining har tarmog‘ini tekshira boshlasangiz unga Munavvarqorining ismisiz kirib bo‘lmaydir.

Xalqimizning kirib qolgan falokatini, bu falokat yo‘lining mazlum hadafini[87] to‘g‘ri ko‘rib, unga ko‘ra choralar qidira boshlag‘on kishi Munavvarqori edi. Ichida bo‘lganimiz asrning boshlarinda yurtimizg‘a kira boshlag‘on “Usuli-jadid” maktablarining haqiqiy shaklini Munavvarqori maydong‘a qo‘ydi. U hech bir vositasiz boshladig‘i bu ishni istar rus hukumati, istar mutaassiblar zumrasi[88] tarafidan ko‘rdigi qarshiliqlar, og‘irliq, haqorat hatto yegan tayoqlarg‘a qaramasdan davom ettirdi. U o‘z matonati, o‘z ishchanligi orqasinda oz vaqt ichida jadidchilik oqimini yoqlovchi bir xalq

[86] Pro‘test – norozlik.
[87] Hadaf – bu o‘rinda “Oqibat” ma’nosida.
[88] Zumra – jamoa, guruh.

jamoasini, uni qalbida tashuvchi bir yoshlar dastasi yetishtira bildi. Har ikki sinf odamlarini ham jadidchilik oqimini bir amri-voqe’[89] o‘laroq qabul etishga majbur etdi. Jadidlashgan ulamoning chiqa boshlovi, rus maorif idoralarinda muhim mavqeyi bo‘lg‘on missioner Ostroumovning Munavvarqorig‘a qarshi tahdidkor so‘zlar so‘ylay boshlovi buning ilk nishonalari bo‘lsa, bu kungi hodisot uning tamom muvaffaqiyatini juda ochiq ko‘rsatmakdadir. Munavvarqori ila barobar o‘ldiriluvchilarning biri To‘lagan domla, vaqtiyla Munavvarqori rahbar bo‘lg‘on jamoa boshliqlarindan edi. Demak, Munavvarqorining to‘g‘ri fikrlari bir necha yil ilgari yon-atrofdagilarni ham bu yo‘lda boshlarini tikajak darajada o‘ziga bog‘lay bilmishdir.

Toshkentdagi Munavvarqorining o‘zi tarafidan idora etilgan ibtidoiy[90], rushdiy[91] “Na’muna” maktabi o‘quvchilari yildan-yilga ortib mamlakatning har tarafina yoyilg‘on jadid maktablari bir tarafdan eski maktablar, ikkinchi tarafdan rus hukumatining yerli xalq uchun tuzdigi maktablarga qarshi bir tahlika shaklini olmishdi.

Jadid maktablari qurila boshlang‘och tabiiyki o‘rtaga darsliklar masalasi chiqdi. Bu ehtiyoj qarshisida Munavvarqorini muallif holinda ko‘ramiz. Uning “Adibi-avval”lari Turkiston maktablarining ilk ko‘rgan “Usuli-jadid” darsliklari edi. Munavvarqori dars berar ekan, bu darslardagi orttirgan tajribalariga suyangan holda darsliklar hozirlash uchun urindi. Bunday yerli[92] kuchlar tarafidan hozirlang‘on darslik, kitoblarni nashr etish, boshqa turk o‘lkalarida chiqqon darslik, kitob va nashriyotini Turkistong‘a kiritib tarqatish uchun bir nashriyot shirkati yaratdi.

[89] Amri voqe’ – voqeilik talabi bilan.
[90] Ibtidoiy – boshlang‘ich.
[91] Rushdiy – yuqori.
[92] Yerli – mahalliy.

Jadid maktablarining taraqqiysina mone' bo'lishni vazifa qilib olg'on rus idorasi boshqa turk o'lkalaridan kelgan bu Turkiston jadid maktablarida muallim bo'lishlarini istamaslar, unga mone' bo'lurlar edi. Shuning uchun Munavvarqori jadid maktablarini muallim kuchlari bilan ta'min etish yo'llarini ham qidirmoq majburiyatida edi. Turli yo'llar ila muallim yetishtirmak choralarini qidirg'on Munavvarqori turkistonlik yoshlarni har tarafg'a yuborib o'qitish, bu suvratla asosli kuchlarga erishish kerakligini ham unutmadi.

Mana shunday tasavvur etish mumkin bo'lmag'on qiyinliqlar, og'irliqlar ichida boshlab inkishof[93] etgan jadid maktabi 1917-yili inqilobg'a kirar oldinda yerli masjid yani eski maktablar ila, rus hukumati maktablariga qarshi qat'iy g'alabasini nishonlash holida edi. Chor hukumatining inkishofina mone' bo'lmoq istadigi bu Turkiston asri milliy maorif muassisi Sovet hukumati tarafidan bitirildi. Aslinda go'yo har uch jins (turli) maktabda bitirilgan yerinda bir jins Turkiston sovet milliy maktablari tug'ilajak edi. So'ngradan ko'rdilarki, eski masjid yani maktab davom etdi. Ruscha yerli maktablarning vazifasini sovet maktabi o'z ustiga olmish bo'ldilar. Orada bitirilgan mana shu Turkiston milliy jadid maktablarigina bo'ldi.

Munavvarqori bundan butkul ma'yus bo'lmadi. U o'z ishini vaziyat va sharoitining musoidasina[94] ko'ra davom ettirishga qaror berdi. Butun jadidchi muallimlar hatto Munavvarqorining o'zi sovet maktablariga muallim bo'lib yozildilar. Faqat ko'p o'tmadi Sovet hukumati bularning barchasini millatchi deb maktablardan quvib chiqardi.

Munavvarqori o'zining inqilobga qadar bo'lgan 17 yilliq muallimligi davrida yurti uchun ko'p qiymatli asarlar yaratdi. Bu kungi Turkistonning xarakteri – iymoni, o'xshashi

[93] Inkishof – kashf etmoq, topmoq.
[94] Musoida – holat, vaziyat.

yo'q eng qiymatli yozuvchilari ichida Munavvarqorining ko'rdingingiz kabi, milliy g'oya uchun sovet jahannamlarinda, muzli shimollarga surgun qilingan yoshlarning ko'pchiligi u yetishtirgan iymonli kishilardir. Munavvarqori talabalarining ko'pchiligini Turkistonning ilmiy, madaniy, milliy, siyosiy kurash saflarinda ko'ramiz. Nihoyat Munavvarqori Turkiston milliy qurtulush kurashi yo'linda ixtiyor etdigi abadiy sayohatinda rafiqlikni olgan yo'l orqadoshi, jonli xarakter Salim Tillaxon ham uning o'z qo'li ila yetishtirgan talabasidir. Bu kungi sovet maktablarindagi hodisalardan Munavvarqori faoliyatining, to'suqliqlarg'a rag'man, inqilobdan so'ngra ham samarasi bo'lmag'onligini ko'ramiz. Turkiston gazetachilig'i tarixini tekshirsangiz turkistonliklarning da'vosini, fikrini zamonga muvofiq bir suvratda eng ochiq, eng qat'iy bir shaklda ifoda etgan ilk nashriyotning Munavvarqori asari, Munavvarqori gazetasi bo'lg'onlig'ini ko'ramiz.

Munavvarqorining "Na'muna" maktabi o'quvchilaridan Tohir Chig'atoy

Turkistonliklarning asri jamiyat, tashkilot qura boshlovlari masalasiga kirsangiz boshida Munavvarqorini uchratasiz. Turkistonda ilk boshlag'on "Jamoati xayriya" uning "asari"dir.

Turkistonliklarning asriy siyosiy kurashlarga qatnashuvlari masalasiga ko‘z solsangiz eng olg‘i[95] saflarda Munavvarqorini ko‘rasiz. 1917-yilgi inqilobi bilan boshlang‘on “Sho‘royi-islomiya” tashkilotlari boshdan Munavvarqorining ismi ila bog‘lang‘ondir. Bolshevik inqilobindan so‘ng Turkiston milliy borlig‘ining tamsili yo‘lida otilg‘on butun odimlar, ko‘rilgan butun ishlarda Munavvarqorini rahbar holida ko‘rasiz. U bu boshladig‘i ishlarini hayotining so‘ngiga qadar muvaffaqiyatla davom ettirdi. Mana shu Munavvarqorini so‘ngi o‘ttiz yilliq milliy harakatimizning “Jonli haykali” deb atamoqchimiz.

Chorliq Rusiyasi oxrankasidan[96] boshini saqlab 30 yildan beri Turkiston milliy harakatini boshqarib kelg‘on Munavvarqori ham qizil rus jallodlarining kirli, qonli pan-Wjalaridan qurtula olmadi. Millionlarcha turkistonlikning boshini yegan bu jallodlar nihoyat Munavvarqorini ham qatl qildilar. Demak, 30 yildan beri Turkiston millatchilari boshlig‘i bo‘lg‘on Munavvarqori bu kun yuz minglarni tashkil etgan milliy kurash shahidlari ichiga qorishdi. U endi milliy kurashni ma’nan-ruhan quvvatlovchi aziz shahidlarning boshlig‘idir.

Butun Turkiston yoshlari uning buyuk ruhi qarshisida bosh egar va buyuk muallimning qoldirg‘on muqaddas vazifasini sadoqat va sevgi bilan davom ettirajak.

Aziz shahidlarimizning boshlarini tikib qozong‘on bir haq bo‘lsa, u ham mozorlari ustinda muqaddas milliy istiqlol bayrog‘ining hirpiranmasidir. Munavvarqori uchun yarashadigan bir obida mana shudir. Buni yaratmoq Turkiston xalqi, Turkiston yoshlarining muqaddas bir burchidir.

Yashasin haq va milliy istiqlol! Bitsin ajnabiylar zulmi va terror!

Tohir (Tohir Chig‘atoy). “Yosh Turkiston”.
1934-yil yanvar. – №. 50.

[95] Olg‘i – oldingi.
[96] Oxranka – Chor hukumatining mahfiy politsiyasi.

USTODIMIZ MUNAVVARQORI

XIX asr turk xalqina to‘rt turli siymo bag‘ishlamishdir. Bular ilk marta o‘laroq jaholat uyqusina botmish turklarni uyg‘otdilar va millatimizga najot yo‘lini ko‘rsatdilar. Turkiyada Mustafo Rashid Poshsho kabi g‘oyat botir zot yetishib chiqib turk xalqining uyg‘onishida ilk muhim asos sanalib kelgan mashhur “Hatti Humoyun”ni yozdi, e’lon etdi (1858-yil 18-fevralda) va turli og‘irliqlarg‘a chidab, uni amalga oshirdi.

Ozabayjonda Mirza Fathali Ohundzoda kabi amsoli nodir[97] bir shaxsiyat o‘lmas asarlar yaratgan holda Kafkaziya turklarining yumuq ko‘zlarini ochdi. Qrim esa butun turklar uchun qayg‘uruvchi Ismoilbek kabi yuksak bir zakoni berdi. Bu uch turk o‘lkasining yetishtirgan uch turli ulug‘ siymoning Turkistondag‘i o‘rnig‘a bizning Munavvarqorini qo‘yamiz.

Turkiya turklarining uyg‘onishi va najot yo‘lini hozirlag‘on Mustafo Rashid Poshsho uzun zamon Parij va London safarlarida bo‘lib, G‘arbiy Ovro‘pani[98] ichidan tanig‘on va Ovro‘pa madaniyatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan edi. Mirza Fathali Ohundzoda esa ruscha ma’lumoti vositasi ila g‘arb madaniyatining negizlarina oshno bo‘la olg‘on edi. Ismoilbek o‘rta tahsilni Moskovda ko‘rgan, ikki yil Parijda yashab Ovro‘pa turmushining ich va tash yuzini ichidan tanig‘on, so‘ngra Istanbulg‘a kelib turk matbuotini muntazam ta’qib etmak orqasinda muhim ilhomlar ola bilgan va Istanbulda ekan muharrirlik maslakiga intisob[99] etgan bir zot edi. Bizning Munavvarqori hech qanday asriy maktab va asriy muhit ko‘rmamishdir. Uning xususiyati mana shu nuqtadadir. U o‘z ilmiy ma’lumotini islom-turk madaniyatining qoldiqlarindan sanalg‘on va musbat, madaniy ilmlar nomig‘a hech bir narsa

[97] Amsoli nodir – o‘xshashi yo‘q.
[98] Ovro‘pa – Yevropa.
[99] Intisob – qiziqmoq, mehr qo‘ymoq.

o‘qilmayturg‘on Turkistonning eski madrasalaridan olg‘on edi.

Islohot yo‘llarini va fikrlarini eng ko‘p Bog‘chasaroyning “Tarjimon”idan[100] (1883-1918) eshitgan Munavvarqori, Istanbuldan diniy, fanniy risolalar, alifbo va o‘qish kitoblari keltirib bu asarlarni mutolaa etmak orqasida o‘zini o‘zi yetishtirib, “Usuli-jadid” to‘g‘risida to‘liq ma’lumot to‘plag‘ondan keyin, jaholatning qalin bulutlari ila qoplang‘on Turkiston muhitini oqartuv uchun zehnida mukammal bir pro‘g‘rom yasamishdir. U bu prog‘romni sirasiyla va harfan tatbiq etmak azmi ila ishga boshlar ekan har tarafdan dushmanlar qarshisinda qoldi. Boshida Turkistonning u zamondag‘i ba’zi qora ulamosi[101] orqalarinda xalqimizning johil tabaqasi va bularning tepasida Chor hukumati Munavvarqorig‘a qarshi chiqdilar. Munavvarqorining bunday qo‘rquvli sharoit ichida qanday chalishqonlig‘i[102] tushunilsa uning erkaklikka fidokorlig‘i, uluviyati[103] har kimga aniqroq anglashilsa kerak. Munavvarqori bizning Turkistonda milliy maorif, milliy nashriyot va milliy mafkurachilikning sog‘lom tuhumlarini[104] sochqon va ming turli og‘irliq va to‘suqliqlarg‘a qaramasdan bularni ko‘kartirishga muvaffaq bo‘lg‘on bir

[100] “Tarjimon” gazetasi – ushbu gazeta Qrimning Boxchasaroyida 1883-yil 22-apreldan 1918-yilning 2- fevralgacha odatda haftada bir marta 4 sahifadan iborat holda (ruscha nomi Переводчик) nashr etilgan va 1904 yildan keyin haftada ikki, uch yoki besh marta nashr etilib borilgan. Ismoil Gaspirali gazetani chiqarish uchun to‘rt marta Peterburgga bordi va nihoyat, 1882-yil 5- (17) avgustda Qrimning Rossiyaga qo‘shib olinganlining 100 yilligi munosabati bilan gazetani chop etishga ruxsat oldi. Uning nomi 1905-yilda “Tarjiman-i ahval-i zamon” deb o‘zgartirildi va 1909-yilda gazeta nomi yana qayta “Tarjimon”ga qaytarildi.

[101] Bu o‘rinda “Mutaassib ulamo” degan ma’noda qo‘llanilgan.

[102] Chalishmoq – harakat qilmoq.

[103] Uluviyat – yuksaklik, ulug‘lik.

[104] Bu o‘rinda “Urug‘” ma’nosida.

zotdir. Uning ochg‘on milliy maktablari Turkistonning minglarcha bolalarig‘a milliy ruh bergan va ularni yurt ham millat suyuklisiga aylantirg‘on.

Bu satrlarni qoralovchining o‘zi ham Munavvarqorining Toshkentdagi “Na’muna” maktabida 6 yil o‘qug‘ondir. Shuning uchun mana bizning ustodimiz Munavvarqorining Turkistonimizning har tomonig‘a yoyg‘on “Jadid maktablari”ning ich yuzini yaxshiroq taniyman desam yanglishmasam kerak. Bizning o‘z Turkiston bolalari, turk bolalari, Chingizxon va Temur o‘g‘illari ekanligimizni ilk marotaba zehnimizga o‘runlashtirg‘on va bizga yurt ham millat sevgisi, milliy “Men”lik bergan maktablar shul “Na’muna” maktabi kabi milliy o‘choqlar bo‘lg‘ondir.

Munavvarqorining “Na’muna” maktabi o‘quvchilaridan Abdulvahob O‘qtoy

Munavvarqorining “Na’muna” maktabinda biz tarix va jo‘g‘rofiya darslari tinglar ekanmiz, Kafkaziya, Qrim va Idil bo‘ylarining atroflari bizning Turkiston kabi turk yurti bo‘lg‘onlig‘ini va butun turk-islom dunyosining birgina mustaqil mamlakati o‘laroq tez-tez Turkiyani eshitardik.

"Namuna" maktabidagi muallimlarimiz bizga butun turk-islom dunyosi uchun qayg'uruvchi muharrir, adib, shoir, muallim va davlat kishilarining Istanbulda o'turg'onlarini, turk sultoni yashayturg'on bu shaharda yangi usulda turli maktablar borlig'ini va Istanbulning butun turk musulmonlari uchun madaniy o'choq sanalaturg'onini so'ylar edilar. Shuning chun biz "Na'muna" maktabi o'quvchilari, to kichik yoshda ekan, yuragimizda Istanbulg'a borib o'qimoq va yurtimiz, millatimiz uchun xodim[105] bo'lib yetishmak tilagini (qalbimizda) tashir edik. Ko'pchiligimiz bu tilak orqasidan ketdik. Faqat og'ir sharoitni yengib o'tmak barchamizg'a muyassar bo'lmay qoldi.

Bizning maktabimizdagi atlaslar, xaritalar, globus (Kurrayi-arz) va boshqa shularg'a o'xshash o'qituv jihoz-larining barchasi Istanbulda yasalg'on va yo u yerda hozirlang'on edi. O'qitsh uchun kerak bo'lg'on bu narsalarning barchasini Istanbuldan sotib olib keltirgan edilar. Shubhasiz bu ham bizning zehnimizda Istanbulning butun turklar uchun madaniy bir markaz bo'lgonlig'i qanoatining yerlashib qolishinda muhim rol o'ynag'ondir.

Munavvarqori "Jadidchilar davri" atalg'on uyg'onish davrimizning eng buyuk siymosi va bizning Turkistonda milliy maorif, milliy nashriyotimizning boniysidir[106]. U Turkistonning taraqqiyparvar, millatparvar naslining ilk ustodi, ilk mohir gazetachisi, ilk mutafakkiridir. Munavvarqori Turkistonning eng ishlikli bir jamoat xodimidir.

"Tarixni fardlar yopar"[107], "Tarix – tarjimayi hollardan, ayniqsa atoqli kishilarning tarjimayi hollarindan iboratdir" derlar. Menimcha, biz ham "Turkiston tarixining o'tkan

[105] Xodim – xizmatkor.
[106] Boniy – asoschi.
[107] "Tarixni fardlar yopar" – tarixni shaxslar yaratar.

asr so'ngidan boshlang'on uyg'onish davrining boshida Munavvarqori turdi" va "Turkiston tarixining "Jadidchilar davri" dastlab Munavvarqorining tarjimayi holidan iboratdir" desak yanglishmaymiz. Chunki Munavvarqori bizning chorak asrliq Turkiston tarixining eng muhim bir siymosidir. Bu sayg'ili nurli siymoni tekshirmak milliy tarixchilarimizning bo'yunlarig'a tushadurg'on vazifadir.

Munavvar, o'z ismig'a yopishaturg'on nodir bir xilqat edi. Uning fitrati zakovatindan sochilg'on nurlar Turkistonning qora muhitini ko'pdan yorug'latib, xalqimizning uyushuq[108] ko'zlarini ko'pdan ochmishdir. Uyg'ong'on xalqimiz o'z yo'lini ortiq aniq belgilab, o'z milliy amali orqasindan yugurmakdadir. Dushmanning qilichi, to'pi uni bu yo'lindan to'xtata olmas. Bilaks, oqizilib turg'on qonlar, berilib turg'on qurbonlar, shahidlar bizning intiqom hissimizni kuchaytirib, bizning istiqlol azmimizni kun-kundan ulg'aytirmoqdadir.

Buyuk ustodim Munavvarqorining pok ruhiga fotihalar…

Burung'i "Na'muna" maktabi o'quvchilaridan:
Abdulvahob.

Abdulvahob O'qtoy. "Yosh Turkiston".
1934-yil yanvar. – №. 50.

MARHUM SAYYID ABDULLOH

Boshqarmadan: Hindistondagi Dehli shahrida madrasada o'qib yurgan turkistonlik talabalardan oling'on maktubda toshkentlik tug'onimiz Sayyid Abdulloh afandining vafot etganligi xabarini o'qidiq. Bu, Sayyid Abdulloh afandini bilgan har bir turkistonlikni ko'p qayg'uraturg'on qora bir xabardir. Sayyid Abdulloh afandi Turkistonda ekan milliy harakatimizga yaqindan qatnashib, faol suvratda ishlashib kelgan ochiq

[108] Uyushuq – yumuq.

fikrli munavvar vatandoshlarimizdan edi. So‘ng chog‘larda vatanda qolib ishlash hech mumkin bo‘lmag‘onidan marhum Hindistong‘a o‘tib chiqqon edi ham Peshavorda ko‘p harakat etdi, turkistonlilar orasig‘a birlik fikrini tarqatib yurgan edi. Og‘ir hastalig‘ig‘a boqmasdan milliy ishlarimiz yo‘lini quvib Dehliga kelgan edi. Bu yerda hastaligi ulg‘ayib, 1933-yilning 22-noyabrida 47 yoshda ekan vafot etmishdir. Alloh marhumni rahmat aylasin, yotg‘on yerini yumshoq etsin. Marhum Sayyid Abdullohning xotiri uchun tubanda uning “Yosh Turkiston” (jurnali) boshqarmasig‘a maktubindan, joy ozlig‘indan, ba’zi parchalarni bosmoqdamiz[109]:

“Ey bahodir yosh Turkiston qahramonlari! Bizlar ota va og‘alaringiz tog‘ma tog‘ otda va piyoda yurib butun 35 million Rusiya turk musulmon mazlumlarining oh va dodini tog‘, cho‘llar orasida yotg‘on g‘ayur va qahramon afg‘on birodarlaringiz qulog‘ig‘a yetkazib bolsheviklarning vaxshatlaridan ularni ogoh qilib yuramiz. Emdi umidimiz vatan ichidagi va xorijdagi shijoatlik, g‘ayratlik va himmatlik yosh qahramon turk bolalarig‘a bog‘liqdir. Bu yoshlar dilida qaynab, jo‘sh va xuruj qilib turg‘on muhabbat, vatan va istiqlol bu yoshlarni, bolsheviklarning Turkiston ustig‘a qilib turg‘on g‘addor xiyonat, zulm, sitam, barbod din va barbod vatan, barbod nomus, barbod davlat va tahqirlari bularning sabr kosalarini to‘ldirib toshirdi. Bularda emdi sabrg‘a vaqt qolmadi. Kecha-kunduz fikr va zikrlari istiqlol, vatan uchun kuyib yonmoqda, faqatg‘ina fursatg‘a muntazirdirlar. Har kun har tarafdan mamlakatdagi oliy va o‘rta maktab talabalarining istiqloli vatan yo‘lida harakatlarini eshitib turamiz. Ilgari bizlar ilmsizlik va ittifoqsizlik yo‘lida mundog‘ qurbon va barbod bo‘ldiq. Emdi alhamdulilloh o‘zimizdan oliy va o‘rta maktablar bitirib chiqqon do‘qtur, injener texnikachilar

[109] Maktub Peshavordan 1933-yilning noyabr oyi boshlarida yuborilg‘on.

yuzlarcha emas minglarcha ko‘rinib turadir. Emdi biz vatan idorasi uchun boshqalarg‘a muhtoj emasmiz. Turkistonning qahramon yoshyurak turk bolalari har bir jihatdan vatan istiqloli va idorasiga kofiy[110] va shofiydirlar[111]. Hamisha menim ko‘zimdan Turkiston shaharlarida istiqlol bayrog‘i ostida Turkiston yosh turk bolalari ko‘kraklarini kerib saf-saf bo‘lib o‘tib turadirlar va o‘tib turishlarig‘a iymonim komildir.

Sayyid Abdulloh
(? –1933)

Albatta Turkiston bolalarining ruslarni o‘zimiz sahrolarig‘acha quvib olib borishlarig‘a iymonimiz komildir. Hamda Turkiston mazlum va mazluma xotin-qizlarining nomuslarini g‘addor zolim qo‘lida bolsheviklar oyog‘i ostidan xalos qilmoqlarini mazkur mazlum va mazlumalar ikki quloq va ikki ko‘zlari ila oh deb yo‘llarig‘a intizor chekib turadirlar.

Yashasin yangi quruladirg‘on Turkiston islom jumhuriyati. Yashasin Turkiston islom jumhuriyatini qurishda kecha-kunduz tinmasdan g‘ayrat qilib yurgan Turkistonning yosh qahramon turk bolalari. Yashasin ko‘zim o‘ngida Turkiston

[110] Kofiy – kifoya qilguvchi.
[111] Shofiy – mas’ul.

qal'alari ustida salom qilib xirpirab turg'on istiqlol bayrog'i. Yashasun Turkiston yoshlari birligi!".

Sayyid Abdulloh Toshkandiy
"Yosh Turkiston" jurnali. 1934-yil yanvar. – №. 50.

ORIF KARIMIYNING AZIZ RUHIGA

"Yosh Turkiston"ning 53-sonida qiymatlik, vafodor, kasbdoshim Orif Karimiyning vafoti tafsilotini o'qib Munavvarlarning[112] musibati ustiga yanada chiday olmasliq musibatlarga duchor qoldim. Bir tarafda Dehlidagi millatparvarlarimiz, Munavvarlarimiz kesilib, otilib, surilib qirilmoqda, turli g'am-g'ussalar ichida o'lib ketmakda ekan xorijdagilardanda bunday o'lim xabarlari ularning toqat va chidamlariga og'ir bo'lg'onlig'i har bir millat bolasiga ma'lumdir. Buningla barobar bu musibatlarga sabr etib "Inna lillahi va inna ilayhi roji'un"[113] demakla vazifamizda davom etmak burchimizdir.

Marhum Orif Karimiyning tarjimai holi va sarguzashtlari uning daftarlarindan chiqarilib va yod etilib uni yaqindan tanig'on do'st va qardoshlari tarafindan albatta mufassil suvratda yozilir. Manim ila barobar ko'rilgan ishlar haqinda yozishni muvofiq topmag'onimning sababi uning qarindoshlariga anglasilsa kerak. Buningla barobar marhumning qudrat, faoliyatiga ilova sifatida vafosini, rostgo'yligini, azmini va matonatini va mushkulot daqiqalaridagi sabr va sabotini ibrat uchun shu jumlalarni yozmasdan qololmayman.

Marhum Orif Karimiy aslan bir ilm va iymon xonadonida tug'ilmishdir. Otasi marhum Karimiy afandi ixlos va

[112] Munavvarqori, Salimxon Tillaxonov va To'lagan domlalarning qatag'on etilgani nazarda tutilmoqda.

[113] "Albatta, biz Allohnikimiz va albatta, biz Unga qaytguvchimiz". "Baqara" surasi 156-oyat.

diyonatinda komil bir inson bo'lg'oni uchun bolalarini asri ilm[114] ila tarbiya etmakla barobar ularg'a diniy, axloqiy tarbiya berishni ham aslo yoddan chiqarmagandir. Shuning uchun bolalari ilm, fazilat va hush odobi ila butun elning rag'bat va hurmatini qozongan shaxsiyatlar bo'lmishdir.

Orif Karimiy Bolqon muhorabasi[115] chog'inda milliy va diniy hissiyoti sababli Turkiyaga o'tib turk o'rdusi[116] qatorinda mujohada etib, bir yelkasidan yaralanib vujudinda mujohidlik nishonini olg'on edi. So'ngra doimo milliy ishlarga qatnashg'on Orif yurti bolshevik rus istilosi ostina tushgandan so'ng ham ularga qarshi kurashdi. 1920-yil ikkinchi daf'a Turkistong'a (Toshkentga) keldi. Milliy mujodala uchun har holda hamsoya hukumatlarning yordamiga qo'l uzatmoq ehtiyojinda ekanimizni majlis arz etganidan so'ng, Yaponiya hukumatiga murojaat etish uchun o'zi va rafiqi saylanib yo'llang'on edi. Hatto jamiyati aqvoma qadar erishib Cho'qay o'g'li Mustafobekla barobar choralar izlamakka amr olg'on

[114] Asri ilm – zamonaviy ilm, zamonaga xos ilm.

[115] Bolqon urushlari – Bolqon yarim orolda 1912-1913-yillarda bo'lib o'tgan ikki urush. Birinchi Bolqon urushi (1912-yil 9-oktabr-1913-yil 30-may) Bolqon ittifoqi (Bolgariya, Serbiya, Gresiya, Chernogoriya) bilan Turkiya o'rtasidagi urush. London sulh shartnomasi (1913-yil 13-may) ga ko'ra, mag'lub Turkiya Istanbul va Sharqiy Frakiyaning bir qismidan boshqa Bolqondagi barcha mulklaridan mahrum bo'lgan. Ikkinchi Bolqon urushi (1913-yil 29-iyun - 10-avgust) — Bolgariyani Serbiya, Chernogoriya, Gresiya va ularga qo'shilgan Ruminiya va Turkiyaga qarshi urushi. Urush Bolgariyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Buharest sulh shartnomasiga (1913-yil avgust) ko'ra, Bolgariya Ruminiyaga Janubiy Dobruja, Gresiyaga Makedoniyaning janubiy qismini va G'arbiy Frakiyaning bir qismini, Serbiyaga Makedoniya shim. kismining deyarli hammasini berishga, Turkiyaga Adrianopol (Adirna) ni qaytarishga majbur bo'ldi. Bolqon urushlari xalqaro ziddiyatlarning keskinlashuviga, 1914-18-yillardagi Birinchi jahon urushining tezlashuviga yo'l ochib berdi.

[116] O'rdu – qo'shin, armiya.

edi. Fazoning hukmi ila yo'lda tutilib, maqsadga erisha olmay askari polis (usubi e'tidol) qo'lig'a tushib qolib, bu ish butun Turkistonda dahshatli bir ta'qibga asos bo'lg'on edi. Natijada besh kishi javobgar sanalib, mahkamaga tortilg'on edik. Da'vogo'yi muftiy umum Turkiston markaziy "Milliy ittihod" qo'mitasining rayosati ila va marhum Orifbek ayni qo'mitaning faol a'zosi va namoyondasi bo'lmoqla, o'quv uchun yo'llanayotgan Yusufbek Qurbonboy ismli bir yosh ham a'zo va namoyondalikla, tarbiyamda bo'lg'on shogirdim marhum Muhammadyor Umarboy o'g'li, vafot etganini eshitgan do'stim Rustambek Niyoz Muhammad o'g'li faol a'zolar sifatida ayblangan edik. Natijada marhum Orifbek ila mahkama asnosinda so'z erkinligidan ham mahrum tutilg'on da'voyi muftiy i'doma, Yusufbek bir yarim yilliq hibsga mahkum etilib, Rustambek va Muhammadyorlar ozod etilgan edilar.

Orif Karimiy (1892-1934)

So'ngradan Orifbek bilan menim haqimdag'i i'dom jazosi ham besh yilliq hibs jazosig'a aylantirildi. Orqasidan i'domg'a hukm etilgan toshkentlik (Orqa ko'chalik) Abdullohjon

bolsheviklar qo'liga tushmasdan milliy kurash safida vazifasini so'ngiga qadar o'tadi. Anvar poshshoning shahodatindan[117] so'ng Haramayni sharif[118] ziyoratiga erishib 1924-yilda vafot etib Muallaqa qabristonig'a dafn etilgan. Alloh rahmat etsin. Yusufbekni surgunda deb eshitamiz.

Orifbek ikkalamiz ustimizda ketib turg'on jarayonlarni bilib, sezib turar edik. Bizning i'dom qarori mahkama tarafidan qaytarilib oling'on bo'lsa-da, Turkiston maxfiy bo'limlari va boshqa idoralar tarafidan i'dom uchun har turli naqshlar chizilib turilg'onidan voqif edik. Bularning ustiga Anvar poshsho da'vati yuzasidan, uning amriga erishmak uzra qo'mita tarafidan amr olg'onimiz uchun hibsxonadan qochib ketmoq luzuminda qoldiq. Hibsxonadan ayri-ayri ayrilg'onimizdan marhum Orifning yo'li O'ratepa tarafga tushib, manim yo'lim esa takror Farg'ona tarafga ketdi. 8 oy so'ngra Zarafshon va Fulg'or vodiysinda takror ko'rishdik. Qishni bu yerda muhoraba ila o'tkazib, Masja begi Sayyid Ahmadxon Nizomiddinxon eshon o'g'lining suv idorasindan anketa ochirib, otlarimizni qoldirib, Qorateginning qorli tog'larida yayov yo'lg'a tushg'on zamonimizda yonimdan marhum Orif Karimiydan boshqa Ibrohim, Hibatulloh, Ayyub, Islom degan zobit tatar tug'onlarimiz bor edilar. Orqamizda rus kuchlari bizni ta'qib etmakda edi. Men toqatim yetmay yurolmay qoldim. Yonimdag'ilarg'a ijozat berdim. Menga qarasangizlar barchamiz tutilamiz. Har holda bandani Allohga havola etib, sizlar tez-tez ilgari yuringlar. Men esam bir chora ko'rarman deganimda, marhum Orifbek "Muftiy afandi, siz bu so'zlarni kimga aytasiz! O'ylanmang, hech istiholasiz rayingizni so'ylang. Biz sizni qoldirib, o'zimizni qutqaruvchilar tugalmiz[119]. O'lim ekan barobar o'lurmiz, najot ekan barobar

[117] Shahodat – shahidlik.
[118] Haramayni sharif – haj ziyorati.
[119] Tugalmiz – emasmiz.

yasharmiz. Sizni qoldirib o‘zni qutqarajaq qadar tuban sifat tarzda onadan tug‘ilmadiq” dedi (Ta’kid muallifniki).

Muftiy Sadriddinxon (1878-1946)

Bu chin insonlarning fidokorona so‘zi, vafodorlig‘i menga qanoat berib, bu oqshom tog‘ ostiga qaytib istirohat etishni maslahat berdim. Nihoyat qorlarda namat uzra sudrab quruq yerlarda yelkasiga orqalab shu shaklda Qorateginga salomat o‘tkazdilar. Shu fidokorliqlar birgina shaxsimni hurmat uchun emas, balki turk millati va Turkiston hurmati, muhabbati uchun edi. Bino alayhi, bu kiroyim-an-nafs va husnul-vafo ahboblarimning madyun shukron va ixloslari edim. Afsuski, muqobilinda husni-muomala uchun tavfiq yetishmasdan diydorlar oxiratga qolmishdir. Emdi qo‘limdan kelguncha duolar va sadoqat yo‘llab bu tatar tug‘onlarimizg‘a madyun shukrona ekanimni elga yoyib e’tirof etmak ila qanoatlanmakdan o‘zga chora qolmadi.

Orif Karimiy Turkiston va Idil-Uralning balkida butun turk millatining eng qiymatli va samimiy xodimlaridan edi. Uning

bunday ish chog‘inda oramizdan ayriluvini eshitgan har bir turkning yuragi titrar, uni tanig‘onlarning ko‘zlari yoshlanir.

Muhtaram Orif Karimiy! Rahmon egam senga husni vafo va sodiq azimatlaringga qat-qat ortiq ajrlar berib, rahmati soyasinda seni, ota-onalaringni rahmat aylagay. Sa’y va kushoyishlaringning samaralarini millating nasib va muyassar qilg‘ay.

Muftiy Sadriddin. “Yosh Turkiston”.
1934-yil iyun. – №. 55.

BUYUK TURKISTON SHOIRI ABAY

Turk xalqi adabiyoti ichida eng boyi qozoq xalq adabiyoti desak hech ham yanglishg‘on bo‘lmaymiz. Qozoqlarda shariat va falsafiy tushunishning kuchli bo‘lg‘onlig‘ini maktablarimizni kezib qozoqlar ichida bo‘lg‘on ko‘p yot tekshiruvchilar ham so‘ylaydilar. Keng dala, yuksak tog‘lar, yaylovlarning tabiati tirikchilik tarzining bergan keng imkoni qayg‘usizliq kabi omillar ham xalq ichida bunga keng imkon hozirlamishdir. Qozoq adabiyoti bitmas-tuganmas bir xazinadir. Hamda u boshqa bunday xalqlarning adabiyoti kabi sun’iy emas. U tabiiy, ijtimoiy turmushning har tomonig‘a qo‘l otmishdir. Tarixiy hodisalarni ko‘p usta[120] shakllarda anglatuvchi qozoq xalq adabiyoti ichida ko‘pgina fikriy, falsafiy nuqtayi-nazarlar o‘rtag‘a qo‘yuvchi asarlar ham uchratiladir. Chunki eski qozoq adabiyoti yolg‘iz xalq tomonidan yetishtirilmish asarlardangina iborat bo‘lmasdan uning ichida mashhur oqin (shoir)larning ham asarlari ko‘pdir.

Qozoqlarning ko‘chaba[121] hayot tarzi yozuv bilan aloqani biroz kechiktirmishdir. Bu muhitda bo‘lib o‘tgan butun hayotiy

[120] Usta – mohir.
[121] Ko‘chaba – ko‘chmanchilik hayot tarzi.

hodisalar kabi adabiyot ham uzun zamon ogʻizdan ogʻizga oʻtgan holda yashamishdir. Bu hol koʻp qiymatli asarlarning belgili, tor muhitgʻa munhasir qolib, vaqt oʻtib unitilib mahv boʻlishiga sabab boʻlmishdir. Buningla barobar qolgʻon asarlar ham bir boyliq oʻlaroq koʻrsatuvga yetarliq, yararliq xazinadir. Bu xalq adabiyoti asarlari ichida "Qoʻzi koʻrpach va Bayonsuluv"[122], "Qiz jibak", "Oymon choʻlpon", "Boʻz jigit" va boshqalar kabi mafhum va miqyos e'tibori ila juda keng asarlar ham koʻpdir.

Buningla qozoq adabiyotida yozma asarlar yoʻqdir, deb anglashilmasin. To islomni qabul etganidan beri qozoqlarda ham yozma adabiyot koʻpgina uchratiladir. Faqat bu adabiyot tezgina islomiyat va uningla kelgan kultur oqimi ta'siri ostiga tushib ketmakla til va xarakter nuqtai nazaridan yuqorida soʻylaganmizdek xalq adabiyotidan ayrila boshladi. Bularda koʻproq islomiy ruh va arabcha, forscha soʻz, atamalar koʻriladi. Xalq adabiyoti tilidagʻi sofliq bu yerda koʻrilmay boshladi. Turmush tarzi inkishof etdikcha bu adabiyot ham tarmoqladi. Ilk davrasinda nuqul din talqini ila ugʻrashqon bu adabiyot ham turli istiqomatlarda yozila, koʻrula boshladi. Shuni ham bilishimiz kerakki, tashdan kelganlarindan qat'iy nazar aytadigan boʻlsak, qozoq adabiyotinda yanada ogʻzaki (shifohiy) xalq adabiyoti hokim bir vaziyatda davom etdi. Ogʻzaki adabiyotda eski qozoq xalq adabiyoti ruhi hokim boʻlsa, yozma adabiyotda ichiga kirib borgʻon madaniyat jamoasi koʻrinishi hokim edi. Turli tarmoqlargʻa ayrilishidan qat'iy nazar, bu yoʻldagʻi inkishof XIX asrning oʻrtalariga qadar davom etdi. Bu davrda oʻrtagʻa chiqqon buyuk qozoq shoiri Qoʻnonboy oʻgʻli Abay[123] adabiyoti butunlay oʻzgartirdi, unga

[122] Qoʻzi koʻrpach va Bayonsuluv" asari 1927-yilda Turitin ismli rus shoiri tomonidan ruschagʻa tarjima qilingan.

[123] Abayning haqiqiy ismi Ibrohimdir. Oʻzi oʻrta yuz, ozgʻin, urugʻining "Tabuqtiy" silsilasidandir.

butunlay yangi istiqomat berdi. u oʻz asridagi milliy ruhda yoza boshladi. Abay rus adabiyotiga, uning vositasi ila Ovroʻpaning yangi adabiyotidan ham voqif edi. Faqat bu voqiflikni qozoq ovulindan, keng dalasindan va shu keng daladan oʻz taqdirini qidirgʻon xalqdan ayirmadi. U eski qozoq adabiyotidagʻi xalqchiliqgʻa asriy (zamonaviy) millatparvarlik shaklini berdi. Abay she'rlarinda xalqini tanurgʻa, tanituvgʻa urindi. Xalqning kamchiliklarini koʻrsatib toʻldirmoqchi boʻldi. U xalqini, yurtining, uning tabiatini tasvirladi. U porloq kechmishini sogʻinib esladi, eslatdi. Yurtidagi xalq vaziyati, ogʻirligʻi uchun qaygʻurdi. Xalqini kelajak uchun hozirlanishgʻa, maorif va madaniyatgʻa chaqirdi. Abay qozoq yoshlarini, xalqini, yurtini oʻrganuvga, uni sevishga, unga xizmat etishga undadi.

Rus tekshiruvchilari[124] Abayni rus adabiyotidan Pushkin va Lermontovni yaxshi biluvchi va ularga taqlid etuvchi deb koʻrsatadirlar. Bolsheviklar ham uni "Dala aristokratlaridan" boʻlgʻoni uchun "Feodalizm va boylar millatchiligining" tarafdori deb koʻrsatadirlar.

Bizningcha Abay qozoq adabiyotiga muassir, milliy ruh va shakl beruvchi haqiqiy milliy adabiyot refoʻrmatori – islohotchisi edi. U bu vazifasini oʻtash uchun yetarlik darajada kuchga ega edi. Abayning ta'qib etgan adabiy boʻgʻin butunlay uning ta'siri ostida, u boshlagan yoʻl ila bordi. Qozoq adabiyotinda birdan bir yangilik ruhi hokim boʻlib ketdi. Ahmad Boytursun, Miryoqub Davlat, Sulton Mahmud, Qarosh oʻgʻli va boshqalar Abay adabiy maktabining mumtoz siymolaridir. Ahmad Boytursun va Miryoqub Davlat yolgʻiz qozoq adabiyotida emas, umum Turkistonning qurilishinda, uning soʻngi 25-30 yilliq davrinda, eng muhim rol oʻynagan kishilardir. Har ikkisi ham bu kun Sovet Rusiya hukumati tarafidan muzli shimolgʻa surgun etilmish Turkiston millatparvarlari ichindadir.

[124] Tekshiruvchilar – bu oʻrinda tadqiqotchilar manosida.

Abay o‘z xalqining ovul sharoitindan ayrilmadi. U qozoq ichida, ovulida o‘tirib yozdi. Shuning uchun ham u o‘zi hayot ekan keng Turkiston dalalarining har tarafinda lozim qadar tanilib ulgurmadi. Uning asl shuhrati 1908-yilda asari “Abay o‘lanlari” nomi ila bosilib chiqqanidan so‘ng bo‘ldi. Biroq taassufki, bu zamon buyuk shoir tarixga qorishqon edi (vafot etgan edi). Buningla barobar u o‘z muhitida sog‘lom negiz yaratib qoldirg‘on, qozoq adabiyotinda uning ta’siri o‘zini ko‘rsatib, Abay maktabi qurila boshlag‘on edi.

Mana shu yurtiga, xalqiga mislsiz xizmat etmish buyuk shoirning o‘limiga o‘ttiz yil to‘ldi. Essizki, uning qiymatli asarlarindan xalqimiz bemalol foydalan olmaydi. Chunki yurtimizda hokim qizil rusliq butun Turkiston milliy adabiyoti qatorida uning asarlarini ham Turkiston xalqidan uzoq tutmoqdadir. Inqilobning ilk davrlarinda takror bostirilg‘on Abayning majmua asari bu kun maktablardan, sotuvdan, umumiy kutubxonalardan o‘quvchilarning foydalanuvlarindan uzoqlashtirilg‘on. Istalgan rus millatchi shoiri va yozuvchisi asarini topa olish imkoniga ega bo‘lgan Turkistonda Abayning asarini topa olmaysiz. Buning sababi ma’lum: rusliq, ruschiliq!

Faqat bu harakatlar bo‘sh va foydasizdir. Chunki Abay kabi milliy shoirlarning asari ila Turkiston xalqi orasida “Sad Chin”[125] yaratish imkoni yo‘qdir. Na qadar shiddatla mone’lik qilsalar-da xalqning o‘z ruhindan chiqmish bu asarlar uning zehniga oqmoq yo‘lini topajakdir.

Eson Tursun. “Yosh Turkiston”.
1934-yil sentyabr. – №. 58.

ABDULLA AVLONIY

Toshkentdan oling‘on xususiy bir xabarda Abdulla Avloniyning shu yil (1934-yil nazarda tutilmoqda – M.Alijonov)

[125] Sad Chin – Xitoy devori.

25-avgust kechasi to‘satdan vafot etganligi bildirilmakdadir. Avloniyning o‘limi ila Turkistonning “jadidchi nasli” deb atalg‘on yana bir siymo yo‘qoldi. Bu o‘lim tabiati ila butun turkistonliklarni qayg‘uratadir.

Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkentda tug‘ilmishdi. Ibtidoiy tahsil zamonining masjidi yani maktabinda ko‘rmish, haqiqiy savodini esa madrasadan olmishdir. Abdulla Avloniyning tabiatidag‘i ilmga havas uni mutolaag‘a shavq etmish va bu suvratla uning zehni asriy fikrlar bilan to‘lmishdi. Abdulla Avloniy ham o‘z yoshindag‘i jadidchilarg‘a o‘xshab o‘z-o‘zini yetishtirib, o‘z xalqining madaniy, ijtimoiy va siyosiy qayg‘ularini anglaydigan saviyaga erishgan bir zot edi. U 26 yoshdan boshlab Turkistondag‘i jadidchilik harakatining olg‘i qatorlarida turib, bir tarafdan muallimlik qilib Turkistonning yosh bo‘g‘inini asriga uyg‘un qilib yetishtirishga, digar[126]tarafdan 1905-yilgi inqilobdan so‘ngra tug‘ilib o‘sa boshlag‘on Turkiston milliy matbuotig‘a yaqindan qatnashib qalami ila xalqining uyg‘onishi uchun tirishib[127] keldi. Uning matbuot materiallardagi yozuvlari ayniqsa she’rlari Turkiston xalqining zehnida asri maktab qurmoq, asri turmushg‘a intilmoq va yurtidag‘i yabanchi (begona) kuchga qarshi asr bo‘yicha kurashga hozirlig‘ini ko‘rmak boblarinda ko‘p muassir bo‘lmishdir.

1917-yilgi inqilob butun Turkiston jadidchilari kabi Abdulla Avloniy uchun ham o‘ng‘ay harakat qilish yani Turkiston xalqining madaniy, siyosiy tilaklarina ko‘ra harakat imkonini hosil qildi. Bu imkon uzoq turmadi. Essizki, tarix rus bolsheviklariga taraf jilovlandi. Turkiston xalqining chorliq idorasi tazyiqi orqasinda hozirsizliqsiz qolg‘onlig‘i Moskov bolsheviklarining bizning Turkistonda ham muvafaqqiyatini

[126] Digar – boshqa.
[127] Tirishmoq – harakat, jiddu-jahd qilmoq.

ta'minladi. Turkiston Muxtoriyati hukumati yiqitilib, uning o'rniga turkistonliklar qatnashishi ta'qiqlangan Turkiston sho'ro jumhuriyati quruldi… Bu vaziyat Turkiston jadidchilar orasinda ikki turli fikr oqimini uyg'otdi. Bir qism jadidchilar marhum Munavvarqori rahbarligida firqa va hukumatga kirmasdan Turkiston milliy jumhuriyatini saqlab qolarliq turli yo'llar ila harakat etib borishni yoqlag'on bo'lsalar, ikkinchi qism jadidchilar firqag'a kirib, firqa va hukumat muassasalarindan istifoda etarok milliy g'oya yo'lida chalishmoqni tarjih etmishlardi. Abdulla Avloniy mana shu so'ngg'i qismda edi. Shunng uchun u 1918-yilda kommunist firqasiga kirdi. 1919-yili Abdulla Avloniy Turkiston sho'ro jumhuriyatining Afg'onistondagi bosh konsuli etib belgilandi. Biroq, bolsheviklar ichki va tashqi siyosatda kuchaygach, davlat ichlariga qatnashib turg'on jadidchilarni mas'ul o'runlardan uzoqlashtira boshladilar. Ular jumladan Abdulla Avloniyni ham konsullik vazifasidan mahrum etdilar. Abdulla Avloniy takror muallimlikka qaytdi va Toshkentning turli maktablarida til muallimligi qilib, ayni damda Til-atama qo'mitasida ishlab turdi.

Bir daf'a firqaga boshi bog'lanib qolg'on kishining o'zini qutqara bilishi ko'p og'irdir. Abdulla Avloniy ham bu og'irliqni o'z boshida ko'rdi va sezdi. U firqa ichida turib o'zining anglagan va istagan siyosiy harakatini yurg'iza olmayturg'on bo'ldi. Uning faoliyati yolg'iz maorif va madaniyat sohasinda, "Firqa bosh chizig'i"ning belgilab bergan tor chegara ichidagina ishlashdan iborat bo'lib qoldi.

Abdulla Avloniy 1931-yilda professorliq darajasini olib, Toshkentdagi O'rta Osiyo kommunist oliy qishloq xo'jalig'i maktabida til darsi kursini ishg'ol etib, ul zamondan beri shul maktabda muallimlik qilar, hamda O'zbekiston davlat nashriyotinda chalishar edi.

Abdulla Avloniy inqilobdan burung'i Turkistonning milliy matbuot va milliy maorif hayotinda ulkan izlar qoldirgan siymodir. U Turkistonni rusliq tarafidan ma'ruz[128] qoldig'i og'ir sharoit ichida chidamlik ko'rsatib, xalqig'a buyuk xizmatlar qilmishdir. Shul sababdan Abdulla Avloniy nomini turkistonliklar sog'inch bilan eslarlar.

Abdulvahob O'qtoy. "Yosh Turkiston".
1934-yil oktyabr. – №. 59.

ESHONXO'JA XONIY

Sultonbek afandining bergan ma'lumotiga ko'ra, bir necha yil G'arbiy Turkistonda bolsheviklar ila kurashgan, o'zining millati, dini uchun chalishqon Eshonxo'ja Xoniy Sharqiy Turkistondan Hindistong'a kelarkan Sanjav dovonida kuchli isitma og'rig'i ila vafot etmishdir.

Eshonxo'ja Xoniy afandi, Munavvarqori, Salimxon, Mustafo Cho'qay afandilar bilan birgalikda millat uchun ko'p xizmat etib, so'ngg'i yillarda Munavvarqori va boshqalar qamoqqa oling'on chog'ida bolsheviklardan qochib Sharqiy Turkistong'a o'tgan edi. Eshonxo'ja Sharqiy Turkiston inqilobig'a qatnashg'on, Sharqiy Turkistondag'i o'zaro bosh-boshdoqliqni yo'qotishda va Sharqiy Turkiston hukumatini tuzishda faoliyat ko'rsatgan bir rahbar edi – Sharqiy Turkiston hukumatida nozir, "Istiqlol jamiyati"ning raisi edi.

Yoshlig'idan beri millat uchun xizmat etgan Xoniy afandining zaif badani uni bizlarga keltirib qo'sha olmasdan kimsasiz tog'larda qoldirdi. Yurtida yoshlig'indan tatib ko'rgan va eshitgan sirlarini, bolsheviklardan ko'rgan zulmlarini keng dunyog'a chiqib, bizlarga qo'shilib, muhojirlar qatorinda nashr etmak niyati ila kelib turg'on buyuksimon Sanjav dovoni ostida qoldi.

[128] Ma'ruz – ilojsiz, ojiz.

Eshonxo'ja Xoniy
(? –1934)

Bu xabar bizlar uchun ko'p og'ir va musibatlidir. Alloh taborak va taolo rahmat aylasin, tuprog'ini yengil qilsin.

Habiburrohman Al-Bulg'oriy. "Yosh Turkiston".
1934-yil noyabr. – №. 60.

ALIMARDONBEK TO'PCHIBOSHI

Shu yil 5-noyabrda oramizdan ayrilib abadiyatga ko'chgan Alimardonbek To'pchiboshi, marhum Ismoilbek G'aspirali va boshqa bir necha kishilar ila birlikda Rusiya qo'li ostida qolg'on turklarni tamsil etib, u zamondan beri xizmat etib kelmakda bo'lg'on mashhur jamoat xodimi edi. U "Rusiya musulmonlari" milliy harakatining muassislarindan biri va "Rusiya musulmonlari" qurultoylarining almashib bo'lmas raisi bo'lg'oni kabi, chog'doshlari[129] orasinda ham shubhasiz eng ko'p Ovro'pada tahsil ko'rgani edi. Qisqacha bir maqolada siyosiy bir xodim Alimardonbekni xarakteristika etishlik bir tarafda tursin, uning ko'p yoqli faoliyati haqinda qoniqarliq bir tasavvur bera olish ham mumkin emas.

[129] Chog'dosh – zamondosh.

Alimardonbek 1862-yil 4-mayda Tiflisda dunyog'a kelmishdir. Alimardonbekning katta bobosi so'ng Gurjiston qirollariyonidato'pchikuchlariboshlig'ivaqal'aqo'mondonlig'i kabi muhim o'rinlar ishg'ol etmishdir. Alimardonbek oila nomining "To'pchiboshi" bo'lgani ham shu sababdandir. Alimardonbekning bobosi Mirza Ja'farbek mashhur olim va sharq tillarini bilguvchi edi. U kishi 1819-yildan 1849-yilg'a qadar yani 30 yil Peterburg dorulfununida[130] fors tili va adabiyotidan dars bermishdir.

Alimardonbek ilk tahsilini 1-Tiflis gimnaziyumida ko'rmishdir. Gimnaziyumni birinchilar qatorida bitirganidan so'ng, 1884-yilda Alimardonbek Peterburg dorulfununiga kirmishdir. Ilk avval tarix va filologiya fakultetiga (sho'basiga) yozilg'on bo'lsa-da, bir yil o'tib huquq fakultetiga kirmishdir. Alimardonbek 1887-yili gizli[131] inqilobchi talaba uyushmalariga qatnashg'oni uchun dorulfunundan chiqarilmishdir. Lekin unga buyuk umidlar bog'lag'on mudarrislarining vositachiligi orqasinda qaytadan o'qishga tiklangan. 1888-yili Alimardonbek dorulfununni ham birinchilik ila bitiradir. Huquq fakulteti Alimardonbekni mudarrislikka hozirlanuv uchun dorulfununda saqlashga qaror berdi. Biroq u zamong'i rus qonuni xristian bo'lmag'onlarg'a dorulfununda kursi ishg'ol etuvni mon'e etgan bo'lg'onidan Alimardonbek ham ilm yo'lida qololmasdan Tiflisda mahkama xizmatiga kirishga majbur bo'lg'on. 1894-yilda advokatlikka o'tgan Alimardonbek Bakug'a ko'chib o'tdi. Uning asl siyosiy, ijtimoiy faoliyati ham mana shu 1894-yildan boshlandi. Bakug'a kelganidan so'ng baladiya[132] majlisina saylang'on yuksak saviyali huquqshunos Alimardonbek, bir tarafdan o'z faoliyati, ikkinchi tarafdan turk musulmon bo'lg'onlig'i ila tezgina ko'zga ko'rinib qoladir. Ayni

[130] Dorulfunun – oliy o'quv yurti.
[131] Gizli – mahfiy, yashirin.
[132] Baladiya – mahalliy hokimiyat.

zamonda Alimardonbek u vaqt Rusiya-turk musulmonlarining ruscha chiqaraturg‘on birgina gazetasi sanalg‘on “Kaspiy”ning bosh muharrir bo‘ladir. Inqilobdan so‘ngra ko‘p o‘zgargan ichki va tashqi sharoit ostindag‘i bizning bu kungi kurashimizla “Kaspiy”ning u zamong‘i “milliy”, “siyosiy” harakatlar eskirgan, qoniqtirmasliq ko‘rinsa-da, u zamong‘i Rusiyadagi har narsa haqida yolg‘iz saralab va yaltirmalab so‘ylov mumkin bo‘lg‘on davrga ko‘ra, Rusiya turk musulmonlari milliy masalasi haqinda maroq uyg‘otish yo‘lida “Kaspiy”ning rolini chetlab o‘tib bo‘lmaydir.

Alimardonbekning ochiq siyosiy faoliyati 1905-yilgi inqilob ila boshlandi. Bu sanadan e’tiboran Rusiyada siyosiy sharoit o‘zgardi. Milliy masalalarni ochiqroq, keskinroq qo‘yish imkoni tug‘ildi. Rusiya turklarining turli konggreslari to‘planadi. Bu to‘planishlarda milliy talabalar pro‘g‘romlari tuziladir. Bu kongresslarning raisi va pro‘g‘romlarning muharriri Alimardonbek bo‘ladir.

Alimardonbek To‘pchiboshi
(1862-1934)

Alimardonbekning 1905-yilgi inqilob bilan boshlang‘on siyosiy faoliyati bosh muharririmiz Mustafobekning marhum-

ning qabri boshida so‘ylagan nutqinda qisqag‘ina bo‘lsada ko‘rsatilganligidan Alimardonbekning tarjimai holina doir tafsilotni shu yerda to‘xtatib uning turk jamoat xodimi o‘laroq faoliyati haqida ham bir necha so‘z aytib o‘tmakchi bo‘lamiz.

Agar siz sovet nashriyotining Rusiya qo‘li ostidag‘i turk o‘lkalari milliy harakatlari haqindag‘i qismi ila biroz tanish bo‘lsangiz, Alimardonbekning eng qo‘rquvli “Panislamist”, “Panturkist” deb eng ko‘p takror etilgan bir ism bo‘lg‘onini ko‘rasiz. Xoh bolshevik, xoh bolsheviklarga qarashli rus siyosiy nashriyot va adabiyotining tasvirini odatdagidan tashqari bir shaklda “Panturkizm” ham “Panislamizm” hech bo‘lmag‘on. Faqat Rusiya qo‘li ostidag‘i turklarning milliy haq da’volari, manfaatlari bir bo‘lg‘onlig‘i g‘oyatda tabiiy bir narsa. Qonda, tilida, dinda birliklari tabiatiyla ularni qulay tarzda birga to‘plab harakat etish imkonini berdi. Bu birlik negizini yaxshi bilgan Alimardonbek ham uni o‘z faoliyatining asosi qilib belgilab oldi. Mana buning uchun ham Alimardonbek Ozarbayjonda bo‘lgani kabi Qozonda, Qrimda, Turkistonda ham sevilib tinglanmish va anglanmishdir.

Alimardonbek umum Rusiyadagi g‘ayri rus millatlar boqimindan ham umumiy bir xodim sifatida ko‘rsatiladir. U bu xalqlar manfaati va milliy kurash yo‘llarining bir bo‘lg‘onini juda yashi ko‘rgan edi. Shuning chun ham u 1– Davlat Dumasinda (1906-yilda) tuzilgan, Rusiyadagi butun g‘ayri rus millatlarni tamsil etgan, “Muxtoriyatchilar birligi”ga kirgan va u birlikning rais o‘rinbosarlig‘ig‘a saylang‘on edi.

Buyuk millat xodimi Alimardonbekning mana bu qiymat, ahamiyati uning 8-noyabrdag‘i janoza marosimiga turli millatlarning vakillaridan to‘plang‘on buyuk bir jamoatni keltirmishdi… O‘z turklarindan boshqa ukrainalik, gurji, armani, shimoliy kafkazlik, qozoq, qalmoq kabi turli do‘st millat namoyondalarini ham bu muhtaram jamoat xodimiga

bo‘lgan cheksiz muhabbatini ko‘rsatib qolishg‘a oshiqishi, turli millatlarni tamsil etgan notiqlarning so‘zlari Alimardonbek shaxsinda turk va g‘ayri turk, butun rus imperalizmiga qarshi kurashuvchi millatlar boqimindan[133] qanday buyuk bir jamoat xodimini yo‘qotg‘onlig‘imizni ochiq ko‘rsatdi.

Mustafo Cho‘qay. “Yosh Turkiston”.
1934-yil dekabr. – №. 61.

MARHUM ALIMARDONBEKNING TOBUTI BOSHIDA

“Turkiston milliy birligi”ning Ovro‘pa vakili va “Yosh Turkiston” bosh muharriri Cho‘qay o‘g‘li Mustafobekning so‘ylagan nutqi:

Alimardonbek ismi Rusiya qo‘li ostidagi turklarning siyosiy va ijtimoiy harakatlari tarixi ila mahkam bog‘lang‘on bir ismdir. Alimardonbek siyosiy harakat boshlag‘on chog‘larda bizlarning oldimizda turg‘on bugungi masalalar boshqacharoq shaklda edi. Milliy kurash jabhasi u zamon tizimli bir shakl olmag‘on edi. Qurtulush masalasi u zamon Rusiya davlati ichida ruslar ila teng haq va huquq qozona bilish sifatidangina qo‘yulur edi. Shu tor sohalarda ham Alimardonbek va uning u vaqtdag‘i fikriy yo‘ldoshlari ishlaya bilmak bik[134] og‘ir edi. Chunki u zamong‘i rus hukumati nazarinda ruslar uchun musoid[135] bo‘lg‘on harakatlar g‘ayri ruslar uchun jinoyat kabi kabi hisoblanir edi.

Turklarga ruslar ila teng haq va huquq talab etganlari uchun Rusiya hukumati Alimardonbek va uningla muassir bizning ilg‘or kishilarimizni “Ittihodi-islomchi”, “Ittihodi-turk”chi deb ayblar edi. Rusiya davlati boqimindan “Ittihodi-islom”, “Ittihodi-turk” inqilobdanda tahlikali edi. Chunki

[133] Boqimindan – nazaridan.
[134] Bik – ko‘p, juda.
[135] Musoid – ruhsat etilgan, maqsadga muvofiq.

bu jarayonlarda Rusiya va rusliqqa qarshi millatparvarlik asoslari ko‘rinar edi. Man ushbu “Ittihodi-islomchi”, “Ittihodi-turk”chilar qatorinda, marhum G‘aspirali Ismoilbekla barobar, Alimardonbek ismini uchratamiz.

1905-yilg‘i inqilob davri. Rusiya turklari ochiqdan ochiq Chorizmga qarshi vaziyat oldilar. Ular o‘zlarining milliy va diniy xususiyatlari ila mutanosib haq va huquq talab etdilar. Milliy mujodalamizning ikkinchi bu davrinda Alimardonbek ismi eng olg‘i qatorda turadi.

Birinchi Davlat Dumasi. Turk o‘lkalari unga oralarindan eng peshqadamlarni saylab yubordilar. Tabiiy, Alimardonbek ham Duma a’zolig‘ig‘a belgilandi. 72 kunlik umr surganidan so‘ng bu Duma Chor hukumati tarafidan g‘ayriqonuniy suvratda tarqatildi. Hukumatning muxolif firqalari esa Finlandiyaning Veyburg‘ shahrida to‘planib, Rusiyada inqilob harakati tarixinda buyuk rol o‘ynamish mashhur “Veyburg‘ bayonnomasi”ni nashr etib xalqqa murojaat etadirlar. Mana shu inqilobiy kurash vasiqasi ostida, bir qancha turk yo‘ldoshlari ila Alimardonbekning ham imzosini ko‘ramiz. Buning natijasinda Alimardonbek hukumat tarafidan mahkamaga berilib hibs etildi hamda siyosiy huquqlardan mahrum etildi.

1917-yilda buyuk inqilob natijasida Chor Rusiyasi yiqitilib, milliy qurtulishimizg‘a keng yo‘l ochilg‘ondek bo‘ldi. Bu daf’ada Alimardonbekni umum Rusiya turklari ila ozariylar, so‘ngroq umum Kafkaz milliy harakatining olg‘i qatorinda ko‘ramiz.

1918-yili Ozarbayjon o‘z milliy istiqlolini e’lon etib Alimardonbekni birinchi Ozarbayjon Milliy Parlament raisligiga sayladi. Biroz so‘ngra Alimardonbek Ozarbayjonning Ovro‘pag‘a yuborilgan hay’atning raisi o‘laroq belgilandi. Bu esa Alimardonbekka vatandoshlarining yuqori qiymat berganidan dalolatdir.

Taqdir bizning barchamiz uchun ham rahmsiz bo'ldi. Ozarbayjon milliy istiqloliyati bitirilib, Ozarbayjon jumhuriyati qizil Rusiya imperializmi tarafidan bostirildi. Ozarbayjon milliy hay'at Parlamenti raisi Alimardonbek Ozarbayjon muhojiri sifatini oldi. Biroq, Alimardonbek millati va yurti uchun kurashgan bir muhojir edi.

Alimardonbekning tobuti boshida Mustafo Cho'qay nutq so'zlamoqda

Muhojirlik hayoti og'irdir. Bu og'irliqni umrining so'ngi chog'larinda Alimardonbek ham ko'rdi. Lekin u Ozarbayjon va Kafkazning erkini yangidan qozonajagiga bir daqiqa bo'lsa-da iymonini uzmadi. Alimardonbek ismini yodimizga soladirgan eng so'ngg'i buyuk ish – Kafkaz konfederatsiyun birlashmasidir.

Kafkazning kelajaginda buyuk rol o'ynaydigan bu birlashma kabi buyuk bir tarixiy vasiqa ostig'a ismini yozg'on Alimardonbek abadiyatga jo'nadi.

Bu Turkiston turklari Alimardonbekni buyuk bir turk xodimi deb hurmat etamiz. Chunki Alimardonbek uchun bir turkistonlik, bir qozonlik, bir qrimlik turk o'zining eng yaqin ozariy turklari ila barobar edi. Ozariy turklari Alimardonbekni o'zlarining eng buyuk milliy siymolaridan va mustaqil Ozarbayjon Jumhuriyatining birinchi Parlament raisi deb hurmat etadirlar. Kafkazliklar esa Alimardonbekni Kafkaz Konfederatsiyasini yaratuvchilardan deya eslayajakdir.

"Turk va Kafkaz xodimi" unvonini o'z shaxsiyatida birlashtira bilish – buyuk sharafdir va Alimardonbekning ruhi uchun unutilmas ulkan bir yorug'likdir.

Alimardonbekning yotg'on yeri yumshoq bo'lsun. Ulug' tangri jannatdan o'rin bersin. Alimardonbekning oilasi, yaqin aqrabosi va yurtdoshlari boshlarig'a tushgan buyuk bir motam ila qayg'urarkan, barchamizningda Alimardonbekni buyuk turk va buyuk Kafkaz xodimi sifati ila hurmat etganimizdan oz ham bo'lsada ovunsunlar.

Mustafo Cho'qay. "Yosh Turkiston".
1934-yil dekabr. – №. 61.

ABDULVAHOBBEK

Marhum Abdulvahobbek Turkistonning Farg'ona viloyatidagi Quva shahrida 1899-yilda tug'ilmishdir. 18 yoshga qadar ota-onasining xizmatida davom etib, 1917-yilgi inqilob chog'i Shermuhammadbek komandasi ostida millat va yurt qurtulishi uchun Moskov to'lqunlariga qarshi chiqib, buyuk fidokorliqlar ko'rsatgan bir zotdir.

Bolsheviklar istilosidan so'ngra, Turkistonning qo'shnisidan kuch olib kelish uchun Afg'onistong'a o'tgan Shermuhammadbek boshliq uch yuz askar orasinda edi. Bular Afg'onistonning burung'i podshohi Omonulloxonning

nazorati ostida uch yil to‘xtab, 1929-yilg‘i Afg‘oniston fojiasinda Afg‘oniston hayoti uchun buyuk yararliqlar ko‘rsatganlar. Shular qatorida Abdulvahobbekning ham botirlig‘i taqdirlangan. Abdulvahobbek Hindistondag‘i Turkiston muhojirlari birligini “Yosh Turkiston” orqali eshitib, 1934-yilning 2-rajab kuni o‘zini Dehlidagi “Turkiston muhojirlari birligi”na erishtirib, qatorimizg‘a kirib, sevinchlar ila xizmat qilib, bu jamiyatning 3 yillik bayramini bayrog‘imiz ostida kechirdi. Bu kunni sevinchlar ila o‘tkazib, 23-sha’bon kechasi soat 11 da to‘satdan xastalanib qoldi.

Abdulvahobbek
(1899-1934)

Bu xastaliq zo‘raygach shifoxonaga murojaat etdik, alhosil Abdulvahobbek 23 soat hastaxonada qolib, sha’bon oyining 28-kuni quyosh chiqish chog‘i Turkiston hasratin chekib, oramizdan butunlay uzoqlab ketdi. Mujohidning jasadini muhojirlar yotoqxonasiga olib kelib, janozasini islomiy marosim ila Dehlidagi Shoxjahon jome’sining sahniga keltirilib, juma namozidan so‘ngra taqriban uch ming kishining qatnashmasi ila dafn etdik. 29-sha’bon bomdod namozidan so‘ngra yalpi muhojirlar to‘planishi yasalib

marhum mujohidning ruhina Qur’on o‘qildi. Ulug‘ tangrimiz bu mujohidga o‘z jannatidan o‘rin bersin!

Bu kun butun turkistonliklar, ayniqsa ularning mujohidlari qismi uchun esdan chiqmas bir qora kundir. Mujohidning orqada qo‘yib ketgan ishlarini qolg‘on yurtdosh mujohidlar tomonidan jiddiyat ila kamolga yetkazib, marhumning ruhini sevintirmaklarini o‘tinamiz.

Abdulloh Qayum. “Yosh Turkiston”.
1935-yil yanvar. – №. 62.

JA’FAR JABBORLI

“Qizil O‘zbekiston” gazetasining 05.01.1935 tarixli sonidag‘i “Ja’far Jabborli” xotirasi sarlavhali maqolada ko‘p qayg‘uli bir xabar bor: Ozarbayjonning yosh dramaturglaridan Ja’far Jabborli vafot etmishdir. Engina 36 yoshga kirgan Ja’far Jabborli yaratgan asarlari ila, Ozarbayjon qadar bizning Turkistonda ham tanilmish bir siymodir. Uning adabiy va san’atdagi iste’dodi ila, tabiiy va haqli o‘laroq Hazarning narigi tomonidag‘i turklar ham maqtanar edilar.

“Oydin”, “O‘qtoy ila o‘g‘il”, “Yashar”, “Udgalini”, “Savil”, “1905-yilda”, “Olmos” va “S” kabi asarlar yaratqon Ja’far Jabborlining haftaliq va oyliq majmualarda bosilib chiqqon bir ko‘p milliy, ijtimoiy she’r va hikoyalari ham bordir. Uning butun asarlari sovet tanqidchilarining shiddatli hujumlariga ma’ruz qolib, har biri bir necha topqir “sotsialistik elak”dan kechirilmishdir. Bolsheviklar bu bilan ham qoniqmay uning asarlarini marksizm-leninizm amaliyoti ila rahmsizlarcha yaralab, so‘ngra afkor ommaga taqdim etilishga rozilik ko‘rsatib, sahnaga qo‘yilishiga ruxsat etmishlardir. Bolsheviklarning buncha kesishlari va o‘zgartirishlariga rag‘batan Ja’far Jabborli asarlarindan Ozarbayjon va Turkiston turk teatrlari repertuari sirasinda faqat bir nechasigina ko‘rilur.

Ja'far Jabborli
(1899-1934)

O'tgan 1934-yilning may oyida Turkistong'a Ozarbayjondan 28 kishilik turk drama o'yinchilari guruhi kelgan edi ("Yosh Turkiston"ning 58-sonidag'i "Ozar, tatar va qrimlik san'atkorlar Turkiston sahnalarida" nomli maqolaga boqilsin). Bularning Ashhobod, so'ngra Toshkent sahnalarida o'ynagan asarlari qatorida Ja'far Jabborlining "Udgalini", "Yashar" va "1905-yilda" nomli uch asari ham bor edi. U zamon tomoshabinlar tarafidan ko'p olqishlang'on bu asarlar bu yilg'i qish repertuarinda ham uchratilmoqda va qoniqarli o'ynalg'onlig'i bildirilmakdadir ("Sho'rolar Turkmanistoni" gazetasi, 08.01.1935, Ashhobod).

Ja'far Jabborlining bosilmag'on asarlari ham bor. Bulardan biri o'z vaqtida Bakuda bir daf'a sahnaga qo'yilib, buyuk bir hayajon uyg'ontirg'on "Tarablis yulduzi"dir.

1922-yilning boshlarida Ja'farning bosilmag'on asari Bakuning "Dadash Bunyodzoda" (Burung'i "Taqiy"" nomidagi davlat turk teatrida ilk marotaba o'laroq sahnaga qo'yilganda minglarcha tamoshabinlarning birisida men edim. So'ng o'ring'a qadar ishg'ol etilgan va bino lim-liq to'lg'on edi. Dadash

Bunyodzoda" lojasinda xalq komissarlarindan ba'zilari ila bir sirada u kunlarda Moskovdan Bakug'a kelgan favqulodda bir vakil – ismini unutg'onman – uzun bo'yli va uzun soqolli bir o'ris ham o'turgan edi. Bizning adabiyot muallimimiz bizga, ilk marotaba sahnaga qo'yilib turg'on bu asarni diqqat bilan va yaxshiroq ta'qib eta bilishimiz uchun, sahnaga yaqinroq o'runlardan pulsiz bilet tadorik etib bergan edi.

Parda ayni vaqtida ochilib o'yin boshlandi. Turklarning vaqti ila Tarablis g'arbini oz bir askar kuchi bilan Italiya istilosina qarshi qanday botirliqlarla mudofaa etganlarini jonli tiplar bilan ko'rsatuvchi bu asarning ayniqsa ikki manzarasi tomoshabinlar hayajonini shu vaqtgacha hech bir yerda mushohada etmaganim bir tarzda qo'zg'otib yuborg'on edi. Shu ikki manzarani tubanda qisqacha tasvir etmakchiman.

Sahnada Italiya o'rdagohi. Italyan askarlari bir turk fidoiysini[136] tutib, qo'l va oyoqlarini kishanlab shul o'rdagohga keltirdilar. So'roq boshlanadir. Ular yumshoq tarzda kishanlangan turk fidoiysidan sir olmoqchi bo'ladirlar, mumkin bo'lmaydir. So'ngra baland-baland ovoz bilan do'q qila boshlaydirlar. Yana hech narsa ololmaydirlar. Bu hol haddan tashqari so'roqchini asabini qo'zg'aydir... Nihoyat so'ngi savol qo'yila chog'i, mabodo unga berilgan savolga to'g'ri javob berilmagan taqdirda darhol otilib o'ldirilajagi bildirilib, bir ishora bilan italyan askarlarining bir-nechalari qo'l va oyoqlari kishanlangan fidoiyning to'rt tarafiga qadaladir. Turk fidoiysi bunday bir manzara qarshisinda aslo pinagini buzmasdan, hatto avvalgisidan ham bahodirona bir vaziyat olib, so'roqchig'a qarab, qalin va yuksak sasla o'zlarini osiyolik turklarga qarag'onda ko'p kuchli, ko'p mutaraqqiy[137]

[136] Fidoiy – askar, vatan himoyachisi.
[137] Mutaraqqiy – taraqqiy etgan.

sezaturg‘on madaniyatli italyanlarning erkakcha jang qilish o‘rnig‘a bu tarzdagi harakatlariga nafrat bildiruvchi muassir[138] so‘zlar so‘ylarkan, tomoshabinlar hayajong‘a kelib “Sog‘ bo‘l, poshsho!” deb olqishlab yuboradirlar, shu onda parda tushadir. Biroq, olqishlar to‘xtamay burchak-burchakdan asar muallifining ismini chaqiradirlar. Bir necha minutdan so‘ng Ja’far Jabborli va oyoqlari kishanlangan fidoiy ila birlikda sahnada ko‘rinib qizg‘in olqishlarla qarshilanadir.

Har kas sabrsizliqla o‘yunning davomini kutadir. Birozdan so‘ng parda qalqdi. Qorong‘u sahnaning sog‘inda[139], yuksak tepada go‘zal kiyingan va qurollang‘on italyan askarlari. So‘l[140] taraf nisbatan qorong‘i, so‘z va o‘q tovushlari orasinda sahna eshiginda biroz o‘zgarish bo‘lg‘och so‘l tomonda turk bayrog‘i, Anvar va atrofida turk fidoiylari ko‘rina boshlaydir. Otisha-otisha turklar dushman qarshisidag‘i bir tepalik yonig‘acha ilgarilaydirlar. Sahnani sekin-sekin qorong‘iliq bosadir. Otishmalar to‘xtab ko‘k yuzinda yulduzlar ko‘rinadir. Dushman o‘rdusi o‘rnashgan tepa boshindag‘i yaltiroq oyg‘a qarab Anvar yonidag‘i fidoiylarga “Qardoshlar, tong chog‘i shu oy-yulduzli bayrog‘imiz ko‘k yuzindagi oy kabi qarshimizdagi tepalik boshig‘a chiqadir!” deb, qilichini sug‘urib “Olga! Marsh, marsh” komandasini berib, hamma birgalikda “Alloh! Alloh!” deya ilgarilarkan oldingi qatorlarda o‘tirg‘on o‘qituvchilar hayajong‘a berilib, joylaridan turib ketadirlar. Uzun olqishlar va qizg‘in hayajonlar ichida parda tushadir. Biroz so‘ngra sahnada muallif turk bayrog‘i ostinda Anvar va fidoiylarla barobar ko‘rinib, daqiqalarcha olqishlanadir va shu asnoda yondag‘i lo‘jalardan[141], oldingi o‘rindiqlardan

[138] Muaassir – ta’sirli.
[139] Sog‘ – o‘ng tomon.
[140] So‘l – chap tomon.
[141] Lo‘ja – o‘rindiq, joy.

sahnaga chechaklar[142] otiladir. Xalqning bu qadar hayajonini qo‘zg‘ag‘on bu asar bir marta sahnaga qo‘yilgan xolos. Chunki bolsheviklar boshqa ruhsat bermadilar.

Jabborlining bu asari u zamon Bakuda buyuk bir isyon uyg‘otg‘on muhim bir hodisa bo‘lgani uchun boshqa bir tarafdan ham ayricha ahamiyatga egadir.

1921-yilning kuzida Buxoroga borgan Anvar poshshoning, uzun turmasdan ov bahonasi ila shahar tashqarisiga chiqib ketib, janubi sharqdag‘i bosmachilarg‘a qo‘shilib, Turkiston fidoiylari boshinda rus istilosiga, rus bolsheviklari hukumatiga qarshi urush qila boshlag‘onining, yolg‘iz Turkistonda emas, butun turk dunyosinda qanday umid, sevinchlar uyg‘otg‘onlig‘i barchamizga ma’lumdir.

Milliy istiqloli bug‘ib tashlangan Ozarbayjon turkligining Turkistondag‘i harakatila bog‘lang‘on umidini qirqmoq uchun rus bolsheviklari Bakuda ruscha bir film ko‘rsata boshlaydilar. Ilk kundanoq og‘izdan og‘izg‘a o‘tib keng hududlarga yoyilg‘on bu film ayniqsa u zamong‘i Baku turk yoshlarini ko‘p hayajong‘a keltirgan edi. Ikkinchi kuni bir necha orqadoshlarimla soatlarcha qatorda turib, mana shu filmni ko‘rmak uchun bilet oldim. Film “Kommunist” (burung‘i “Palamon”) ko‘chasidagi Baku boylaridan Hoshim birodarlari uyida ko‘rsatilmakda edi. Bu filmda Anvarning butun dunyog‘a ma’lum vatanparvarligini va uning har bir kishiga o‘rnak bo‘lurliq yuksak axloqini yerga uruvchi narsalar ko‘rsatilib, bularni Kafkaz jabhasinda ruslarning g‘alabasi va Avnar poshshoning yanglishqonlig‘ini ko‘rsatuvchi manzaralar ta’qib etarkan tomoshabinlar orasindan “Bularning hammasi yolg‘ondir, yolg‘on!...” degan so‘zlari eshitila boshlag‘och oldingi qatorlardan o‘turg‘onlardan ba’zilar o‘z kursilarini olib pardaga qaratib ota boshlaydirlar. Bu hayajonli manzara oni suvratda zo‘rayib devorlardag‘i rasmlar pro‘jektor tarafga

[142] Chechaklar – gullar.

irg‘itiladir. Tomoshabinlar ichida kinoni tashlab chiqqan xalq yo‘lakdagi devorg‘a osilg‘on Anvar poshsho rasmlarini ko‘chirib olib ketadir. Bu voqeadan so‘ng filmni yana bir marta ko‘rsatish fikridan voz kechdilar.

Mana hech unutilmaydirg‘on shu hayajonli voqeadan bir muddat so‘ngra biz, Davlat turk teatrida Ja’far Jabboralining “Tarablis yulduzi”ni ko‘rib butkul hayajong‘a tushgan edik.

Turkiston fidoiylariga bosh bo‘lib asoratga, mustamlakachilikka qarshi kurasha boshlag‘on Anvar poshshoni turklarning jallodlari bo‘lmish bolsheviklar ozariy tukligi qarshisinda turk xalqiga, turk yurtiga xiyonat etganlik bilan “qoralamoqchi” bo‘ldilar. Xalq dushmanning bu xiyonatlarig‘a qarshi ish qildi. Ozariy yoshlarining boshlig‘i bo‘lg‘on Ja’far Jabborali esa “Tarablis yulduzi” degan asari ila bolsheviklarning milliy qahramong‘a qilgan bo‘htonlariga qarshi eng to‘g‘ri va munosib javobni qaytardi. Ja’far u zamon 23 yoshda edi. Bu yigit, o‘zining fitriy zakovati ila u zamon bolsheviklarini ma’nan, ruhan yengmishdi. Bolsheviklar bu mag‘lubiyatni hech unuta olmay Ja’farning har yaratgan asarini eng shiddatli hujumlar bilan qarshiladi. Uning asarlari leninizm-marksizm nuqtai nazaridan boltalandi, ezildi va bolsheviklarg‘a zarba bera olmaydurg‘on darajada yaralanib, kuchsizlantirilgandan so‘nggina sahnaga qo‘yildi.

Buningla barobar Ja’far Jabborali asarlari Ozarbayjon va Turkistonda xalqni o‘ziga torta bilmishdir. Xalqimizni har turli ne’matdan mahrum qilib turg‘on bolshevik rus asorati uni Ja’farning haqiqiy chehrasini ko‘ra bilmak baxtidan ham mahrum etdi.

Ja’far asarlarining asl nusxalarini o‘qimoq, ko‘rmak va uni loyiq darajada tanimoq rus asorati yiqilg‘ondan va Ozarbayjon, Turkiston erkin bo‘lg‘ondan so‘nggina mumkindir. Uning aziz ruhiga munosib tilaklarni, ko‘rsatmak ham milliy

o‘zligimizning Moskov changalidan qutulg‘on chog‘laridag‘ina mumkin bo‘lajakdir.

Yosh Ja’far o‘ldi. Uning aziz ruhini Hazarning u va bu tomonidag‘i turklar doimo sog‘inch bilan eslayajakdir.

Abdulvahob O‘qtoy. “Yosh Turkiston”.
1935-yil mart. – №. 64.

BIR YOSH YURTDOSHIMIZNING MUVAFFAQIYATI
(ZOHID QOSIM HAQIDA)

Anqara huquq fakulteti bitiruvchilaridan yurtdoshimiz Zohid Qosim O‘zbuloqbek bilimini kengaytirmak uchun Olmoniyag‘a kelib, mashhur tarixiy ilm o‘choqlaridan sanalg‘on Yana dorulfununig‘a o‘rnashg‘on edi. Zohidbek tug‘onimiz shu yil iyul oyi ichida doktorlik imtihonini muvaffaqiyatli bitirib, avgust boshida Turkiyaga qaytib ketdi. Uning Turkiya Jumhuriyati qonuni asosiysi ostinda yozg‘on ilmiy asari yaqinda “Yosh Turkiston” nashriyoti qatorida bosilib chiqadir.

Zohid Qosim

“Yosh Turkiston” tug‘onimiz Zohidbekni bilim yo‘lindag‘i muvaffaqiyati uchun qutlovlarkan undan bundan keyin ham

ko‘p milliy va ilmiy muvaffaqiyatlar tilar va milliy faoliyati bilan kelajak yoshlar uchun o‘rnak bo‘lishiga ishonadi.

Boshqarma. “Yosh Turkiston”.
1936-yil iyul-avgust. – №. 80-81.

ULUG‘ MILLIY SIYMO
(IBN SINO HAQIDA)

Ustimizdagi oy turk xalqining eng buyuk siymosi va umum shariat tarixning ham mashhur shaxsiyatlarindan sanalg‘on Abu Ali ibn Sinoning o‘limiga to‘qqiz yuz yil to‘lajak. Bizning Turkistonda va Turkiyada Ibn Sino xotirasi, uning qoldirg‘on asarlaridan yasalgan ixtirolar, turmushi va asarlari haqinda berilajak ma’ruzalar kabi turli ilmiy namoyishlar bilan eslanajak. Ibn Sino to‘g‘risida bizning “Yosh Turkiston”da ham maqolalar bosilg‘on. U maqolalar buyuk turk dohiysining va yaratuvchi shaxsiyati haqida, to‘liq bo‘lmasa-da, anchag‘ina ma’lumot bera bilarlik mohiyatdadir.

Ibn Sino [143] (980-1037)

Ibn Sinoning bizning turk dunyosig‘a Ovro‘pa ilm dunyosi yaxshiroq biladi. Biroq, asarlarini islom sharqinda, xristian

[143] Ushbu rasm Doktor Rizo Nurbekning 1924-yili Istanbulda, “Matbai Omirada” bosilg‘on “Turk tarixi” kitobining 162-sahifasidan olindi.

g‘arbinda lotin tili kabi buyuk rol o‘ynag‘on arab tilinda yozg‘oni uchun Ibn Sinoni ovro‘paliklar shu vaqtg‘acha arab deb keldilar. Ibn Sinoning turk dunyosi tarafindan “o‘zlashtirib” olinishig‘ada ko‘p vaqt bo‘lmadi (“Yosh Turkiston”ning 89-sondag‘i Abdulvahob O‘qtoy maqolasiga boqilsin). Bu yerda shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, Ibn Sinoning turk olimi tarafidan o‘zlashtirilishi tarixi turk millatparvarligining Turkiyada g‘olib kelganligi va bizning Turkistonda esa – qizil yotlar istilosi zindoni ichinda ham buyuk bo‘y ko‘rsatib turgan davrga to‘g‘ri kelib turibdir.

Ibn Sinoni o‘zimizdan, turk millatidan deyish bilangina qoniqish hosil qilish yaramaydi. Ibn Sino kabi shaxslar butun bashariyatnikidir. Uni o‘zlashtirish[144] va u qoldirg‘on merosg‘a loyiq va yararliq bo‘lish uchun Turkiston yoshlari ilmga berilishi va uning asarlarini mutolaa qilishlari va yaqindan o‘rganishlari lozimdir. Ibn Sino asarlari, tabiiy, bu zamong‘i ilmning talab etgan saviyada emasdir. Bu g‘oyat tabiiy bir narsa, chunki ilm bir nuqtada to‘xtab turmay, doimo taraqqiy etadurg‘on bir narsadur. Ilmning taraqqiysi uchun eng muhim narsa – asos prinsiplarga tayanmoqdir. Ilmning prinsipi – tabiatning bizga bilinmay kelayotg‘on yashirin alomatlarini yuzaga chiqarish va belgilash uchun eng to‘g‘ri vosita, yo‘lidir. Ba’zi ovro‘palik buyuk olimlarning aytishlaricha bizning Ibn Sino o‘z zamonasida katta rol o‘ynag‘on ba’zi ilm sohalari prinsipini kashf etganlardan biri bo‘lg‘on.

Ibn Sino butun g‘arb dunyosinda “Donishmandlar shohi”, bizning Turkistoncha aytg‘onda “Donishmandlarning piri” edi. Mashhur fransuz olimi Marselin Bartaluv (Marcelin Berthelot – 1827-1907) “Bugungi g‘ayri uzviy kimyo prinsiplari (“Chimie inorganique”) dastlab Ibn Sinoning asarlaridan joy topg‘on edi” deydir.

[144] Bu o‘rinda “o‘rganish” ma’nosida.

Ibn Sinog‘a zamondoshlari tegishli qiymat bera olmadilar. Hatto olim, mullalar uni “Din dushmani” deb e’lon etdilar. Uning asarlari ta’qiqlandi, Ibn Sino Turkistondan qochib ketish majburiyatida qoldi. Biroq, shuni ham bilib qo‘yish kerakki, dunyoviy ilm yo‘lindag‘i jasoratga va dunyoviy ilmga qarshiliq faqatgina islom ruhoniylari xususiyati emasdir. Ibn Sinodan taxminan 400 yil so‘ngra dunyog‘a kelgan mashhur italyan fizigi va astronomi Galileo Galiley (Galilee – 1564-1642)ni katolik ruhoniy mahkamasi[145] vahshiyona qaynatish va tirik holinda o‘tg‘a solib yondirish tahdidi ostida u inong‘on va zamonimizning asosiy ilmiy haqiqatlaridan bo‘lg‘on yulduzlar ilmi (ilmi nujum) qonunlaridan voz kechishga majbur etgan edi.

G‘arbiy xristian Ovro‘pasining bu kabi hodisalar kechirganligini bila turib, biz islom ruhoniylariga qarshi u qadar “shiddatli” bo‘lolmadik. Faqat olim va muallimlarimizning ham ilmiy haqiqatlar oldida bo‘yun egib, ilm yo‘linda bundan so‘ng to‘sqinlik etmasliklarini tilaymiz.

Xalqimizning ulug‘ o‘g‘li, dohiy Ibn Sinoning ismi va xotirasi kishilik nomig‘a loyiq hur va erkin milliy turmushg‘a eltaturg‘on bilim va ilm taraqqiyi yo‘linda bizning yoshlar uchun bayroq va mash’ala bo‘lsin.

Boshqarma. “Yosh Turkiston”.
1937-yil iyul. – №. 91.

IBN SINO VAFOTIGA 900 YIL TO‘LISHI MUNOSABATI BILAN

Turkiya markazidagi Turk tarixi Kurumining[146] buyuk turk hakimi va faylasufi Ibn Sinoning vafot etganligiga 900

[145] Mahkama – bu o‘rinda “Sud” manosida.
[146] Kurum – Akademiya.

yil to‘lganligi munosabati bilan eslash va nishonlash haqinda chiqarg‘on qarori turk olim va mutafakkirlari orasinda Ibn Sinog‘a oid masalalarga buyuk aloqa uyg‘ontirmishdir. Turk tarixi Kurumining e’lon etilgandan 12 kun so‘ngra, yani 1936-yilning 7-oktyabrida chiqqon “Jumhuriyat” gazetasida, Turkiyada turkshunoslik sohasinda tanilg‘on professor Muhammad Fuod Ko‘pruluning “IX asrda islom san’ati va Ibn Sinoning tasviri” sarlavhalik ilmiy maqolasini uchratdik. Bu muhim maqolaning davomi ayni gazetaning 11 va 17-oktyabrda chiqqon sonlarida bosilmishdir. Professor Muhammad Fuodbek bu qiymatli maqolasida “Ajabo Ibn Sinoning xayolidagi , haqiqiy (yani aunthentique) bir tasviri mavjuddur?” degan javobni bermakdadir.

Xoh Ovro‘pada, xoh Turkiyada Ibn Sinoning tasviri o‘laroq turli-turli rasmlar uchratilmoqdadir. Ayniqsa Ovro‘pada bosilg‘on asarlarda Ibn Sinoning bir-birga o‘xshamayturg‘on turli rasmlari bor. Bu rasmlarning barisi, professor Muhammad Fuod Ko‘pruluga ko‘ra, hech bir tarixiy negizga tayanmaydurg‘on, tamomila fantaziya (xayoliy) mahsuli bo‘lgan narsalardir. Shunday bo‘lsa ham butun bu tasvirlarning to‘planishi olg‘a surilib, ularning qaysi muhitlarda va qaysi chog‘larda maydong‘a chiqqanini belgilash foydasiz emasligi so‘ylanadir.

Professor Muhammad Fuodbek yuqoridag‘i savolg‘a javob bera bilmak uchun, maqolasining 3-bo‘limida, Ibn Sinoning tasviri haqidagi muhim bir vasiqani keltirib, quyidagi satrlarni yozadir: “Samarqandlik Nizomiy Aruziyning (hijriy 550, milodiy 1155)” yozgan “Chahor maqola” (“To‘rt maqola”) nomli mashhur asarida, Ibn Sinoga oid bir qayd beradirki, bunda u to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yo uning tasviri masalasiga to‘xtalgandir. Bunga ko‘ra, Muhammad G‘aznaviy, XI asrning ilk sanalarida Ibn Sinoning do‘stlaridan bo‘lgan Abu Nasr nomi bilan tanilgan bir olimga Ibn Sinoning rasmini

chizdirmish va so'ngra G'azna naqqoshlarig'a bu rasmning qirq dona quymasini chiqartirmishdir. Buyuk olimning tasviri (iconographie) uchun o'ldig'i qadar G'aznaviylar davrinda rasm san'atining inkishofini ko'rsatarok boqimindan ham juda muhim bo'lgan bu fuqaroyi-mavzua'mizga to'g'ridan to'g'ri tamas etmayan jihatlarini biraqmaq sharti ila xulosa va naql etaman:

"Xoramzshox Abul Abbos Ma'munning Ahmad ibn Muhammad as-Saxliy – to'g'risi Saxiliy, ismli bir vaziri bor ediki, u fozil, karim, ilmsevar bir odam edi. Bu sababla u tibda[147], falsafada, riyoziyotda[148], nujumda eng ilgari ketmish olimlarni saroyga to'plamishdir. Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr, Abu Saxl bularning eng peshqadamalaridandir. Nihoyat, G'aznaviy Sulton Mahmud ham ularning dong'ini eshitdi. G'aznaning buyuk olimlaridan Xo'ja Husayn ibn Alini maktub bilan Ma'munga elchi qilib yuborib, bu olimlarni G'aznaga yuborishini so'radi. Ma'munning shoh Mahmud amriga qarshi kelmakka kuchi yetmas edi. Bino alayh u butun bu olimlarni chaqirtirgan holda vaziyatni tushuntirib, ularni G'aznaga yuborishini bildirdi. Ibn Sino ila Abu Saxl qat'iyyan ketmasliklarini bildirdi. Qolganlari esa mamnuniyatla ketishga roziliklarini so'yladilar. Ibn Sino ila do'sti Xorazmda qolmay darhol shahardan chiqdilar, yo'llarida ko'plab qiyinchiliklarga uchradilar, Abu Saxl bu mashaqqatlarga chidolmay yo'lda vafot etdi. Ibn Sino zahmat bilan avval Tusga, undan Nishopurga bordi. Bu orada qolgan uch olim, yani Beruniy, Abu Nasr va Abulxayr G'aznaga bordilar. Holbuki Sulton Mahmudning asl maqsadi Ibn Sinoni G'aznaga keltirish edi. Uni ko'rmagach, riyoziyotchi va naqqosh bo'lgan Abu Nasrga Ibn Sinoning rasmini chizdirdi, naqqoshlarni keltirib uning qirq nusxasini

[147] Tib – tibbiyot, meditsina.
[148] Riyoziyot – matematika.

chiqartirdi va amrnomalar yozdirib bu rasmlarla barobar, mamlakatning har tarafiga yubordi va amrnomalarda "Bu rasmning sohibi bo'lgan Ibn Sino ismli odamning qayerda ko'rilgani zamon G'aznaga yuborilishi shartligi" yozilgandi. Ibn Sino Nishopurga kelgach, Mahmudning o'zi to'g'risida chiqargan farmonidan xabar topdi. Bir necha kun u yerda yashagandan so'ngra, Jurjonga ketdi. Chunki u yerning podshohi bo'lgan Qobusning ilmni va olimlarni himoya etishi to'g'risida eshitgan edi. Jurjonga kelib bir karvonsaroyda xastalarni da'volab tanildi. U davrda Qobusning aqrabolaridan[149] biri hasta edi. U yerdagi hakimlarning butun g'ayratlariga qaramay kasal tuzalmasdi. Uning odamlaridan biri Ibn Sinoning shuhratidan xabardor edi, uni Qobusga tavsiya etdi. Ibn Sino u xastani ham da'volab tuzatdi. Buni eshitgan Qobus bu mohir hakimni ko'rmakni istadi. Ibn Sinoni huzuriga chaqirtirdi. Biroz avval G'aznaviyning amrnomasi va suvratini olgan Qobus Ibn Sinoni ko'rishi bilan darhol tanidi. "Sen Ibn Sinomisan?" deya so'radi. "Ha" javobini olgach Qobus taxtdan tushib unga hurmat ko'rsatdi, yoniga o'tkazdi, suhbatlashdi. Bundan so'ngra Ibn Sino Ray shahriga ketib Alouddavlaning vaziri bo'ldi…(76-80-sahifalar)".

Professor Muhammad Fuod Ko'prulu samarqandlik Nizomiy Aruziyning yuqorida keltirgan ma'lumotida, Ibn Sinoning haqiqiy bir rasmi borligini aytmakda va "Chahor maqola" muallifining u rasmni ko'rmish va yo u rasmning borlig'ini sezganligini so'ylagan holda maqolasini shunday tugatadir: "Ajabo, XI asrning boshida yoyilgan va XII asrda odamlarning qo'llarda mavjud bo'lganligi aytilayotgan bu tasvir, yohud, muaxxir bir davrda undan iste'foda etilgan holda yoyilgan boshqa bir yangi bir nusxalardan birini qo'lga kiritish mumkinmi? Yo'qsa, ko'plab yong'inlar, zilzilalar,

[149] Aqrabo – yaqin kishi, qarindosh.

xarobalar, istilolar, juda ko'p kultur xazinalar kabi buni ham o'rtadan qoldirmishdir? Buning javobini berishga hozir hech kim qodir emasdir. Hozir bizning vazifamiz umid qilish va izlanishdir!".

Turk tarixi Kurumining Ibn Sinoning 900 yilligini eslov haqinda chiqarg'on qarorining turk olim va mutafakkirlari orasinda Ibn Sinog'a nisbatan qanday buyuk bir aloqa o'ynaydirg'onini Istanbul universiteti turk professorlaridan Xilmiy Ziyo Ulkanning o'tgan yilning (1936-yil) aprel oyi boshlarida Ibn Sino haqida bergan muhim bir ma'ruzasi ochiq ko'rsata oladir. Professor Hilmiy Ziyo Ibn Sinoning voyaga yetish muhitini, u qurgan falsafaning asoslarini, asarlarini va Ibn Sino falsafasining g'arb tafakkuriga qilg'on ta'sirlarini anglatmish, Ibn Sinoning yolg'iz bir turk faylasufi emas, bir dunyo olimi bo'lg'onini so'ylamishdir. Hilmiy Ziyoning bu foydali maruzasi katta bir ishtiyoq bilan tinglanmishdir ("Jumhuriyat" gazetasining 1937-yil 10-aprel soni).

"Qizil O'zbekiston" gazetasining 1937-yil 4-martda chop etilgan 51-sonida, oxirgi betida: "Abu Ali Ibn Sino" (vafotig'a 900 yil to'lishi oldidan)[150] sarlavhasi ostida shu satrlarni uchratdik: "X asrning 70-yillarida faqatgina Sharqiy Buxoro emas balki, butun Ovro'pag'a nomi ketgan Abu Ali Sinoning (Ibn Sinoning) vafot etg'onig'a shu yil iyulda 900 yil to'ladir[151]. Bu universal olimning nomig'a qo'yilg'on Buxoro qiroatxonasi uning o'lgan kunini xotirlash, uning kim bo'lib o'tganini mehnatkashlarga to'la tanitish uchun zo'r tayyorliq ko'rayotir.

Uning asarlarini to'laligicha topishmoqchi. Abu Ali Sino yozib qoldirg'on 92 hil asardan hozir 76 hili topildi. Qiroatxonaning "Sharq adabiyoti bo'limi"ning mudiri o'rtoq Xon o'g'li topilg'on asarlar asosida olim haqida risola yozishg'a kirishdi.

[150] Maqola ostiga "O'z muxbirimizdan" deb yozilgan.

[151] Turk tarixi Kurumi Ibn Sinoning o'limiga shu yil iyunda 900 yil to'ladi deb e'lon etgan.

Topilg'on asarlar, uning haqinda yozib qoldirilg'on turli esdaliklar Ibn Sinoning yuksak fikr egasi bo'lg'onini ko'rsatdi. U shoir ham adib, do'qtur (tabib) ham faylasuf, nabototchi[152] va astronom" musiqachi va ham adliyachi[153] bo'lg'on. Ibn Sino bu ilmlarning hammasini deyarlik Buxoroda olg'on.

Asosan u fanning olimi bo'lg'on. Abu Ali Sino 983-yilda Buxoro atrofidag'i Afsona nomli qishloqda tug'ilg'on[154]. U yoshlig'idan turli kitoblarni o'qib, tahlil qilg'on. Nuh ibn Mansurning qiroatxonasidan[155] yaxshi foydalangan. 20

[152] Nabototchi – o'simlikshunos.

[153] Adliyachi – huquqshunos.

[154] Ba'zi turkcha asarlar ila Ovro'pa tillarida bosilg'on asarlarda Ibn Sinoning 980-yilda tug'ilg'onlig'i bildirilmishdir va uning tug'ilgan yerining nomi Turkiya maorif vakolati tarafidan 1931-yilda, Istanbul davlat matbaasinda bolsilg'on "Tarix" kitobining II jild, 163-betida "Afshine", ba'zi olmoncha asarlarda esa "Efschene" shaklinda ko'rsatilmishdir. "Qizil O'zbekiston" gazetasi 27.3.1937 tarixiyla 70-sonida Ibn Sinoning tug'ilgan yeri haqida o'z muxbirining Buxorodan biridagi shu ma'lumotni bosmishdir. Mashxur faylasuf Abu Ali ibn Sinoning Buxoro atrofidag'i "Afsona" (gazeta imlosida "Afsana" qishlog'ida tug'ilg'on deb yuritilur, lekin bu qishloqning qayerdaligi, hozir qaysi rayo'ng'a qarashi, tarixi noma'lum edi. Bu olim nomidag'i qiroatxonaning xodimlari bu chigalni yechdilar. Ul "Afsona" nomi bilan yurgan bu qishloqg'a hozir "Ifsoniy" (gazeta imlosida "Ifsani") nomi berilgan ekan. Bu qishloq Buxorodan 24 kilometr narida, Vobkent rayo'nig'a qarashli Peshkuh (gazeta imlosida "Peshkoh") qishlog'ining sharqida ekan. U hozir "Deche" (Dece) qishloq sovetiga qaraydi. Unda yashovchi 50 xo'jaliqning hammasi kolxozlashib "Qizil mehnat" nomli kolxoz tuzilgan. Afsona qishlog'i Abu Ali Sino tug'ilg'on vaqtda (gazeta imlosida "Zandaniy") tumanining markazi ekan. Qishloqning aholisi 200 dan ortiq bo'lg'on. 7 ta katta masjid va "Avliyo maqbarasi" bo'lg'on. Bularning hammasi hozir yo'qolib "Tosh masjid" nomi bilan yurgan masjidning g'ishtlari, eshiklari qolg'on. Uning mehrob o'rni ham aniq. O'sha yerdagi bu masjidning bundan 250 yil ilgari remo'nt qiling'onini aytadilar. Qolg'on 6 masjidning hech biri qurilg'ondan keyin remo'nt bo'lmay buzilib ketgan. M.Babash.

[155] Qiroatxona – kutubxona.

yoshg'a yetganda tib haqida ("Shifo") nomli bir kitob yozib katta shuhrat qozong'on. Oradan ko'p o'tmay matematika, fizika fanlari haqida kitob yozib, shuhratiga shuhrat qo'shg'on.

Abu Ali Sinoning fikri o'sgan sari qiroatxonadagi kitoblar unga kamlik qila boshlag'on. Shundan keyin boshqa yo'llar bilan kitob topib, o'qishg'a harakat qilg'on. Bozorda Abu Nasr Farobiy, Ismoil Zohid, Abu Abdulloh deganlarning kitobini sotib olib mutolaa qilg'on va shular asosida kitob yozg'on. U bu asarida Ismoil Zohidning astornomiyag'a, Abu Abdullohning matematikag'a qarashlarini tanqid qilib o'tgan.

23 yoshida otasini dafn qilg'ondan keyin Abu Ali Sino Xorazmga ketdi. O'sha vaqtda Xorazm xonining vaziri bo'lg'on Abdulhasan Sahiliy va uning kishilari Abu Ali Husaynni sovuq qarshi oldilar. Ular Ibn Sinoni siqa boshladilar, ishlashga, mutolaa qilishg'a sira yo'l bermadilar. Hatto Xiva xoni Abu Rayhon, Abu Ali Sinoni o'ldirish uchun tayyorlanadi. U buni sezib qolib, Xivadan chiqib ketadi[156].

Lekin, u hech bir joydan tinch makon topolmaydi. Hamma joyda uni "dinsiz" deb siqaverdilar. Shunga qaramay, u o'zining ijodiy ishini davom ettiradi. Jurjon viloyatining podshohi Shamsuddavla Tojilmulkning ko'p siqishig'a e'tibor qilmay, tib ilmi haqida "Qonun" nomli mashhur kitobini yozadi. "Shifo" degan asari ustida ishlaydi. 4 oy zindonda yotib "Hidoya" degan 20 jildli kitob va o'z ahvolini tasvirlab qasida yozadi.

Doim o'qish, yozish, o'rganish, turli yangiliklar ijod etish bilan shug'ullang'on bu olim Erong'a borg'ondan keyin ko'p o'tmay kasal bo'ladi. U o'z kasalini da'volash uchun shogirdiga dori tayyorlashni buyuradi. Shogird Ibn Sino buyurg'on dorini tayyorlamay, o'zi boshqa bir dorini tayyorlaydi. Bu dori Ibn

[156] Professor Muhammad Fuod Ko'prulu yuqorida bahs etilgan maqolasining 3-bo'limining bir yerida "Ibn Sino, o'z biografiyasiga (tarjimai holiga) oid risolasinda Xorazmdan chiqib ketishining sababini va yilini Ibn Sino izohlamagan" deb yozadi.

Sinog'a katta zarar qiladi. U 1037-yilda, iyul oyida Hamadon shahrida vafot etadi. Shu vaqtda u 54 yoshda edi.

Ibn Sino tib ilmi haqida yozg'on "Qonun" asari bilan butun Ovro'pa olimlariga ma'lum. Uning ko'p tarqalg'on asari ham shu. Uni do'qturlar XVIII asrg'acha da'volash ishlarida qo'llab kelganlar. Ibn Sinoning ushbu asari XVI asrda lotinchag'a tarjima qilinib chop etilg'on[157]. Abu Ali Sinoning falsafa, fizika, matematika, astronomiya fanlari haqida yozg'on asarlari bizga qanday ma'lum va mashhur bo'lsa, Ovro'pada ham shunday mashhur.

M.Babash".

Ma'lum sabablarga ko'ra qisqartirilmay keltirilgan yuqoridag'i maqolaning mazmunidan ochiqcha anglashilmoqdadirki, butun ilm dunyosig'a tanilg'on Ibn Sinoning vafot etganligining 900 yilligini eslov ishi, har ishda kollektiv harakatni olg'a surib kelgan Sovet mamlakatinda bu daf'a yolg'iz bir qiroatxona ma'muriyatigagina qolmishdir. Bu vaziyat yaqinda faqatgina rus xalqi uchungina qiymatli bo'lg'on Pushkinning o'limiga yuz yil to'lishi munosabati ila Sovet mamlakatining har tarafidan ko'rilg'on hozirliqlar ila tekshirilsa, u zamon sovet hukumatining insoniyatning tafakkur va takomil tarixinda mumtoz o'rin tutadirg'on Ibn Sinog'a, umumiyatla ilm ishlariga ayniqsa turk madaniyati masalalariga qay nazarla qarayturg'onlig'i sezgisini yo'qatayozg'on kishilarda ham bir parcha anglashilsa kerak.

Abdulvahob O'qtoy. "Yosh Turkiston".
1937-yil iyun. – №. 91.

[157] Ibn Sinoning asarlari lotinchag'a XVI asrda emas, biroz oldinroq yani XV asrda tarjima qiling'ondir. Ibn Sino asarlarini ilk marotaba lotinchag'a tarjima qilg'on kishi Gerhardus Cremonensisdir.

OBIDJON MAHMUD

Obidjon Mahmudning Toshkentda vafot etganligi bildirilmakdadir. Bu xabar Obidjon Mahmudni tanig‘on butun turkistonliklar yuragida so‘ngsiz bir qayg‘u uyg‘otajakdir. Uni deyarli butun turkistonliklar tanirdi. Asli qo‘qonlik Obidjon Turkistonning har tarafida mashhur bir shaxsiyat edi.

Ayniqsa uning shuhrati 1917-yilgi inqilobdan keyin ko‘p kengaydi. Shaxsan, men ham uningla yaqindan do‘stlashmog‘im 1917-yili aprelinda to‘plang‘on Birinchi Turkiston inqilobchi ijtimoiy tashkilotlari qurultoyindan boshlandi. U bu qurultoyg‘a Qo‘qon vakili sifatida qatnashg‘on edi. Favqulodda muvaffaqiyatli chiqishlari va faoliyati uni tezgina jamoat xodimlarimizning olg‘i safiga chiqarib yubordi. Shu zamondan boshlab Obidjon bizning butun viloyat ham o‘lka konferens va boshqa to‘planishlarimizg‘a saylana bordi. Qo‘qonning savdo va umuman ish muhiti ham uni yaxshi tanir va unga yaxshi qiymat berar edi. Shuni unutmasliq kerakki, Qo‘qon Turkistonning paxtachiliq markazi va eng boy shahri sanalar edi. Eng katta rus korhonalari va banklari, ularning Qo‘qondagi sho‘balari bo‘lur edi. Shuning uchun bu yerning savdo va ish doirasi ichiga kira bilmak u qadar ham oson emas edi. Obidjon o‘zi nutqi kuchli odam ham emas edi. Unga bu doiralar amaliy ish belgisi, har turli mushkulotdan chiqish yo‘lini tez topa bilish qobiliyati uchun ko‘p qiymat berarlar edi. Qo‘qon aholisi uni ko‘p sevar va unga so‘ng darajada yuksak qiymat berar edi.

Unga berilgan “Chatoq” laqabi haqiqatda uning xarakteriga uyg‘un bo‘lmag‘on bir laqabdir. U hech “chatoq” emas edi. Buning bilan ham qolmasdan unda o‘rtada chiqib qolg‘on anglashilmasliq “chatoqliq” bo‘lsa, uni darhol bitirib yuborish

yo‘lini qidirish odati kuchli edi. Uning biroz xirillag‘on, bo‘g‘iq tovushi ilk eshitishda ko‘p qizib, so‘ylashib-tortishib charchag‘on “chataqsimon” bir tovush ta’sirini berar edi.

Obidjon Qo‘qon baladiya raisligiga saylang‘on edi va uning bu yerdagi faoliyati so‘ng darajada samarali bo‘lg‘on edi. U shahar ta’mir ishlarida eski shaharni yangi shahar bilan tenglash uchun ko‘p kurashdi. Uning shahar boshlig‘i sotsialist revolyutsioner Gurpich bilan bo‘lg‘on bir munoqashasini o‘zim barobar o‘tirib tinglag‘on edim. Ular ko‘pdan bir-biri ila yaqin tanish edilar. Muzokara yangi shaharda bir necha ko‘chaga tosh yotqizish ustida edi. Obidjon shahar boshlig‘ini to‘xtatdi va “Masalani umumiyatla Qo‘qon shahrining ta’mir va islohi ustida qo‘yish kerak. Eski shaharda tashlang‘on yo‘llar bo‘lmag‘oni kabi ko‘chalar ham yetarlik darajada yorug‘liq ham yo‘q. Shuning uchun bunday tuzatuv ishini eski shahardan boshlash kerak. Biz siz bilan eski do‘stlarmiz. Endi tortisha boshlasak bir-birimizga teskari, hamda jiddiy qarama-qarshi bo‘lib qolamiz. Har turli ta’mir va islohot ishi eski shahardan boshlanadir” dedi.

Obidjonning uddaburonligini avvaldan bilgan Gurpich menga qarab kulib: “Bu bekorga “Chatoq” deb atalmag‘on. Bu bilan tortishish qiyin. Chunki uni fikridan qaytarish hech mumkin emas” dedi. Obidjon haqiqatdan ham shunday bir kishi edi.

Uni rus ishchilari doirasi, ayniqsa soldatlar hech yoqtirmas edilar. Bu ham g‘oyatda tabiiy, anglashirliq bir narsa edi. Chunki Obidjon ularning Turkiston xalqi ustidagi mutlaq hokimiyatlariga mone’ bo‘lib turg‘on eng muhim to‘siq edi.

Mamlakatda hukumat bolsheviklar qo‘liga tushib qolg‘ondan so‘ng Obidjonning faoliyati yanada ortib ketdi. U yangi inqilobg‘a bizning qarashimizni umumxalq ra’yi bilan belgilash uchun bir on ul milliy konferens to‘plovning

tarafdori bo'ldi. Bizning Qo'qondagi butun to'planishlarimiz uning uyida bo'lar edi. Biz uning uyida deyarlik kecha-kunduz turur edik. U har zamon muzokalarimizga jiddiyatla qatnashar, ko'p qiymatli maslahat, takliflari bilan qatnashar edi. U Turkiston Muxtoriyatini e'lon etgan milliy konferens hay'at rayosatiga saylang'on edi. So'ngra u Muvaqqat milliy sho'rog'a va hukumat arzoq[158] nazoratlig'ig'a saylandi.

Obidjon Mahmud
(1871-1936)

Bolsheviklar bilan qurolli to'qnashish bo'lg'on zamon Obidjon Qo'qonda emas edi. Arzoq oluv uchun Qo'qon milliy hukumati tarafidan Shimoliy Kafkaziyaga yuborilg'on Obidjon Buxoroda to'xtab qolg'on edi. U yerda ham bo'sh o'tirmadi, umumiy harakat etuvimizni yo'lg'a qo'yish uchun buxoroliklar bilan muzokara yuritdi. Amir Mir Olimxon va uning ma'murlari bizning Rusiyadan ayri mustaqil siyosat yurtimizni istamaslar va o'zlari hech bir suvratla Rusiya va uning himoyasindan ayrilmoq istamaslar edi…

[158] Arzoq – oziq-ovqat.

Shu Shimoliy Kafkaziyaga yuborilg'on kundan yani 1918-yili yanvar boshindan so'ng men Obidjonni ko'ra olmadim. Buningla barobar men uzoqdan har zamon uning turmush va faoliyatini kuzatib keldim. Uni necha martalab qamadilar. Faqat orada 1921-1923-yillardagi kabi bolsheviklarning yurtida qolg'on jamoat xodimlarimizni siqa olmagan davrlar ham bo'ldi. Bu zamon Obidjon qizg'in bir faoliyatda ishladi. U "Turkiston komissiyuni" a'zosi ila Turkistondag'i bolsheviklar vakillari va bu suvratla ishning yurmayotgani va Turkistondag'i sovet siyosatining tubdan o'zgarishi shart ekanligi haqida ochiq so'ylashgan bir necha turkistonlikning biri ham shu Obidjon edi. Munavvarqori kabi Obidjon ham qulayliq bilan mamlakat tashqarisiga chiqib ketajakdi. Biroq, u ham mamlakatda qolishni tanladi…

Obidjon, Muftiy Sadriddinxon afandi va hayotda bo'lg'onlig'ini umid etdigimiz Nosirxon to'ra kabi milliy ishimizga jondan bog'lang'on ham uning muvaffaqiyatiga inong'on kishilarimizning biri edi. Bu kishi yolg'iz inonibg'ina qolmasdan, bu ishonchlar ta'sirini atrofg'a yoyg'on, yaqinlariga kelgan butun vatandoshlariga bu haqiqatni so'ylab to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelgan milliy mujohidlarimizdir.

Afsuski, bu asl milliy Turkiston mujohidi ortiq oramizda emasdir. U chuqur bir ishonch, so'nmas bir sevgi ila bog'lang'on milliy mafkurasining tahqiqini ko'ra olmay ketdi. Faqat uning ismi Turkiston qurtulish harakati tarixinda mumtoz bir o'rin tutgani kabi, uning aziz xotirasi ham Turkiston millatparvarlari ko'nglida abadiy yashajakdir. Uning aziz ruhi qarshisida hurmat bilan bosh egamiz va tuprog'ining yengil bo'lishini tilaymiz.

Mustafo Cho'qay. "Yosh Turkiston".
1937-yil iyul-avgust. – №. 92-93.

TURKISTON MUXTORIYATI TARIXI

BOLSHEVIKLAR "TARIX"NI QANDAY YOZADIRLAR?

Toshkentda chiqadirg'on ruscha "O'rta Osiyoda inqilob"[159] majmuasining birinchi va ikkinchi sonlarida Aleksenkov ismli birisining Qo'qon Muxtoriyati to'g'risida uzungina bir maqolasi bosilg'on. Bu maqolada, Qo'qon Muxtoriyati davrida bo'lib o'tgan voqealar haqidagi ma'lumotdan ham ko'ra o'ylab topilg'on yolg'onlarg'a ko'proq ahamiyat berilgan.

Men tomonimdan nashr etilishg'a tayyorlanayotg'on risolada, bizning milliy kurashimizning bu davri haqida asl voqea yozilg'oni kabi, bu sovet "tarixchi"sining o'ylab chiqarg'on butun yolg'onlari ham mufassal suvratda aytiladir. Endilikda yolg'iz uning juda ham qo'pol bo'lib ketgan bir yolg'onni tanqid etib ketishni lozim topaman.

Bolsheviklar "tarixchi"si Aleksenkovning Qo'qon hukumati a'zolari qilib sanag'on sakkiz kishining beshi o'zi o'ylab topg'on ismlardir. Bu o'ylab topilg'on ismlar quyidagilardir: Potelyaxov, Miraloy Chanishev (polkovnik), Zigel, Vadyayev, Yusuf Davidov.

[159] П.Алексеенков. Кокандская автономия // Революция в Средней Азии. Сборник И. –Ташкент.: «Издателство Правда востока». 1929. – С. 17-40. Izoh: Keyinchalik P.Aleksenkov Turkiston Muxtoriyatiga bag'ishlangan maqolalarini alohida risola shaklida ham chop ettirgan. Qarang: П.Алексеенков. Кокандская автономия. –Ташкент.: «Узполиграф». 1931. – С. 71.



P.Aleksenkovning "Turkiston Muxtoriyati" nomli maqolasi chop etilgan "O'rta Osiyoda inqilob" nomli majmua. Toshkent, 1929-yil

Bu ismlari keltirilgan kishilarning hech biri hukumat hay'atiga kirgan emas edi. Yolg'iz Zigelgina shaxsan menim tarafimdan, hukumat nomidan chiqarilmoqchi bo'lg'on qisqa muddatli qarz to'g'risida xususiy bir kengashga chaqirilg'on edi. Boshqalarning esa hukumat bilan hech bir aloqasi bo'lmag'on, hatto hukumat binosiga bir daf'a bo'lsun qadam bosmag'onlar.



P.Aleksenkovning "Turkiston Muxtoriyati" nomli risolasi. 1931-yil Toshkent.

Bu yerda Chanishev (polkovnik) deb atalg'on shaxs haqida quyidagilarni yozib o'tishni lozim topaman: Toshkentda Mahdi Chanishev ismli Ziroat ministrligining bir ma'muri yashar edi. Keyinchalik u Qo'qong'a bordi. Bu Chanishevning bolsheviklarga yaqinlig'i haqida hukumatning qo'lida ma'lumot bo'lg'onidan, men bu kishini hukumat binosiga kiritmaslik to'g'risida buyruq berdim. U shundan so'ng Qo'qondan Toshkentga qaytib ketishga majbur bo'lg'on edi…".

Qo'qonning sovet rus askarlari tarafidan tor-mor etilgan kunlarda Mahdi Chanishev Qo'qonda ko'rinib qolg'on edi. So'ngra u Ergash bilan kelishdi. Bu Chanishev yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona shahri)da otib o'ldirilgan edi. Chanishev ismli (polkovnik) va yo boshqa bir zobit bizda bo'lmag'on. Bolsheviklar "Turkistondagi inqilob harakati tarixi"ni mana bu usulda yozadirlar.

Turkistonda yashayotg'on, sobiq Qo'qon Muxtoriyati hukumati a'zolari Aleksenkov maqolasini albatta o'qug'onlar, biroq ular yolg'onchi bolsheviklar "tarixchi"sining o'ylab chiqarg'on yolg'onlarini rad etarlik bir holda emaslar.

Mustafo Cho'qay. "Yosh Turkiston". 1930-yil fevral. – №. 3-4.

MUXTORIYATDAN ISTIQLOLG'A

(1917-DEKABR-1930)

Bizning yoshgina milliy harakatimiz tarixida, vaqti kelgan sayin eslab ketishlik kerak bo'lg'on bir qancha muhim kunlar bordir. Mana bunday tarixiy kunlarning birisi 1917-yil 10-dekabrdir. Bu kuni Qo'qon shahrida to'plang'on IV Turkiston favqulodda o'lka qurultoyi, Turkiston Muxtoriyatini e'lon qilgan edi. Biz bu harakatni bugungi milliy qurtulish

harakatimizning birinchi poyasi va bu yo'lda jasorat bilan tashlang'on bir odim deb bilamiz.

Og'ir tajribalar bilan to'la o'n uch yilliq dahshatli hayot davrini kechirgandan so'ng, endi u zamonning yanglishliqlarini ko'rish va so'ylash osondir. O'n uch yil burun biz milliy harakatimizning prog'romini bajarar ekanmiz, Muxtoriyat bilan kifoyalansak, to'g'ri bo'lur deb o'ylagan edik.

U zamon Rusiya asoratinda bo'lg'on leh va finlardan boshqa butun millatlar Rusiya inqilobi va rus demokratiyasining insof va haqqoniyatiga chindan ham ishonar edilar. Leh va finlardan boshqa hech bir xalq milliy qurtulishni darhol yuzaga chiqarishni o'ylay olmag'on edi[160]. Hatto anchag'ina zamon o'tgandan so'ng, 1918-yili Kafkaziya Seymi[161] Ozarbayjon, Armaniston va Gurjiston istiqlolini e'lon etarkan u istiqlolg'a boshida vaqtinchalik bir hodisa kabi qarag'on edi. Ular Rusiyada demokratik federativ Jumhuriyat idorasi qurulsa Kafkaziyaning ham bu federatsiyun oilasining bir a'zosi bo'lishini o'ylaganlar edi.

Shu rus inqilobi va rus demokratiyasiga inonishliq o'z vaqtida biz turkistonliklarda ham bor edi. Shu ta'sir ostida biz milliy talabimizni ishga oshirishni Muxtoriyat bilangina talab etgan edik.

"Eski rumoliklar zamon o'zgaradir. Uningla barobar biz ham o'zgaramiz"[162] deyarlar edi.

"Zamon o'zgardi". Bizning rus inqilobiga bo'lg'on ishonch va umidimiz to'g'ri chiqmadi.

Rus inqilobchi demokratiyasi yolg'iz bu inqilobni yo'qotish bilangina qolmadi. U bizga o'z milliy haqqimiz masalasini

[160] Lehiston masalasini jahon urushi boshlang'ondan so'ng Rusiya istasada, istamasada bosib oldi, deb hisoblash kerak edi. Lehiston bu Lixtenshteyndir.

[161] Seym – parlament.

[162] Tempora mutantur et nos mutamus in illis.

uningla do'stliq va insof prinsiplari atrofida munoqasha[163] etarok hal eta olish haqindagi qanoatimizning yanglish ekanligini ochiq ko'rsatdi.

Bunga rus inqilobchi demokratiyasining eng oldindagi shaxsiyatlaridan biri, fevral inqilobi oshig'i va Rusiya vaqtli[164] hukumatining boshlig'i bo'lg'on Kerenskiy jonli bir misoldir. Kurd Osiyoning mudofaasi uchun butun dunyosi yordamga chaqirib baqirishdan og'zi ko'pirib charchamag'on Kerenskiy, xalqimizning rus bolsheviklaridan ko'rayotgan zulmini tirnoq ostiga olibgina qaradi.

"Zamon" boshqa bir tarafdan ham "o'zgardi". Bizning xalq siyosiy tomondan ham o'sdi. U o'zini siyosiy balog'atga erishgan deb his etadir. U endi milliy manfaatining yolg'iz o'ziga tegishli miqdorninggina o'z qo'lida bo'lishi to'g'ri ekanligini yaxshi biladi. Milliy istiqlol bizni butun dunyodan ayirib, o'rab oladirg'on Xitoy devori bo'lmag'oni kabi u kimningdir haqiga qarshi qilingan suiqasd ham emasdir. Milliy istiqlol, bilaks, zolimlarning zulmidan, qaroqchilarning talashidan yurt va xalqimizni saqlash harakati demakdir.

Inqilobchi rus demokratiyasi namoyondasi Kerenskiyning inonmoq istamasdan tirnoq ostidan kir qidirgan holda yozadirg'on va tarixda misli ko'rilmagan rus proletariyatining ezishini, Turkiston xalqi shu yilgacha kechirgan va qurbon etilgan millionlarcha turkistonliklarning qoni bilan sug'orilg'on temir chanbar[165] deb biladir. Milliy istiqlol harakati shu bo'g'uvchini – temir chanbarni uzib tashlash kurashidan iboratdir.

Muxtoriyat bizning kechmishimizga oid tarixiy bir hodisadir. Biz uni eslaymiz, faqat endi o'zini istamaymiz. Unga qaytish yo'qdir!

[163] Munoqasha – munozara.

[164] Vaqtli hukumat – muvaqqat hukumat.

[165] Chanbar – pechak o't.

Har bir voyaga yetgan odam o‘z kechmishini, bolaliq davrini eslasa ham u bolaliqg‘a qaytishni istamaydir. Shunga o‘xshash biz ham milliy-siyosiy hayotimizning bolaliq davri bo‘lg‘on Turkiston Muxtoriyatini yolg‘iz tarixiy bir hodisa debgina eslaymiz.

Mustafo Cho‘qay. “Yosh Turkiston”. 1930-yil dekabr. – №. 13.

BIR “ILMIY” YOLG‘ONG‘A QARSHI I

(Qo‘qon Muxtoriyatiga 14 yil to‘lishi munosabati ila)

Tarix yozishning ikki yo‘li bor. Birinchi yo‘l: muarrix[166] haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealarni diqqat bilan to‘playdir, ularni zamonning sharoit va vaziyatiga qarab tekshiradir, ma’lumot va istihborot (maxfiy) manbalarini sinchkovlik tekshiradir, to‘plag‘on ma’lumotini o‘zining ilmiy vijdoni tarozisida tortadir va ma’lumotg‘a betaraf (obyektiv) bir qiymat berib ularni tahlil (analiz) etadir. Ilmiy tarix, so‘zning haqiqiy ma’nosi bilan, mana shu usul ila yoziladir.

Ikkinchi yo‘l: Muarrix o‘ylamasdan istagan natijasini avvaldan belgilab oladi-da u natijaga ko‘ra voqealarni tahlil qiladi, hatto maqsadi ro‘yobga chiqqan taqdirda, voqealar o‘ylab ham topadilar, shoyon ishonchli emasligi oshkor bo‘lg‘on manbalardan iste’foda etadir. Bunday bir tarix yozuvchida betarafona ilmiy tahlil o‘rniga faqat firqa yolg‘oni hukm suradi. Sovetlar idorasi ostidag‘i xalqlarning milliy harakatlari haqida yozuvchi bolshevik muarrixlar bu ikkinchi qism muarrixlaridir.

Bolsheviklar umumiyatla ilmda, xususan tarixda betarafligini inkor etadilar. Ilm ularning nazdida sinfiy kurash qurollaridandir. Mana bu jihatdan ular tarixdan o‘zlarining

[166] Muarrix – tarixchi.

kelajakdagi sinfiy maqsadlari uchun iste’foda etmakka tirishadirlar, chunki ular tarixning kechmishi haqinda ma’lumot bermakdan ziyoda kelajak uchun ibrat olmoqqa xizmat etuvchi bir ilm ekanligini ko‘p yaxshi bilarlar.

Bolsheviklarning 1916-yilgi Osiyoning yangidan o‘zlaricha rang berib yozg‘onlari haqida “Yosh Turkiston”ning bundan avvalgi sonida yozilib o‘tgan edi. Endi ular Qo‘qon Muxtoriyati haqida ham shuningdek bo‘yama harakatlarni yurgizmakdalar. Bolshevik “tarix”chilarining orasida Aleksenkov degan birisi o‘zining yolg‘onchilig‘i ila eng yuqori o‘rinni oladir. Uning Qo‘qon Muxtoriyati haqidag‘i maqolasi munosabati ila men “Yosh Turkiston”ning o‘tgan yil fevral-mart sonlarida yozib o‘tgan edim. Endi shu Aleksenkov o‘zbek shevasinda shu mavzu uzra yozg‘on kitobchasida boyag‘i yolg‘onlarini takrorlagan. Aleksenkovlarning maqsadi ma’lum: ular firqa pro‘g‘romining talabi bo‘yicha Turkistonda rus proletariyat diktaturasining manfaatini ko‘zlab, Qo‘qon Muxtoriyatining g‘ayri sinfiy va umummilliy bir harakat ekanligini yashirib, bu Muxtoriyatni Turkiston milliy burjuaziyaning talqini soyasida yerli va rus sarmoyadorlarining ta’siri va nufuzi ostida yurgizilgan burjuy va sarmoyadorlar sinfi harakati etib ko‘rsatmakchi bo‘ladilar. Aleksenkov bu iddaosini isbot etmak uchun hech ham taraddud qilmasdan Vadyayev, Potelyaxov, Yusuf Davidovlarni va Kanupov firmasining muta’mmadi “Zigel”larni Qo‘qon hukumati a’zolari qilib ko‘rsatadir. Bu shaxslarni sanab ko‘rsatgandan so‘ng Aleksenkov: “Mana qarang, Qo‘qon Muxtoriyatining hukumat hay’atiga kimlar kirgan, bu aksilinqilobchi harakatlarga haqiqatda kimlar rahbarlik qilg‘on, Qo‘qon Muxtoriyati haqiqat holida kimlarning manfaatini ko‘zlagan” deb hayqiradir.

“Ilmiy haqiqat”ning bu tarzda isbotlanishini, vafot etgan mashhur leh professori Petrjetskiy “Ko‘zbo‘yamachiliq” va “sharlatanlik” deb atag‘on edi.

Aleksenkovlarning uydirmalari naqadar manfur bo‘lsa-da, ularning maqsadlarig‘a uyg‘undir. Ularning maqsadi qanday bir yo‘l bilan bo‘lsa-da, bizning butun milliy mujodalamizni yangidan tug‘ilayotg‘on Turkiston milliy harakatig‘a, sarmoyador burjuy sinfining oktyabr inqilobining mehnatkash ommasiga tekkizgan yutuqlarig‘a qarshi dushmanona harakati shaklinda ko‘rsatmakdan iboratdir. Bolsheviklar bunday iflos yolg‘onlarni qo‘llamasdan “Turkistonda rus proletariyati diktarurasi” uchun inqilobiy bir asos topa olmas edilar. Faqat, bolsheviklarning Qo‘qon Muxtoriyati haqidagi yolg‘on va bo‘htonlarini bizning Ahmad Zakiy Validiybek kabi bir odam takrorlasa nima deysiz…? Zakiybek Turkiston haqida katta bir kitob yozg‘on. Kitobning o‘zini men hali tamom holinda ko‘rmadim. Lekin menga u kitobning so‘ng tasxihidan chiqqon ayrim juzlarini yubordilar va ayni zamonda Zakiybek bu kitobni ajnabiy tiliga (olmonchag‘a) tarjima ettirmak haqida muzokara yuritib turganligini xabar berdilar. Demak, Zakiybekning bu kitobi munosabatiyla o‘z fikrimni ochiq so‘ylashga haqqim bor. Kitob hali maydong‘a chiqmag‘oni sababli u haqida yozish to‘g‘ri emas demasinlar. Hatto Miskin Masunitiy muqaddas qonun sanalg‘on eng demokratik mamlakatlarda ham u miskinda (uyda) bir jinoyatning yuzaga chiqish, yo bir insonning shaxsiyati va yo mol-mulkiga zulm va tajovuz qilinayotgani ma’lum bo‘lsa, “Miskin Masunitiy” qonuni ham ishkol etiladir. Bu hol ham shu jinsdandir. Zakiybekning kitobinda Qo‘qon Muxtoriyati to‘g‘risida haqiqatga qarshi tajovuz qilinmoqdadir. Bu jihatdan Zakiybekning uydirmalarig‘a javob berishga o‘zimni haqli sanadim.

Zakiybek kitobining 340-sahifasida yozadi: “Qo‘qon hukumatining yagona istinodgohi bosmachilar raisi Ergash edi. Mir Oloy Chanishev taxt idorasinda muntazam militsiya

tashkil qilishni boshlagan bo‘lsa-da kech edi… Hukumat tamomila sarmoyadorlarning nufuzi oldida bo‘linar edi. Moliya nazorati idorasi rasman nozir bo‘lgan xasta Obqatshox Ahmad qo‘lida emas, uning muovini bo‘lgan Genrih Zigel ismli bir yahudiy qo‘lida edi… Hukumat tezlik bilan kechinmak majburiyatida qoldi. Hukumatda mahalliy tijoratchilardan Sayyidnosir Mirjalildan boshqalari qimirlamadilar. Hukumatning ham taqrir etmish bir fikri va prog‘romi yo‘q edi. Rus maktablarida tahsil ko‘rgan ziyolilarning bir guruhi bu hukumatga milliy o‘zlik g‘oyasidan ham ko‘proq bolsheviklikka rozi bo‘lmasdan va Kerenskiy hukumatiga sadoqat ko‘rsatmak asosinda ishtirok etmishlardi. Cho‘qay o‘g‘li Mustafo nashr ettirgan xotirasinda hukumat a’zolig‘ina intihob etmaganligini, Kerenskiy hukumatining siquvindan so‘ngra ham bu hukumatning mumassili sifati ila ish qilib ko‘rganligini faqat hech bir kimsaga dard anglata olmag‘onlig‘ini so‘ylamakdadir…”.

Zakiybek ozg‘ina yozg‘on bo‘lsa-da, otalarimizning “Yolg‘onchining bir so‘ziga donishmandning ming so‘zi” deganidek, uning yozg‘onlarig‘a uzun maqola javob berishga to‘g‘ri keladir. Zakiybekning kitobi olimlik iddaosindadir. Hamda u, komsomol va bolshevik firqa tashviqotchilarig‘a maxsus qilinib emas, bizning mamlakatimiz va u yerda bo‘lib turgan voqealar bilan tanish bo‘lmag‘on jiddiy turk o‘quvchilari uchun yozilg‘on bir asardir. Shuning uchun Aleksenkovning uydurmalarig‘a qarshi aytganimiz kabi yolg‘iz raddiya yozish bilangina qanoat etmasdan, bu yerda u davrdagi haqiqiy voqealar va vaziyatlarni isbot etmak lozim keladir. Zakiybekning uydirmalarini u zamon kontekstida atroflicha oydinlashtirib, ularg‘a loyiq bo‘lg‘on bahoni bergan bo‘lurmiz.

Ahmad Zakiy Validiy
(1890-1970)

Men, "Yosh Turkiston"ning 3-4 (1930-yil fevral-mart) sonida Aleksenkovning "Mirolay Chanishev va Zigel haqidagi yolg'onlarig'a qarshi raddiya o'laroq yozg'onlarimdan boshlayman. Qo'qon hukumati yaqinida na Mirolay Chanishev nada boshqa bir Chanishev militsiya boshlig'i rolida va yo boshqa bir rolda bor edi. Zakiybek, Mirolay Chanishev haqida so'ylarkan Qo'qon Muxtoriyati ustida o'zining hamfikrlari bo'lg'on bolshevik Kinsburg va Aleksenkovlarning so'zini ko'r-ko'rona takror etadir. Chanishev (Mirolay emas) haqida yanada to'g'ri ma'lumotni Turkistonda bolsheviklar inqilobi tarixini birinchi daf'a yozg'on bolshevik Georgiy Safarov beradir. Safarov mashhur kitobining 79-betida shunday deb yozadir: "31-yanvarda (1917-yili) Musulmon askar, ishchi va dehqonlari sho'rosi 1) Qo'qon Muvaqqat hukumatining vaziyat tamomila tinchiguncha hibs etilishini; 2) Hukumat idorasining sho'ro qo'lig'a olinishini; 3) Chanishevning militsiya boshlig'i tayin etilishini qarorg'a oldi". Safarov to'g'ri aytadir: Chanishev faqat Qo'qon hukumati yiqilg'ondan so'ngg'ina rol o'ynay

boshladi. Lekin uning roli ko'p davom etmadi. Chunki u tez fursatda Ergash tomonidan qamoqg'a oling'on edi. Safarov bu to'g'rida ham yozg'on. Ajabo, Chanishevning Ergash tomonidan qamoqqa olinishining sababi nima edi…? Qo'qon hukumati Chanishevning bolsheviklar ila bo'lg'on yashirin munosabatidan shubha qilar edi, hukumat ila bolsheviklar orasindag'i to'qnashuv kunlarida Chanishevning sotqinliq rollari ochiq suvratda maydonga chiqdi. Askar, ishchi va dehqonlar sho'rosi Chanishevni militsiya boshlig'i tayin etib, uning vositasida Toshkent bolsheviklari ila yaqinlashib munosabatini yaxshi bir yo'lg'a qo'yishni umid etgan edi. Biroq, boshlang'on umumxalq qo'zg'olishi bu sho'roning rahbarligi ostidan chiqib, qo'zg'olonchilarning boshig'a Ergash o'tganidan so'ng, Ergash Chanishevni bolsheviklar josusi (agenti) deb qamoqqa oldi. Chanishev Yangi Marg'ilonda bolsheviklarning o'zlari tomonidan o'ldirildi, chunki uni bolsheviklar ham sotqin deb hisobladilar.

Ko'p ta'assufki Zakiybekning Qo'qon Muxtoriyatiga oid uydirmalarini bolsheviklarning manbalari vositasi ila tasxih etishga to'g'ri keladir. Zakiybekning o'zi Qo'qon Muxtoriyatini tasvirlarkan, ma'lumot manbayi o'laroq eng fahsh (uyatsiz – M.Alijonov) yolg'onlarini tanlab olg'ondan keyin nima ham qilardi… Zakiybekni bolsheviklarning manbalariga ko'ra tasxih etilish lozimligining sababi, uning bir qancha muddatdan beri bizdan ziyod bolsheviklarga inona boshlag'onidir.

Endi Zigel xususiga kelaylik. Avvalo, o'lib ketgan Zigel yahudiy emas, xolis Avstriya olmonidir. Ikkinchidan, Zigel Qo'qon hukumatida na Moliya nozirining muovini, nada boshqa bir kimsa sifatida ishtirok etmagan, "Qo'qon hukumati a'zosining huquqi" dan ham foydalanmagan va "hukumatda" hech bir "nufuzga" ega bo'lmag'on. Bularning hammasi Zakiybekning o'z xayolidan o'ylab chiqarilg'ondir.

Ehtimol, uning bu xususdagi manbasi ham bolsheviklardir. Bolsheviklarning – Buxoro yahudiy sarmoyadorlari bo'lg'on Vadyayev, Potelyaxov, Yusuf Davidovlar kabi Zigelni ham Qo'qon hukumatiga yolg'ondan a'zo etib ko'rsatishlaridan maqsadlari, Qo'qon hukumatini sarmoyadorlarning talqini ila vujudga kelgan va tamomila sarmoyadorlar nufuzi ostida harakat etgan bir hukumat degan provakatsion tezislarni quvvatlamoqdir. Qo'qon hukumatining umummilliy, g'ayri sinfiy mohiyatini o'zgartirib ko'rsatmak maqsadini Zakiybek ham tekshirmakdadir. U ham "Qo'qon hukumati tamomila sarmoyadorlaring nufuzi qo'lida bo'lgandir" deb yozadir.

Hech bo'lmag'onda, vaqtiyla Zakiybekning o'zi boshida bo'lg'on Boshqirdiston Muxtoriyati kabi umummilliy mohiyatda bir harakat bo'lg'on Qo'qon Muxtoriyatini qoralashda shubhasiz o'zini milliy do'stimiz hisoblaydirg'on Istanbul dorulfununi professori Ahmad Zakiy Validiybek ila milliy dushmanimiz bolsheviklar orasida psixologik va axloqiy yaqinlikning bo'lib turishiga hayrat etmaslik va taajjublanmaslik hech mumkin emas.

Qo'qon Muxtoriyatining sarmoyadorlar nufuzi ostida bo'lg'onini isbot etish uchun bolsheviklar o'nlarcha, yuzlarcha har turli yolg'onlar o'ylab chiqaradirlar. Zakiybek esa "Qo'qon hukumatining" tamomila sarmoyadorlar nufusi ostida "bo'lg'on"ini yozg'onidan so'ng ikki-uch satr quyida: "Hukumat… tezlik bilan kechinmak majburiyatida qoldi. Hukumatda yerli tijoratlilardan Sayyidnosir Mirjalildan boshqalari qimirlamadilar" deydir.

Agarda sarmoyadorlar (Sayyidnosirdan boshqalar) yordam etishda "qimirlamagan" bo'lsalar, ularning Qo'qon hukumatidagi nufuzlari faqatgina "sarmoyador" deb atalg'onlarig'a asoslanurmi?

Shu yerda yana bir narsani eslatib o'tmakchiman. Orenburg istiqlolchilarining boshliqlaridan biri Dutov bizga "Qozochi qo'shinlarining Janubi-sharqiy ittifoqi"g'a kirishni taklif etib, bunga muqobil bolsheviklarga qarshi mujodalamizda bizga yordam berishni va'da qilg'on edi. Bu ittifoqning, Zakiybekning "sarmoyadorlar" deb ataydurg'onlarning manfaatlarini mudofaa etish uchun qurulg'on bir tashkilot ekanligini, shubhasiz, Zakiybekning o'zi ham biz bilan bir fikrdadir. Lekin Qo'qon hukumati Dutovning taklifini qabul etmadi va bu "Janubiy-sharqiy" ittifoqg'a kirishni rad qildi.

Ajib bir narsa: Qo'qon hukumati sarmoyadorlar manfaatini mudofaa etuvchi bir ittifoqg'a kirishni rad etadir. Sarmoyadorlar ham Qo'qon hukumatiga moddiy yordam berishga "ko'p ham qimirlamadilar". Shunday bo'lg'och, Zakiybek qaydan chiqarib "Qo'qon hukumati tamomila sarmoyadorlar nufuzi uchun tuzilgan" deb yozadir?

Yo Zakiybek buni bolshevik manbalaridan olib o'tiribdur (to'g'risi ham shudir). Bu, yaxshi emas.

Yoki esa Zakiybek o'z xayolidan chiqarib o'tiribdur. Bu, undan ham yomonroq. *(Davomi kelgusi sonda)*

Cho'qay o'g'li Mustafo. "Yosh Turkiston".
1931-yil dekabr. – №. 25.

BIR "ILMIY" YOLG'ONG'A QARSHI II

(Qo'qon Muxtoriyatiga 14 yil to'lishi munosabati bilan)

"Yolg'onchining bir so'ziga, donishmandning ming so'zi".
(Otalar so'zi)

Zakiybekning Qo'qon Muxtoriyati haqida yozg'onlarig'a qaytmoqdaman. "Yosh Turkiston" o'quvchilari Muxtoriyat

g‘oyasini milliy kurashimizning pro‘g‘romi emish kabi mudofaa etg‘onmi deb aslo o‘ylamasinlar. Muxtoriyat fikri biz uchun ortiq ilalabad tarixga qorishib ketgan va o‘lgan bir narsadir. Uni yangidan tiriltirmak, siyosiy intihor[167] va Turkiston milliy istiqloli kurashida qurbonlarning ruhini tahqir etmak bo‘lur. Zakiybekning yolg‘onlarini tahlil qilish bilan faqatgina Muxtoriyat va Muxtoriyat hukumati haqidagi haqiqatni mudofaa etmakchiman. Zakiybek rus kommunist firqasi qatorlarig‘a kirib chiqqonlardan biri bo‘lg‘onini o‘ziga siyosiy mujodala usuli qilib olg‘on. O‘quvchilar menga buni xayoldan chiqarib o‘tiribdur, demasinlar. Yo‘q, men bu yerda haqli ekanligimni Zakiybekning o‘z shahodati ila isbot etaman. Zakiybek 1924-yilning dekabrida “Turkiston jamiyati” nomli milliy demokratik ittifoqining sotsialist fraksiyuni tomonidan so‘l sotsialist revolyutsionerlar firqasi va sotsialist revolyutsioner – maksimalistlar ittifoqining Berlinda to‘plang‘on vakillariga ma’ruza yozib taqdim etgan. Zakiybek Turkistonning sotsialist bo‘lmag‘on butun muxtoriyatchi va istiqlolchi ziyolilarni qoralab o‘zining yangi “sotsialist” (?) siyosiy axloqini mana shunday tayin etadir: “Turkistonliklar qadim zamonda Xitoyga muhoraba qilib borg‘onlari vaqt, Xitoyda o‘zaro dohiliy[168] muhoraba chiqib turgan bo‘lsa, hujum qilishni erkaklikka qarshi bilib, mamlakat ichkarisiga kirmasdan ortga qaytadurg‘on va dushmanlarini uyquda uchratganlari zamon avval uni uyg‘otib, kurash uchun otig‘a minib qurollanib olg‘uncha fursat beradirgan otalarning avlodidir. Lekin voqealar bunday falsafaning yaramas bo‘lg‘onini ko‘rsatdi va dushmaning bo‘lmag‘onlarg‘a ham qarshi har qanday yolg‘onni, xoinliqni, ikkiyuzlamachilikni,

[167] Siyosiy intihor – siyosiy o‘lim.
[168] Dohiliy – ichki.

provakatsion qo‘llanishga haq berdi”[169]. Ochiq aytishimiz kerak. “Uxlab yotg‘on” siyosiy “dushmanni” biz ham uyg‘otib yurmas edik. “Dushmaning bo‘lmag‘onlarg‘a qarshi yolg‘on, xoinliq, ikkiyuzlamachilik, provakatsion” qo‘llash uchun inson vijdon haqidagi har qanday tushunchasini yo‘qotgan bo‘lishi kerak. Yo‘q. Turkistonliklar! O‘z dushmanimizni, yurtimizning milliy ozodlig‘i dushmanini urmak, uning vaqtinchalik “uyqu”sini abadiy “o‘lmak”ka aylantirmak kerak. Lekin dushman bo‘lmag‘onlarg‘a qarshi erkakchasiga kurashmak lozim.

Zakiybek o‘zining mana shu metodini va siyosiy axloqini endi bizga ham tatbiq etmakdadir. U, bu usulini bir vaqtlari unga ne ekanini unga dushman bo‘lmag‘on, hatto o‘zining eng yaqin do‘stlaridan biri deb sanag‘on menga ham qarshi tatbiq etib ko‘rgan edi. Bu harakatini Zakiybek aniq siyosiy maqsadlarni ko‘zlab qilg‘on bo‘lsa-da, menim shaxsimgagina oid bo‘lg‘oni uchun, ommaviy ahamiyat berishni istamay o‘z oramizda qoldirilg‘on edi. Endi esa Zakiybek “yolg‘on va provakatsion” usulini milliy harakatimizning butun bir davri xususinda, hamda olimlik iddaosinda bo‘lg‘on kitobida qo‘llamoqdadir. Zakiybek kitobining yolg‘onlari faqat Qo‘qon Muxtoriyati ustidagina emasdir. Hatto Zakiybekning Boshqirdistonda o‘ynag‘on o‘z rollari haqida yozg‘onlari ham xatosiz emasdir. Bu so‘zni Zakiybekning ishonchli kishilaridan tomonidan izoh va tasxihlar ila to‘ldirilib vaqtiyla menga yuborilg‘on boshqird bolshevigi Sihat Atnag‘ulov asari tasdiq eta oladir.

* * *

Bu boshlang‘ichdan so‘ng Zakiybekning “yolg‘on va provakatsion”larini tahlil qilib o‘taman.

[169] So‘l sotsiolist-revolyutsionerlar va sotsial-revolyutsioner maksimalistlar nashri afkori “Знамя Борбы”ning 9 va 10-sonlaridagi (1925-yil fevral-mart) 7-betning so‘ngiga qarang.

Zakiybek "Qo'qon hukumatining yagona istinodgohi bosmachilar raisi Ergash edi" deb yozadi. Bunday bir ma'lumotning bolsheviklarning pro'g'rom yozuvlarida bo'lishi mumkin, lekin uning ilmiy bir kitobida yozilishi g'ayri tabiiydir. Birinchi: "Bosmachilar raisi Ergash" Qo'qon hukumatining na "yagona", nada boshqa turli "istinodgohi" bo'lg'on. Ikkinchidan: Zakiybek ikki turli bosmachi borlig'ini izohlaydi. Qo'qon Muxtoriyatining kuch bilan tarqatilishidan avvalgi (1918-yil fevral) bosmachi va bu davrdan keyingi "bosmachi". 1918-yil fevralidan avvalgi bosmachilar bu laqabni o'zlariga chindanda haq etgan to'g'ridan to'g'ri banditlar va o'g'rilardir. Undan keyingi "bosmachilar" esa siyosiy isyonchilar va Turkistonda rus bolshevik diktaturasig'a qarshi kurashuvchilar, Turkistonning milliy qurtulishi uchun o'z qonini to'kuvchi va o'z hayotini qurbon qilg'uvchilardir. Bular milliy dushmanlarimiz bo'lg'on bolsheviklarning, muhoraba vaqtida ikki dushman taraf bir-birining askarini "bandit" deb atag'oni kabi, "bosmachi" laqabini taqib qo'yg'on mujohidlarimizdir. Isyonchilar tomonidan milliy g'oya yo'lida to'kilgan qon, bolsheviklar tarafidan ularg'a taqilg'on "bosmachi" laqabini bizning ko'zimizda boshqa yaramas ma'nodan tozaladi. Tarixda bunday "tozalash"lar ko'p bo'lib o'tgan… Mana shu isyonchi "bosmachi"larning sifatlarinda bir zamonlar Zakiybekning o'zi ham bo'lg'on edi. Agar uni birinchi davr bosmachilari (o'g'rilar) nodon (o'g'rilar)ndan deb atasaydilar, albatta ozorlanishg'a haqli bo'lur edi.

Ergash 1917-yilgi inqilobdan ko'pgina ilgari haqiqatda bosmachilar boshlig'i bo'lg'on edi. Inqilobdan so'ng u Farg'onaga qaytdi va Qo'qon shahar idorasi tomonidan eski shaharga militsiya boshlig'i (qo'rboshi) etib saylandi va Qo'qon atrofida qurollanib olg'on o'g'ri bosmachilar bilan muvaffaqiyatli suvratda kurashdi. Shuni ham eslatib

o'tayki, u zamon Qo'qon shahar boshlig'i Zakiybekning firqa orqadoshi rus sotsialist revolyutsioner advokat Gurpich edi. Ergash Qo'qon hukumati faoliyat yuritayotgan zamonda "Bosmachilar boshlig'i" emas edi. U, Qo'qon hukumati yiqilg'onidan keyingina isyonchi "bosmachi"lar boshlig'i rolida maydong'a chiqdi. Zakiybek uchun g'oyat e'tiborli sanag'on rus bolshevik muarrixi S.Ginsburg[170] ham "Qo'qon Muxtoriyatining kuch bilan tarqatilishi Farg'onada boshmachiliq harakatining boshlanishig'a sabab bo'ldi" deb yozadir. Demak bosmachilarning va "bosmachilar raisi Ergash"ning Qo'qon hukumati ila hech aloqasi bo'lmag'on.

Qo'qon hukumatining yagona "istinodgohi"ndan bahs etarkan Zakiybek qaysi Ergash haqida so'ylaydir. Inqilobdan avvalgi o'g'ri bosmachilar boshlig'i Ergashmi yoki isyonchi "bosmachilar" (mujohidlar) boshlig'i Ergash haqidami? Agarda birinchi davrning Ergashi haqida so'ylayotgan bo'lsa, bu tuxmatdir. Yo'q, ikkinchi davrning Ergashi qasd etilgan bo'lsa bu tarixan yolg'ondir.

Bolsheviklar qat'iy maqsad bilan o'g'ri bosmachilar ila isyonchi "bosmachilar" orasida hech farq ko'rmasdan so'ylaydirlar. Maqsadlari ham bizning milliy harakatimizni qoralab, aniq milliy ideallari yo'lida siyosiy bir kurash emas, g'oyaviy mohiyati bo'lmag'on "banditizm" harakati qilib ko'rsatmakdir. Ko'rinadirki, Zakiybekning ham maqsadi shudir. Chunki u ham: "Qo'qon Muxtoriyati hukumatining taqrir etmish bu fikri va pro'g'romi yo'qdir" deydi[171].

[170] Zakiybek kitobining 339-sahifasida Ginsburg deb atalg'on kishi shu bolshevik S.Ginsburgdir.

[171] Zakiybekning bu so'ngg'i tasdiqlarining ahamiyati juda kattadir. Bu sababdan Zakiybekning bizning milliy harakatimizni xo'rlaydirg'on va (anglaya bilsa) o'zini ham obro'siz etadirgan mana shu iflos yolg'onlarig'a "Yosh Turkiston" jurnali o'quvchilarining nazari diqqatini teranroq jalb etmak maqsadida maqolamning so'ngi qismini unga bag'ishlayman.

* * *

Zakiybek Qo‘qon hukumati a’zolarining ichki sirlarini o‘zlaridan ham ziyoda bilgan kishi bo‘lib yozadir: “Rus maktablarinda tahsil ko‘rgan ziyolilarning ko‘pchiligi bu hukumatga milliy o‘zlik g‘oyasidan ziyoda bolsheviklar bilan kelishmaslik va Kerenskiy hukumatiga sadoqat ko‘rsatmak asosida ishtirok etar edilar”. Bu jumlaning ortidan go‘yo uydirmasining to‘g‘rilig‘ig‘a dalil keltirgan bo‘lib, “Cho‘qay o‘g‘li Mustafo nashr ettirgan xotirasinda hukumat a’zolig‘ina intihob etmaganligini, Kerenskiy hukumatining siquvindan so‘ngra ham bu hukumatning mumassili sifati ila ish qilib ko‘rganligini faqat hech bir kimsaga dard anglata olmag‘onlig‘ini so‘ylamakdadir…” shaklida davom etadir.

Zakiybekning mana shu “dalili” ustida to‘xtalaman. Ularga bir taklif: Menim qachon va qaerda “hukumat a’zolig‘ina intihob etmaganligimni hamda omma fikriga tarafdor bo‘lmag‘onim”ni yozg‘onimni Zakiybek ko‘rsatib bersin. Bu, Zakiybekning o‘zgalarning yolg‘iz fikrinigina emas, hatto yozgan so‘zlarini ham o‘zgartirishini o‘ziga odat qilib olg‘onindan chiqib turgan bir narsadir. Haqiqatda esa men “hukumatga intihob etgan kun bilan” emas, Turkistonda umumiy vaziyatning oydinlashuvig‘a qadar Muxtoriyat e’loni fikriga tarafdor bo‘lmag‘on ko‘ringan edim. Bu ikki fikr orasida katta farq bor. Zakiybek buni juda yaxshi anglaydir. Lekin o‘zining “yolg‘izchiliq usuli”g‘a berilib qasddan haqiqatni o‘zgartirib turibdur. Zakiybekning bu yolg‘onini oshkor etmak uchun hammaga ma’lum bir necha voqeani sanab o‘tish kifoyadir. Masalan: Men, “Hukumatga intihob etgan kun bilan” Muxtoriyat e’loni fikriga tarafdor bo‘lmag‘on bo‘lsam, shu Muxtoriyatni e’lon qilish niyati bilan chaqirilg‘on qurultoy nima uchun raislikka meni saylag‘on? Agar men “hukumatga intihob etgan kun bilan” Muxtoriyatni e’lon qilish fikriga tarafdor bo‘lmag‘on bo‘lsam, qanday qilib Muxtoriyat qarorini o‘z qo‘lim bilan yozib o‘z og‘zimdan e’lon eta oldim? (Ta’kid muallifniki). Hukumat qurultoy tarqag‘ondan ikki kun so‘ngra tuzildi. Demak, Zakiybekning fikricha men shu qurultoy vaqtida raislik qilib turib, Muxtoriyatni e’lon qilish qarorini yozib ham o‘qib turib, Muxtoriyatni e’lon qilish fikriga qarshi bo‘lg‘onman! Shu ahmoq yolg‘onni Zakiybek menim tomonimdan yozilmag‘on va so‘ylanmag‘on so‘zlar bilan isbot etmakchi bo‘ladir!

Menim (yolg‘iz menim ham emas) Turkiston Muxtoriyatining shoshilinch tarzda e’lon etilishga tarafdor bo‘lib ko‘rina olmag‘onimning sababi izoh etadirgan u zamong‘i Turkistonning vaziyati qanday edi? Bu Zakiybekka juda yaxshi ma’lum. Turkistonda u vaqt dahshatli ochliq hukm surmakda edi. Mamlakatimizga g‘alla yetkazib turgan temiryo‘llar butunlay rus askar hukumati va rus ishchilari qo‘lida edi. Butun Turkistonda harbiy qurol ishlata oladigan bir nafar ham kishi yo‘q edi. Bu og‘irliqlar bir tarafda tursin, mamlakat uchun eng muhim bo‘lg‘on davlat boshqaruvi shakli masalasi ustida turkistonliklarning o‘z oralarida yakdil birlik yo‘q edi. Zakiybekning fasod tarqatib yozgan “rus maktablarida tahsil ko‘rgan ziyolilar” bolsheviklar hukumatiga qarshi qat’iy dushmanliq yo‘lini tutib turgan zamon Toshkentda “Ulamo jamiyati” o‘zining rahbari Sherali Lapin vositasida xoin bolsheviklarga murojaat etib ular bilan birgalikda koalitsion hukumat ta’sisini taklif etgan edi. Bu haqida Zakiybek o‘ziga yaxshig‘ina ma’lum bo‘lg‘on bolshevik Safarov kitobining 68-sahifasida yetarlik darajada ma’lumot ola bilar edi. Buning ustiga turkman tug‘onlarimizning ahvoli ruhiyasi ham bizga ma’lum emas edi. Mana shu vaziyat qarshisida ko‘zni yumib birdaniga Muxtoriyat e’lon etish, yani Sovet hukumatiga harb[172] e’lon qilish, o‘z xalqining jallodi bo‘lish vazifasini o‘z ustiga olmoqlik bilan barobar bo‘lur edi.

[172] Harb – urush.

Eng avvalo, Turkistonni ma'lum bir pro'g'rom atrofig'a to'plamoq lozim edi. Bu maqsad hosil bo'lg'uncha rus askar, ishchi va krestiyan (dehqon)larining bir qismini bo'lsada betaraf bir holg'a keltirib, bizga qarshi birdan sovet hukumati tarafiga o'tib ketmasliklari uchun tadbir ko'rish kerak edi. Bunga esa faqat muvaqqat (Kerenskiy) hukumati nomidan harakat etmak bilangina erishilsa bo'lardi. Mana shuning uchun men, hukumat bolsheviklar qo'lig'a o'tganidan so'ng ham bir necha hafta o'zimning muvaqqat hukumat vakilligi mavqeyimdan iste'foda qilib harakat etib ko'rdim. Bizning bu siyosiy harakatimizni bolsheviklar ko'p yaxshi angladilar va meni telegraf bilan Toshkentga da'vat etib yangidan ta'sis etilgan Sovet hukumatiga kirishimni, hatto hukumat raisligini zimmamga olishimni taklif qildilar. Bolsheviklarning bu siyosatdan kutgan maqsadlarini yaxshi bilganim uchun men, tabiiy ularning takliflarini qabul qilmadim. Siyosiy yo'ldoshlarim ham menim bu qarorimni tamomila ma'qul ko'rdilar.

Bizning oldi-orqasini o'ylamasdan darhol bolsheviklar bilan to'qnashishimizda bolsheviklarga qarshi bo'lib turgan rus askar ishchi va krestiyanlarning ham shubhasiz bolsheviklar tarafiga o'tib ketish ehtimolini, Zakiybekning kitobida ham (339-sahifada) yozilg'on Kafkaziya jabhasindan qaytib kelayotg'on namoyishchilar voqeasi ko'rsatadir. To Qizilsuv (Krasnavodsk)dan boshlab, yo'l bo'yi har yerda sovet hukumatlarini yiqitib, "Yashasun Turkiston Muxtoriyati va uning hukumati!" deb kelayotg'on bu askarlar bolsheviklarning namoyondalari Kolesov, Uspenskiy, Tobolinlarning "Qo'qonda ruslarga qarshi panislamist (?) hukumati tuzildi" degan provakatsionlarga inonib, o'zlarining "Yashasun Turkiston Muxtoriyati" shiorig'a rag'man, Qo'qon hukumatiga sotishg'a va'da qilg'on qurollarini bolsheviklarga topshirib ketdilar.

Oktyabr inqilobidan to Qo'qon qurultoyig'acha o'tgan vaqtdan biz Turkistondagi umumiy vaziyat va ahvoli ruhiyani o'rganmak uchun iste'foda etdik. "Ulamo jamiyati" bilan kelishuvga muvaffaq bo'ldik. "Ulamo jamiyati" u kungacha tutgan siyosatidan voz kechib biz bilan birgalikda harakat etmak uchun o'z lideri Sherali Lapin Turkiston Muxtoriyatining "Muvaqqat millat majlisi"ga rais etib saylandi. Turkmanlarning biz bilan bir jabhada harakat etajagi xabari Qo'qon qurultoyi ochilishidan bir kun oldin yetib keldi. Biz hatto rus ishchi krestiyan tashkilotlarining ham bir qismini Muxtoriyat fikriga ko'ndirishga muvaffaq bo'ldik. Biz bu rus ishchi va krestiyanlarining bizning tarafg'a, milliy ishimizga samimiy simpatiya ko'rsatganlaridan ko'proq bolsheviklarga dushmanliqlarindan ekanligini juda yaxshi bilar edik. Lekin biz uchun bu ham muhim edi. Chunki bu vaziyat o'z vazifamizni tuzib olishg'a biroz "tanaffus" berar edi.

* * *

Endi Zakiybekning "Rus maktablarida tahsil ko'rgan ziyolilarning ko'pchiligi bu hukumatga milliy o'zlik g'oyasidan ko'proq bolsheviklikka rozi bo'lmaganlari va Kerenskiy hukumatiga sadoqat ko'rsatmak asosida ishtirok etmishlardi..." degan tuhmatlariga kelaman. Ajabo, Zakiybekning o'z bolsheviklaridan "rozi"lig'indan va Kerenskiy hukumatiga "dushmanlig'indan"mi Boshqirdiston Muxtoriyatini e'lon qilgan edi? Agar u bolsheviklardan mamnun bo'lsa, nechun u bolsheviklarga qarshi Muxtoriyat harakatini yurgizib, Orenburg istiqlolchi liderlaridan Dutov bilan ittifoqda bo'lib bolsheviklarga qarshi mujodala olib bordi?... Yo'q, agar Kerenskiy hukumatiga "sodiq" bo'lmag'on bo'lsa, nechun u Boshqirdiston Muxtoriyatini e'lon etmak uchun shu Kerenskiy hukumatining yiqilishini kutib turdi? Nechun u bu Muxtoriyatni Kerenskiy hukumati zamonida

shu hukumatga qarshi e'lon etmay turdi? Bu savollarni men "Istanbul dorulfununi professori"ning bizga qarshi otg'on tuhmatlarining mutlaqo asossiz bo'lg'onini ko'rsatmak uchungina o'rtaga qo'yib o'tiribman.

Shubhasiz, biz turkistonliklar "bolsheviklardan norozi" va hatto ularg'a dushman ham edik. Chunki bolsheviklarni biz u zamonda naq Turkiston milliy manfaatiga dushman deb bilar edik.

Endi "Kerenskiy hukumatiga sadoqat" haqida bir necha so'z: Zakiybek bunday "qoralov"ni bizning ustimizga faqat demagogiya[173] yuzasindan otadir. Agarda (1925-yil 24-dekabr) "Pok muhtaram yo'ldosh Stalin" (Глубокоуважаемый товарищ Сталин)g'a "Ilmni siyosatdan juda yaxshi ayira bilganimga inona bilasiz" (Можете полагатся, что я совершенно ясно отличаю науку от политики) deb xat yozib yurgan Zakiybek haqiqatdan ham ilmni siyosatdan ayira biladirgan bo'lib, bizga qarshi betarafliq (obyektivlik) va to'g'riliq ko'rsata bilsaydi, tabiiy, bu kabi "kaltalik"ni "ilmiy kitobi"nda yozmas edi. Chunki "professor" afandi anglamaydilarki, Turkiston va Boshqirdistonda Muxtoriyat e'lon etishning Kerenskiy hukumatiga sodiqliq va dushmanliq ila hech bir aloqasi yo'qdir va bo'lishi ham mumkin emas edi.

Zakiybek yaxshi biladurki, biz turkistonliklar Zakiybekning ham rus inqilobi boshlang'on paytdanoq o'zimizning muxtoriyatchi (avtonomist) bo'lib Rusiyada federativ Jumhuriyat ta'sisi tarafdori ekanmizni oshkor qilg'on edik (Bu to'g'rida Zakiybek kitobining 335-sahifasiga qaralsin).

So'ngra biz bu yo'lni butunlay tashladik. Biz endi istiqlolchimiz. Biz ham ortiq na Rusiya ila birlikda federativ

[173] Demagogiya – (yunoncha: demos - xalq va ago - boshlayman) – faktlarni ataylab buzib ko'rsatish, yolg'on-yashiq va'dalar berish va tilyog'lamalik qilish yo'li bilan aldash; g'arazli, ko'pincha siyosiy maqsadlarni yashirgan holda balandparvoz muhokama yuritish.

Jumhuriyat tuzish, nada umum Rusiya majlisi muassoniy haqida so'z bor. Lekin u vaqtda – 1917-1918-yillarda – bizlar hammamiz, xususan Zakiybek, shu Rusiya ila federative Jumhuriyat tuzish fikriga sodiq va muxlis edik. "Kerenskiy hukumati"ning esa ayricha hech bir ahamiyati yo'q edi. Uning o'rnig'a shu pro'g'rom ila boshqa bir hukumat ham tuzish mumkin edi. Chunki Kerenskiy hukumatining siyosiy ma'nosi, hukumat raisining shaxsiyatida emas, uning umum Rusiya majlisi muassoniy[174] va Rusiya demokratiyasining federativ Jumhuriyati g'oyasidagina edi. Umum Rusiya majlisi muassoniy g'oyasining Dutov ila birlikda Zakiybek bizning hammamizdan ortiq darajada mudofaa etib minglarcha boshqird tug'onlarimizni Rusiya ichiga muhoraba jabhalariga yuborg'on edi. Minglarcha boshqird yigitlari Zakiybekning bugun "rus maktablarida tahsil ko'rgan ziyolilar"i Zakiybek tomonidan ilgari surilgan Muxtoriyat g'oyasi yo'lida shahid bo'lg'on edilar. Siyosiy xodimlar va xususan o'ziga bosh o'rin talab etuvchilarning boshqalarg'a tuhmat qilivudan avval o'z ishlarini to'g'riliq ila insof tarozisiga solib qarashlari kerak.

Taassufki, kechagina Boshqirdiston milliy harakati boshida bo'lib hatto Turkiston milliy harakatining ham rahbarligiga qo'l uzatg'on, bugun Istanbul turk dorulfununida turk tarixi muallimi bo'lib turgan Zakiybek tug'onimizda ham bu sifatlar tag-tugi bilan yo'q.

Bunga Zakiybekning Qo'qon "Muxtoriyatining taqrir etmish bir fikri va pro'g'romi yo'qdir..." deb yozg'onlari guvohdir.

(Davomi bor)

Cho'qay o'g'li Mustafo. "Yosh Turkiston".
1932-yil yanvar. – №. 26.

[174] Majlisi muassoniy – Ta'sis majlisi.

BIR "ILMIY" YOLG'ONG'A QARSHI III

(Qo'qon Muxtoriyatiga 14 yil to'lishi munosabati bilan)

"Yolg'onchining bir so'ziga, donishmandning ming so'zi".
(Otalar so'zi)

Aniq g'oya va pro'g'romig'a tayanmag'on hech bir tashkilot yo'qdir. Hatto o'g'rilar ham bir pro'g'rom bilan harakat etmak majburiyatidadirlar. Har g'oya va pro'g'romning zamong'a uyg'unlig'ini va bajarila bilishni munoqasha va inkor etmak mumkin. Lekin bir tashkilotning g'oya va pro'g'romini inkor etmak, tirik bir mahluqda jonning borlig'ini inkor etish bilan barobardir. "Qo'qon hukumatining taqrir etmish bir fikri va pro'g'romi yo'qdir" deb yozg'on Zakiybek ham ayni tarzda harakat etadir. Qo'qonda Muxtoriyat e'lon qiling'onlig'ini va Muxtoriyatni yashatish uchun Muvaqqat hukumat tuzilganligini Zakiybekning o'zi ham e'tirof etadir. Demak, bu hukumatning aniq bir fikri bo'lg'on, u ham Turkiston Muxtoriyati edi. Faqat Zakiybek, eng nodon ahmoqlar uchun op-ochiq ko'rinib turgan bu haqiqatni nechun inkor etadir? Bu fikr xususinda aytadirganimiz shu. Endi pro'g'rom xususig'a kelaylik.

Zakiybekning o'zi: "Qo'qon hukumati tamomila sarmoyadorlar ta'siri ostida tashkil etilgan edi" deb yozib o'tiribdur. Demak, Zakiybekning fikricha, u hukumat sarmoyador og'alarining pro'g'romlarini hayotga tatbiq qilmakchi edi. "Sarmoyadorlarning Qo'qon hukumatiga ta'siri" ularning g'oya va pro'g'romlarini hayotga tatbiq qilishda ishlatmasa, boshqa nimada bo'ladi? O'zini so'l sotsialist deb atovchi Zakiybek,

(Oh, baxtsiz sotsializm!) Qo'qon hukumatini (taqrir etmish fikri) bo'lmag'onliqdan emas, "g'ayri sinfiy" millatchilik bilan "sarmoyadorlar manfaatiga xizmat etdi" deb ayblasa edi, haqli bo'lur edi. O'z-o'zidan ko'rinib turgan bu behudalikni Zakiybek shuurli bir holda qilib o'tiribdir. "U turning yuzi yo'q, izi bor" degandek, Zakiybek ham bu ko'rsatilgan "tarixiy uydirmalarining izi" bilan "Qo'qon hukumatini taqrir etmish bir fikri va pro'g'romi yo'qdir" degan so'zlarining op-ochiq yolg'on ekanligini anglasa kerak.

Muvaqqat Muxtoriyat hukumatlarining inqilob vaqtlaridag'i pro'g'romlarini, sobit (doimiy, mustahkam) hukumatlarning pro'g'romlardan farqlay olish lozim. Muvaqqat muxtoriyat hukumatlarining pro'g'romlari odatda nihoyatda tor bo'ladi. Qo'qon hukumatining pro'g'romi, umumiy xatolari dohilinda, IV favqulodda milliy qurultoy[175] tomonidan belgilangan va har narsadan avval mamlakatni Turkiston majlisi muassoniy chaqirishg'a hozirlamoqdan iborat bo'lg'on edi. Qurultoy Muvaqqat hukumatga, Zakiybekning siyosiy ittifoqdosh yaqini Orenburglik Dutov tomonidan kirishga da'vat qiling'onimiz "Janubiy-sharq istiqlolchi qo'shinlari ittifoqi" masalasini muzokara etishni topshirdi. Qo'qon hukumati tashkil etilar etilmas, o'z faoliyati uchun pro'g'rom tartib etdi va kechikmasdan: qurolli kuchlar (xalq militsiyasi) to'plash, moliya ishlari va Muxtoriyat idorasining tashkiliga soliq uchun yangi usul axtarmoqg'a boshlash va boshqa narsalar uchun qarorlar qabul etdi.

Qo'qon hukumati ikki oylik faoliyati mobaynida nima qila oldi? Muxtoriyat bir jihatdan oz va boshqa jihatdan ko'p ish qila oldi: tarixiy vaziyatning talablariga nisbatan oz, biroq, u vaqtdagi Turkistonning tarixiy vaziyatning talablariga muvofiq zamonaviy ilm va siyosat jihatidan yetishmaganligini

[175] Zakiybek yanglishib III qurultoy deb yozmishdir.

nazari e'tiborg'a olsak, Qo'qon hukumatining ko'pgina ish qila olganini ayta olamiz. Hukumat, ta'sis majlisining chaqirilishini 1918-yilning 20-martig'a ta'yin etib saylov qonunini tuzdi va Muvaqqat millat majlisidan o'tkaza oldi. "Janubiy-sharq istiqlolchilar ittifoqi" masalasida hukumat meni Orenburgga vakil etib yubordi. Men tomonimdan hukumatga 25-dekabrda taqdim etilgan ma'ruzaga binoan bu ittifoqg'a kirmaslik qaror qiling'on edi[176].

Qurolli kuch tashkil etish yo'lida biz haddan tashqari qiyinliqlarg'a uchragan edik. Turkistonliklardan bir nafar ham zobitimiz bo'lmag'on. Rusiya qo'shinidagi 4-5 turkistonlik zobit esa biz bilan birga emas edilar. Ikki nafar yosh va butunlay tajribasiz tatar zobiti, ikki nafar lehistonlik zobit va tashkilot arkoni boshlig'i rutbasinda bo'lg'on yana bir lehistonlik zobit vositalari yordamida bir askariy quvvat tashkil eta boshladik. Har miltiq va har o'q uchun kaliy[177] miqdorida aqcha berib qurol sotib olishlik majburiyatida edik. Aqchamiz esa juda ham oz edi. Zakiybekning ham yozgani kabi, sarmoyadorlar bizga moliyaviy yordam ko'rsatmayotgan edilar. Oxirda, rus ishg'olchi qizil qo'shinig'a qarshi qurolli kurashda muvaffaqiyat umid qilmag'onimizdan Muxtoriyat haqqimizni tasdiq ettirmak uchun chorasiz boshqa yo'llar axtarmoq majburiyatida qoldik. Har vaqt shunday bo'ladir: o'z haqqingni kurashib qozonmoq yohud uni saqlab qolmoq uchun o'z kuching bo'lmag'onda kuchlilarga qarshi haq va adolatni qalqon qilib chiqmoq majburiyati ostida qolasan. Faqat ko'pincha, bu haq va adolat kuchsiz va ezilgan xalqlarning

[176] Bolsheviklar esa Ho'qand hukumatining "Janubiy-sharq ittifoqi"g'a kirganligi haqida yolg'on tarqatishda davom etmakdadirlar.

[177] Kaliy – hayotning muhim elementlaridan biridir. Dunyoda yiliga 50 million tonna kaliy ishlatiladi. Bu yer qobig'ida eng ko'p tarqalgan yettinchi elementdir. Kimyoviy belgisi: K.

oh va fig'onidan ko'proq, kuchlilarning to'p-zambaraklarig'a ko'proq itoat qiladir.

Qo'qon hukumati butun turkistonliklarni – dehqon, ishchi va ruhoniylarni – Muxtoriyat bayrog'i ostida birlashmakka va ayni zamonda o'zining eski davlat muassasalarining aksariyati tomonidan tan olinishini ta'minlashga muvaffaq bo'ldi. Masalan: Farg'onadagi butun eski hukumat muassasalari rasman Muxtoriyat hukumatiga tobe' bo'ldilar. Hatto mahkamalar (sud) ham "Turkiston Muxtoriyati muvaqqat hukumati" nomig'a hukm chiqara boshlag'on edilar. Toshkentdagi oliy kontrol (nazorat) idorasi, davlat banki va Turkiston oliy mahkamasi (sudi) kabi muassasalar ham asos e'tibori ila Muxtoriyat hatti-harakati va pro'g'romini qabul etgan edilar. Tabiiy, bularning hammasining ham Muxtoriyat hukumatidan ko'proq bolshevizmga qarshi kurashlari uchungina iste'foda etmak istaganlarini bilar edik. Lekin kechagina turkistonliklar uchun hech bir ahamiyatli milliy haq tanimag'on bu rus davlat muassasalarining bugun Turkiston Muxtoriyati bayrog'i ostida ketishga qaror berishlari, ularning sobiq buyuk Rusiya davlati hissining endi inqirozg'a yuz tutayotganligini anglag'onliqlarini ko'rsatib turar edi. To'g'ridir, bu eski rus millatchi buyuk davlatchiligi o'rniga Zakiybekning "Tayoq kuchi ostida emas, o'z samimiy orzusi bilan xizmat etgan" (Ta'kid muallifniki) yangi inqilobchi rus buyuk davlati kelgan edi. Lekin bu hol masalaning mohiyatini o'zgartirmadi. Muxtoriyat hukumatini Turkistondagi umumsiyosiy harakat va kurashning markaziy maqomida bo'lib qoldi. Qo'qon hukumatining milliy va siyosiy ahamiyati mana shunday edi. (Ta'kid muallifniki).

Moliya ishlarinini tashkil etish ham Qo'qon hukumati uchun ko'pgina qiyin bo'ldi. Hukumat juda ham oz vositalar bilan ish ko'ra boshladi. Davlat bankining Qo'qon sho'basidan

aqcha olmoqg'a qaror qiling'on edi[178]. Bu qarorning amalga oshirila olinmag'onig'a hukumat a'zolaridan birisining qarshilig'i va uning to'g'ridan to'g'ri "sabataji" sabab bo'lg'on edi. Bu a'zo shu masala yuzasidan hukumat hay'atidan chiqg'on. Hukumat a'zosi Shoh Ahmadbekning taklifi bo'yicha hukumat o'ttiz million so'mliq qisqa muddatli davlat istiqrozi[179] chiqarmoqg'a qaror bergan edi. Qo'qonning o'zida ishlangan mahalliy qog'ozga bosilg'on istiqroz qog'ozlari olib keling'on va istiqrozg'a yozilish ishlari ko'p muvaffaqiyatli borayotg'on edi. Davlat bankining Samarqand va butun Farg'ona sho'balari va xususiy banklar katta summalarg'a yozilmoqda edilar. Bolsheviklar tarixchisi Aleksenkov iqstiqrozning Muxtoriyat hukumati tazyiqi[180] ostida tarqalg'onini yozadir.

Istiqrozning bu darajada muvaffaqiyat qozonishi bolsheviklarni haddan tashqari talosh va hayajonga keltirdi. Ulardan Kuzmin ismli birisi Turkistondagi sovet hukumati uchun Qo'qon hukumati tomonidan kundan kunga ulg'aymoqda bo'lg'on xavf haqida xavotir olib bir maqola yozdi. Kuzmin o'z yo'ldoshlarig'a, Qo'qon Muxtoriyatining o'yinchoq emasligi va Qo'qon hukumati tomonidan tarqatilg'on istiqrozning Muxtoriyat hukumatining niyatlari jiddiy ekanligini oshkor ko'rsatib turganligi va yolg'iz Sovet hukumati uchungina emas, hatto umumiyatla Turkistonda rus hokimiyati uchun

[178] Zakiy Validiybek o'z kitobida: "Hukumat bankda bo'lgan pullarni musodara etishga jasorat qilolmadi" deyish bilan bolsheviklarning ayniqsa Turor Risqulning yozg'onlarini takror etmishdir.

[179] Istiqroz – Obligatsiya. Obligatsiya – o'z egasining obligatsiyada ko'rsatilgan muddat davomida uni chiqargan shaxsdan obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mol-mulk ekvivalentini olish huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Obligatsiya o'z egasiga obligatsiyaning nominal qiymatidan foizlar yoki boshqa mulkiy huquqlarni olish huquqini ham berishi mumkin.

[180] "O'rta Osiyoda inqilob" majmuasining 56-betiga qaralsin.

buyuk tahlika turganligi xususlarinda vahima qilib ularni Qo'qon hukumatiga qarshi qat'iy kurashga chaqirg'on edi.

Qo'qon hukumatining Kafkaziya jabhasidan qaytayotg'on Yettisuv qazachilari bilan ularning qurollarini sotib olish to'g'risida muzokaraga kirishganligimiz ham bolsheviklarning hayajonlarini shiddatlantirdi. Agarda yo'ldoshlarimizdan aksarisining bolsheviklar uchun qulay provakatsion bahonalari bo'lib chiqg'on oshig'ich[181] ehtiyotsizliqlari bo'lmag'on bo'lsa edi, qurol sotib olish haqida haqidag'i bu muzokaramizning buyuk muvaffaqiyatli natijalanishi umid etarlik darajada edi.

Yangi soliq (vergi) qoidalari haqida qonun loyihasi tuzish uchun hukumat soliq inspektorlarining (tahsilot ma'murlarining) maslahat majlisini to'pladi… Maorif noziri Nosirxonning rahbarligi ostida birinchi bosqich (ibtidoiy) maktablarning tashkili va vaqf maktablaridan iste'foda etish qoidalari haqida qonun tuzish ishlari ham boshlang'on edi… Oziq-ovqat vaziri Obidjon g'alla tadorigi ishlarini hal etish uchun Shimoliy Kafkaziyaga yuborilg'on edi. Ziroat noziri Hidoyatbek Yurgulu og'a asosiy umumiy chegara ichida dekabrning so'ng kunlarida ishlanib yetgan yangi tuproq (aroziy) qonuni uchun materiallar hozirlag'on edi.

Lekin biz – Qo'qon hukumati – mag'lubiyatga uchradik. Bizning dushmanlarimiz – Qo'qon hukumatida bir asos, aniq fikr va aniq bir pro'g'rom bor ekanligini bilib uning jiddiyligini bildilar va mana shu aniq g'oya va pro'g'romg'a qarshi kurashdilar. Zakiybekning "Tayoq ostida emas, o'z samimiy orzusi ila" xizmat qilgan qizil rus nayzalari bizni yengdi. Qo'qon shahrining qizil gvardiya tomonidan vayron etilganidan so'ng bu shaharga kelgan sovet vakillari hay'ati a'zosi muhandis Kurtikov yiqitilg'on Qo'qon hukumatining

[181] Oshig'ich – haddan tashqari.

xizmat qilgan milliy Muxtoriyat g‘oyasining va u hukumatning ozg‘ina vaqt davom etgan faoliyatining xalqda chuqur ta’sirlar qoldirg‘onini so‘ylab bolsheviklarni haddan tashqari ehtiyot bo‘lishg‘a va g‘oliblik g‘ururig‘a haddan ziyoda berilmaslikka undagan edi…

…Qo‘qon hukumatining fikri va pro‘g‘romi yo‘lida ko‘p turkistonlik qoni to‘kilgan va ko‘p turkistonlikning hayoti qurbon bo‘lg‘on. Endi esa Zakiybek Turkistonga tuhmat qilgan kitobida Turkiston yigitlarining daryodek oqqon qonlarig‘a, tog‘dek uyilgan jasadlarga tupuradir-da, “vijdonining ko‘z va quloqlarini” berkitib, “Qo‘qon hukumatining taqrir etmish bir fikri va prog‘romi yo‘q edi” deydir.

Bu uyat yolg‘onlarni yozib o‘tirgan zot, vaqtiyla Turkiston milliy jamiyatining a’zosi, hatto uning rahbarlaridan biri bo‘lg‘on, bugungi kunda Istanbul turk dorulfununing professori Zakiy Validiybek emas, balki og‘zidan “Sovet Boshqirdistoni inqilob qo‘mitasi raisligi”, Stalin va boshqa qizil qonxo‘rlar ila do‘stlig‘ining tami ketmagan Zakiy Validovdir.

(So‘ng)

Izoh: Zakiy Validiybek o‘zining “Juda ham muhtaram yo‘ldoshi” Staling‘a yozg‘on maktubida: “Men hali chet o‘lkalarda yurib oilam va ota-onamga tazyiq qilishingizga asos bo‘lurliq bir harakat qilmag‘on edim”degan edi. Endi Zakiybek o‘z tarix kitobida Qo‘qon Muxtoriyati haqida yozgan bugungi bolshevizm fikriga muqobil Stalindan “mukofot” kutishga arziydigan ish qildi deb ayta olamiz.

Cho‘qay o‘g‘li Mustafo. “Yosh Turkiston”.
1932-yil fevral. – №. 27.

DEKABR XOTIRALARI

Dekabr oyi biz turkistonliklar uchun xotirali bir oydir. 1917-yilning 10-dekabrida (eski taqvim bilan 27-noyabrda) Turkiston Muxtoriyati e’lon etilgan edi. 1929-yilning dekabrida esa biz “Yosh Turkiston”imizni tarqata boshladik.

Muxtoriyat – bu, bizning kechmishimiz, bizning hozirliqsiz davrimizning va rus inqilobig‘a, rus inqilobchi demokratiyasiga ishonganimizning tamg‘asidir.

“Yosh Turkiston” esa – bizning kelajagimiz, Turkistonning qurtulishi va istiqloli uchun yurutib turg‘on kurashimizning bayrog‘idir. “Kurash bayrog‘i” – bu, daha g‘alaba emas, balki g‘alabaga chaqiruvdir. Biz bu yerda bultur Sovet diktaturasiga 14 yil to‘lishi munosabati ila yozganlarimizni qaytarib o‘tamiz: “Bizni na yuksak tovush bilan so‘ylangan so‘zlar, nada majmua maqolalari qutqara oladir. Biz uchun har narsadan avval milliy birligimizni saqlash, uni kuchaytirish va milliy shuurni quvvatlantirish kerak” (Ta’kid muallifniki). Biz, hozirgi umumiy, siyosiy sharoit ichida bola xarhashashiga o‘xshaydirg‘on va faqat “nomsiz majmua” kabi avvaldan yopilishg‘a mahkum majmualardagina yozilishi mumkin bo‘lg‘on “G‘arbiy Turkiyadan Yoqutistonga qadar birlashgan turk millati” qurmoq tilagiga berilib o‘tirmaymiz. Bizning chun, endigi yangi siyosiy sharoit ichida, yaqindag‘ina bo‘lib o‘tgan ikki haqiqat, yetarlikdir: Umumiy turk milliy-madaniy qaynog‘i birligining tasbiti (Anqara turk tarixi konferensi) va endigi Turkiya Jumhuriyati maorif vakili hurmatli doktor Rashid G‘olibbekning (Istanbulda bosilg‘on bir gazeta, Samarqanda o‘qilib anglashiladir) deya Istanbul turk tili konferensiyasining ma’no va ahamiyatini belgilagan bayonotidir. Tarixiy davrning hozirgi faslida bizning Onado‘lilik tug‘onlarimizdan tilagimiz,

mana shu ikki muhim istiqomatda davomli va teran bir suvratda ish ko‘rmakdir.

Bizning siyosiy va milliy qurtulishimiz, har narsadan avval bizning o‘z ishimizdir. Bu yuksak g‘oyamizga bizning kabi o‘z milliy ozodligi uchun umumiy dushmang‘a qarshi kurashuvchilarning eng mahkam suvratda birlashmaklari ila tezroq erishajakmiz. Bilhossa butun turk kuchlarining – tatar, boshqird, qrimlik, ozarbayjon va turkistonliklarning – o‘zaro jips suvratda birlashmaklari lozimligini aytib o‘tmak va rivojlantirmak kerak. Ularning orasida hech bir ixtilof bo‘lmaslig‘i kerak.

“Yosh Turkiston” bor kuchi bilan bu g‘oyag‘a xizmat qilib keldi, unga da’vat etdi va tolmasdan yanada xizmat etajakdir…

Muxtoriyat e’loni butun Turkistonda siyosiy ruhning ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Muxtoriyat hukumatining poytaxti bo‘lg‘on Qo‘qondan so‘ng Toshkentda ham katta bir hayajon hukm surmakda edi. Muxtoriyat e’lon etilar-etilmas darhol Toshkentda bu hodisani bayram etishga hozirlana boshladilar.

Turkiston Muxtoriyati e’lon qilinishi munosabati bilan 1917-yil 13-dekabrda (26-dekabr) Toshkentda tashkil etilgan xalq bayramidan bir ko‘rinish.

Turklar va ruslar barobarlikda hozirlandilar. Toshkent shahar aminligi (Shahar dumasi) hozirliqning markazi edi. Shahar ichida namoyish pro‘g‘romi tuzilgan edi. U zamonning rasmiy ma’lumotnomalarini ko‘zdan kechirsangiz umumxalq bayramining qanday tus olganini ko‘rajaksiz. Bayram kuni – 13 (26) dekabr– Toshkent tevaragidan shaharga o‘n mingdan ortiq otliq yigitlar kelgan edi. Butun shahar bayroqlar va “Yashasun Turkiston Muxtoriyati!”, “Yashasun Turkiston Majlisi muassoni!”, “Yashasun Turkiston Muxtoriyati hukumati!” shiorlari yozilg‘on katta plakatlar bilan bezalgan edi. Bayram tashkilotchisi turkiy xalqning joni, yuragi – nomus va ruhiy erklik timsoli bizning Munavvarqori edi. Toshkent bolsheviklari bu bayramdan haqiqatdan ham qo‘rqg‘onlar va shuning uchun ham o‘z boshliqlari – Sovnarkom raisi Kolesov va uning o‘rinbosari Uspenskiy nomidan bu bayramg‘a qatnashmoq va Turkiston Muxtoriyatini tabrik etmak istaganlarini bildirgan edi.



Rasmda Munavvarqori (↓), uning o‘ng tomonida Abdulla Avloniy, Munavvarqorining o‘ng tomonida esa taraqqiyparvar ulamolardan, mudarris Murodxo‘ja afandi. Toshkent. 1917-yil 13- (26) dekabr.

Tong chog‘idan boshlab shaharda namoyishlar boshlandi. Shaharning turli qismlarida notiqlar uchun minbarlar qurulg‘on edi. Nutqlar so‘zlandi. Milliy qurtulish yo‘lida birinchi bosqich bo‘lg‘on Muxtoriyatning ma’nosi anglatildi. Bolsheviklar ham so‘z so‘yladilar va bular ham Turkiston ta’sis majlisini tan olishga tayyor ekanliklarini bildirdilar. Turkistonliklarning siyosiy umumiy afv etmak va qamoqg‘a oling‘onlarni ozod etmoq haqidagi talablarga sovet hukumati vakillari rozilikla javob berdilar va bolshevik shahar qo‘mondoni Guduvich shaxsan o‘zi Toshkent qamoqxonasining eshigini ochib ichidagi barcha siyosiy mahbuslarni ozodliqqa chiqarib yubordi…

Kun butunlay tinch o‘tdi. Hech bir anglashilmovchiliq bo‘lmadi. Har yerda o‘rnak bo‘lurliq intizom bor edi. Kechqurun namoyishchilar tarqalishni boshladi. Bir to‘p odamlar eski shaharga qaytmoqda edilar. Bular bilan birgalikda endigina qamoqdan qutqarilg‘on bir necha odam va bularning ichida burung‘i Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasi a’zosi G‘arof Durar ham bor edi. Namoyishchilar O‘rdadagi tor ko‘prikning ustidan endigina eski shaharga kirmoqchi edilar. Birdan o‘q otildi. O‘qsochar[182] chaqilladi. Bu o‘qlarni bolsheviklar tomonidan maxsus qo‘yib qo‘yilg‘on sovet askarlari otayotgan edi (Ta’kid muallifniki). Qurolsiz xalq ichida dahshatli bir qaram-qarshilik tug‘ildi.. yaralang‘onlarning faryodi… miltiq va pulemyotlardan o‘q otilish davom etmakda… Tor bir ko‘prikka qisilib qolg‘on qurolsiz odamlar to‘dasi bir-birini bosib ezadir…Yuzlarcha inson kanalga o‘zini tashlaydir. Bir qanchasi suvda cho‘kadir…

Insonlar to‘dasi tarqaladir. Otishlar to‘xtaydir. Voqea joyida o‘nlarcha turk shahidi qong‘a bo‘yanib yotadir,

[182] O‘qsochar – pulemyot.

yuzlarcha yaralang‘on va o‘nlarcha suvda bug‘ilg‘on turk namoyishchilari qoladir.

Rus bolsheviklari Turkiston Muxtoriyatini bizningla barobar mana shunday “bayram” qilganlar. 13 (26) – ila 14 (27) – dekabr orasidag‘i butun kecha bo‘ylab shaharda ruslarning miltiq otishlari davom etdi. Bu, bolsheviklarning Muxtoriyat bayramida qatnashg‘on ruslar bilan hisob-kitoblari edi.

Toshkent bolsheviklarining qo‘mondoni Guduvich keyinchalik bu voqeaga izoh berarkan, namoyishchilarning qamoqxona eshigini ochmoqg‘a kuch bilan majburlaganlarini so‘ylamish… Biroq, na Kolesov, nada Uspenskiy hech bir zamon o‘zlarining Muxtoriyat bayramig‘a qatnashuvg‘a, Muxtoriyatni tabrik etuvga va uning mudofaasi uchun haroratli nutqlar so‘ylashga kuch bilan majbur etilganlarini so‘ylamadilar…

1917-yil 13 (26) – dekabr – rus bolsheviklarining bizning xalqimizg‘a qarshi xiyonat etgan kundir. Ular shuni o‘nlarcha qardoshlarimizni xoinona bir suvratda o‘ldirmishlardir. Bu kundan e’tiboran biz bilan rus bolsheviklari orasida ochiqdan ochiq qonli kurash boshlanmishdir.

Bolsheviklarning xoinlig‘i qurbonlarining qoni o‘ch (intiqom) istaydir. U qardoshlarimizning xotirasig‘a yolg‘iz Turkiston istiqloligina loyiqdir.

Mustafo Cho‘qay. “Yosh Turkiston”.
1932-yil dekabr. – №. 37.

QO‘QON MUXTORIYATI

(1917-yil 10-dekabr – 1937-yil)

Bu maqolani 20 yilligiga bag‘ishlaganimiz Qo‘qon Muxtoriyati hukumati jami 2 oy 4 kungina yashamishdir. u

1917-yilning 10-dekabrida qurulib, 1918-yilning 13-fevralida tarqatilmishdir. Qo‘qon hukumati qurulg‘on zamon na bir zobiti, na bir askari va nada bir tiyin aqchasi bor edi. Hech bo‘lmag‘onda uning davlat boshqaruvi uchun yetarli kadrlari ham yo‘q edi. Pochta, telegraf, temiryo‘llarning hammasi dushman qo‘lida edi. Bu sharoit ichida qurilib bu qadar qisqa muddat davom eta olgan Qo‘qon hukumatining Turkiston xalqi milliy manfaati talabi yo‘lida ko‘zga ko‘rinarlik hech bir ish ishlay olmag‘onlig‘i ham g‘oyatda tabiiy va qulay anglashilarliq bir masaladir. Hatto bu sharoit ichida o‘rtaga chiqqan bu hukumatning 74 kun yashay olg‘onlig‘i ham favqulodda bir holdir.

Tabiiy Qo‘qon hukumati Turkiston masalasining yechiluvinda so‘ng maqsad va shaklini ifoda etmas edi. Faqat u Turkiston qurtulish harakati yo‘linda u zamongi vaziyat va sharoit ichida tashlanishi mumkin bo‘lg‘on birgina odim edi. Agarda u zamon Turkiston uchun ham, Ukraina va Kafkaziya uchun bo‘lg‘oni kabi, tashqi siyosiy sharoit uyg‘unlig‘i ko‘rina boshlag‘on bo‘lsaydi, u zamongi Turkiston muxtoriyatchilaridan hech kim Turkiston istiqlolini e’lon etishda bir daqiqa ham taraddud ko‘rsatmas edi. Faqat biz tarixda qiyosi ko‘p uchratilmaydirg‘on bir davrida, yordamga umid qilib, bu umidga tayanib harakat etishlikdan ham mahrum edik. Bunga qo‘shimcha ravishda bir muhim nuqtani ham ham ochiq qayd etib ketishimiz kerak: Eski Rusiyag‘a tobe’ o‘lkalardan Sovet asoratiga tushib qolg‘onlar ichida milliy mustaqil davlatchilik yo‘lini Turkiston boshlab bergan edi (Ta’kid muallifniki).

Qo‘qon Muxtoriyatining bir xususiyati u zamongi sharoit ko‘laminda “Turkiston milliy birligi”ning haqiqiy shaklini bera olganidir. Qo‘qon Muxtoriyatining mana shu xususiyati bizning milliy ozodlik harakatimiz tarixida chuqur iz

qoldirmishdir. Bolsheviklarning o‘z turmushlari 20-yillikda ham tinmay Qo‘qon Muxtoriyati haqida yozayotganlariga ham diqqat bilan qarangiz. Bugun “Milliy burjo‘y” deb ayblab, quvib jazolangan kishilarning hammasini Qo‘qon Muxtoriyati bilan bog‘laydilar. Bu ayblanuvchilarning ko‘pchiligi qizil Moskovning o‘z maktabidan yetishgan oktyabr inqilobining yetishtirmalaridir. Bu emdigacha qizil Moskovning ko‘ksini qabartirib kelgan “Oktyabr inqilobi maktabi” talabalarining ham Qo‘qon Muxtoriyati bilan ma’nan bog‘liq chiqishlari har narsadan avval u harakatda tamsil etilgan milliy mafkuraning kuchini, ta’sirini ko‘rsatadir. Shu yerda bir nuqtani ham izohlab ketish kerak. Akmal Ikrom, Abdulla Rahimboy va boshqalar kabi oktyabr inqilobi mahsullarining Qo‘qon Muxtoriyatiga bog‘liqliqlari tabiiy Qo‘qon Muxtoriyati hukumatining qaytib keluvi umidi ma’nosinda emasdir. Bu kun na Turkistonning ichida va na tashqarida bunday o‘ylayturg‘on birgina bo‘lsada turkistonlik topilmaydir. Qo‘qon Muxtoriyati bilan ma’naviy bog‘liqlik demak, Qo‘qon Muxtoriyati zamonidan yaralg‘on Turkiston milliy birligini qaytadan yaratish, yashatib kuchaytirish demakdir (Ta’kid muallifniki).

Akmal Ikrom va boshqalar rus proletariyati diktaturasi xizmatidagi tajribalaridan “Shaklan milliy, aslida proletar” degan yo‘ldan millati uchun hech bir narsa chiqmasligini, haqiqiy milliy istiqlolg‘a erishish uchun shaklan ham, mohiyat nuqtai nazardan ham milliy bo‘lishi kerakligini juda yaxshi angladilar. Haqiqiy istiqlolni istagan har bir kishi ham shakily, ham mohiyati bilan milliy bo‘lishini istamak majburiyatidadir. Bundan tashqari milliy istiqlol bo‘lmaydir (Ta’kid muallifniki).

Akmal Ikrom, Abdulla Rahimboy, Oytoq o‘g‘li Nodirboy, Iso qori o‘g‘li, Qulumbot o‘g‘li Uzoqboy va boshqalarning shunday o‘ylab-o‘ylamaganliklarini biz bilmaymiz. Asosda bu jihat muhim emasdir. Muhim tarafi Moskov “baynalmilal

ma'nosizlig'i" uchun haqiqiy tahlika bo'lg'on bu kurashni ularg'a Moskov hukumati tomonidan yuklatilganligi bo'lg'onlig'idir. U bunday bir tahlikaning qanday bir yo'l bilan bir tarafdan chiqib qolishini sezmakdadir. Anglashilg'on tahlika yaqinlashib qolg'on, hatto ko'rina boshlag'on. Yo'qsa Moskov o'zining Turkistondagi kichikkina bo'lsada mustaqil tushuna olish ehtimoli bo'lg'on agentlarini boshdan oyoq supurib otuv kabi qat'iy jazolarga kirishmish edi. Moskovning bularni bizning mamlakat tashqarisdagi milliy tashkilotimiz, "Yosh Turkiston" hatto shaxsan sobiq Qo'qon hukumati boshlig'idan ko'rsatma olib turg'onliq bilan ayblab, milliy tashkilotimizning ahamiyat va ta'sirini bir necha marotaba isbot etgan edi.

Qo'qon Muxtoriyatiga 20 yil to'lishi munosabati bilan biz turkistonliklar, bizni haqiqiy istiqlolg'a olib boradurg'on milliy birligimizni va ozodlik kurashiga yetarlik kuch berajak milliy birlikning ahamiyatini eslab, uni ko'ngillarimizda mahkamlay olishimiz kerak (Ta'kid muallifniki).

Cho'qay o'g'li Mustafo. "Yosh Turkiston".
1937-yil dekabr. – №. 97.

MILLIY ISTIQLOL KURASHI TARIXI

BOSMACHILIQ TO‘G‘RISIDA

“Yosh Turkiston”ning o‘tgan sonida “Yangi Farg‘ona” gazetasidan “Bosmachiliq harakati” deyilgan xabar ko‘rilgan va joy yetishmaganligidan hech bir izoh berilmagan edi. Har holda bu masalani oydinlatib o‘tish lozim edi…

“Bosmachi” so‘zi yaxshi so‘z emas…Urush vaqtida har bir tomon qarshisidagi dushman askarini “talovchilar to‘dasi” deb atag‘oni kabi, bolsheviklar ham “rus proletariyati diktaturasi”ga qarshi chiqg‘on birinchi Turkiston ixtilol-chilarig‘a[183] yuqorida “bosmachi” ismini berdilar.

Biroq o‘sha davrda Turkistondagi sovet hukumatiga kimlar boshliqlik qilar edilar? O‘g‘rilik sabab qamalib chiqqan Feodor Kolesov Komissarlar sho‘rosining raisi edi. Orenburg oxrankasi (Chor davrining maxfiy-siyosiy polis idorasi) agenti Parshin g‘alla diktatori edi. Ergash “bosmachilari”g‘a qarshi urush ishlarini boshqargan sovet harbiy komissari Parfilov, Vadyayevning paxta tozalovchi zavodlaridagi ishchilar tarafidan berilgan 10 ming so‘mdan ortiq aqchani[184] o‘z kissasiga solib ketgan bir o‘g‘ri odam edi.

Umumiyatla Toshkentdagi bolsheviklar firqasi to‘g‘risida to‘xtalsak, u vaqtda Turkiston bolsheviklarining boshlig‘i Ivan Tobolinning aytishicha, firqa tashkiloti provakatorlar[185] bilan to‘la edi[186].

[183] Ixtilolchilar – milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashuvchilar.

[184] Aqcha – pul.

[185] Provakatsiya – bu psixologik manipulyatsiya turlaridan biri bo‘lib, shaxslarni salbiy oqibatlarga olib keladigan muayyan harakatlarga undash uchun provokator manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladigan ijtimoy harakat.

[186] Tobolinning 1918-yilda so‘ylagan va 1926-yilda takrorlag‘on bu ma’lumoti Ruscha “ Za partiyu” majmuasining 1928-yil 1-sonida va ruscha

Yomon ismlarning vaqt o‘tishi bilan oddiy tahqirli ma’nolarini yo‘qotib, tarixdagi eng hurmatli va muqaddas deb bilingan guruh va firqalarg‘a nom bo‘lib qolg‘onliklarig‘a tarixda misollar ko‘pdir. Masalan, ingliz konservatorlar fraksiyasining rasmiy nomi bo‘lg‘on inglizcha “Vega” so‘zi “to‘polonchi” hatto “talonchi” manosini anglatadir. Endi esa “mamlakatda yurgizilayotg‘on davlat nizomini saqlash” manosiga aylang‘on “vega” so‘zining ilgarigi ma’nosini bilgan kishilar ham oz.

Bizning “bosmachi” so‘zimiz ham shu qatorg‘a kiradir. Uning eskidagi yomon manosi, Moskov bolsheviklari qo‘li bilan oqizilg‘on elimizning gunohsiz qonlari orqasidan yuvilib ketgandir.

Endi bizda “bosmachi” so‘zi “mujohid” ma’nosini anglatadir…

“Bosmachi” so‘zi ustida bu qisqag‘ina izohdan so‘ngra majmuamizning o‘tgan sonida keltirilgan “Bosmachiliq harakati” to‘g‘risidagi xabarga o‘tamiz.

Sho‘rolar ittifoqidagi o‘lkalar ichida ixtilol harakatlari haligacha to‘xtamag‘on yolg‘iz bir o‘lka bo‘lsa, u ham Turkistondir. Buning ikki turli sababi bor:

Birinchisi, Moskov bo‘yunturug‘idan qutqarish uchun kurashga undovchi milliy ong.

Ikkinchi sabab, mahalliy sharoit bo‘lib bu, sovetlarning yolg‘iz bizda, Turkistonda yuritgan milliy siyosatlarining maxsus ko‘rinishidir.

Bizga, bu mahalliy sharoitning yuzaga kelish masalasini ancha atroflicha tekshirish kerak ham emas.

“Staparat” majmuasining 1929-yil 2-sonida nashr etilgan. Tobolinni buning uchun javobgarlikka tortish hech kimning esiga kelmaganini qayd etish kerak. Demak., Tobolin “Firqa tashkiloti provakatorlar bilan to‘la edi” degan gapi to‘g‘ri bo‘lg‘on.

Faqatgina paxta siyosati, yerlilashdirish siyosati[187], diniy ta'qiblar, xotunlar masalasida bolsheviklar tomonidan ko'rsatilgan "sinfiy bezoriliq" (huluganliq)[188], maktab siyosati (bu maktab siyosati natijasida turkistonliklar aqchasig'a rus bolalari o'qitiladir) hamda Xidirali, Yodgor Sodiq, Ismoil Said Vaqqos va boshqa tanilg'on Turkiston kommunistlarining aytishlaricha, ruslarning Turkistonga muhojirotlariga (ko'chib kelishlariga) keng yo'l ochadirg'on yer siyosatini ko'rsatishgina kifoyadir. Bularning barchasi birgalikda, xalqimizda umumiyatla bolsheviklarga qarshi dushmanliq ruhini yuzaga chiqaradir.

Har na qadar Xidirali, Yodgor Sodiq va Ismoil Said Vaqqos o'g'illari protest bilangina kifoyalanib sovet hukumatining tutgan siyosiy yo'lini o'zgartirib, turkistonliklarning milliy talablari bilan kelishishga chaqirsalar ham, qizil moskovliklarning Turkiston milliy manfaatiga qarshi siyosatlarining butun og'ir natijalarini o'z yelkasida tashiyotg'on va "o'z siyosati"dan hech narsa kutmagan xalq ommasi esa ochiq kurashga har doim hozirdir.

Sovet siyosatining zararli tomoni Farg'ona kabi Turkistonning paxtachiliq eng taraqqiy qilg'on qismida, boshqa yerlarga qarag'onda yanada oydinroq sezilmakdadir.

Farg'ona Turkistonning sanoatda eng oldinda turgan qismi, demak bolsheviklar fikricha bu yerda eng ongli proletarlar sinfi bo'lishi va sinfiy chiziqning eng to'g'ri usulida ketishi kerak edi.

187 Yerlilashdirish siyosati – davlat hokimiyati organlarini va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga molik tashkilotlarni mahalliy kadrlar bilan ta'minlash siyosati.

188 Firqa a'zolari paranji tashlag'on xotinlarg'a ko'pincha buzulg'on xotin kabi qararlar ("Правда востока"). Bunga (sinfiy va firqa bezorilig'i (huliganlig'i) deyishdan boshqa nom yo'q!)

Amalda esa "sinfiy chiziqning buzilishi" boshqa yerlarga ko'ra, Farg'onada yanada oydinroq ko'rilmakdadir. Farg'onada (biz eski ta'rifni qo'llamaymiz) doira (okrug) firqa qo'mitasi, Qo'qon shahar sho'rosi tarqatilmishdir[189]. Farg'onaning iqtisodiy jihatdan ajralmas qismi bo'lg'on bo'lg'on Xo'jand ham yaqinda okrug firqa qo'mitasini tarqatdilar[190]. Buning sababi nima?

Rasmiy sovet manbalarining yozishlariga ko'ra, bu firqa va sovet (yani hukumat) boshqarmalarining barchasi millatchi va boy unsurlarga "quyruq" bo'lg'onlar. Boshqacha aytganda, mas'ul sovet va firqa idoralari Moskov siyosatiga dushman bo'lg'onlar... Haqiqat tili bilan aytganda Farg'ona, Ho'jand okrug qo'mitalari va bir qator rayon qo'mitalari hamda Qo'qon shahar sho'rosi sovet idorasiga qarshi pinhona tarzda bosmachiliq kurashini olib borganlar. Bu yerda, ahvoli ruhiyasini ko'rsatish uchun misol bo'larliq statistik ma'lumotlarni keltiramiz:

1929-yil 31-dekabrga qadar butun Turkistonda yetishtirilg'on chigitli paxta miqdorining yolg'iz 71 % gina sotib oling'on. 1928-yil 31-dekabrda 77,9 %, 1927-yil 31-dekabrda esa 93,3 % i sotib oling'on ("Правда востока"ning 1931-yil 12-yanvar soniga qarang). Demak xalqdan paxta to'plash yildan yilga hukumat zararig'a ishlamoqda. Bundan tashqari shu gazetaning o'zi, ko'p yerlarda dehqonlar paxta o'rniga, hukumatdan olg'on aqchalarini qaytarib bermakdalar, deb yozadir. Paxta shirkatlari ham hukumatning qat'iy buyrug'iga qaramasdan paxta o'rniga aqcha olmoqdalar... Bundan Turkiston aholisining sovet hukumati bilan to'xtovsiz kurash vaziyatida bo'lg'onlig'i natijasini chiqarishgina mumkin. Bu

189 Biz "sinfiy chiziq", "firqa unsuri" deganimiz vaqt Moskov "sinfiy chizig'ini" va Moskov "firqa unsuri"ni nazarda tutamiz.

190 Xo'jand 1929-yilda Tojikistonga qo'shilgan.

usul hind millatparvarlarining Hindiston xalqini Angliyaga qarshi kurashga chaqirish yo'lining o'zginasidir. Bu ruhiy ahvolda sovetlarga qarshi "to'xtovsiz kurash" davom etarkan, bosmachiliqning yangidan paydo bo'lishi hech kimni taajjublantira olmaydir...

"Bosmachiliq" – Turkistonda sovet hokimiyatining ko'lankasidir. "Bosmachiliq"ning Farg'onada yuzaga chiqishi esa, Moskov hukumati paxta siyosatining bu qo'zg'olishg'a bosh sabab bo'lg'onini bizga, atroflicha ochiq va oydin ko'rsatadir.

Janay (Abdulvahob O'qtoy). "Yosh Turkiston".
1930-yil fevral-mart. № 3-4.

MARHUM ANVAR POSHSHO HAQIDA XOTIRA PARCHALARI

(1922-1932)

Marhum Anvar Poshshoning shahid etilganiga o'n yil to'ldi. Uning xotirasi bizning dimog'imizda shu darajada jonli va uning o'limi og'irligini shu darajada kuchli sezamizki, bu uzun o'n yil bizga o'n oy, o'n haftadek bo'lib ko'rinadir.

Anvar Poshshoning 1921-yilning kuzida birdan Buxoro shahrida paydo bo'lishi, biz turkistonliklarda yurtimizning milliy dushmanlariga qarshi kurashda muvaffaqiyat qozonish imkoniga umid shiorlari hosil qilg'on edi. Askariy tajriba va shaxsiy joziba – Turkiston istiqlolchilarini o'z atrofida va o'z rahbarligi ostida birlashtirmak uchun so'ng daraja muhim bo'lg'on bu sifatlar Anvarda ortig'i bilan mavjud edi. Haqiqatdan ham, agar Anvar Turkistong'a, o'lkaning katta qismining ko'proq sovet ishg'oli ostig'a kirmagan va sovet

idorasi hukm surgan qismlarida ham xalq isyon etib turgan 1918-1919-yillarda kelganda edi, yurtimizning oqibati boshqacha bo'lur edi. Hamon 1918-1919-yillarda bizni mag'lub etgan narsa rus bolsheviklarining qurolli kuchidan ziyoda o'zimizning mushkul bir holda bo'lg'onlig'imiz va milliy mujodalamizni mutashakkil[191] bir holda bo'lmag'onlig'imiz va milliy mujodalamizni mutashakkil bir suvratda davom ettira olmaganligimiz bo'lg'on edi.

Turkistonda yarim asrlik rus hokimiyati yolg'iz vatanimizning ichki kuchlarini yiqitish bilan qanoatlanmasdan, hatto milliy birligimiz ichiga nifoq sola boshladi. Rusiya hukumati bizni faqat askar qatorig'a kiritmadigina emas, u bizga hech bir turli tashkilot qurishg'a hatto bir jamiyati xayriya tuzishga ham yo'l bermadi. Qozoq, qirg'iz, o'zbek, turkman – har bir qabilani o'ziga xos qabila hayoti yashamoqg'a majbur etdi. Rusiya hukumati bu ayrim qabila jamiyatlarini bir-biriga qarshi gij-gijlab tom ma'nosi ila bir buzg'unchilik siyosati yuritdi. Buning natijasida biz 1917-yilgi inqilob zamonida, bizni birlashtirgan ma'lum bir g'oyaviy markazga ega bo'lmag'on, rahbarsiz, nufuzli kimsasiz bir inson to'plami shaklida ko'rinib qoldiq...

Har bir ayrim qabila jamiyatining o'z orasida nufuzli rahbari bo'lg'on bo'lsa-da, umum Turkiston o'lchovida siyosat olamida "Markaziy siymo" nomi berilgan, umumiy bir mo'tabar shaxsiyatimiz yo'q edi.

* * *

1917-yil keldi. Rusiya inqilobining birinchi kunlari. Peterburg shahri majlislar va mitinglar bilan qaynamoqda edi. Nova ko'chasida, gumonimcha, 100-raqamli uyda, musulmonlar mitingi bo'lib turg'on edi. Dala odamiga

[191] Mutashakkil – mukammal.

o‘xshagan, qiziq kiyimda bir kishi, o‘zini ko‘pchilikka sezdirmasdan, sekingina menga yaqinlashib keldi. Egnida uzun bir ovro‘pacha joma, boshida oq bo‘rk. To‘ppa-to‘g‘ri yonimg‘a keldi, meni bir chetga chaqirib oldi. O‘zini Ali Jangaldin deb tanishtirdi… Bu ismni men ilgari eshitmagan bo‘lsam-da, bu siymo menga tanish ko‘rindi. So‘ngra bu odam biroz siqilib o‘z sirini ochdi: “Asli ismi bolalig‘ida Ivan Satapinov ekanligini” so‘yladi. Ali Jangaldin uning burung‘i musulmon ismi bo‘lg‘on. Cho‘qintirilg‘ondan so‘ng Ivan Satapinov deb atala boshlag‘on… Satapinov faqat cho‘qintirilg‘ongina emas, hatto u rus ruhoniy missioneri bo‘lib Rusiya ichidagi va tashidagi butun xristian muqaddas yerlarini piyoda yurib kezib chiqqan. Uning fotografi (rasmi) rus majmualarida[192] bosilg‘on edi. Yuzining menga tanish ko‘ringanligi ham shundan bo‘lsa kerak.

Menim, bir xristian ruhoniy missioneri bo‘lg‘oni holda nechun musulmon mitingig‘a kelganligi haqidagi o‘ng‘aysiz so‘rog‘imga javoban Stepanov Jangaldin: “Turkiyaga ketmak niyat va harakatida ekanligini” bildirdi va dedi:

– Men endi xristianliqdan va ruslardan qaytdim. Endi men qaytadan qozoq va musulmonman. Bolsheviklarning vahshiyliqlari meni ulardan uzoqlashtirdi. Shuning uchun men o‘z xalqim qarshisida gunohlarimdan tozalanmoqni istayman. Shu maqsad bilan Turkiyaga ketmoqdaman.

– Nechun?

– Anvar Poshshoning oldig‘a.

– Nima uchun Anvar Poshshoning oldig‘a?

– Ruslardan qutilishimizg‘a bizga faqatgina Anvar yordam bera oladir.

Rosti, u zamonda faqatgina Stepanov Jangaldin bu fikrda emas edi. Turkistonning butun xalq ommasi Anvarga

[192] Bu o‘rinda gazeta-jurnallar ma’nosida kelmoqda.

g‘oyibona inonar va uni o‘zining eng yaqin odami deb sanar edi…

1916-yil isyoni kunlarida Turkistonda ko‘p odamlar Anvardan yordam kutar edilar… Turkistonda xalifa sultonning ismini biladigan odam oz edi, lekin deyarlik butun turkistonliklar Anvarning ismini va uning kim ekanligini bilar edilar. Anvarning xalq orasidagi mashhurligi masal (ertak) darajasiga yetgan edi. So‘ngg‘i Bolqon urushidan keyin qishloqlarda ko‘p odamlar o‘z o‘g‘illarining ismini “Anvar” qo‘ya boshladilar…

Anvar Poshsho
(1881-1922)

Bolsheviklar hukumati bu “Anvar e’tiqodidan” xabardor bo‘lg‘on va har bir yo‘l bilan unga qarshi kurashmakka tirishqon edi. Rus hukumati Turkistondagi butun ziyolilarni “Anvarning agenti” deb atar va hibsga olar edi.

1916-yilda general Kuropatkin Toshkentda o‘zining eski shaxsiy tanishlaridan bo‘lg‘on Abdulloh Niyoz o‘g‘lini, boshindan “uzoqdan Anvarni eslatadigan” qizil rangli tatar

taqyasi (oyoq kiyimi) bo'lg'oni sababli o'z qabulxonasidan quvib chiqarg'on edi.

Bizda Anvarning mashhurligi mana shu darajada edi. Hozir bu mashhurlikning haqiqiy sabablarini axtarib o'tirishning vaqti emas. Lekin shuni qayd etmak kerakki, xalqimizning o'z yuragida, vaziyatni yengillashtirish imkoni bobida qilinadigan umidlar uning nomi bilan bog'liq edi.

Rusiyada bolshevik inqilobi… Brest-Litovsk sulhi… Turk askarlari Kafkaziyada… Bakuning ozodligi. Ozarbayjon istiqlolining e'loni…Turkistonda huligan rus bolsheviklarining qonli diktaturasi… Xalqimizning ikki ko'zi, "Shoyad u tarafdan turk yordami kelib qolarmikan, Anvar o'z askarlarini yuborarmikan" deb Kafkaziya tarafig'a tikilgan…Biroq, birdan Turkiyaning mag'lubiyati… Turk qo'shinining Kafkaziyadan chekinishi…

Xabarsiz ko'zdan yo'qolg'on Anvar birdan Moskovda paydo bo'lib qoladir… Bolsheviklar ham haddan tashqari quvonch, bizning xalqda esa so'ng darajada ma'yuslik! 1920-yil sentyabr Bakuda bolsheviklar tashabbusi bilan to'plang'on sharq xalqlari qurultoyi. U zamon Anvar Turkistonda bolsheviklar siyosatining haqiqatini hali uncha bilmas edi… Eshitishimcha, qurultoydagi Turkiston vakili Toshpo'latbek Norbo'tabekning nutqi Anvarda katta ta'sir qoldirg'on. Oxiri 1921-yilning kuzida Anvar birdan Buxoroda paydo bo'ladir.

Boshida muhtaram Usmonbek bo'lg'oni holda Buxoro xalq Jumhuriyati hukumati, Anvarning nufuzidan va uning Moskov ila bo'lg'on robitasidan[193], Buxorodagi bolsheviklarning razolatlariga yakun yasamak va Moskov tomonidan Buxoro Jumhuriyatining istiqloli to'g'risidagi kelishuvga rioyat etilishi haqidagi maqsadlarga yetishishni ko'zlaydi. Anvar Buxoro ila Moskov orasida vositachi bo'lishg'a rozi bo'lg'on

[193] Robita – aloqa, rishta.

edi. Uning bu xususda Moskov hukumatiga qilg'on murojaati mana shundan iborat edi (ruschadan aynan tarjima etildi): "Mustaqil Buxoro orqali biz, do'st Sovet Rusiyasining inqilobiy rahbarligi ostida islom Osiyosini Britaniya imperalizmidan qutqarish vazifamizni muvaffaqiyat bilan bitira olamiz. Moskov xalq komissarlari sho'rosidan, Buxoro hududidan bu yerda istilo etilgan bir o'lkadagi dushman qo'shini kabi harakat etayotg'on qizil qo'shinlarni orqaga chaqirib olishlarini so'rayman. Qizil qo'shinning Buxoroda saqlanishi, ocharchilikda chorasiz qoldirilg'on musulmon aholining so'ngi luqma yemagini ham tortib olinishig'a va aholida Sovet Rusiyasiga qarshi kundan kunga noroziliq tug'ilishig'a sabab bo'lmoqdadir. O'lkaning oziq-ovqati va qimmatbaho mollarini hibs etib xorijg'a tashishni tezlik bilan to'xtatmoq lozim. Sharqiy Buxoroda isyon harakati qo'zg'olmoqdadir. Bu isyon Jumhuriyatning boshqa qismlarig'a ham yoyilishi mumkin. Hukumat boshidagi buxorolik komissarlar, chekistlar va rus askarlari tomonidan terror etilmoqda va ushbu komissarlar mustaqil harakat qilish imkoniyatidan mahrumdirlar. Moskovga qarshi isyon harakati yosh inqilobchi buxoroliklar orasida ham o'smakdadir. Sovet hukumatini, uning uchun eng muhim bo'lg'on sharq jabhasida tahlika bor ekanligi bilan izohlayman. Buxoro xalqig'a o'z hayotini o'zi qurmoq uchun to'liq imkon berilishi lozim. Buxoro xalqining taklifi uzra men, Sovet hukumati ila Buxoro Jumhuriyati orasida voqe' bo'lajak muzokarada Buxoro xalqini tamsil etishni o'z bo'ynimga olaman. Bu murojaatimga tezlik bilan javob berilishini, muzokara uchun vakillar tayin qilinishini va muloqot uchun joy va vaqt belgilanishini so'rayman. Men o'z tomonimdan dekabr oyi oxirini (1921-yil) va Buxoro shahrini taklif etaman".

Sovet hukumati bunga qarshi Anvarni "Britaniya imperalizmi agenti" deb ayblash bilan javob berdi[194].

So'ngra nimalar bo'lg'oni har kimga ma'lumdir. Bolsheviklar Anvarga qarshi o'n minglarcha qo'shin to'playdilar, josuslar tayinladilar. Hatto Sovet hukumati burung'i Buxoro amiri bilan Anvarga qarshi yashirin muzokaraga kirishdi.

Rus imperalizmining olchoq agenti bo'lg'on burung'i Buxoro amiri so'zda Anvarga do'st va unga ittifoqdosh ko'rinib, amalda esa yashirin suvratda unga qarshi ig'vo tarqatadir. Chunki Buxoro amiri Sayyid Mir Olimxon Anvarning shaxsida "tahlikali inqilobchi" va "Yosh turk"ni ko'rardi[195].

Sovet Rusiyasi buyrug'i ostida kuchli bir harbiy quvvat, bu mamlakatning butun hayot markazlarini va butun yo'llarini o'z qo'lida tug'on edi. Butun oziq-ovqat ishlari uning qo'lida. Anvar esa Turkistonning faqat maxfiy xabarchilar vositasi bilangina xabarlasha olur edi. Qurol yo'q, oziq-ovqat yo'q… Buning ustiga bizda, milliy tashkilot ichida go'yo allaqanday bir sotsializm islohoti uchun kurashilmakda emish kabi, sotsializm haqida fikrlar tarqatgan va munoqashalar yuritgan ba'zi chirkin kimsalarning olchoqlarcha ig'volarini ham ilova qilingiz…

Natijada Anvar Turkistonning ozodligi yo'lida qahramonlarcha shahid bo'ldi.

[194] Hozirga qadar bizning sovet diktaturasig'a qarshi milliy ozodlik kurashimizda yotlar (begonalar, chet elliklar) ta'siri bor deb shubhalanuvchi ba'zi turkiyalik qardoshlarimizning, Anvarning bu murojaati va Sovet hukumatining unga bergan javobi ustida fikr yurtishlarini o'tinar edim. Moskov diktaturasining bizning Turkistonda xalqimiz boshig'a keltirayotg'on falokatning salmog'ini hatto jahon tarixi ham bilmaydir.

[195] Buxoro amiri Sayyid Mir Olimxonning Anvarga qarshi yurgizgan yashirin xiyonatlarini Turkiston sovet matbuoti bultur Ibrohim Laqay qo'lg'a tushgandan so'ng ochib yozg'on edi.

Uning o'limidan o'n yil keyin Moskov "qizil qo'shinlari Turkistonda ishg'ol qiling'on bir o'lkada dushman qo'shinlari" kabi muomala qilmoqdadirlar.

Ajabo, yurtimizning bu – haqiqatda – dushman qo'shinidan qutilish kuni kelurmi? Biz inonamizki u kun tez kelajakdir. U zamon buyuk Anvarning buyuk vujudi Turkistonning uzoq burchagidan markaziga, hur va mustaqil Turkistonning poytaxtiga keltirilajak, uning aziz xotirasi turkistonliklar yuragida abadul-abad yashajakdir.

Mustafo Cho'qay . "Yosh Turkiston".
1932-yil avgust. № 33.

BOSMACHILIQ

(1918-1933)

"Bosmachiliq" masalasi bugungi davrda ham sovet matbuotini mashg'ul etmakdadir. Bu masalaga ko'plab gazeta-jurnallar va ayrim yozuvlar bag'ishlangan. Bolsheviklarning "bosmachiliq"g'a, uning tug'ilish sabablariga va uning kuchini himoya etgan ijtimoiy unsurga qarashlari ko'p marta o'zgardi. Sovet hukumatining Turkistonda paydo bo'lishining birinchi davridagi bolshevik tarixchilar, "bosmachiliq"ning tug'ilish sabablarini va uning ijtimoiy oqibatlarini anchagina to'g'ri baholaganlar. Georgiy Safarov kitoblarida, Sokolovning "Millatlar turmushi" jurnalidagi va Salovichik degan birisining "Новий восток" jurnalidagi maqolalarida, To'ror Risqul o'g'li kitobida, hamda 1918-1925-yillarg'a oid boshqa ko'p kitob, gazeta va jurnallarda, "bosmachiliq"ning yuzaga kelish omilllari haqida bizning o'z fikrimizdan uncha farqli bo'lmag'on ko'p ma'lumotlarni toparsiz.

Turkistonda “bosmachiliq” harakati boshlanganligining 15 yilligi munosabati bilan biz bu yerda bu harakatning ilk davri voqealarini umumiy bir shaklda turkistonlik o‘quvchilarimizning xotiralarida jonlantirib o‘tmak istar edik.

“Bosmachiliq” aniq o‘laroq qachon boshlangan edi?

Aniq javob berilishi lozim bo‘lg‘on birinchi so‘roq mana budir. “Kommunist fikri” degan Toshkentdagi jurnal, 1927-yilgi 5-sonidagi “1918-yil voqealari xronikasi” nomli maqolada, bolsheviklarning rasmiy fikr tarqatuvchisi bo‘lg‘on Наша газета” gazetasining 32-sonida (1918-yil fevral) yozilg‘on xabarlarga tayanib quyidagi ma’lumotni beradir:

“2-fevral. Farg‘ona viloyati. Ho‘qand Muxtoriyati hukumati butunlay tarqatilg‘on. Ho‘qand Muxtoriyati hukumatini himoya qilgan qo‘shin qisman qurolsizlantirilmoqda. Atrofg‘a qochg‘on qismi esa siyosiy bosmachiliqqa negiz qurmoqdadir” (Ta’kid muallifniki).

Mana shu tarixni aniq deb tan olmoq lozim. Ikkinchi bir bolshevik shahodati ham quyida shundan iboratdir. Georgiy Safarov yozadi: “Bosmachiliq, bir yoqdan Ho‘qand Muxtoriyatining (bolsheviklar tomonidan) tor-mor etilishi va buni ta’qib etgan kolonizatorlik razolatlari natijasi o‘laroq milliy istiqlol kurashi negizida ko‘tarilgan bo‘lsa, ikkinchi yoqdan Farg‘ona paxta xo‘jalig‘ini buzg‘on ham buningla Turkiston burjuaziyasini burung‘i rafahli holidan va dehqon, ishchi ommasini ham kundalik oziq-ovqatidan mahrum qilg‘on iqtisodiy bo‘hron – yani ochliq negizida o‘sdi” (Safarovning “Mustamlaka inqilobi: Turkiston tajribasi” degan kitobining 90-91-betlariga qaralsin).

Safarovning bu fikri juda ham muhimdir. Bundan siz, bosmachiliqning yuzaga chiqish ostidagi sabab va ijtimoiy omillarning bolsheviklarning bugun yozayotganlariga hech o‘xshamag‘onlig‘ini ko‘rasiz. Bu sabablar – “milliy istiqlol uchun kurash” bolsheviklarning “kolonizatorlik razolatlari”ga qarshi qarshi mujodala, iqtisodiy buzg‘unchiliq va har narsadan avval sovet hukumatining ochliq siyosatidir. Bosmachiliqning ijtimoiy manbasi esa – Turkistonning burjuaziyasi, ikkinchisi, qora ishchisi – xulosa, butun xalqdir.

To‘ror Risqul o‘g‘li o‘zining “Inqilob va Turkistonning tub xalqi” degan kitobining muqaddimasida (12-bet): “Eng atoqli ovro‘palik (yani rus bolshevik) xodimlari u zamon yerli xalqning inqilobdagi rol va ahamiyatini yetarli baholamaslikda davom etdilar va bu sababdan asosli ixtiloflar yuzaga chiqdi. Masalan, o‘rtoq Tobolin, Turkiston markaziy ijroiya qo‘mitasi majlislaridan birida ushbu satrlarni yozuvchi bilan qilg‘on bir munoqashasi[196] asnosida to‘ppa-to‘g‘ri: “Marksistlar nazarida iqtisodiy jihatdan kuchsiz bo‘lg‘on qirg‘izlar (qozoq turklari)” o‘lib bitmak majburiyatidadirlar. Shuning uchun vositalarni ochliqqa qarshi kurashga emas, balki hududlarni yaxshiroq saqlamoqqa sarf etmak inqilob uchun muhimroqdir” demishdir, deb yozadir.

Tobolin Turkiston bolsheviklarining boshlig‘i edi va Lenin bilan Stalinga cheksiz e’timodlaridan[197] foydalanardi. “Marksistlar nazarida iqtisodiy jihatdan kuchsiz bo‘lg‘onliklari sababli o‘lib bitishlari lozim ko‘riladirgan” turkistonliklarg‘a qarshi esa Turkistondagi sovet hukumatining bizning xalqimizg‘a qarshi rasmiy nuqtai nazaridan iborat edi. To‘ror Risqul o‘g‘lining: “Shu sababdan ham asosli ixtiloflar yuzaga chiqdi” degan so‘zlarining ma’nosi, atoqli rus bolsheviklarining turkistonliklarg‘a mana shunday kolonizatorchasiga qarashlarida turkistonlik kommunistlar ila rus kommunistlari orasida asosli ixtiloflar yuzaga chiqdi” demakdir. Butun Turkistonda “bosmachiliqning ahvoli

[196] Munoqasha – bahs, tortishuv.
[197] E’timod – samimiy, to‘g‘ri, odil deb hisoblab, qattiq ishonish.

ruhiyasini" tarbiyalagan, milliy jabr-zulmni yaratg'on narsa mana shu ixtiloflar edi.

Atoqli bolsheviklardan bo'lib tanilg'on Sokolov "Millatlar turmushi" jurnalining 1923-yilgi 3-4-sonlarida "Bosmachiliq Turkistonda ajnabiylar hokimiyatiga qarshi umum Turkiston xalqining milliy isyoni sifatida yuzaga chiqdi" deb, bosmachiliqqa "ovro'paliklarcha" (yani bir sinfiy harakat deb – M.Cho'qay) qarash aldashdan boshqa narsa emasdir" deydi.

Bu jihatdan, bolsheviklarning keyinchalik "bosmachiliq"ni sovet hukumatining tashqi dushmanlari (qisman Angliya) tomonidan yaratilg'on sinfiy (burjuaziya) bir harakat deb ta'rif etishlari butunlay asossizdir va bolsheviklarning o'zlarini oqlamoq uchun o'ylab chiqarg'on uydirmalaridir.

Bosmachiliq, umummilliy bir harakat, milliy istiqlol uchun kurash, sovet hukumatining Turkistondag'i kolonizatorlik razolatlariga qarshi mujodala o'laroq tug'ilmishdir (Ta'kid muallifniki).

Agar bizning xalqimiz bu holida Moskov kolonizatorlarig'a qarshi qo'zg'almag'on va och-yalang'och hamda qurolsiz bo'lsa o'z haq-huquqi uchun kurash ochmag'on bo'lsaydi, kelajakda o'z naslining nafratini qozongan bo'lur edi.

To'g'ridur, "bosmachiliq" harakatida yanglishliqlar, kamchiliklar hamda katta yanglishliq va kamchiliklar bor edi. Lekin bular bizni maorif va madaniyat ishtiyog'idan mahrum tutg'on Rusiyaning kolonizatorlik siyosatining natijasidir. Inqilobg'a biz uzun davom etgan Rusiya tazyiqi og'ir hastalig'i so'ngida butunlay kuchsizlangan bir vujudla uyg'onib kirdik. Biz yana hali oyoqlarimiz ustida mahkam turib olmag'on edik. Qo'llarimiz hali kuchsiz edi. Biz hali quroldan foydalana olishni ham o'rgana olmag'on edik. Hatto u zamonda bizning qurolimiz ham yo'q edi…

"Bosmachiliq" sovet hukumatiga qarshi kurashda muvaffaqiyatsizliqqa uchradi. Buning texnikaviy va tashkiliy-siyosiy jihatdan ko'plab sabablari bor edi.

Lekin "bosmachiliq"ning Moskov kolonizatorlik razolatlariga qarshi va milliy istiqlol uchun kurashishning umumxalq harakati bo'lib turg'onlig'ini bu muvaffaqiyatsizliq va yanglishliqlar bizning fikr va mulohazamizdan hech chekintira olmaydir.

Bu milliy istiqlol bayrog'i ostida shahid ketgan mujohidlarimizni Alloh rahmat qilsin!

Bu bayroqqa sodiq qolg'onlarg'a ming rahmat!

Mustafo Cho'qay. "Yosh Turkiston".
1933-yil fevral. № 39.

TURKISTON "BOSMACHILIQ" HARAKATI DAVRIDAN BIR XOTIRA

(Qo'rboshi Muhammad Aminbek qanday o'ldirilgan)

Quyida sizga taqdim etadiganimiz maqola egasi Turkiston milliy harakatiga ko'pdan beri qatnashib kelgan vatandoshlarimizdandir. "Mirzo Azmiy" uning taxallusidir. Haqiqiy ismi tahririyatg'a ma'lum. Bu maqola Mirzo Azmiybekning "Yosh Turkiston"g'a yuborgan uzun xotiralaridan oling'on bir parchadir. Bu xotiralarda og'ir haqiqatlar ko'p, lekin turli sabablardan ularni biz to'liq shaklda chop etolmadik. Bu sabablarni Mirzo Azmiybek tug'onimizning o'zi ham yaxshi anglaydi deb o'ylaymiz. Mirzo Azmiybekning yozib yuborg'on so'zboshisini "Yosh Turkiston"ning 40-sonida bosilg'on "Kamchiligimizni bitirmak g'oliblik yo'liga tushmak

demakdir" sarlavhali maqola ila solishtirib qarasangizlar, u maqolada ko'rsatib o'tganimiz "ichki kamchiligimiz"ning tag'in boshqa bir rangini yanada oydinroq ko'rasizlar. Ergash, Muhammad Aminbek, Xolxo'ja… bular o'lib ketgan kishilar. Turkiston "bosmachiliq" harakatining avvalgi davrlari bu kishilarning ismlari bilan bog'liqdir. Bularning xatolari o'zlarigagina tegishli bo'lmasdan, xalqimizning ko'pchiligining bo'ynidagi kamchiliklardan tug'ilg'on xatolar edi. U xatolarni ko'rsatmak, yozmoqla biz Ergash, Muhammad Aminbek, Xolxo'ja va boshqa davrdagi qo'rboshilarni kamsitmakchi, ularni gunohkor qilib ko'rsatmakchi emasmiz. Mirzo Azmiybekning ham bu fikrda emasligi yozganlaridan ko'rinib turibdir. Mirzo Azmiybekning maqolasini chop etish bilan biz o'tgan davrdagi bosh xato va kamchiliklarimizni tag'in bir daf'a ko'z oldimizdan kechirib o'tmakchi bo'lamiz, kechagi xato va kamchiliklarni ko'z oldimizg'a keltirmak – ularni yo'qotishg'a, qaytadan takrorlamasliqg'a to'g'ri yo'l ochadir.

* * *

Bolsheviklar Turkistonni istilo etganlari zamon dunyodagi bor vahshiyona zulmlarni qilmoqlikdan tortinmadilar. Turkiyada yunonlarning qilg'on zulmlari bu vahshiylarning qilg'on zulmlariga qarag'onda holva bo'lib qoldi. Bu bolsheviklarning vahshiyliqlarig'a chidayolmay, mahalliy xalq har tarafdan qo'zg'olib bolsheviklarga qarshi isyon qildi. Bir yerda asbob (qurol) xabarini topsa borib bosib olib bu qurollar vositasida bu insoniyat ildiziga tushgan qurtlarg'a urush ochdi, butun shahar va qishloqlar bolsheviklar tomonidan talon va taroj ostida qoldi. Xalqning boshiga o'ldirilish, qirilish, otilish balosi yopirildi. Xalqimizning bu zulmlardan bosh ko'tara olmay ko'rgan kunlarini itlar ham ko'rmas, yer

va samoning yaratuvchisi bo'lg'on Allohdan boshqa dodvoylarg'a yetadirgan kishi topilmas edi.

Eng avval Ergash qo'rboshi, Muhammad Aminbek, Xolxo'ja, Mahkam hoji, bular orqasidan Shermuhammad qo'rboshi, Parfi qo'rboshi, Omon Polvon, Rahmonquli Pahlavon, Islom qo'rboshi, Eshon Muhammad qo'rboshi, Ohundjon qo'rboshilar bosh ko'tardilar. Butun Farg'ona o'lkasi partizan muhorabasi maydonig'a aylandi.

Eng avval Ergash qo'rboshi bosh ko'tarib, o'zini Farg'onag'a xon deb e'lon qildi, o'zini "Amir al-muslimin"[198] deb atadi… Shu kunlarda men So'fi qishlog'ida edim. Muhammad Aminbek, Mahkam hoji, Xolxo'jalar boshqa bir to'p bo'lib og'zaki hisobg'a qarag'onda 700 yigit qilishib uchovlari o'z yigitlari bilan Qorasuvg'a to'plangan edilar. Men o'shal kun poyezdda mandatsiz yurib bo'lmag'oni uchun piyoda Ho'qandg'a keldim.

Muhammad Aminbek
(1893-1920)

Ho'qandg'a borib bola-chaqalarimni ko'rganimdan so'ng, o'ziga "Amir al-muslimin" laqabini bergan Ergash qo'rboshini ko'rmak, holidan xabardor bo'lmoq uchun uch-to'rt kishi bilan

[198] Amir al-muslimin – musulmonlarning amiri, boshi.

arava kira qilib to‘g‘ri Yangiqo‘rg‘on otliq qishloqg‘a ketdik. Undan to‘g‘ri Ergash qo‘rboshi o‘lturg‘on Xonabod qishlog‘ig‘a borib o‘zimizning kelganimizdan xabar berib kishi kirgizib edik, ko‘rishgani qabul qilib o‘z yonidan joy berib bizlarga ko‘p g‘amxo‘rlik ko‘rsatib masjiddan hujra[199] tayin qildi. Unda turib har kuni erta bilan askarlarga o‘xshab salomliqqa hozir bo‘lib, choy ichib hamsuhbat bo‘lur edik. Ancha-muncha suhbat qilg‘onimizdan keyin Ergash menga kitob o‘qib berishni buyurdi. Kitob o‘qib berib o‘lturib o‘rtada o‘zimdan qo‘shib, kitob o‘qig‘onday bo‘lib ba’zi lozim bo‘lg‘on nasihatlarni qilib o‘tdim. U ko‘zlaridan yoshlar oqib yig‘lab ham oldi. So‘ngra, ertaga Hazratshox (Ho‘qanddagi mashhur bir mozor)ga borib o‘n bir qo‘y so‘yib aqiqa to‘yi qilmoqchimiz shunda bizlar birla barobar borib askarlarga va’z aytib bering, deb hukm qildi. Men ham qabul qilib birga borib, bir yarim soatcha davom etib, ul va’zda: Bolsheviklarga muqobala qilib muhoraba ochmoq biz turkistonliklarg‘a eng birinchi vazifa ekanligini, ham bu borada joni boricha urunmoq har bir musulmonning muqaddas vazifasi ekanligini bildirib hammalaridan rahmat degan so‘zlarni eshitdik.

Bu orada u Muhammad Aminbek, Xolxo‘ja, Mahkam hojilar birla o‘rtalarida ittifoqsizliq bor ekanligidan biroz so‘z ochib Muhammad Aminbekdan shikoyat qilib edi. Men shikoyatning haqsiz ekanligini, balki hammalarining bir bo‘lmoqlari lozim ekanligini bir-bir bayon qilib, “Aks taqdirda o‘ylag‘on ishlaringiz ro‘yobga chiqish o‘rniga bir-biringiz birla urishib, qilg‘on mehnatlaringiz bekor bo‘lib, to‘plag‘on miltiq va o‘q-dorilaringiz dushmanlarg‘a sarf bo‘lmay o‘z o‘rtalaringizda sarf bo‘lib, o‘lkada masxara bo‘lursiz. Vatanni dushmandan qutqarmoq uchun hamma bir va bir og‘iz bo‘lib bir yoqadan bosh chiqarmoq kerak” deganimda u:

[199] Hujra – xona.

“Inshaalloh o‘rtamizda ittifoq bo‘lib qolur, bir-birimiz birla urushmasmiz” deb javob berdi. Lekin menga “Siz shunda turing, mullalardan bir dasta tayyorlab shularg‘a sizni bosh qilib qo‘yay” dedi. Men qabul qilmoqqa biroz o‘ylanib turdim. Biroq (birdan), “Shuncha so‘zni bilgan kishining albatta jadidchi bo‘lishi kerak” degan ovozni eshitib qoldim. Bu so‘zni eshitganimdan keyin, Ergashning oldida turishlikni munosib ko‘rmay, “Bir uyga borib uyni tinchitib qaytib kelaman” deb javob olib badar ketdim. Oxiri o‘rtalarida ittifoq hosil bo‘lmay Muhammad Aminbek, Shermuhammadbek bir taraf, Ergash bir taraf bo‘lishib Rajabgardi nomli bir joyda urushdilar. Orqalaridan bolsheviklar chiqib Muhammad Aminbek birla Shermuhammadbekka to‘p qo‘yg‘oni turdilar. Chunki Ergash o‘zi bulardan qochib Isfara yo‘li birla Mochchag‘a qarab badar ketdi. Demak, bularning o‘rtalarida sulh qilmoqg‘a albatta Xolxo‘ja birla Muhammad Aminbek rozi bo‘lmag‘on bo‘lsalar kerak.

Bularning o‘rtalarida ixtilof bo‘lganligining boisi nimadir? Muhammad Aminbekni Xolxo‘ja nimaga o‘ldirdi?

O‘zim bilgan va haqiqat deb fahmlagan narsalarimni biroz bayon qilay.

Xolxo‘ja o‘shlik bo‘lib o‘zining axloqiy jihatdan buzuq bo‘lg‘oni sababidan o‘limga mahkum qiling‘on edi. 1918-yilda O‘sh turmasidan turma boshliqlarini o‘ldirib, qo‘llaridan qurollarini tortib olib turmadagi mahbuslarga taqsim qilib berib, turma ichidan tashqarida poylab turg‘on soqchilar birla otishib o‘zi uchun yo‘l ochib, turmadan qochib chiqib, Manakning kun chiqish tomonidagi “Imom ota” nomli tog‘ ichidagi qal’a joylashg‘on yerda to‘plandi. Ruslar o‘zlarini chog‘lab turib to‘rt tarafdan hujum qilg‘onlarida u yerda qochib to‘g‘ri Ergashning oldig‘a borib qo‘shiladi. Ergash

pirga qo'l bergani[200] uchun zino, sharobxo'rlikdan parhez qilur edi. Xolxo'ja o'zi bebok[201], xotinboz, sharobxo'r bo'lib harom ishlarga ko'p aralashur edi. Ergashning oldida ham o'shal ilgaridagidek fasod ishlari davom etavergani va og'zaki dashnomlarga quloq solavermagani uchun (bu hol odamlarning milliy mujohidlar ichida bunday kimsalarning ko'p bo'lishligi xalq oldida bularning e'tiborini ketkizib yomon ko'z bilan qaramoqqa sabab bo'lib, mujohidlarning el nazdidagi obro'-e'tiborini tushurar edi) qurollarini olib o'zini hibsga olishga qasd qilg'onda xabardor bo'lib qochib Zodiyong'a borg'onida ul tarafdan Muhammad Aminbek kelib qolg'on. Xolxo'ja, Muhammad Aminbekka Ergashni yomonlab, Muhammad Aminbek ila Mahkam hojini orqaga qaytarib uchovlari bir bo'lib, Ergashdan alohida ish tutib ketib, o'rtalaridagi adovat bora-bora zo'rayib ketdi. Muhammad Aminbek, Shermuhammadbek, Parfi qo'rboshilar hamisha bolsheviklarga qarshi urushib yurganlarida Ergash qo'rboshi Orom birla Xonabod, Hazratshox taraflarda "Amir al-muslimin" bo'lib o'zini boqib yotmoqda edi. Shuning uchun ham unga qarashli ko'p qo'rboshilar Muhammad Aminbek tarafg'a o'tib ketdilar. Bu sababdan u borg'on sari askarlari ozayib o'zini o'zi eplab ololmay qoldi. Shundoq bo'lsa ham eng avval bolsheviklarga qarshi ko'krak berib urushg'on kishi bo'lg'oni uchun Ergashni biroz hurmat qilur edilar.

[200] Qo'l bermoq – tasavvufda shayxga murid tushish uchun amalga oshiriladigan marosim.
[201] Bebok – erkin, o'z bilganicha.



Shermuhammadbek (1-raqam bilan belgilangan) eng yaqin zohidlari bilan: 2. Lashkarboshi Nurmuhammadbek (uning ukasi) 3. Lashkarboshi mulla Xotam; 4. Bosh kotib Nazir Kabava.

Muhammad Aminbekni Xolxo'ja nima uchun o'ldirdi? Bu Xolxo'ja borg'on yerida xotin olavergani, odamlari bosqinchiliq qilib yurtni tinchsiz qilavergani uchun Muhammad Aminbek xafa bo'lib qurol va asboblarini olib o'zini to'rt oycha bandi qilib olib yurib, so'ngra tavba qildirib yana qurollarini qaytarib bergan edi. Bu orada Xolxo'ja ichida kin saqlab yurgan edi. So'ngra Muhammad Aminbek birla Shermuhammadlarning muhorabalari juda zo'rayib ketdi. Bu urushlarda qurolsiz bo'lsa ham ba'zi vaqtlarda aralashib qolg'on kunlarim bo'lg'on. Qolaversa nasihatimizni xayrixohlik tariqida maktublar yuborib turg'onlig'imiz ham oz bo'lmadi. Shundoq bo'lib turg'on vaqtda u zamon hukumat ichida yurgan millatparvar yoshlarimizning maxfiy takliflari bo'yicha hukumat birla yarashib turib ish yuritmakni ko'proq munosib ko'rib bolsheviklar hukumati birla bir qancha moddadan iborat shartlar bilan Muhammad Aminbek yarashdi.

U kunlarda men Ho‘qandda edim. Milliy istiqlolchilar birla Ho‘qanddag‘i tatar brigadasi boshlig‘i ila tanishib necha martalab bordi-keldilar qilib edik. O‘zimiz Ho‘qandda isloh tariqinda yangi tartibda bir madrasa ochib edik. Mazkur kishi kelib ishtirok etgan edi. Ularning maqsadlari: Qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham Turkiston xalqi orasida q urol-yarog‘ tarqatmoq edi. Shuning uchun Muhammad Aminbekka yarashmoqni taklif qilg‘on edilar. Haqiqatdan xabardor Muhammad Aminbek qabul qilib yarashg‘on edi. Muhammad Aminbekka Shermuhammadbekni ham yarashtirmoq vazifasini yuklagan edilar. Ul ham Shermuhammadbekka, o‘zining to‘g‘rilig‘i jihatidan, e’timod qilg‘onidan menim so‘zimdan chiqmas deb o‘z zimmasiga oladurda yarashg‘ondan keyin turadirg‘on joyi hozirg‘i nomi Farg‘ona bo‘lg‘on Yangi Marg‘ilong‘a kelib, u yerda Shermuhammadbek oldig‘a chiqmoqqa harakat qilib jo‘naydir. Bul tarafdan ruslar Muhammad Aminbekning yarashishiga ichi yonib tezlik bilan Muhammad Aminbekni o‘ldirib yuborishg‘a yo‘l axtarib qoladirlar (Ta’kid muallifniki). Tabiiy, yo‘l ham topadirlar. Ushbu yo‘l shudir: bir afg‘onistonlik kishini sotib olib, tezlik bilan Shermuhammadbekka borib Afg‘oniston amiri tilidan xabar yetkazib, “Muhammad Aminbek seni bolsheviklarga tutib bermakchi bo‘lib ketdi. Bolsheviklar bilan yarashtiraman deb aldab tutib berib, o‘zi xotirjamlikda ish qilur. Albatta Muhammad Aminbekning so‘ziga kirmay, balki uning jazosini bermak lozimdir” deb, aytgil deb buyuradir. Shunday ham bo‘ladir. Ul vaqt Muhammad Aminbekning ixtiyorini o‘ziga olib qolmoq uchun Xolxo‘jag‘a tirishadir. Haqiqatdan ham bu bir fitna ekanligidan bexabar Shermuhammadbek bu so‘zga ishonib Xolxo‘jani bu to‘g‘rida sohibi ixtiyor qilib qo‘yadurda, Ho‘lxo‘ja harif Muhammad Aminbek chiqqonda (yolg‘iz o‘zi borg‘on edi) vaq!, etib o‘ldirib qo‘yadir.

Bolsheviklar bu milliy istiqlolchi mujohidlarning o‘rtalarida adovat urug‘ini sochmoq uchun ko‘p urindilar, oxirda muvaffaq ham bo‘ldilar. Demak, o‘rtada kutilmagan holda chiqib qolib o‘zlariga zarba bergan muvaffaqiyatsizlik bizning bilganimizcha shulardan iboratdir.

Muhammad Aminbekni o‘ldirmak xususindagi so‘zning aslini o‘zim Xonabodda (Afg‘onistondagi Xonabod) Shermuhammadbekning pulemyotchi muhojirlar vakili Yoqubjon oldida o‘shal afg‘onistonlikning og‘zidan biroz tag‘yir bilan eshitdim. Makkayi-mukarrama. 1301-yil 1-shavvol oyi (1933-yil 11-fevral).

Mirzo Azmiy. “Yosh Turkiston”.
1933-yil aprel. № 41.

TURKISTON MILLIY QO‘ZG‘OLISH TARIXIDAN BIR PARCHA

(Sayyid Nosirxon to‘ra harakati)

Turkistonning Farg‘ona viloyatida 1929-yili Sayyid Nosirxon to‘ra hazratlari[202] tarafidan idora etilgan qo‘zg‘olishg‘a men, Muhammad Ali Hasanali, uzoqdan qatnashg‘onimdan u yilgi voqeani to‘liq ravishda bilmayman. Shuning uchun bu muhim voqeani, qo‘zg‘olishg‘a yaqindan qatnashg‘on yurtdoshimiz Mulla Qo‘ldosh Ohund bilan birga o‘tirib qisqacha bo‘lsa ham tartibi bilan yozamiz.

[202] Asli namanganlik bo‘lg‘on Sayyidnosirxon to‘ra Turkiston milliy ozodlik harakatiga yaqindan qatnashg‘on va ilmi ham notiqlig‘i ila turkistonliklar ichida mashhur bir shaxs edi. Bu zot 1917-yilning dekabrida Ho‘qandda qurulg‘on Turkiston Muxtoriyati hukumatining Maorif noziri (vaziri) edi.

Bu qo'zg'olishning, bolsheviklarning haddan tashqari zulmlaridan va ularning vahshiyona muomilalariga chidamaslikdan tug'ilg'onlig'i hech kimga maxfiy emasdir. Bu qo'zg'olish turklik olovidan va inson bolasig'a o'rnak bo'lurliq turk uchqunidan bir shu'ladir.

Sayyid Nosirxon to'ra uch yilliq surgundan qaytib kelib, GPUdan yashirinib yurar edi. Bolsheviklarning kundan kun ortib borayotg'on rahmsizligi va gunohsiz millatimizning qonini to'kib turk musulmon bolalarini o'ksiz[203] qolib ko'z yoshlari oqizishlari va kishining turklik qonini qaynatib, "yotib qolg'uncha otib qol" deb bolsheviklarni o'z olovlariga tortish majburiyatini sezadir. Yonidagilarga o'git (maslahat) berdilar. Mashvarat ahli Sayyid Nosirxon to'raning ra'yini maqulladilar. Undan so'ng Kosondan uch tosh[204] uzoqlikdagi Shohkaftar nomli bir qishloqda turuvchi burung'i qo'rboshilardan Islombek Botir yonig'a borib so'ylashganlar. U ham bu maslakni jon dili bilan qabul etgan. Mushovara[205] muharram oyining boshlarida boshlanib, birinchi safarda 20 nafar bo'lg'onlar. So'ngra harakat To'raqo'rg'onda turuvchi burung'i qo'rboshilardan Dadaboy ponsodg'a eshittirilgan. Dadaboy ponsod[206] ham turk bo'lg'onidan Nosirxon to'raning maslakini ixtiyor etib, to'ram va Islombeklar ila kurashmakni tilagan. Dadaboy ponsodning 30 nafarli qurollangan askari bo'lgan maxfiy tashkiloti ustida ekanligi ma'lum bo'lg'on. To'ram ham ikkinchi safarda Shohkaftarda uning bilan birga kurashmakni va'da qilgan. Biz ilgarida to'ramning o'g'illari

[203] O'ksiz – baxtsiz.

[204] Bir tosh taxminan 8 kilometrga teng keladi.

[205] Mushovara – maslahat, kengash.

[206] Ponsod – (forscha ponsad — besh yuz) — O'zbek xonliklarida qo'llanilgan harbiy unvon. Ba'zan "dastaboshi" ("otryad boshlig'i") deb ham yuritilgan. Ponsod 500 kishidan iborat harbiy qismga boshchilik qilgan.

Eshon Dadaxon ila tanishib, anglashib, mazkur tarixda besh nafar maslakdoshlar bilan birga, tayinlangan yerga borishni kelishgan edik. Ul tarafdan Dada ponsod 11 qurolli yigiti bilan kelib kechasi to'ram ila ko'rishib uning fikrlarini o'rganib, millatning ozodligi uchun kurashmakka hozir ekanligini bildirdi.

Sayyid Nosirxon to'ra Sayyid Kamolxon to'ra Kosoniy (1871-1938)

Biz tong chog'i o'z yerlarimizga qaytib ketdik. Dada ponsod shu kun soat 10 da Boymoq degan qishloqdagi davlat do'konig'a kirib 2 dona qurol olib, hech kimga qaramay o'tib ketgan. Bu voqeadan so'ng mazkur qishloqdan Chustga telefon qiling'on. Chustdan ham yon-atrofg'a telefon qiling'on. Bu suvratla aksar davlat do'konlari egasiz qolg'on. Ponsod ham shu kundan boshlab yashiring'on.

Ponsod, sobiq qo'rboshi Islombekning Shohkaftardagi davlat do'konig'a hujum qilishini talab etgan. Islombekning 8 nafar qurolli yigiti bilan birga to'ram yonig'a kelgan va

uning otashin bir nutqini tinglaganlar. Ko‘p mutaassir bo‘lib yig‘lashg‘onlar. Uch kundan so‘ng Islombek soat 11 da Shohkaftardagi davlat do‘konig‘a hujum qilgan. Shu yerda 5 nafar o‘zbek militsiyasi ila bir qancha mujiklar[207] bo‘lg‘onidan, natijada 12 mujik, 14 qurol va boshqa narsalar qo‘lg‘a tushirilgan. Shu kundan boshlab Islombek ochiq muqobalada[208] davom etgan. 4-robiyul-avvalda Islombekning qurolli yigitlari 40 nafarga yetgan. Bu orada 4-5 daf’a bolsheviklar chiqib ularni tutmoqchi bo‘lg‘on bo‘lsalar-da, alangalariga uchrab, kuyib qaytib ketganlar. To‘ramning yashirin tashviqlari kundan-kun yoyilib, Namanganning sharq-shimolinda to‘rt tosh yo‘l uzoqlikdagi Beshqorin nomliq qishloqdagi burung‘i qo‘rboshilardan Muhammad Umar qulog‘ig‘a yetkizilgan. U ham turk bo‘lg‘onlig‘i sababli qizib, qaynab bu muqaddas xizmatini jon va dildan qabul etib, o‘z yonida 9 nafar yigiti va 12 ta quroli borlig‘ini bildirib, to‘ramdan ham 10 yigit so‘rab, 20 nafar bo‘lib Beshqo‘rg‘ong‘a hujum etish topshirig‘ini qabul etgan. Bul tarafda Islombek 12-robiyul-avvalda Chotqolg‘a odam yuborg‘on. Chotqolda ham burung‘i qo‘rboshilardan borlig‘i sababli odamlari ular ila topishib, ko‘rishib voqeani anglatg‘onlar. Chotqolliqlar ham turk bo‘lg‘onliqlaridan bu muqaddas xizmatga berilib, din va millat uchun fidokorliqqa hozir ekanliklarini bildirg‘onlar. Ham u yerda 25 nafar mujik borlig‘ini va o‘z qo‘llarida 20 ta qurol borligini bildirib, 40 nafar bo‘lib mujiklar ustiga hujum etmakchi bo‘lg‘onlarini ma’lum qilib, 15-robiyul-avvalda ularg‘a hujum etib, 2 soatliq to‘qnashuvdan so‘ng mujiklar qochg‘onlar, 20 adad qurol, 9 nafar asir olib, bularning bir nechasini qo‘yib yuborib qolg‘onini o‘ldirganlar. Bularning qatori ortib, 50 nafar bo‘lib, 20-robiyul-avvalda Islombek

[207] Mujik – rus dehqoni.
[208] Muqobala – kurash, jang.

yigitlariga qo‘shilg‘onlar. Birlashgach sevinchlaridan yig‘lashg‘onlar.

Ul tarafda Muhammad Umarbek 16-robiyul-avvalda Beshqorin qishlog‘i ichig‘a ot qo‘yg‘on qo‘rg‘on qarshisida 5 daqiqa o‘q uzganidan so‘ng mujiklar sarmastlikdan qurollarin tashlag‘onlar va barchasi asir tushganlar. Shu kun 20-fevral o‘lja qilib aniqlangan millat sotqinlari jumladan, Abdulbattong‘a o‘xshaganlarning boshini kesganlar. Shu kun Muhammad Umarbekning 30 yigitiga 20 nafar fidoiy qo‘shilib 50 nafar bo‘lg‘onlar va birgalikda quvonchlar ichida Islombek tomonig‘a borib ular bilan birlashganlar. Fidoiylar sevinib, qurollarini qo‘yib tanaffus etarlarkan, ma’lum joyga qo‘yib qo‘yilgan odamlar 200 nafarcha mujikning bular tomonig‘a kelayotganlarin xabar berganlar. Tez qurollarini olib, ularg‘a taraf chiqib qarshilag‘onlar va 4 soatliq otishmadan so‘ng 4 bolshevik o‘lib, qolg‘onlari qochib, Islombekning xotin va yosh bolalari turg‘on tarafga o‘tganlar. Islombek Muhammad Umarga xitoban: “Sizlar o‘z qishloqlaring tomong‘a borib hazrat to‘ram farmonlarig‘a muvofiq ishlanglar. Men tangrimg‘a sig‘inib mana shu dushmanlar orqasidan yurish qilaman” deb va’dalashib dushman ortidan ketgan. Muhammad Umarbek 25 nafar chotqolliq yigitini olib, Olimxon tarafg‘a o‘tib to‘ram ila ko‘rishmak uchun Abdulhamidxon boshliq 5 nafar yigitni Kosonga yuborg‘on. Bu 5 nafar yo‘lda borarkan Andijon militsiya boshlig‘i Qo‘chqor o‘g‘li qo‘mondonligidagi 50 nafar rus va o‘zbek militsiya to‘dasi ila to‘qnashg‘on. Bu to‘qnashuvda ruslar ikkiga bo‘linib qochg‘onlar. Besh nafar fidoiy bularning bir qismig‘a hujum etganlar va orqasidan ta’qib etib 4 chaqirim yerga qadar borg‘onda ulardan uchtasini ushlab uchovini ham chopqonlar. Bularning biri militsiya boshlig‘i Qo‘chqor o‘g‘li ekan. Natijada uchta beshotar, 3 ta to‘pponcha, 3 ta qilich o‘lja tushgan.

Shu kun 28-robiyul-avvalda Kosondan to‘ram ila qaytishib 29-robiyul-avvalda Muhammad Umarbek huzurig‘a, Ko‘kyorg‘a kelganlar. Bu yerdan Qoratepaga borib Yaxshibek ismli g‘ayratli bir turk o‘g‘li ila ko‘rishganlar. Bu g‘ayratli yigit uch mujikni o‘ldirib, qurollarini olib, o‘z yigitlaridan sakkiz nafarini qurollantirg‘on ekan. Bu Yaxshibek ham o‘z yigitlari ila barobar istiqlolchilar qatorig‘a kirib Beshqorin tarafg‘a jo‘nag‘on. To‘ram esa Kosong‘a ketganlar.

Islombek 6-robiyus-soniyda Boymoq qishlog‘ida turuvchi hukumat ma’murlari ila to‘qnashib 3 soatliq muhoraba ichida 2 mujikni qo‘lg‘a tushirib, qurollarini olib o‘zlarini o‘ldirgan. Boshqalari qochib qutilg‘onlar. 11-robiyus-soniy Toshkent GPUsi Kosong‘a kelgan. Bular 12-robiyus-soniyda 100 nafar mujik ila Shohkaftarga chiqib Islombek ila to‘qnashg‘onlar. GPU boshlig‘i tosh orqasidan durbin ila qarar ekan Islombek durbin aralash uni manglayidan urg‘on, yoinidagi ruslar esa shoshib qolib qocha boshlag‘onlar. Orqalaridan quvib 4 nafarini o‘ldirgan va 4 adad qurolni o‘lja qilg‘on. Shul sirada hazrat to‘ram yashirib yotg‘on yerlarida 170 adad qo‘lda yozilg‘on devoriy gazeta hozirlab shu robiyus-soniy oyi ichida shu devoriy yozma gazetalarni Toshkent va Samarqandga 15, Avliyotag‘a 10, Marg‘ilon va Andijong‘a 15, Namangan, O‘sh, Jalolobod, O‘zgand va Farg‘onalarga 10 tadan tarqatilib, hammasi juma kechasi yopishtirilg‘on.

Dadaboy ponsod 40 nafar yigiti ila kunduz yashirinib tunda o‘z vazifasida davom etdi. Namangan hududidagi birlashmagan bozorlardagi hukumat ma’murlari qo‘rqib qochib ketganlar va xalq ham bir muddat hukumat solig‘idan qutulg‘on.

25-robiyus-soniyda Muhammad Umarbek 100 nafar askari ila Kosong‘a hujum etgan, davlat do‘konlarig‘a kirib, sandiqlarini sindirib, daftarlarga o‘t qo‘yg‘on. Millat

xoinlarining 8-9 ning boshini kesib, 12 adad qurolni o‘lja qilib olg‘on. Bu muhorabada Muhammad Umarbekning bir yigiti sonidan o‘q yegan. Shu kuni to‘ram askarlari ila birgalikda Kosondan chiqib, Shohkaftarga borib 20 kun turg‘ondan so‘ng Paramong‘a borg‘onlar. Jumodil-avval oyi boshida Paramong‘a yaqin bo‘lg‘on Zarfand degan qishloqda turuvchi 20 nafar bolsheviklar ustiga hujum etib natijada mujiklardan 13 adad qurol va 10 ot o‘lja tushirib bu yerdan Qoratepaga borib biroz tanaffusdan so‘ng mujiklar ustiga borg‘onlar. Bu mujiklar yashirin ravishda zohiran so‘z berib biroz muqobala qilg‘on bo‘lib 10 adad qurol va 4 yashik o‘q berganlar. 15-jumodil-avvalda qirg‘izlarg‘a borg‘onlar. Bular ham turk bo‘lg‘onlaridan va bolsheviklar tarafidan butun mollari tormor qiling‘onidan turk qo‘shinini ko‘rgach 70 askar va 20 adad qurol ila qo‘shilg‘onlar. 25-jumodil-avvalda Kosong‘a qaytib, kechalar quyi Kosonda turuvchi militsiyalarga hujum etib, 4 adad qurol va 4 asir olib, bir nafar millat xoinining boshini kesib, Shohkaftarga o‘tib ketganlar. Bu yerda bir necha kun istirohat qilg‘ondan so‘ng jumodis-soniy boshlarida Ranjid degan qishloqqa borg‘onlar. Bular bu yerda ovqat yeyishar ekanlar bolsheviklarning hujumiga ma’ruz[209] qolg‘onlar. Bu to‘satdan qilingan hujumga muqobala qilar ekanlar, 3 nafar istiqlolchi shahid bo‘lgan va to‘ramning otlari yiqilib qo‘llari singan. Biroq, bolsheviklar muqobalaning shiddatiga jiddiy olmay qochg‘onlar.

To‘ram qo‘llarini muolaja qilish uchun ikki yigit ila birgalikda qolg‘onlar, boshqalari Ketmontepadagi bolsheviklar ustiga borib ularg‘a hujum etib 3 soatliq muhorabadan so‘ng 10 adad qurol, bir necha yashik o‘q va 55 ming so‘mqog‘oz aqchani qo‘lg‘a tushurganlar. Ketmontepaning birlashgan mujiklari bir ko‘p sovg‘alar ila kelib mujohidlarga bosh egishganlar.

[209] Ma’ruz – ojiz, ilojsiz.

Undan so‘ng shu yerdan Jonibek qozi tarafig‘a yurib, yo‘lda bolsheviklar ila 3-4 daf’a to‘qnashib, to‘rt kundan so‘ng Norin daryosining ul yuziga o‘tganlar. Shu chog‘lar nihoyatda sovuq bo‘lib qolg‘onidan qish so‘ngig‘acha yashirinib yotib, so‘ngra ish boshlamoq maslahat ko‘rilib 25-jumodis-soniyda Uchqo‘rg‘on tepasida turuvchi qo‘rboshi yonig‘a keldilar (bu qo‘rboshining ismini unutg‘onmiz). Qo‘rboshilar bu yerda qish oxirida qaytadan kurashmak qarorini berib bir-birlari ila quchoqlashib o‘z tomonlarig‘a, bola-chaqalari yonig‘a ketdilar. Qo‘rboshilar u zamon hayajon ila shu qo‘shiqni kuylashar edi:

Biz Turkiston askari o‘rislarg‘a teskari
Jihod[210] uchun chiqqonmiz xoh yoshimiz, xoh qari.
Qur’on hukmi jihoddir, dunyo aqbi oboddir,
Mo‘min qullar ko‘p shoddir devonasi ham piri.
Bolshevikni qiramiz, ichak-bag‘rin yoramiz,
Qayg‘a qochsa borarmiz, murtadlardan biz, nari.
Musulmonlar uyg‘onsin, g‘aflatidan tebransun
Shahar, sahro aylansin dini islom chokari[211].
Muhammadning ummati eshitganmiz g‘ayrati
Olam to‘la hurmati biz ularning navkari.
Ming uch yuz yil Turkiston, iymon ila guliston,
Emdi bo‘ldi xoriston, g‘ayrat qiling erlari.
Vatan qadrin bilmagan iymon qalbga to‘lmag‘on
Dushmanlarga sotilg‘on nodonlarning humsari.
Biroz pulg‘a aldang‘on din va iymonin sotg‘on
Kommunistman deb quvong‘on chayonsifat yo ari.
Na qozi bor, na maktab, na mufti bor, na mansab
Endi g‘ayrat qilayliq, yo narimiz yo beri.
Joni fido askarimiz xudo uchun lashkarimiz
Dinsizlarni qiramiz dinliklarga hamsari.

[210] Jihod – vatanni himoya etish uchun dushmanga qarshi jang qilmoq.
[211] Chokar – askar.

Mol va jondan ham kechgan g‘ayrat sharbatin ichgan
Jannat borsa hur quchg‘on dini islom askari.
Mo‘minlarga zarar yo‘q bir tanga ham xatar yo‘q
Dushmanlardan qochar yo‘q Qur’on bo‘lar rahbari.
Xotin-qizlarni ochmaymiz, biz mushtarak etmaymiz
Qur’on yo‘lidan chiqmaymiz quyosh kabidir oliy.

Hindiston – Dehli, 1934-yil iyun. Muhammad Ali Hasan, Mulla Qo‘ldosh Ohund.

“Yosh Turkiston”. 1934-yil avgust. № 57..

IBROHIM LAQAY QANDAY TUTILG‘ON EDI?

(Muqim Sulton o‘g‘lining hikoyasi)

Bundan to‘rt yarim yil avval, 1931-yil o‘rtalarida, Chaqaboy o‘g‘li Ibrohimbek Laqay tutilib qolg‘on edi. Ibrohimbek tutilg‘och Toshkentga keltirilgan va uning ochiq mahkama etilajagi, uning “baynalmilal imperalistlar” va yurt ichidagi va muhojirotdagi Turkiston millatchilaridan kimlar bilan munosabatda bo‘lg‘onlig‘i ochilib e’lon etilajak deb kutilgan edi. Ish bu kutilgani kabi bo‘lmadi. Ibrohimbek Toshkentga keltirilganidan so‘ng, sudi Toshkentday jim-jit bo‘lib ketdi. Ortiq na Moskov va na Turkiston gazetalari uning haqida bahs etdilar. Ibrohimbek va uningla birga tutilg‘on yo‘ldoshlari ustida har qanday bir shaklda mahkama (sud) yuritildimi? Bu ham anglashilmadi. Faqat aniq bo‘lg‘on bir nuqta bo‘lsa, u ham Ibrohimbekning bolsheviklar tarafidan o‘ldirilganligidir…

Turkiston isyon – “bosmachiliq” – harakatlari to‘g‘risida yozilgan bolsheviklar adabiyotida Ibrohimbekka keng bir o‘rin beriladir. Biz bu adabiyotning muhimgina bir qismi bilan tanishamiz va bolsheviklarning butun yozganlariga inonmaymiz. Biroq, bundan butun bolshevik yozuvlarining

butunlay yolg‘on ekanligi chiqmaydir. Mana Nikolay Yurgin ismli bir bolshevikning “Красная нова” nomli bir jurnalda (4-son) “Dushanba” sarlavhasi ostida chiqqan maqolasi. Bu maqola sovet hukumatiga qarshi Ibrohimbek tarafidan yuritilg‘on kurashning ilk davridan bahs etadir. Bu maqolada Ibrohimbekning sovet kuchlari qo‘mondonlig‘i bilan yuritg‘on yozishmasi shu qadar tafsilotli suvratda berilganki, bizning bu yozishmadan parchalar naql etishga ham qo‘limiz bormaydir. Biz bu yozishmalardan, maqolada keltirilgan tafsilotning to‘g‘rilig‘ig‘a inonmaganimiz uchun emas, ular dahshatli, qayg‘uli haqiqatlarni, Turkiston xalqi umumiy ko‘tarilishining yengilishi sabablarini ko‘rsatib, kelajakdagi kurashimiz uchun yuragimizni changallash majburiyatini tug‘diraturg‘on achchiq haqiqatlar bo‘lg‘oni uchungina naql etishni istamay turamiz… Biz xalqimizni o‘tmishdagi qorong‘iliqdan qutula oladi deb umid etamiz. Bu uzun yillar surgan asorat, yot zulm og‘irlig‘i unga qutilish yo‘lida qanday va kim bilan birga kurashish kerakligini o‘rgatdi. Uning ko‘zini ochdi deb o‘ylaymiz.

Tojikiston paxtachilari vakili bo‘lib Moskovg‘a kelgan kishilardan biri Muqim Sulton o‘g‘li degan kishidir. Ibrohimbekni tutib bergan kishining bu ekanligini vaqtli gazetalar yozib o‘tgan edilar. Mana shu Muqim Sulton o‘g‘li Moskovning “Известия” gazetasida (1935-yil 29-noyabr, 277-soni) bu ishning qanday kechganini hikoya etadir. Biz uning hikoyasini hech bir yerini o‘zgartirib, qisqartirib o‘tirmay, aynan naql etamiz.

“Mening hayotimda ikki baxtli kun bor. Bu baxtli kunlarimning biri tojik xalqining ashaddiy dushmani Ibrohimbekni o‘z qo‘lim bilan tutib bog‘lag‘on kunim edi[212]. Men bu haqida biroz ko‘proq anglatsam deyman.

[212] Muqimbekning umridagi ikkinchi eng baxtli kuni esa Moskovga kelgan kun emish.

Ibrohimbekning Tojikiston chegarasini kesib o‘tganligi to‘g‘risidagi xabar mening qishlog‘im Esonboyg‘a kelganda yozgi ekin ishlarining qizg‘in davri edi. Ibrohimbekning do‘stlari bilan ilgari daf’alarcha qarshilashg‘on edim. Men eski partizanlardan bo‘lib, inqilobning birinchi yillaridayoq vaqtimni Sharqiy Buxoroda o‘z qishloqdoshlarim va yo‘qsullar bilan birgalikda yurtimni boshmachilardan tozalash uchun ot ustida o‘tkazdim.

Ibrohimbekning hududni kesib o‘tgani xabarini olar-olmas, uning eng avval eskida o‘z urug‘ining ishg‘ol etgan boylar orasidan yaqin va tanishlari qolg‘on Ko‘ktosh rayoniga kelishini angladim. Mening qishlog‘im Esonboy esa Ko‘ktoshning yaqinidadir. Men o‘zimning eski kurashchan yo‘ldoshlarimdan kolxozchi Egamberdi Yo‘ldosh, Karim Alimardon o‘g‘li, Abdurahmon, Qoraxon Sardor o‘g‘li, Cho‘ta Ko‘char o‘g‘li, Gilxo‘ja Nazar o‘g‘li, Muhammad Rajab va Yormuhammad o‘g‘lilarni to‘pladim. Biz u zamon kolxozchiliqni endigina boshlag‘on edik. Biz kelajakka ishonar va o‘z tuprog‘imizni otalari otalarimizni qul qilib ishlatgan boylarg‘a bermakni istamadik.

1931-yilning 23-iyul kechasi[213] Ibrohimbek shiddatli oqadigan Kofirnixon nahri yoniga keladi-da, qayiqchilarg‘a “O‘ldiraman” deb qo‘rqitib o‘zini nahrning u tarafig‘a o‘tkazishni buyuradi. Bu xabarni menga Egamberdi Yo‘ldosh va Karim Alimardon o‘g‘illari keltirdilar. Men darhol yo‘ldoshim Gilxo‘ja Nazarga qayiqchi bo‘lib kiyinib Ibrohimbekni nahrning bu sohiliga o‘tkazishini buyurdim. Gilxo‘ja ham zimmasiga olgan vazifasini yaxshilab bajardi. Ibrohimbek bosmachilar qo‘mondoni sohib va o‘zining kotibi ila birgalikda nahrni kechdi. Gilxo‘ja nahrning shiddatli oqimini bahona qilib ularni

[213] Bu sana xato bo‘lsa kerak. Chunki Ibrohimbek 23-iyun kechasi tutilg‘ondir.

miltiq va to‘pponchalarini qayiqning chetiga bog‘lab olishga unatdi.

Ibrohimbek sohilg‘a kelgach men yashiring‘on yerdan sakrab chiqib miltiqni ko‘kragiga tiradim va unga: “Ibrohimbek endi sening ajaling yetdi. Orqangg‘a aylan. Men sening qo‘llaringni bog‘layman” dedim”.

Qo‘lga olingan Ibrohimbek Laqay, 1931-yil.

Biz yana Muqimbekning keltirgan tafsilotidan Ibrohimbekni tutishda qatnashg‘on barcha yo‘ldoshlarining bugun “atoqli” kishilar bo‘lib, mavqe’ qozonib ketganlarini ko‘rmakdamiz. Uning do‘stlaridan Abdurahmon hozirgi kunda Ko‘ktosh rayonining ijro qo‘mitasi boshlig‘i ekan. Qoraxon esa rayon militsiya boshlig‘i, Cho‘ta Ko‘char o‘g‘li “Qahramon” kolxozining raisi, Gilxo‘ja ziroat agrono‘mi, Muhammad Rajab “Qizil bayroq” kolxozining raisi, Karim Alimardon o‘g‘li esa Ko‘ktoshdagi 41-sonli otchiliq savxo‘zining boshlig‘i o‘rinbosari ekan.

Sovet hukumati dushmani Ibrohimbek Turkistonning Rusiyadan butulay ajralib, mustaqil davlat bo‘lishini ko‘zlagan milliy mafkuramiz yo‘lboshchisi emas edi. Bu

kishi “Jadidchilarga qarshi kurashni bolsheviklarga qarshi kurashdan ahamiyatliroq deb qarar edi”[214] Bu esa uning sobiq Buxoro amiri, rus generali Sayyid Mir Olimga tarafdorlig‘idan edi. Buningla barobar biz o‘lgan kishining qabriga tosh otmoqlikni istamaymiz. Ibrohimbek o‘lib ketdi. Yotgan tuprog‘i yumshoq bo‘lsun.

Biz bu maqolaning so‘ngida turkistonliklarning nazaridiqqatini Ibrohimbekning falokatiga sabab bo‘lg‘on xoinlarning o‘z yurtdoshlari – turkistonliklardan bo‘lg‘onig‘a tortib o‘tmakchi bo‘lamiz. Bular ham rus tarafdorlari, qizil rus jallodlarining xizmatchilaridir.

Muqim Sulton o‘g‘li ham qizil Rusiyag‘a xizmat qilib olg‘on nishonlari bilan maqtanishg‘a, tarixda Chor Rusiyasiga xizmat qilib nishon qozong‘on Sayyid Mir Olimdan ortiq haqli emasdir.

Turkistonliklar shuni qat’iy suvratda bilishlari kerakki, bizning milliy kurashimizdagi chin muvaffaqiyatimiz, tarixdagi oqpodsho Rusiyasiga, bugungi qizil Rusiyag‘a, yo‘qsa boshqa jinslik bir Rusiyag‘a bog‘lanishda emas, bolsheviklar asoratidan butunlay qutulishdag‘inadir.

Ibrohimbekning yanglishliqlari (xatolari) va Muqim Sulton o‘g‘lining o‘zi so‘ylab o‘tirgan xoinligi Turkiston millatparvarlari, Turkiston ziyolilarini chuqur-chuqur o‘ylashg‘a majbur etadurg‘on hodisalardir.

Janay (Abdulvahob O‘qtoy). “Yosh Turkiston”.
1936-yil yanvar. № 74.

[214] Yuqorida ismini keltirganimiz bolshevik Nikolay Yurgin ham shuni e’tirof etadir.

TURKISTON MATBUOTI TARIXI

TURK GAZETACHILIG'I I

Ilk turk gazetasi sanalg'on "Taqvim vaqoe"ning birinchi soni 1831-yil oktyabr so'ngida Istanbulda chiqqonidan, 1931-yilning birinchi oktyabrida turk gazetachilig'i yuz yoshg'a kirdi. Bu munosabatla gazetachiliq tarixi va uning turk o'lkalarinda boshlanishi haqinda qisqacha ma'lumot berib ketmakchimiz.

Birinchi, gazeta ne demakdir?

"Gazetta" italyancha bir so'z bo'lub, bu XVI asrda Vandeydagi bir chaqag'a berilgan ismdir. Vaqtila bu chaqag'a bir nusxa gazeta sotilar edi. Bu so'zning italyancha zag'izg'on ma'nosindagi "Gazza" kalimasindan chiqqonlig'ini so'ylaganlar ham oz emasdir. "Gazza" (Zag'izg'on) ovro'palilarcha ezmalik timsolidir.

Tarixiy vasiqalar gazetachiliqning pik uzun va eski bir tarixga ega bo'lg'onlig'ini ko'rsatadir. Parijning eng atoqli Luvr (Louvre) muzeyida saqlanayotg'on vasiqalardan, miloddan 1750-yil burung'i yani Tutmos III davridagi nozirlardan birisining rasmiy bir gazetada chiqqon ba'zi ma'lumotg'a e'tiroz etganligi anglashilmishdir.

Tarix otasi deb tanilg'on Herudot[215] (bu muarrix miloddan 424 yil ilgari o'lmishdir) esa Firavnlardan bahs etgan kulgu gazetalari haqinda uzun-uzun ma'lumot bermishdir.

Ovro'pada gazetachiliqning ilk ko'chati miloddan 48 yil ilgari, yani Rumo imperatori qaysar Yuliy Sezar (Julius Cesar) zamonidan eski Rumoda o'tqazilg'on. U zamon Rumoda "Acta diurna publica" va "Populi Romani" nomli ikki turli nashriyot

[215] Herudot – Gerodot. Taxminan mil. avv. 484-425 yillarda yashagan qadimgi yunon tarixchisi.

bor edi. Bularning bir nechasida a'yon majlisi (san'at) yuritiqlari, davlat ishlari va idoralariga oid rasmiy narsalar, ikkinchisida esa umumiy bayramlar, urushlar va Rumo askarlarining zafarlari, ijtimoiy ham adabiy voqealar, hatto muattar va jozibali sarguzashtlar to'g'risida ham bosilardi. Bu kki nashriyotda yozuvchilar orqali sanoqsiz ko'piyalar chiqartirilib Rumo davlatining har tomonig'a tarqatilar edi. Essizki, bir necha minglab tarqatilg'on bu ikki gazetaning bu kun birgina nusxasi ham qolmag'ondir. Bu gazetalar haqindagi keng ma'lumot manbalari eski Rumo muharrirlariyla Rumo muarrixlaridir. Bu har ikki Rumo gazetasining umri haqinda aniq ma'lumot yo'q esa-da, bulardan "Acta diurna publica"ning bir necha asr chiqib turganligi va Rumoning shimoliy Ovro'pa xalqlari tomonidan harobazorg'a aylantirilgan chog'ig'acha davom etganligi tarixcha belgiligidir. Bu gazeta Rumo tahribotindan so'ng Vizans saroyinda (Vizantiya) chiqqon bo'lsa ham qisqag'ina muddat nashr etilib, so'ng izsiz, nishonasiz yo'q bo'lib ketgandir. Bundan so'ng Ovropada uzun zamon to XV asrning so'ngig'acha gazeta nashr qilinmaydir.

Gazetachiliq tarixinda qo'mshumiz (qo'shnimiz – M.Alijonov) Xitoy muhim bir o'run tutadir. Ilk bosma gazeta matbaachiliq san'atining ona yurti sanalg'on shu Xitoyda chiqmishdir. Dunyoning eng qari, eng uzun umrli gazetasida bu kun ham Pekinda chiqib turgan "King-pao" (Markaziy shahar bildirishi) nomli Xitoy gazetasidir. Bu gazeta 911-yilda ta'sis etilgan bo'lsa ham, ko'p uzun (umr) surgandan so'ng yani 1361-yildan e'tiboran muntazam suvratda haftaliq va 1800-sanasidan kundalik o'laroq chiqa boshlamishdir. Uzungina zamon Xitoy imperatorining buyruqlarini va saroyindagi xabarlarnigina tarqatishdan boshqa vazifalari ko'rilmagan bu gazetaning hajmi 1884-yilda anchag'ina kengaytirilib har soni uch bo'lakdan iborat o'laroq nashr

etila boshlag'on: Birinchi sariq qog'ozli "Hsing-pao" ("Tijorat varaqasi")dir. Bunda oluv-sotuv ishlariga doir xabarlar bosiladir. Ikkinchisi esa bu gazetaning burung'i asl ismi bo'lg'on "Suen-pao" ("Rasmiy varaqa")dir. Bu ham bir nechasi kabi sariq qog'ozlidir. Uchinchisi esa qizil qog'ozli bo'lub, "Titani-pao" deb ataladir va bu qismda viloyatlarga qarashli maqola va xabarlar bosiladir. Bu gazetasining boshqarmasida Xitoy akademiyasi "Han-lin"ning olti a'zosi cholishadirlar[216].

Oluv-sotuv va sayohat maqsadlariyla uzoq sharqg'a borg'on ovro'paliylar xitoylarning bir qancha san'atlariyla birlikda uning matbaachilig'inida o'rganib, bu san'atni Ovropag'a keltirdilar. Bu hol Ovro'pada gazetachiliqning tez taraqqiysiga keng yo'l ochdi va Ovro'pa qisqa zamon ichinda bu sohada ham Xitoydan ko'p o'zib ketdi.

Rumoning inqirozi ila saktaga (qisqartirish – M.Alijonov) uchrag'on gazetachiliq Ovro'pada ikkinchi daf'a o'laroq XV asr so'ngida Vandeykda chechak osha boshladilar. Vandeyk o'rta asr tijorat hayotinda yuksak o'rin tutar va butun dunyo ayniqsa sharqg'a oid yangiliklar uchun muhim bir manba sanalar edi. Vaqtiyla butun dunyoni qiziqtirg'on turk muhorabalari, Rumodagi papa doirasi ila Venadagi Qisor saroyinda bo'lub turgan butun hodisalar Vandeykda "Notizie scritte" holinda bosilar va "Gazetta" bir chaqag'a sotilar edi.

To'g'risi ovro'palik mualliflar Ovro'paning ilk bosma gazetaning Ovro'paning qay yerinda va qachon chiqqonlig'i haqindagi iddaoda bu kungacha bu kungacha birlasha olmag'onlar. Ko'p mualliflar Ovro'paning ilk bosma gazetasi o'laroq 1605-yilda Anvarisda chiqqon "Neuw Tijdingen" degan gazetani ko'rsatadirlar. Hatto 1605-yilg'i Anvaris muhosarasi asnosinda qo'rqub va cho'chub ketgan xalqni jasoratlantirish

[216] "King-pao" gazetasiga oid to'plang'on bu ma'lumot 1907-yilg'acha yig'ilg'on tekshirishlardan xulosa etildi.

maqsadiyla Abraham Varboevan nominda bir matbaachining tarix va noʻmersiz tarqatqon bir varaqasini Ovroʻpaning ilk gazetasi oʻlaroq qabul etganlar ham koʻpgina koʻriladir.

Ilk turk gazetasi chiqqon Istanbulga matbaachiliq kabi gazetachiliq ham fransuzlarni taqlid yoʻliyla kelmishdir. Fransiyada esa ilk gazeta 1631-yil 30-mayda "Theophraste Renaudot" degan bir doʻqtur (tabib) tarafindan chiqarilmishdir. Ismi ham "La Gazette" edi[217]. Demak koʻp jihatlarda Fransiyaga taqlid etgan Turkiyada gazetachilik Fransiyadan roppa-rosa ikki asr (1631-1831) soʻng boshlanmishdir.

(Bitmadi)
Toʻqtamish oʻgʻli (Abdulvahob Oʻqtoy).
"Yosh Turkiston" jurnali. 1932-yil mart. – №. 28.

TURK GAZETACHILIGʻI II

Turk oʻlkalarining eng ulugʻi boʻlgʻon Turkistonda 1905-yil inqilobigacha faqat birgina gazeta chiqib turar edi. Nomi "Turkiston viloyatining gazeti" (Bugungi imlo ila "Turkiston viloyatining gazetasi") boʻlgʻon bu rasmiy gazeta Turkiston general gubernatori Fon Kaufmanning buyrugʻi ila va hukumatning moddiy yordami bilan Toshkentda chiqarilib, 1870-yildan 1918-yilgacha davom etmish yani 47 yil yashamishdir. Bu gazeta Toshkentdagi Lextina matbaasida bosilar edi. Biroz fursat (1872-1873-yillar) Peterburgdagi imperatorlik akademiyasi va xalq harbiy idorasi matbaalarida ham bosilmishdir.

Bu gazeta Turkistondagi rus voliysining[218] fikr tarqatuvchisi edi. Voliyning turli buyruqlarini yoymish va

[217] Bu gazeta 1762-yilning birinchi yanvaridan boshlab "Gazette de France" atalgʻon va shu nom ostida bu kun ham kundalik oʻlaroq chiqib turadir.
[218] Voliy – gubernator.

Turkistonda rus hokimiyatini birlashtirmak, turkistonliklarni ruslashtirmoq va Turkiston xalqini uxlatmoq yoʻlida koʻp tirishmish, hamda Turkiston turklari orasigʻa nifoq solish, ayniqsa turkistonliklar ila tatarlar orasini buzish uchun koʻp kuch sarf etmish turkcha bir rus gazetasidir. Shu sabab bu gazeta turkistonliklar orasida e'tibor qozonmagandir. Xususiy kishilar bu gazetani oʻqimaslar edi. Yolgʻiz hukumat idoralari ila amaldorlargʻa majburiy suvratda sotilar edi. Ular ham undagi buyruq va yorliqlardan boshqa joylarini oʻqimaslar ekan.

Bu rasmiy gazetaga boshlangʻich davrda Shohmardon Ibrohim ismli bir ma'mur muharrir oʻlaroq belgilanmish va bu kishi koʻpgina xizmat qilib medallar qozonmishdir. Turkistonliklarning boshqird tugʻonlaridan boʻlgʻonlaridan bu rus hukumati ma'muri Rusiyaning kolonizatorlik siyosatiga koʻrsatgan xizmatining "mukofoti oʻlaroq" keyinchalik Arabistonning Jidda shahrida rus Konsuli etib tayinlanmishdir[219]. Shohmardondan soʻng bu gazetaga Hasan Chanish muharrirlik qilgan.

Turkistonga 1884-yilda Rozenbax bosh voliy oʻlaroq belgilandi. Bu voliy missioner va buyuk turk musulmon dushmani mashhur Ostroumovni "Turkiston viloyatining gazeti"ga mas'ul muharrir qilib qoʻydi. Ostroumov vazifa boshigʻa kelganidan soʻng gazetaning bir tomoni butunlay ruschaga aylantirildi (1885-yilda) va turkcha qismining maqola sarlavhalari ham Ruscha qoʻyildi. Turkistonda ruskiy-tuzemniy[220] maktablari ochish va Turkistonda rus

[219] Yanglishmasak Chor zamonida musulmon aholisidan yolgʻiz shu kishigina konsullik mansabini qozongʻon boʻlsa kerak.
[220] Ruskiy-tuzemniy maktablar – Turkistonda 1917-yilgi oktyabr toʻntarishiga qadar mahalliy aholi bolalari uchun ochilgan boshlangʻich rus maktablari. Uni ochishdan asosiy maqsad oʻlkani ruslashtirish edi. Turkiston general gubernatori K.P. fon Kaufman "musulmon va rus

tilini umumiylashtirish kerakligi haqida yozuvlar tarqatila boshlandi.

Ostroumov "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida Kafkaziya va Qrimda chiqib Turkiston turklari orasida yoyilib xalqimizning rag'batini qozona boshlag'on turkcha gazetalarga, ayniqsa Bog'chasaroyning "Tarjimon" va bugungi "Hayot" ham "Irshod" nomli gazetalariga qarshi shiddatli hujumlar etmishdir.

"Turkiston viloyatining gazeti"ga boshlang'ichda yolg'iz voliy idorasida xizmat qiluvchilar maqolalar bilan qatnashg'onlar. Bora-bora bu gazetaga chetdan ham qatnashg'onlar bo'ldi. 1905-yil inqilobidan keyin samarqandli shoir domla Vasliy, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa jadidchilar turli taxalluslar bilan she'r va maqolalar yozdilar. Ibn Yaminbek Xudoyorxon ham bu gazetada bir qancha vaqt muharrirlik qilmishdir.

Ichki Rusiyada yuz bergan 1905-yilgi inqilobdan keyingi vaziyat o'zgarishidan turkistonliklar ham o'z hozirliqlari darajasiga loyiq suvratda foydalanishg'a tirishdilar. Muallim va taraqqiyparvarlardan iborat bir necha kishi to'planib bir gazeta chiqarmoq harakatiga kirishdilar. Bular Munavvarqori nomidan hukumatga murojaat etib "Xurshid" nomli bir gazeta chiqarishg'a ruxsat so'ramishlar. Hukumat turkistonliklarning bu murojaatini "Ruscha bilmagan kishiga gazeta chiqarmoq mumkin emas" (Ta'kid muallifniki) degan javob bilan rad etib, o'z ma'murlaridan Ivan Gyer degan kishiga "O'rta Osiyoning

maktablarining ajralib turishi"ni iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisobladi. Bu g'oyani Kaufmanning izdoshi general leytenant N.O. Rozenbax davom ettirib, ibtidoiy turdagi yangi maktablar – Rus-tuzem maktablari tarmog'ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yil 19-dekabrda Toshkentda ochilgan.

umrguzaronlig'i Taraqqiy" nomida bir gazetaga ruxsat berib, Munavvarqorini shu gazetaga maqolalar yozishga chaqirmishdi. 1905-yilning oxirlarida Toshkentda chiqa boshlag'on bu gazeta yarim rasmiy bo'lg'onidan mundarijasi e'tiboriyla "Turkiston viloyatining gazeti"dan farqsiz edi. Shuning uchun xalqning rag'batini qozona olmay, 8-sonidayoq mushtariysizlikdan to'xtamoq majburiyatida qolmishdir.

Turkiston yoshlari o'z boshlarig'a bu gazeta chiqarish yo'lida boshlag'on harakatlarini to'xtamay davom ettirdilar. Bu xususda ko'p urinib, nihoyat Ivan Gyerning mushtariylariga gazeta bermak sharti bilan uning to'xtab qolg'on "O'rta Osiyoning umrguzaronlig'i Taraqqiy" nomli gazetasining nomini qisqartirib "Taraqqiy" nomi bilan Ismoil Obid degan student nomig'a o'tkazishga muvaffaq bo'ldilar. Ivan Gyer o'z mushtariylaridan qutulmoq uchun gazetasining Turkiston yoshlari qo'lig'a o'tishiga ko'p suyunib bu haqida ularg'a anchag'ina yordam ham bermishdir. Hatto uning shu fursatda qilg'on yordami orqasida biroz oldin rad qiling'on "Xurshid" gazetasiga ham Munavvarqori nomig'a ruscha bilmasa ham ruxsat olishga muvaffaq bo'lmishdir. Shunday qilib Turkiston yoshlari boshida Munavvarqorining tashabbusi va Ismoil Obidning mas'ul muharrirligi ila 1906-yilning boshlarida Toshkentda "Taraqqiy" gazetasini chiqardilar. Bu gazeta birinchi sonidan boshlaboq bir yoqdan hukumatning siyosatiga, ikkinchi yoqdan "Turkiston viloyati gazeti" yozuvchilarig'a qarshi qattiq hujum etmishdir. Shuning uchun tez fursatda xalqning rag'bat va muhabbatini qozonib ikki mingga yaqin mushtariyga[221] ega bo'lmishdi. "Taraqqiy" 20-sonig'a yetganda hukumat tomonidan to'xtatilib mas'ul muharrir Ismoil Obid qamoqqa olinmishdir.

[221] Mushtariy – gazeta o'quvchilar.

"Taraqqiy" haftada ikki marotaba chiqib – 2 ½ oy davom etmishdir. Bu gazetaga Munavvarqori, Shokir Muxtoriy, Ismoil Ali, Abdussafiyxonlar ila ruslardan "sotsial-demokrat" Nalivkin qatnashg'onlar. "Taraqqiy" yozuvchilarining ko'pchiligi sotaial-revolyutsioner firqasiga mansub kishilar bo'lg'onlaridan bu gazeta o'z zamonidagi turkcha gazetalarning eng so'llaridan sanalur edi.

"Taraqqiy" mas'ul muharriri Ismoil Obidning qamalishi va boshqa yozuvchilarning hukumat tomonidan ta'qib ostig'a olinish hodisalari ba'zi bir yoshlarning gazeta ishlaridan chetga o'zlarini tortishlarig'a sabab bo'lg'on bo'lsa-da, gazeta chiqarish fikriga chin ko'ngildan berilgan yoshlardan 3-4 kishi hukumatning ta'qibidan qo'rqmay Munavvarqorining atrofig'a to'planib, uning mas'ul muharrirligi ostida "Xurshid" gazetasini chiqara boshladilar.

1906-yilning 16-sentyabridan boshlab Toshkentda chiqarilg'on "Xurshid" Turkiston yoshlarining nuqul o'z masorif[222] va o'z qalam kuchlari bilan chiqarg'on ilk gazetasidir. Bu o'z so'zlari ila aytganda "Ilmiy, siyosiy, adabiy, maishiy turkcha jaridayi islomiya" edi. Bu gazeta 2-sonidagi "Sababi tulu' Xurshid"[223] sarlavhali maqolasida dunyo musulmonlarini bir-birlari ila tanishtirib turajagini, yangi maktab va madrasalarni islohi yo'lida rahbarlik qilajagini, butun turklar uchun yalpi yozuv tilini tuzish sohasida ham xizmat etajagini va hakazolarni yozmishdir.

[222] Masorif – o'z yonidan, cho'ntagidan sarf qilmoq.
[223] Sababi tulu' Xurshid – "Xurshid" gazetasining tug'ilish sabablari.

Munavvarqori
(1878-1931)

"Xurshid" millatning iqtisodiy jihatidan yuksalishi uchun ham tirishmish va bu haqida qiymatli yozuvlar tarqatmishdir. 5-sonida chop etgan bir maqolasida har bir mamlakatning o'z musulmon qardoshidan mol olishini harorat bilan tasvir etadirki, bu turli iqtisodiy kurash so'ngi zamonlar Ovro'pa va Osiyoning mumtoz mamlakatlarida ayniqsa Olmoniyada gitlerchilar va Hindistonda gandichilar orasida pik maqbul ko'rilmakdadir.

"Xurshid" eski maktab va madrasalarni, bularning ustida turg'on mutaassib mulla, eshon va boylarni ko'p tanqid etmish va Ostroumov ila uning to'garagiga to'plang'onlarg'a hamda hukumat va uning amaldorlarig'a qarshi ko'p chiqishlar qilib, ularg'a anchag'ina tanqid qilmishdir. Shul sababdan ham ushbu gazeta uzoq umr ko'rmadi va 11-soni chiqishidan oldin hukumat tomonidan to'xtatilib, butun sonlari musodara etildi. "Xurshid" xalq tomonidan ko'p sevilib o'qilg'on bir gazeta bo'lib uch mingga yaqin tarqatilar edi. Yillik obunasi 3 so'm, olti oylig'i bir so'm 50 tiyin, uch oylig'i bir so'm edi. Ikki oyg'ina umr surmishdir. Mundarijasi e'tiboriyla juda ham muhim gazetadir.

"Xurshid"ning mas'ul muharriri Munavvarqori Abdurashidxon yaqindag'ina hukumat tomonidan to'xtatilg'on "Taraqqiy" gazetasining ishchan vakillari va bosh yozuvchilaridan edi. Shuning uchun "Xurshid"ning ham tez orada to'xtatilishi ko'z oldida tutilg'on va shunga ko'ra avvaldan chora ko'rilgan edi. Ehtiyot yuzasidan Abdulla Avloniy nomig'a "Shuhrat", Ahmadjon Bektemir nomig'a "Osiyo", Majidxon Jalil nomig'a "Haqiqat" gazetalari uchun hukumatdan ruxsat olinib qo'yilg'on edi.

(Bitmadi)

To'qtamish o'g'li (Abdulvahob O'qtoy).
"Yosh Turkiston". 1933-yil may – №. 42.

TURK GAZETACHILIG'I III

Qisqag'ina zamon ichida o'ziga uch mingga yaqin mushtariy qozong'on Munavvarqorining "Xurshid"i hukumat tomonidan to'xtatilg'och bu gazeta to'garagiga to'plang'on jadidchi yozuvchilar Abdulla Avloniy nomig'a oling'on "Shuhrat" gazetasini chiqarishga kirishdilar. O'tkan maqolada yozilg'oni kabi "Shuhrat"ni chiqarish uchun ruxsat oldindan olinib qo'yilg'on edi. Buningla barobar bu gazetani yuzaga chiqarmoq uchun Toshkent yoshlari, boshida Munavvarqori bo'lg'oni holda, uch oy urindilar. Nihoyat 1907-yilning birinchi dekabrida Toshkentda "Shuhrat"ning ilk sonini chiqardilar. Haqiqatda "Xurshid"ning davomi bo'lg'on bu gazeta xalqning maslagini olg'a surmish va tili ham imlosi jihatidan ham "Xurshid"dan farqsizdir. O'z so'zlari ila aytganda bu "Haftada 2 marotaba chiqadirgan milliy, adabiy, fanniy, maishiy va siyosiy gazetayi turkiyadur". Haftada ikki marotaba chiqarilishi yo'lida chalishg'on[224] bu gazeta uzoq yasholmay, ikki yarim oy qadar

[224] Chalishmoq – harakat qilmoq.

davom etib, 10-soni chiqqondan keyin hukumat tomonidan to'xtatilmishdir. "Shuhrat" gazetasi ham xalq tomonidan ko'p sevilib o'qilur edi. Bu gazeta "Xurshid" mushtariylariga tarqatilmishdir. "Shuhrat" gazetasining sahifalarida Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Tursunxo'ja Homidxo'ja o'g'illarining zalvorli maqolalari ila toshkentlik shoir Mulla Qo'shoq (taxallusi "Miskin") ning she'rlarini uchratasiz. "Shuhrat" da "Tong"chilardan (Qozonda nashr etilgan "Tong" gazetasi mualliflari nazarda tutilmoqda. O'sha davrlarda "Tong" gazetasi yozuvchilari matbuotda va og'zaki nutqda "Tongchilar" deb atalardi) Rafiq Sobir ham gazeta faoliyatida qatnashgan.

Toshkent boylaridan Saidkarimboy Saidazimboyning "Tujjor" degan gazetasi ham 1907-yil Toshkentda chiqmishdir. Bu gazetani toshkentlik Mulla Hoshim domla idora etmishdir. "Tujjor"ning maslagi jadidchi yoshlarning hech birini qiziqtirmag'on. Shuning uchun bu gazetaga zehni va qalami kuchli turkistonliklar aralashmag'onlar. Shu sababli "Tujjor" kundan kun mushtariylarini yo'qotib o'z-o'zidan to'xtab qolg'on. "Tujjor"ning xalq nazaridan tushishiga sabab bo'lg'on omillarning birisi bu gazetaning o'z sahifalarida ko'proq shaxsiy masalalarga o'rin berilgani edi. "Tujjor"ning 36 ta soni chiqmishdir.

Avvalroq, "Xurshid" yashag'on chog'da, Ahmadjon Bektemir nomig'a ruxsat olinib qo'yilg'on "Osiyo" gazetasining ilk soni 1908-yilning 9-aprel kuni chiqarilmishdir. Bu gazetani "Shuhrat" to'xtatilg'och tezlik bilan dunyo yuziga chiqarmoqni istagan bo'lsalar-da, bunga muvaffaq bo'lolmadilar. "Osiyo" gazetasi "Shuhrat"ning sarmoyasi bilan chiqarilib, ko'proq "Xurshid" ila "Shuhrat"ning mushtariylariga tarqatilmishdir. Hukumatning jadidchilar chiqarg'on gazetalarni tez-tez to'xtatib, musodara qilib turg'onlig'i sababli "Osiyo"

gazetasiga mushtariy yoziluvchilar oz bo'ldi. Haftada ikki marotaba chiqarilg'on bu uch gazeta bir-birining davomi va uchalasining boshida ham Munavvarqori bo'lg'on ayni hay'at ishining samarasidir. "Osiyo"ning umri o'zining marhum qardoshlaridan qisqa bo'ldi. 6-soni chiqish arafasida hukumat tomonidan musodara etilib, muharrirlari qattiq ta'qib ostig'a olindilar. "Osiyo" to'xtatilg'och ortiq bu gazeta to'garagiga to'plang'on jadidchilarga hukumat tomonidan gazeta chiqarishga ruxsat berilmay qo'ydi. Bu holatda Munavvarqori atrofidagi Toshkent yoshlari uzoq zamon gazeta ishlaridan mahrum etildilar. Chor hukumatining bunday og'ir tadbir natijasida turkistonliklar o'z yurtlarida 3 yil gazeta chiqarolmay qoldilar.

Mashhur turk musulmon dushmani missioner Ostroumov-ning muharrirligi ostida chiqib turg'on hukumatning rasmiy "Turkiston viloyatining gazeti"ning esa to'xtamay davom etib turgan bo'lsa-da, turkistonliklar bu gazetani sevmas va o'qimaslar edi. Bu rasmiy gazetani hukumat ma'murlari olib o'qishg'a majbur qiling'onlarindan ular ham yolg'iz hukumat buyruqlarinig'ina ko'zdan kechirardilar. Jadidchilarning gazetalarini o'qib matbuotga havasi uyg'ong'on turkistonliklar esa yuz, minglarcha kilometr uzoqlikda bo'lg'on Orenburg, Qozon, Bog'chasaroy, Baku, Tiflis kabi shaharlarda chiqib turg'on gazeta va jurnallarni o'qirdilar. Hatto Makkadan Istanbul orqali yurtlariga qaytg'on minglarcha hojilarimiz ko'rpa, yostiq, keng chopon va qalin belbog'lari orasig'a Turkiya gazetalarini yashirib keltirardilar. Bu suvratla Turkistong'a keltirilgan Istanbul gazetalarining parchalari xalqimiz tomonidan ko'zga surtulib o'qilurdi.

(Bitmadi)
To'qtamish o'g'li (Abdulvahob O'qtoy).
"Yosh Turkiston". 1933-yil iyun – №. 43.

TURK GAZETACHILIG'I IV

Senzura[225] balosi Turkistonda jadidchilar tomonidan chiqarilg'on gazetalarning hech birisiga uzoqroq umr yashamoqg'a imkon bermadi. Buning ustida Chorlik idorasining Turkiston jadidchilarini shiddatli tarzda ta'qib ostig'a olishi, hatto ularg'a bir oraliq gazeta uchun ruxsat ham bermay qo'yg'onlig'i Turkistonning uch yil qadar gazetasiz qolishig'a sabab bo'lmishdir. Turkistonliklar urinib, surunib nihoyat 1911-yili birgina gazeta chiqara oldilar. "Qozog'iston" deb atalg'on bu gazetaning ilk soni shu yilning mart oyida Xono'rdada chiqmishdir. "Qozog'iston" ham o'zining Turkistondagi marhum rafiqlari kabi uzoq yashamagan. Bu gazetaning ruscha qo'shimchalari ham bor. "Qozog'iston" sahifalarida Shohingiroy Bukay o'g'li, Qalmoq o'g'li, Botirxayr Niyoz o'g'li, Muhammad Qarosh o'g'li va boshqalarning maqolalarini uchratasiz.

1912-yilda esa butun Turkistonda ikkigina gazeta chiqmishdir: Birinchisi "Buxoroyi sharif", ikkinchisi "Turon"dir. Bularning ikkisi ham Buxoro shahrida chiqarilmishdir. Buxoro shahri, ba'zi ovro'palik sayyohlarning aytganlaridek, yuksak minoralari va buyuk qubbalari ila keng bir "madrasa o'rmoni"g'a o'xshaydir. Bu shahar o'z vaqtida islom dunyosining markaziy va madaniyatda zamonining Oksfordi sanalar edi. Buxoro madrasalarida turk o'lkalarining boshqa yerlaridagi madrasalar kabi forsiy va arabiy tillarining turk dunyosiga yoyilishida muhim omil bo'lmishdir. Bu yerdagi madrasalarda o'quvchi talabalarning ko'pchiligi Turkistonning har burchagidan kelgan yoshlar

[225] Senzura – (lotincha censere - "hukm qilish", "baholash") deb hukumat, tahririyat yoki boshqa boshqaruvchi tomonidan shu boshqaruvchilar fikricha zararli, xavfli yoki noqulay bo'lgan nutq yoki boshqa ommaviy muloqotni bekitishga aytiladi.

edilar. Bular madrasa tahsili va madrasa tarbiyasi ta'siriga berilib ketganlaridan ko'pincha turkchadan ziyo forscha yozilg'on asarlarni qiziqib o'qirdilar. Mana shu jihat nazarga olinib, tahsildan so'ng Turkistonning har tomonig'a tarqalajak bu yosh mudarrislar zehniga islohot fikrlarini joylashtirmak maqsadi ila Buxoroda chiqarilg'on "Buxoroyi sharif" turkcha emas, forsiycha o'laroq chiqarilmishdir. Bu holatda mudarrislar orasida jadidchilik fikrlarini imkon qadar tez yoyilajagi tushunilmishdir. Biroq, "Buxoroyi sharif"ning forsiycha o'laroq chiqarilg'onlig'i Turkistonning turkcha zumrasi ila Turkiston tashqarisidagi turk matbuotining e'tiboriga tushmagandir. Masalan, Istanbulda chiqib turg'on "Turk yurti" jurnali u zamon "Buxoroyi sharif" haqida shu so'zlarni yozimishdir: "... Bu hafta Buxoroda bir gazetani ko'rdikki, ko'p sevindik. "Buxoroyi sharif" Buxoroning moziysiga loyiq bir istiqbolga monand bo'lishini ko'rsatgan ilk gazetadir. Muassis va muharrirlarini samimiy tabrik etamiz. Lekin biz xalqi komilan turk o'g'li turk bo'lgan Buxoroyi sharifning ilk gazetasining turk tilida bo'lishligini istar edik. "Buxoroyi sharif" esa forsiy chiqarilmishdir. O'z tilimizga e'tiborsizlik, turk dunyosining har tarafiga yoyilmish bir o'ldig'i jihati ila muharrir qardoshlarimizdan bunga e'tibor berishlarini o'tinamiz. Anchaq turkistonlik turklarning, yaqin zamonda, Buxoroda turkcha bir gazetalari bo'lishligi uchun duo ila iktifo[226] etiyurmiz..." (Istanbul, "Turk yurti" jurnali, hijriy 1328-yil 12-son, 376-bet).

1912-yilning mart oyida chiqa boshlag'on "Buxoroyi sharif" haftada ikki marotaba chiqardi. Turkistonda eng ko'p talabalar orasida o'qulg'on bu gazetaning Eron va Afg'onistong'a ham tarqalg'onlig'i so'ylanadir.

Shu yilning 11-iyulidan boshlab dunyo yuzinda ko'ringan "Turon" gazetasini "Buxoroyi sharif" to'garagiga to'plang'on

[226] Iktifo – kifoya qilmoq.

yozuvchilar chiqarmishlardir. Turkcha o'laroq chiqmish "Turon"ning birinchi sahifasi ostida: "Buxoroyi-sharif"ning ilovasi, dushanba va chorshanba kunlarida nashr etilajakdir" so'zlarini o'qiysiz.

Yuqorida aytilganidek, "Buxoroyi sharif"ni faqat forsiycha o'rgangan madrasadagi mudarris va talabalargina o'qiy olar edilar. Turkiston xalqi esa tabiiy bu forscha gazetani o'qiy olmas edi. Shuning uchun "Buxoroyi sharif"chilar turkcha bir gazeta ham chiqarish zaruratini sezib, shu "Turon"ni chiqargan edilar. Bu iddaoning to'g'riligini "Turon"ning ilk sonida bosilg'on quyidagi so'zlar ham op-ochiq ko'rsatib turibdur: "Oylardan beri nashriga muvaffaq bo'lg'onimiz "Buxoroyi sharif" gazetasi, Turkiston markazi bo'lg'on Buxoro tuprog'ida ko'p aholini bebahra qilar edi. Tojik qarindoshlarimizga foyda bergan bo'lsa-da o'zbek qarindoshlarimiz mahrum qoldilar. Qiyos qilinsa umum Turkiston aholisining yuzdan birisi forsiy tilini bilmas ekan!" deydilar.

"Turon" mundarijasi boy gazetalardan sanalar edi. Ilk sonida madaniy olam ayniqsa Turkiya voqealaridan xabar beruvchi telegrafnomalar va "dehqon qardoshlarimizga xitob" (iqtisodiy, ijtimoiy), "Islom madaniyati" (tarixiy, madaniy) ham "Usuli ta'lim va tarbiyadon" sarlavhali muhim maqolalar ila rus gazetalaridan olingan ichki va tashqi xabarlar bosilmishdir.

Buxoroyi sharif" ila "Turon", ikkisining birgalikda yilligi 8 so'm edi. Bu ikki gazeta tarqalg'on va Turkistong'a taqdir etarlik xizmatlar qilg'ondir. Turkistonning kindigida chiqib turg'on bu ikki muhim gazeta qora yani johil Buxoro amirining o'tinishi bo'yicha Rusiyaning Buxorodagi siyosiy vakili buyrug'i bilan 1913-yilning boshida to'xtatilmishdir.

(Bitmadi)

To'qtamish o'g'li (Abduvahob O'qtoy).
"Yosh Turkiston". 1933-yil iyul – №. 44.

TURK GAZETACHILIG'I V

1913-yili turkistonliklar "Qozoq", "Samarqand" va "Eshim dalasi" nomli uch muhim gazeta chiqarishg'a muvaffaq bo'la oldilar.

"Qozoq" gazetasi nomi Turkistonda hurmatli ataladurg'on jamoat xodimlarimizdan Ahmad Boytursunning bosh muharrirligi ostida chiqmishdir. Mundarijasi e'tiboriyla muhim bir turk gazetasi sanaladurg'on bu "Qozoq" sahifalarida g'oyat jiddiy maqolalar bosilmishdir. Ko'p tarqalib xalqimiz tomonidan sevilib o'qilgan bir gazetadir. Kuchli qalam egalarining qatnashishlari bilan chiqqan "Qozoq" gazetasi Turkistondan boshqa Idil-Ural va Sibiriyada anchag'ina tarqalmish va ko'p rag'bat qozonmishdir. Orenburgda bosilmishdir. "Qozoq"ning noshiri boshlang'ichda M.O'razay so'ngra "Azamat shirkati" edi.

"Qozoq" gazetasining ilk soni, 1913-yil

"Qozoq"dan so'ngra chiqarilg'on gazeta "Samarqand"dir va Samarqandda chiqarilmishdir. Bu gazetani chiqarg'on zot Turkiston jadidchilik harakatida o'ziga xos o'rin tutg'on

islohotchilarimizdan marhum muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy afandidir.

Ahmad Boytursun
(1872-1937)

"Samarqand" gazetasi o'z so'zlari ila aytganda "Mahalliy turkiy va forsiy o'rta shevada ilm, fan, adabiyot, tijorat, hunar va ziroatdan, Rusiya ahvoli va madaniyati va xorijiya mamlakatlari holidan va olami islom tirikligindan yozg'uvchi musavviri jarida" edi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatni ko'p yaxshi anglag'on va gazetachilik ishlarida anchag'ina tajribaga ega bo'lg'on Mahmudxo'ja Behbudiy o'z gazetasini senzura balosig'a uchratmaslik uchun siyosiy masalalarga oz murojaat etmishdir. Murojaat etganda ham e'tidol va ehtiyot bo'lgan holda qilgan. "Samarqand" gazetasi eng ko'p madaniy, iqtisodiy va tirikchilik ishlariga oid masalalar ila mashg'ul bo'lib, haftada ikki marotaba chiqmishdir. Biroq, bora-bora moddiy jihatdan siqilib 45-soni dunyo yuziga chiqqondan so'ng o'z-o'zidan to'xtashga majbur bo'lmishdir. Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyning bosh muharrirligi ostida chiqqon bu gazetaga Sayyid Rizo, Hoji Muin, Rojiy, Siddiqiy, Nurmuhammadbek o'g'li, Nusratulloh, Milliy, Mulla Ibrohim Sayyid Kamol o'g'li va boshqalar qatnashg'onlar.

Haftada uch marotaba chiqqon “Eshim dalasi” nomli gazeta esa Qiziljar shahrida chiqarilmishdir. Bu gazetani eng ko‘p mashg‘ul etgan narsa ayniqsa o‘tkan asrning so‘nglaridan beri butun turkistonliklar uchun qo‘rquvli tus olg‘on tuproq masalasi bo‘ldi. 1913-yilning sentyabr oyida chiqarilg‘on bu muhim gazeta uzoq yasholmay shu yilning oxirlaridayoq Chorliq idorasi buyrug‘i ila to‘xtatilib bu gazetaga qatnashg‘onlarning barchasi mahkamaga tortishmishlardir.

(Bitmadi)
To‘qtamish o‘g‘li (Abdulvahob O’qtoy).
“Yosh Turkiston”. 1933-yil avgust – №. 45.

TURK GAZETACHILIG‘I VI

Turkistonda “Eshim dalasi” nomli gazetadan so‘ngra, 1914-yilning aprel oyi boshida chiqqon gazeta toshkentlik advokat toshkentlik Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘janing mas’ul muharrirligi ostida chiqarilg‘on “Sadoyi Turkiston”dir. Bu muhim gazeta Toshkentda chiqmishdir. Shuning ila bir kunda qo‘qonlik Obidjon Mahmud Qo‘qonda “Sadoyi Farg‘ona”ni chiqarmishdir. Bu gazetalarning eskida muntazam chiqib, mundarijalari jihatidan boy gazetalardan sanalib, siyosiy maslak jihatidan “Sadoyi Turkiston” o‘z zamonasining bir qadar so‘lroq, “Sadoyi Farg‘ona” esa bir qadar o‘ngroq yo‘lga ergashmishdir. Har ikkisi ham moddiy yetishmovchiliklar ostida to‘xtab qolmishdir.

“Haftadan ikki marotaba chiqadirgan adabiy, iqtisodiy, fanniy va maishiy turkcha jarida” bo‘lg‘on “Sadoyi Turkiston” gazetasi qisqa zamon ichida o‘z atrofiga kuchli qalam egalarini to‘play olmishdir. Bu gazetaning muhim ishlarini Munavvarqori qilardi. “Sadoyi Turkiston” turkistonliklarni

xabardor etuvchi turli masalalarga – tabiiy u zamong‘i vaziyatning yo‘l berganicha – harakat qilmishdir. Diniy masalalarga esa xalqning hayajonini qo‘zg‘atmaydigan tarzda, mamlakatimizdagi mutaassiblikni yo‘qotishg‘a harakat qilmishdir. “Sadoyi Turkiston” rus hukumati tarafidan “ko‘p qo‘rqinchli” bir gazeta o‘laroq tanilmishdi. Bu gazetaning siyosiy rahbari bo‘lg‘on Ubaydullaxo‘ja Rusiyaning Turkistondagi umumiy voliysi tomonidan bir necha marotaba surgun qilinish bilan tahdid etilmishdi. “Sadoyi Turkiston” sahifalarida turk gazetachiligi tarixida muhim o‘rin tutg‘on va boshida Fotih Karimiybek[227] bo‘lg‘oni holda zamonning eng kuchli qalam egalarining qatnashishlari ila Orenburgda chiqarilib, Idil-Ural, Turkiston, Sibiriya, Qrim va Kafkaziyag‘a qadar yoyilib, har tomonda sevilib o‘qilg‘on “Vaqt” gazetasi bilan buning nashriyotidan bo‘lg‘on “Sho‘ro”[228] jurnalidan

[227] Fotih Karimiy – to‘liq ismi Fotih G‘ilmon o‘g‘li Karimov bo‘lib, 1870-yilda Bugelme mintaqasiga qarashli Mingliboy qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘n bir yil mobaynida Chistoy madrasasida tahsil olib, rus tilini ham mukammal o‘rgangan. 1892-yilda Turkiyaga ketib, u yerdagi dorulfununda o‘qigan. 1899 yilda yirik tatar sarmoyadori va savdogari Shokir Ramiyev bilan Yevropa bo‘ylab qilgan sayohati uning ongida katta o‘zgarish yasadi. U 1906-yildan e’tiboran aka-uka Ramiyevlar tomonidan chiqa boshlagan “Vaqt” gazetasida maqolalari bilan faol ishtirok eta boshlaydi. Keyinchalik uning o‘zi 1917-yilning 1-noyabrda ilg‘or fikrlarni olg‘a surishga mo‘ljallangan “Yangi vaqt” gazetasiga asos soladi. Fotih Karimiy “Bir shogird ila bir student” (1899), Jahongir Maxdumning madrasada o‘quvi (1900), Mirzo Qizi Fotima (1901), “Ovro‘pa sayohatnomasi” (1902), “Istanbul maktublari” (1913), “Undan-mundan” (1907), “Xayolmi, haqiqatmi?” (1908), “Muallim va murabbiylarga armug‘on” kabi asarlarning muallifidir. Fotih Karimiy 1937 yil 27 iyulda TSSR NKVD “uchligi” tomonidan oliy jazoga hukm qilingan. Batafsil ma’lumot uchun qarang: R. Nafiygov. Fotih Karimiy to‘g‘risinda // “Qozon o‘tlari” jurnali. 1993-yil 1-son. – B. 158–163.

[228] “Sho‘ro” jurnali – 1908-1918-yillarda chop etilgan tatar tilidagi jurnal. Muharriri Rizouddin ibn Faxriddin. Jurnal 10 yil davomida faoliyat

olinib bosilg‘on maqola va xabarlarni ham uchratasiz. Bu gazeta Turkiya, Misr, Hindiston va Arabiston ahvolidan ham turkistonliklarni xabardor etib turmishdir. “Sadoyi Turkiston” 1915-yilning may oyig‘acha davom etib, 67 ta soni dunyo yuzig‘a chiqmishdir. Mas’ul muharriri Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘ja bo‘lg‘on bu gazeta sahifalarida boshida Munavvarqori bo‘lmoq uzra Abdulla Avloniy (“Indamas” taxallusi bilan), Abdurauf Muzaffar[229], To‘lagan Xo‘jamyor (“Tavallo” taxallusi bilan)[230], Sayyidnosir Mirjalil, Hamza

olib bordi va u 239 ta sonda nashr qilindi. Jurnalda 4085 ta maqola, she’r, o‘quvchilarning savol-maktublari, hikoya, latifa va boshqa ko‘plab materiallar chop etildi. Bulardan 1380 tasi adabiy, 953 tasi ijtimoiy, 545 tasi tarix, 415 tasi ta’lim, 307 tasi til, 146 ta falsafa, 146 tasi fan, 92 tasi matbuot, 63 tasi san’at, 39 tasi iqtisodga doir maqolalar edi. “Sho‘ro” jurnalining 10 yil davomida chiqqan 240 sonida Turkiston hayotiga oid 323 material bosilgan. Ulardan: maqolalar 138 ta, xatlar 90 ta, badiiy asarlar 71 ta, xabarlar 21 ta, fotosuratlar 3 ta bo‘lib, maqolalarning 38 ta tarix, 25 ta ta’lim-tarbiya, 23 ta ijtimoiyot, diniy sohaga oid 4 ta, siyosat 6 ta, matbuot 13 ta, adabiyotshunoslik 12 tani o‘z ichiga qamrab olgan. Qarang: G.M.Alijonova. Rizouddin ibn Faxriddin “Kutubi sitta va mualliflari” asarining manbashunoslik tahlili // Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T: 2023. – B. 75.

229 Abdu Muzaffar – 1889-yilda Tataristonning Sengilevskaya uyezdi, Staro-Timoshenko qishlog‘ida tug‘ilgan. Abdurauf Muzaffar 1914-yilning boshlarida Turkistonga kelib, shu yerlarda panoh topgan. Dastlab “Sho‘ro” jurnalida, Turkistonga kelgach esa “Sadoyi Turkiston” jurnalida maqolalari bilan ishtirok etgan. “Sadoyi Turkiston” sahifalarida Abdurauf Muzaffar qalamiga mansub 49 ta maqola mavjud. Qarang: A.Muzaffarzoda. Turkiston taraqqiyoti yo‘lida, –T.: Info Capital Books. 2023. –B. 7.

230 To‘lagan Xo‘jamyor – Tavallo XX asr boshlari Toshkent adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan edi. U 1882-yili Toshkentning Ko‘kcha dahasida ziyoli oilada tug‘ildi. Avval eski maktabda, so‘ng Beklarbegi madrasasida tahsil oldi. Beklarbegi madrasasi bu davrlarda Toshkent adabiy hayotining markazlaridan biri edi. Tavallo shu yerda Karimbek

Hakimzoda[231], Xolid Said[232], Abdulhamid Sulaymon

Kamiy, Miskin, Xislat, Yusuf Saryomiy kabi zamonasining atoqli shoirlari bilan tanishadi. Ayniqsa, Yusuf Saryomiy bilan yaqin aloqaga kirishib, uni o‘zining piri, ustozi sifatida e’tirof etadi. “Tavallo” deb taxallus olishi ham mazkur ustoz da’vati bilan bo‘ladi. 1914-yil 30-avgustda Munavvarqori, Avloniy, M.Podshoxo‘jayev, Husanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li (yozuvchi Said Ahmadning otasi), Saidabdullo Saidkarim o‘g‘li Saidazimboyev, Komilbek Norbekov (jami 12 kishi)lar bilan birgalikda Toshkentda “Nashriyot” shirkatini tuzib, kitob chiqarishni yo‘lga qo‘yadilar. 1915-yilda esa Avloniylar tashabbusi bilan tuzilgan “Turon” jamiyatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. 1913-yilning o‘rtalarida Toshkentda birinchi milliy teatr truppasi faoliyat boshlaydi. 1914- yilning 27 fevralida “Kolizey” teatr binosida namoyish etilgan “Padarkush” spektakli shu truppaning ilk milliy teatr tomoshasi edi. Tavallo bu harakatning ham tashkilotchilari va jonkuyarlari qatorida ko‘rinadi. Ana shu voqeaga bag‘ishlab maxsus she’rlar yozadi. 1916-yili Tavallo o‘zining matbuotda e’lon qilingan va bosilmagan she’rlarini to‘plab, “Ravnaq ul-islom” nomi bilan chop ettiradi. To‘plamda yetmishga yaqin she’r jamlangan bo‘lib, ularning deyarli barchasi ma’rifatparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Tavallo 1917-yil oktyabr to‘ntarishidan so‘ng turli idoralarda ishladi. “Mushtum” jurnalida hajviy she’rlar bilan faol ishtirok etdi. Tavallo 1937-yil 14-avgustda “Turon”, “aksilinqilobiy”, “Milliy ittihod” va boshqa tashkilotlarning a’zosi bo‘lganlikda, “she’rlarida millatchilik g‘oyalarini ilgari surgan”likda ayblanib, qamoqqa olingan. 1937-yil 10-noyabrda NKVD qoshidagi uchlik hukmi bilan otib tashlangan. 1968-yil 18-oktyabrda oqlangan. Qarang: B.Qosimov. vatan va millatning o‘tlig‘ kuychisi // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2003-yil 5-dekabr № 49.

231 Hamza Hakimzoda Niyoziy – (1889-1929) o‘zbek adabiyotining taniqli namoyandasi, shoir, yozuvchi, pedagog, teatr va jamoat arbobi. O‘zbekiston SSR xalq yozuvchisi (1926-yil). Birinchi o‘zbek dramaturgi va zamonaviy o‘zbek musiqa shakllarining asoschisi.

232 Xolid Said – 888-yilda Toshkent viloyatining Qo‘shqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlabki ta’limni Qo‘shqo‘rg‘on qishlog‘idagi mulla maktabida olgan. O‘qishning keyingi bosqichini Toshkentda, madrasada davom ettirgan. Xolid Said Toshkentda Ubaydulla Xo‘jayev muharrirligidagi “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yilgi sonlarida o‘z maqolalari bilan ishtirok etadi. Jumladan, “Fasod axloq qachon boshlandi?”, “Menga nima kerak?”, “Xayrlik umid” kabi maqolalari uning badiiy iqtidori ancha erta

("Cho'lpon" taxallusi bilan), Mo'minjon Muhammadjonov[233], Abdulla Erg'ozi, No'shirvon Yavushev, Siddiqiy[234],

boshlanganligini ko'rsatadi. Negaki, ushbu maqolalarda vatan ishqi bilan yongan qahramon millat va jamiyat dardiga da'vo izlagan. Xolid Said 1926-yilda Bokuda bo'lib o'tgan "I Turkshunoslar Qurultoyi" ishtirokchisi sifatida yangi alifboni qabul qilishning faol targ'ibotchilaridan biri bo'ldi. Xolid Said 1937-yil 3-iyundan 4-iyunga o'tar kechasi hibsga olindi. Xuddi shu kuni Ozarbayjonning atoqli adibi Husayn Jovid ham qamoqqa olinadi. O'sha kechasi bolsheviklar Xoliq Saidning uyida tintuv o'tkazadi. Tergovchilar tomonidan o'tkazilgan tintuv paytida Xolid Saidning pasporti, uning Ozarbayjon Fanlar akademiyasining xodimi ekanligini tasdiqlovchi №59 guvohnomasi, Turkiyada nashr etilgan 5 ta jurnal, 1933-yilda Turkiyada nashr etilgan "Jumhuriyat" gazetasi, 2 ta fotosurat, "Alifba" kitobi, 27 ta turli nomdagi kitoblar va ko'p sonli qo'lyozmalar musodara qilindi. Xolid Said 1937-yil 13-oktyabrda otib tashlandi. I.V.Stalin vafotidan keyin uning turmush o'rtog'i Sora xonim yana turli sovet organlariga murojaat qiladi. 1955-yil 16-aprelda Sora huquq-tartibot idoralari rahbarlari va siyosiy arboblardan erining ishini qayta ko'rib chiqishni qat'iy ravishda talab qiladi. 1955-yilda yozilgan shikoyatga nihoyat 1957-yilda rasmiy javob beriladi va Xolid Said SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1957-yil 16-maydagi qaroriga binoan to'liq oqlanadi. Qarang: https://oyina.uz/uz/article/1735

233 Mo'minjon Muhammadjonov – (taxallusi Toshqin; 1883 — Toshkent 1964) — yozuvchi, ma'rifatparvar, jadidchilik harakatining namoyandasi. Sharofboy, Beklar begi (Toshkent), Oliya (Ufa) kabi madrasalarda tahsil olgan. Ayni paytda eski maktablarda dars bergan. Toshkent, Namangan, Qo'qon, Andijon, O'sh, Jalolobod, Xo'jand, Shahrisabz va boshqa shaharlarda yangi usuldagi maktablar ochgan. "Sadoyi Turkiston", keyinchalik "Ishtirokiyun" gazetalari va "Maorif", "Mushtum" jurnallarida ishlagan. Andijonda Cho'lpon va Toshkentda Hamza bilan hamkorlik qilgan. XXSR maorif nozirligida xizmat qilgan (1920—21). Keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida ishlagan (1944—50). Mo'minjon Muhammadjonov "Qonli tun" (1926; Ziyo Said bilan hamkorlikda) pyesasi, "Turmush urinishlari" (1926) xotiralar kitobi va turli hajviy she'rlar muallifi. Qarang: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/mo-minjon-muhammadjonov-1883-1964

234 Siddiqiy Ajziy – asl ismi Saidahmad Hasanxo'ja o'g'li Siddiqiy bo'lib, (1864-1927) — ma'rifatparvar shoir va tarjimon edi. Milliy uyg'onish davrining yirik vakillaridan biri.

Lutfullo Olimiy[235], Mulla Sayyidahmad Vasliy[236], Fozil Jonboy, mudarrislardan Mulla Muhammadjon, Badriddin A'lamiy, Hoji Muin[237], Shokirjon Rahimiy[238], N.Aziziy va

235 Lutfullo Olimiy – (1893-1969) o'qituvchi va jurnalist. Namangan madrasalarining birida tahsil ko'rgach, 1916-yilda Ufaga borib, Madrasayi Oliyada o'qigan. 1930-yilga qadar "Farg'ona" ("Yangi Farg'ona") gazetalarida muharrir o'rinbosari va muharrir lavozimlarida xizmat qilgan. 1930-yilda "Milliy ittihod" tashkilotining a'zosi sifatida qamoqqa olingan. Qamoqdan qaytgach, xo'jalik ishlarida xizmat qilgan. "Nodira" (1923), "Qizil adabiyotning hozirgi ahvoli" (1924), "Unutilmas shoir" (So'fizoda haqida, 1925) kabi maqolalari bor.

236 Mulla Saidahmad Vasliy – (1870-1925) asl ismi Sayyid Ahmad usta Azim o'g'li. Shoir va ma'rifatparvar.

237 Hoji Muin – (1883–1942) milliy uyg'onish davri Samarqand adabiy muhitining samarali ijod etgan iste'dodli vakili, jurnalist, shoir, dramaturg va tarjimon.

238 Shokirjon Rahimiy – 1898-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Otasining barvaqt vafotidan so'ng ikki o'g'ilni onasi Sharofat aya tikuvchilik orqasidan voyaga yetkazadi. Bilimga chanqoq va ziyrak nigohli Shokirjon 1903–1909-yillarda Munavvarqori Abdurashidxonovning besh sinflik birinchi bosqich va rushdiy "Namuna" maktablarida tahsil oladi. U Munavvarqori Abdurashidxonov tavsiyasi bilan kechki rus-tuzem maktabini bitirgach, Toshkent madrasalarining eng ilg'or mudarrislaridan ham dars oladi. Shokirjon Rahimiy 1909-yildan boshlab jadid maktabida o'qituvchilarga yordamchilik qildi. 1912-yilda o'zining dastlabki o'quv qo'llanmasini nashr etdi. Ayni paytda "Rahimiya" maktabini ochib, unda 1919-yilgacha faoliyat yuritdi. 1922-yilda uning "Kattalarga o'qish", "Alifbe darsligi", 1924-yilda "Kattalar yo'ldoshi", 1925-yilda Shohid Eson Musayev bilan birga yozgan IV jildlik "O'zbekcha til saboqlig'i" darsliklari butun mamlakatga tarqatilgan edi. 1927-yilda "Kattalar alifbesi", "Yashasun Turkiston", "Batraklar alifbosi" kabi darsliklari, 1930-yilda "Savod", 1932-yilda "O'zbek tili ish kitobi" singari o'quv qo'llanmalari chop etilgan. Bundan tashqari, "Islom tarixi" kitobini yozdi, 1924-yil ilk bor milliy kalendar yaratdi. Shokirjon Rahimiy tilshunos sifatida o'zbek tili terminlari hamda Otajon Hoshimning taklifi bilan o'zbek tilidagi singarmonizm hodisasini o'rganadi. Shokirjon Rahimiy 1937-yil 5-avgust kuni qamoqqa olinadi. Shokirjon Rahimiy ishi 1938-yil 5-oktabr kuni soat 15:20 dan 15:45 gacha mash'um "uchlik" tomonidan ko'riladi. Yozilishicha, Shokirjon Rahimiy so'nggi so'z sifatida "Ayblarimni

boshqalarning maqolalari bosilmishdir.

Obidjon Mahmudning haftada uch marotaba chiqarg‘on “Sadoyi Farg‘ona” nomli gazetasida esa Ashurali Zohiriy ila qrimlik Usmon Nuribeklar ishlaganlar. 123 ta soni dunyo yuziga chiqmishdir. “Sadoyi Farg‘ona” to‘xtab qolg‘ondan so‘ng Obidjon Mahmud, G‘ulom Qodir degan bir tarjimon bilan yana bir mirzani o‘z yonig‘a olib “Tirik so‘z” nomli bir gazeta chiqarmishdir (1915-yilda Qo‘qonda). Biroq haftada ikki marotaba chiqa boshlag‘on bu gazeta ham uzoq yasholmay to‘xtab qolmishdir.

(Bitmadi)
To‘qtamish o‘g‘li (Abdulvahob O‘qtoy).
“Yosh Turkiston” jurnali. 1933-yil oktyabr – №. 47.

TURK GAZETACHILIG‘I VII

Turkistonda 1915-yilda chiqarilg‘on turkcha gazetalarning biri kundalik o‘laroq Samarqandda chiqmish “Telegram xabarlari”dir. Bu gazeta toshbosmada 500 dan ortig‘roq bosilib tarqalardi. Biroq, u ham u zamong‘i gazetalar kabi uzoq yasholmay 30-soni dunyo yuziga chiqib to‘xtab qoldi. Muharriri Husayn Ibrohimdir.

1916-yilda butun Turkistonda faqat uchgina turkcha gazeta chiqimishdir: Toshkentda “Sharq” bilan “Alash” va Samarqandda “Agenta telegraflari” nomli gazetalar.

“Agenta telegraflari”ning muassisi va muharriri Sayyid Rizo Alizodadir. Ming nusxa chiqib tarqalg‘onlig‘i ma’lum. Bu gazetaning umri juda ham qisqa. Faqatgina 16 ta soni dunyo yuzini ko‘rmishdir.

tan olmayman, hammasi tuhmat”, degan. Aslida u 4-oktyabr tunida otib tashlangan edi. Qarang: B.Irzayev. “Birinchi o‘zbek alifbosining muallifi” // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022-yil 1-oktyabr. № 202.

“Alash” 1916-yilning noyabr oyida chiqib, 1917-yilning so‘nglarida to‘xtatilg‘ondir. Haftalik gazeta edi, muassisi Kulboy To‘g‘us, noshiri Maryam To‘g‘us xonimdir.

Kulboy To‘g‘us o‘g‘li “Alash” sahifalarida Chor hukumatining 1916-yilgi (25-iyun sanali) Turkistonning 19 va 43 yosh orasidagi erkaklarni “Askariy ishchilikka” (mardikorlikka) safarbar e’lon etgan va Turkistonning har tomonida shiddatli norozilik uyg‘otgan mashhur buyrug‘ini yoqlovchi maqolalar chop etgan va suvratla o‘z yurtig‘a xoinliq qilg‘on bir kishidir.

Asl maqsadi turkcha gazetalar ustida bo‘lsa ham bu maqolada 1916-yili turklarning tashabbusi va qatnashishlari ila chiqarilib, Turkistonning manfaatlarini mudofaa etgan va “shaklan ruscha, mundarija e’tibori ila turkcha” atash mumkin bo‘lg‘on ikki muhim ruscha gazetani ham zikr etib ketmakni lozim topaman. Bu ruscha gazetalarning biri “Туркестанский край” (“Turkiston viloyati”) nomida bo‘lib, rus “xalqchi sotsialist firqa”siga mansub o‘tkir qalamli Shoh Ahmadbek tomonidan haftalik o‘laroq shaklda chiqarilmishdir.

Ikkinchi gazeta esa “Голос Туркестана” (“Turkiston tovushi”) nomida bo‘lib, Andijonda chiqarilmishdir. Bu gazetaning boshida rus sotsialist revolyutsioneri Vadim Chaykin turg‘ondir. “Голос Туркестана”ga bundan avvalgi maqolada (“Yosh Turkiston” jurnalining 47-sonida) bahs etilgan “Sadoyi Turkiston” ila “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarining ruscha davomi deyish ham mumkindir. Bu gazeta Turkiston jadidchilarining rus inqilobchilari bilan barobar ishlashganliklarining ilk rasmiy shohidi bo‘la olur. “Голос Туркестана” Turkistonda turkistonliklarning tom huquqqa ega bo‘lib, kelgindilarga nisbatan yuqorida bo‘lishlarini yoqlab yozg‘on rus tilidagi yagona gazetadir.

Zolim va g‘addor Chorliq idorasining yiqilishi, 1917-yilgi fevral hodisasi va matbuot ustida senzuraning ko‘tarilishi

Turkiston jadidchilari uchun ham keng imkoniyat maydonini ochdi. Avvallari yashirin yo'llar yohud ko'p ehtiyotli va yo majoziy maqolalari orqali xalqimizg'a xizmat qilib kelgan yangi fikrlarni, fevral o'zgarishidan so'ng, Turkiston jadidchilari ham matbuot sahifalarida ochiqdan-ochiqdan yoza boshladilar. Turkistonlik yosh yozuvchilaridan biri 1927-yili nashr etgan bir asarida: "Fevral o'zgarishi jadidchilarning oshig'ini olchi turg'uzdi" deb yozgan ediki, menimcha bu turkistonliklarg'a tushunarlik qilib aytilgan so'zlardir. 1917-yilgi Turkiston gazetalarida bosilg'on maqolalar ham yuqoridagiga o'xshag'on iddaolarning to'g'riligini tasdiq etadir.

Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev
(1878-1942)

Fevral o'zgarishidan so'ng Turkistonda turkcha gazetalarning soni ham birdaniga ko'tarildi. Bu vaqtlar senzura balosi sabab ta'qibga oling'on va qisilg'on muharrirlarga jo'shqinlik

keldi. Maqolalarda ochiqlik, fikrlarda tetiklik ko'rina boshladi. Xalq bu davrda gazetalarni tez sevdi va Turkistonning deyarlik butun savodlilari matbuot mutolaasiga berildilar.

1917-yilgi fevral inqilobi oqibatida Turkistonda 18 ta yangi turkcha gazetani ko'ramizki, bu hol tabiatiyla Turkiston ufqlarida yangi hush bir havoning esa boshlaganining alomatidir. Bularning 7 tasi Toshkentda, 2 tasi Namaganda, 2 tasi Samarqandda, 2 tasi Qo'qonda, 2 tasi Samay (Sempalat) da, 1 tasi Xono'rdasida, 1 tasi Turkistonning shimoli-g'arbida – Ural daryosi bo'yidagi Ural (Uralskiy)da, 1 tasi Turkistonning shimolidagi Qiziljarda chiqmishdir. Quyida shu zikr etilgan joylarda chiqqon gazetalardan qisqacha bahs etilajak.

Toshkentda chiqarilg'on gazetalar shulardir: "Najot", "Turon", "Ulug' Turkiston", "Sho'royi islom", "Kengash", "Birlik tuvi", "Turk eli".

Fevral inqilobidan birozg'ina so'ngra, mart oyida 47 yildan beri Toshkentda chiqib davom etib kelgan rasmiy "Turkiston viloyatining gazeti" mashhur turk musulmonlarning dushmani missioner Ostroumovning qo'lidan olinib bizning Munavvarqorig'a topshirildi. Munavvarqori bu gazetaning nomini o'zgartirib "Najot" nomi bilan chiqara boshladi. Bu gazeta Munavvarqorining o'z so'zlari bilan aytsak "Inqilob davrida davom etganligi uchun Turkistonning eng hur maslakli bir gazetasi"dir. Chorlik davrida chiqarilg'on "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat" va "Osiyo" gazetalari sahifalarida ochiq so'ylamak mumkin bo'lmag'on so'zlarni Turkiston jadidchilari Munavvarqorining inqilob davridagi "Najot"ida yoza boshlagan edilar. "Najot"ning salafi[239] bo'lg'on Ostroumovning turkcha "Turkiston viloyatining gazeti" o'zining qirq yetti yillik umrining katta qismini Turkistondagi turk urug'lari orasig'a nifoq solmoq, ayniqsa

[239] Salaf – ajdod.

turkistonliklar ila tatarlar orasini buzmoqqa sarf etgan edi. Jadidchilar boshligʻi Munavvarqorining “Najot”i esa qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq, turkman, oʻzbek, tatar va boshqa turk urugʻlarining bir millat va bir vatan bolalari ekanliklariga oid dolzarb maqolalar bosmishdir. “Najot’ sahifalarida Chorliq idorasining haqiqiy yuzini koʻrsatib unga nafrat bildirgan va fevral inqilobidan mamnuniyat bilan bahs etgan maqola va she’rlar ham koʻpginadir. “Yashasun hurriyat, adolat, musovot” soʻzlarini gazeta oʻziga shior qilib olgan. Musulmonlar orasida sinf ayirmasining juda ham zaifligini olgʻa surib “Biz musulmonlarning aksariyati ila “demokrat” yani “avom atalgʻon xalqdan iborat” ekanligimizni yozgʻon “Najot” nashr etgan bir xitobnomasida: “Sinflarning firqalari siyosiy hayotni kuchaytiradir – uning fazilati shundadir. Lekin u millatning kuchini boʻladir – uning kamchiligi shundadir. Biz fazilatimizni orttirayliq, kamchiligimizni tugataylik” degan soʻzlarni oʻqiymiz. “Najot” haftalik gazeta edi. 7 ½ oy davom etib oktyabr inqilobi chogʻida toʻxtab qoldi. Yillik obunasi 5 soʻm 50 tiyin, olti oyligi 3 soʻm, uch oyligi 1 soʻm 75 tiyin edi. “Najot”ning sahifalarini Munavvarqori, Mahmudxoʻja Behbudiy, Salohiddin Muftizoda, Murodxoʻja afandi, Abdulla Qodiriy (Julqunboy), Holmuhammad Ohundiy, Shokirjon Rahimiy, Shoir Kamiy, Mirmulla, Mirmuhsin, Rauf Muzaffar, Holmuhammad Toʻraqul oʻgʻli, Laziz Azizzoda, Abdulla Avloniy, Xoʻjamyor (Shoir Tavallo) kabi u zamongʻi Turkistonning taraqqiyparvar fikrli muharrirlarining maqola va she’rlari bilan ruslardan sotsial-demokrat Nalivkinning maqolalari bezagandir.

“Najot”dan keyin chiqqon “Turon”ning mas’ul muharriri dastlab Abdulla Avloniy, soʻngra Nizomiddin qori, undan soʻngra Afandizoda Muhammad Aminbek boʻlgʻondir. Noshiri “Taraqqiyparvar Turon jamiyati” edi. Shiori “Yashasun xalq jumhuriyati!”dir. Haftada ikki marotaba chiqmishdir. Zalvorli

maqolalar chop etmishdir. Biroq ehtiyotsizligʻi yuzasidan uzoq yasholmadi. “Turon” oʻz zamonasining ifrotchi[240] yoshlaridan boʻlgʻon toshkentlik Mirmuhsin degan bir yigitning u zamongʻi madrasa ahvolini, madrasadagi dars va darsliklarni tanqid etib yozgʻon maqolasini nashr etib, Toshkentdagi “Ulamo” jamiyati ila “Shoʻroyi islom” a’zolaridan ba’zilarining diniy ta’assubini qoʻzgʻotib yubordi. Mirmuhsin qochib berkingan boʻlsa-da, uning maqolasidan gʻalayongʻa kelganlar bir necha kun soʻngra uni tutib, qoʻllarini orqasigʻa bogʻlab qozixonagʻa olib ketdilar. Bu oʻngʻaysiz voqea “Turon” kabi muhim bir gazetaning toʻxtatilishi bilan natijalanmishdir. “Turon”ning jami 20 ta soni dunyo yuziga chiqa bilmishdir.

Fevral inqilobidan soʻngra Toshkentda chiqqon gazetalarning uchinchisi “Ulugʻ Turkiston”dir. Toshkentda qurulgʻon “Nashriyot” shirkati tomonidan chiqarilmishdir. Bu gazetaning boshida Kabir Bakir turgʻon. Shiori “Yashasun millatlar Muxtoriyati!” edi. “Ulugʻ Turkiston” xalqning u zamongʻi talablarini anglagʻon va Turkiston xalqining zehnida hokim fikrlarga uygʻun maqolalar chop etgan gazetalardandir. “Xalqning yuzdan toʻqson sakkizi musulmon boʻlgʻon Turkiston oʻlkasida, xalq idorasining chetdan kelgan soldat va ishchilar qoʻligʻa oʻtishiga turkistonliklar haqli oʻlaroq rozi boʻlmayajaklar” deb yozgʻon va rus “Ishchi-dehqon shoʻrosi”gʻa qarshi koʻp maqolalar tarqatgʻon “Ulugʻ Turkiston”gʻa Abu Turgʻud (Kabir Bakrning matbuotdagi imzosi), Mulla Gʻoziy Yunus Muhammad oʻgʻli[241], Nuriddin Sayfulmulk, Lutfiy,

[240] Ifrotchi – mubolagʻa qiluvchi.

[241] Gʻoziy Yunus – 1887-yilda Toshkent shahrining 3-Ohundguzar mahallasida Muhammadyunus va Zulfiya otin oilasida dunyoga kelgan. Gʻoziymuhammad ilk ta’limni onasining qoʻlida olib xat-savodini chiqargan. 1916-yilda imperator Nikolay II tomonidan “Imperiyadagi begona xalqlar erkak aholisini harakatdagi qoʻshin tumanlarida, harbiy inshootlar va shuningdek davlat mudofaasi uchun zarur boʻlgan boshqa

Mustafo Choʻqay, Bakr Devoy, Muxtor Bakr, Xalaf Tulak, Laziz Azizzoda va boshqa qudratli yozuvchilar qatnashgʻonlar.

Fevral inqilobidan soʻngra qurulgʻon "Shoʻroyi islom" jamiyati oʻz fikrini xalqqa tarqatish uchun 16-maydan boshlab "Shoʻroyi islom" nomli bir gazeta chiqardi. Maqsadi: "Turkiston musulmonlarini siyosiy va ijtimoiy jihatdan tarbiya etish, inqilobni tugʻdirgʻon muhim siyosiy va ijtimoiy masalalarni aholiga tushuntirish, musulmonlarni Majlisi muassoniy (Учредителний собрания)gʻa tayyorlash, tuproq

har qanday ishlarga jalb qilish" farmoniga muvofiq Turkistonning barcha shaharlari, shuningdek Toshkent shahridan chaqirilgan erkaklar bilan birga Gʻoziy Yunus ham mardikorlikka jalb etiladi. Toʻqqiz oydan soʻng Gʻoziy Yunus mardikorchilikda yurgan paytda yaralanadi. Uning shaxsiy hujjatidagi 908-raqamli Shimoliy dala gospitalining 1916-yil 1-sentyabr, 6726-raqamli ma'lumotnomasiga binoan uchinchi guruh nogironi boʻlib mardikorlikdan qaytib keladi. 1917-yil mart oyida Gʻoziy Yunus Toshkentning Eshonguzarida ochilgan "Ochlarga yordam koʻrsatish komiteti"da sarkotib boʻlib ham ishlagan. 1921-yil 16-dekabrda Turkiston markaziy ijroiya qoʻmitasi va TKP (b) Markazqoʻmi buyrugʻi bilan "Qizil bayroq" gazetasiga mas'ul muharrir qilib tayinlanadi . Gʻoziy Yunus ushbu gazetada 1921-yil 16-dekabrdan 1922-yil yanvargacha faoliyat olib borib, sal keyinroq ya'ni 1923-yildan boshlab "Turkiston" gazetasida ham ishlaydi. Orada (1923-yil) "Mushtum" jurnalining asoschilaridan biri boʻlishga ham ulgurdi . 1926-1928-yillarda esa "Qizil Oʻzbekiston" ( ) gazetasining Samarqanddagi muxbiri vazifasida ham faoliyat koʻrsatdi . Gʻoziy Yunusning Samarqanddagi faoliyati ham sermahsul ahamiyatga ega boʻlib, u 1926-1928-yillar davomida "Qizil Oʻzbekiston" gazetasida "Eshimqul" (لوقمشأ) taxallusi ostida davrning ijtimoiy-siyosiy muammolari toʻgʻrisida koʻplab maqolalar yozdi. u 1937-yilda qamoqqa olinib, 1938-yilda Rossiyaning Vologda shahriga surgun qilindi va u yerda 1942-yil 5-mayda ochlikdan vafot etadi. Gʻoziy Yunus 1957-yil 22-yanvarda Oʻzbekiston SSR Oliy Sudining qarori bilan oqlangan. Qarang: M.B.Alijonov. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda Gʻoziy Yunusning tutgan oʻrni // Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2023. – B. 13-14.

va suv masalalarini turkistonliklargʻa foydalik ravishda hal qilish, Turkiston elidagi turklarning Rusiyaning boshqa viloyatlarida yashagʻon turklar ila munosabat va aloqalarini orttirish, maktab va madrasalarning isloh yoʻllarini koʻrsatish va boshqa shunga oʻxshash masalalardan bahs etish" edi. Shunday buyuk vazifalarni amalga oshirmoqchi boʻlgʻon "Shoʻroyi islom"ning jami 2 ta soni dunyo yuziga chiqmishdir. Hozirgi kunda Anqarada Turkiya hukumatining xizmatida boʻlgʻon Abdulloh Battolbekning homiyligida chiqqon bu gazetaga Ismoil Obidiy, Munavvarqori, Shokirjon Rahimiy, Olim Boybo'ri, Burhon Habib va boshqalar qatnashgʻonlar.

"Shoʻroyi islom"ning xalafi "Kengash" gazetasidir. Bu gazeta aynan oʻz salafining maslagiga ergashgan. Turkiston markaziy shoʻrosining nashri afkori[242] edi. Boshida Ahmad Zakiy Validiy, soʻngra Munavvarqori idora etmishdir. "Shoʻroyi islom" yozuvchilari ham bunga qatnashdilar. 25-iyundan boshlab dunyo yuzinda koʻrilgan "Kengash"ning ba'zi nashriyotda 20 ta soni chiqqonligʻi bildirilmishdir.

"Birlik tuvi" ham iyun oyida va Choʻqay oʻgʻli Mustafobekning siyosiy rahbarligi ostida chiqmishdir. Noshiri "Birlik tuvi" shirkati edi. Muharrirlari Xayriddin Bulgʻonboy ila bu kunlarda Turkistonda sovet hukumati tarafidan millatchilik, turkchilik ila ayblanib yurgan Xoʻjan oʻgʻli Sultonbek va Boʻri oʻgʻli Kumush Alibeklardir. "Birlik tuvi" haftalik gazeta edi.

Sentyabr oyidan boshlab "Yashasun qoʻshma xalq jumhuriyati!" shiori ila chiqqon "Turk eli" nomli gazeta ham u zamongʻi turkcha gazetalar qatorida muhim oʻrin tutadir. "Turkistonda musulmon markaziy shoʻrosi va

[242] Turkiston markaziy shoʻrosi a'zolaridan Choʻqay oʻgʻli Mustafo (rais), Ubaydullaxoʻja, Shox Ahmad (rais oʻrinbosarlari), Munavvarqori va qisqagʻina muddat Zakiy Validiybeklarni aytib oʻtmoq kerak.

turk adam markaziyat firqasining nashri afkori" o'laroq chiqmishdir. Bu gazeta sahifalarida Afandizoda Muhammad Aminbek, Shokirjon Rahimiy, Burhon Habib, Rafiq Mo'min va boshqalarning maqolalarini uchratamiz.

1917-yili Namanganda "Farg'ona sahifasi" va "Farg'ona nidosi" nomlari bilan ikki gazeta chiqdi. "Farg'ona sahifasi" 15-martdan boshlab dunyo yuzinda ko'rindi va 40-sonidan so'ng moddiy jihatdan siqilib yotib qoldi. Undan so'ng "Farg'ona nidosi" gazetasi chiqdi. Bu ham 19-soni chiqqanidan so'ng to'xtab qoldi. Bu ikki Namangan gazetasining noshiri va muharriri Husayn Makay ismli bir zotdir. Ikkisi ham eng ko'p qora ulamoning harakatlarini tanqid tanqid etmish va jaholatga qarshi kurashmishdir. "Farg'ona sahifasi" va "Farg'ona nidosi" Husayn Makayning o'z xususiy matbaasida bosilmishdir.

Samarqandda "Hurriyat" ila "Telegraf xabarlari" chiqarilg'on. "Hurriyat" 16-apreldan boshlab chiqarilg'on. Buning muharrirligini dastlab Mardonqul Shohmuhammadzoda, undan so'ng Akobir Shohmansur o'g'li boshqarmishdir. 27-sonidan boshlab bosh muharrirlik Abdurauf (shoir "Fitrat")ga topshirilmishdir. Noshiri "Zarafshon" shirkati edi. Biroq bu shirkat ma'lum bir oraliqda yetarli yordam bera olmag'onidan "Hurriyat" gazetasi moddiy yetishmovchilik ichida qoldi. Bu orada Muhammadqul O'rinboy o'g'li "Hurriyat"ning noshirligini o'z ustiga olib bu muhim gazetaning bir yildan ortiq davom etishiga yordam etmishdir. "Hurriyat"ning 87 ta soni chiqmishdir. Bu gazeta ko'p sevilib o'qilg'on va ko'p tarqalg'ondir. Gazeta tiraji ming dona edi. Tili g'arb turkchasiga ko'p yaqin. Zamonasining ahamiyatli gazetalaridan hisoblanadir. "Hurriyat"ga Mahmudxo'ja Behbudiy, Siddiqiy, Hilmiy, Muhammadiy, Qo'qonboy mulla Ibrohim, Hoji Muin, Sayyid Rizo va Rojiylar ham zalvorli maqolalari bilan qatnashg'onlar.

"Telegraf xabarlari" va 'Zarafshon' shirkatining aqchasi bilan chiqarilg'on. Bu gazetani Akobir Shoxmansur o'g'li idora etgan. 600 nusxa qadar tarqalar edi. Jami 50 ta soni chiqmishdir.

Samay (Sempilat)da "Saroy orqa" va "Xalq so'zi" nomli ikki gazetani ko'ramiz. Iyundan boshlab chiqqon "Saroy orqa"ning muharrirlari Rayimjon Marsik ila Halil Abbosdir. Bu haftalik gazeta "Tongdik" (Musovot demakdir) shirkati tarafidan chiqarilmishdir. "Xalq so'zi" ham haftalik gazetadir. Sakkiz betlik bo'lib chiqardi. Ko'rinishidan gazetadan ko'ra ko'proq jurnalga o'xshardi. Buning muharriri Orif Muso o'g'li, noshiri Fuod Oytegin, so'ngra "Madaniyat" jamiyati edi.

Turkistonning shimoli-g'arbidagi Ural shahrida Ali Abubakr tomonidan aprel oyida "Xabarlar" nomi bir gazeta chiqarildi. "Yashasun milliy va madaniy Muxtoriyat!" shiori ila o'rtag'a chiqqon bu gazeta 8 oy qadar davom etmishdir. Iyul oyida esa Xon o'rdasida "Uran" nomli bir gazeta ko'rinib qoldi. Bu haftalik gazetani Abdulaziz Musa idora etmishdir. Nashriyoti esa "O'rdaliq musulmon byurosi" edi.

1916-yili Toshkentda "Alash" gazetasini chiqarg'on Kulboy To'g'us 1917-yil oxirlarida Qiziljarda "Uch juz" nomli bir gazeta nashr etmishdir. "Uch juz"ning noshiri "Yosh qozoq uyushmasi" edi.

Yuqorida zikr etilgan "Alash" gazetasiga o'xshash "Uch juz" ham Turkiston gazetachiligida alohida o'rin tutadir. Bu ikki gazetani chiqaruvchi Kulboy To'g'us o'g'li Turkiston turklari ichida o'xshashi bo'lmag'on va ruslarga ham ruschiliqqa sotilg'on bir "tip" edi. "Alash" gazetasi sahifalarida Chor hukumatining 1916-yilgi turkistonliklarni mardikorlikka safarbar e'lon etgan buyrug'ini qutlab, Turkiston jadidchilariga qarshi xoinona harakatda bo'lg'on bu Kulboy To'g'us o'g'li "Uch juz" gazetasida Turkistonning "Alash" deb atalg'on millatparvarlarni qoralab, o'zini bolsheviklarga "sotsialist",

avom xalqqa “shariatchi”, Chor Rusiyasi kelgindilariga “anvarchilar” (demak Turkiya) dushmani o‘laroq ko‘rsatgan edi. So‘ngra Alash o‘rda hukumati tarafidan qamoqqa olinib, Omsk shahrida o‘lib ketdi. Mana Chor politsiyasining agenti hamda bolsheviklarga sotilg‘on shu Kulboy To‘g‘us Zakiy Validiybekning shiddatli tanqidlarig‘a uchrag‘on tarixiy kitobida “sotsialist” deb ko‘rsatilmishdir.

(Bitmadi)
To‘qtamish o‘g‘li (Abdulvahob O’qtoy).
“Yosh Turkiston”. 1933-yil noyabr – №. 48.

TURK GAZETACHILIG‘I VIII

Bundan avvalgi maqolada 1917-yilgi fevral inqilobi natijasida Turkistonda chiqqon 18 ta turkcha va gazetaning 16 tasi haqida qisqacha bahs etgan edik. 1917-yilgi Turkiston hodisalarida markaziy rolni o‘ynag‘on Qo‘qonning “Ravnaqul-islom” ila “El bayrog‘i” nomli gazetalari ham 1917-yilgi matbuotning ikki muhim qanotini tashkil etadir.

“Ravnaqul-islom” iyul oyida chiqmishdir. Boshida “musulmon demokratlari nashri afkori” degan so‘zlar yozilg‘on. Bu gazetaning noshiri “Umumxalq jamiyati” edi. “Ravnaqul-islom”ni Toshmuhammad Nurmuhammad o‘g‘li idora etmishdir.

Qo‘qondagi “G‘ayrat” kutubxonasining moddiy yordami ila, sentyabr oyida, dunyo yuziga chiqqon “El bayrog‘i” avval Qo‘qon jadidchilarining ulkan quroli edi. Biroq, keyinchalik 1917-yilning dekabrida Cho‘qay o‘g‘li Mustafobekning raisligi ostida Qo‘qonda to‘plang‘on milliy qurultoy Turkistonni Muxtor o‘lka deb e’lon etgandan so‘ng, “El bayrog‘i” Turkiston

Muxtoriyati hukumatining rasmiy nashri afkori sifatida chop etila boshladi. Gazetaning ilk sahifasida yo‘g‘on harflar bilan “Yashasun Turkiston Muxtoriyati, yashasun qo‘shma xalq jumhuriyati” shiorlari bilan bosilib chiqdi. “El bayrog‘i”ning Turkiston Muxtoriyati hukumatining qurulishi munosabati ila nashr etgan maqolalaridan ba’zilari quyida keltiriladi:

1) “Turk elining hududining ichida yashagan turli din muxtalif millatlarning barchasi ham yaxshi nazarlarini bildirdilar. Biroq, birgina partiya, g‘oyat oz xalq – bolsheviklargina bugungacha qarshi so‘zlab, qarshi yozdilar. Shulargina Muxtoriyatni turli bahonalar bilan soya va qora qilmoqqa harakat etdilar. Lekin mehnatkashlarimizning viloyat va butun o‘lka syezd (qurultoy)lari ularning so‘zlari haqsiz, o‘rinsiz ekanini bildirdilar. Turkiston Muxtoriyati faqir, kambag‘al sinfining xohishi va ishtiroki bilan bo‘lg‘onlig‘in e’lon qildilar. Shuning bilan bolsheviklarning keyingi ustuni, keyingi bahonasi yiqildi…”.

2) “…Oldi qo‘lg‘a Muxtoriyat bayrog‘in turk avlodi
Tantanali shodliq bilan dunyo bu kun bir shovulladi.
O‘z yerida, o‘z elida o‘z kuchi, erki borin,
Endi turkistonliklar ham bildi, chinlab angladi”.

“El bayrog‘i”ning 15-sonidan:

3) “…Alhamdulilloh biz buyuk Turkiston xalqi, shonli turk avlodi. Bu sevikli vatanimiz Muxtoriyatli deb e’lon qildik. Aholisining 95 prosenti sof turk irqidan iborat bo‘lg‘on bu buyuk bir qit’a Rusiyaning boshqa qit’alari qatorida o‘ziga Muxtoriyat oldi va bu Muxtoriyat Turkistonning zubdalarining ijtimoiylari bilan takror ta’kid qildi… Qorni och kishi taomg‘a naqadar ruju’ qilsa, Turkistonning har bir qismidagi aholi ham Muxtoriyatni shu darajada husni tujo bilan qabul qildilar. Turkistonning boyi, faqiri, ulamosi, umumiy… hamma qo‘lni-qo‘lga berib ittifoqlashib Muxtoriyat

uchun namoyishlar yasadilar. Qo'ldan kelgan qadar bu aziz Muxtoriyatni ko'tarishdilar. Buning ta'siri bilan ozg'ina kuch ichida muvaqqat hukumat va muvaqqat millat majlisi yaxshig'ina ishlay boshladi…".

"El bayrog'i" ayniqsa Muxtoriyat davrida Turkistonda eng ko'p yoyilg'on va eng ko'p sevilib o'qilg'on Turkiston taraqqiyparvarlarining muhim gazetalaridan biridir. Bu gazeta sahifalarida Po'lat Soliyev, Ashurali Zohiriy, Sardor, Abdulloh Begi, No'shirvon Yavushev, Ahlulloh Hayrulloh o'g'li, Ubaydullaxon, A.Bek, O'g'uzxon, Teshaboy, Ismoil Obid, Nosir Hoji, Hofiz Nurmuhammad, Yunusjon Og'aliq, Rauf Yoqub, Uyg'ur, Shokirjon Rahimiy va boshqalarning maqolalari bosilg'ondir. "El bayrog'i" haftada ikki marotaba chop etilgan. Turkiston Muxtoriyati hukumatining nashri afkori o'laroq 20 ta soni chiqmishdir. Turkiston Muxtoriyati hukumati rus bolshevik qo'shinlari tarafidan tarqatilg'ondan so'ng "El bayrog'i" ham boshqa Turkiston taraqqiyparvar gazetalari kabi Mag'jon Jumaboyning "To'ng'iz qo'ng'iz" deb atagan rus proletariyatining yopirilgan seli ostida qoldi.

* * *

Bolsheviklar hukumat boshig'a kelganidan so'ng Turkistonda siyosiy vaziyat butunlay o'zgarib ketdi. Bolsheviklarning rejalari faqatgina Turkiston jadidchilarining olchi turg'on oshig'ini yiqitish bilan cheklanib qolmadi. Ular turkistonliklarga qarshi muomala masalasida hayvonlarni ham orqada qoldirajak darajada qo'pollik ko'rsatdilar. Cho'lpon "Qarg'alar" deb atagan bu rus bolsheviklari rus ishchilari bilan mujiklarni o'z rahbarliklari ostig'a olmoqqa muvaffaq bo'lib, milliy ozodlikni, erki uchun harakat qilg'on Turkistonni qon daryosig'a aylantirib, bizning yurtimizda hokimiyatni o'z qo'llarig'a ola bildilar. Bu yovlar ish boshig'a

kelgach Turkistondagi milliy uyushmalarning erkin ishlashlariga to'sqinlik qildilar. Toshkent "Ulamo jamiyati"ning eng nufuzli a'zolari bolsheviklarning Turkistonda ish boshiga kelishlarining "Turkiston jadidchilarining yengilganligidan va ularning qilg'on gunohlaridan kelib chiqqonlig'ini" so'yladilar.

Turkiston markaziy sho'rosi Turkiston milliy jabhasini qurmoq yo'lini axtararkan, "Ulamo jamiyati"ning Turkiston musulmonlari qurultoyi tarafidan Turkiston shahar idoralari hamda rus ishchi-askar sho'rolari (demak u zamong'i bolsheviklar ila so'l sotsialist-revolyutsioner) vakillaridan markab bir hukumat qurulishini talab etgan qaror chiqarilib, sovet hukumati tarafidan to'plang'on 3-sovetlar qurultoyig'a topshirildi (1917-yil noyabrda). 3-sovetlar qurultoyi "Ulamo jamiyati"ni rad etdi va turkistonliklarning inqilob hukumatiga qatnashish huquqidan mahrum etganliklarini e'lon etdi. Demak, bolsheviklar o'zaro birlasha olmay turg'on turkistonliklarni, oralarida hech bir farq ko'rmasdan, inqilob jabhasidan chiqarib qo'ydilar. "Bolshevik" va "So'l-sotialist-revolyutsioner" firqalariga kirmagan rus inqilobchi guruhlari ham ishdan chiqarildilar. Demak biz turkistonliklar bular bilan tasofidiy suvratda bir "jabha" bo'lib qoldik. Sovet hukumatiga qarshi bu ikki guruh birlashib ishlay oladimi, yo'qmi? Birlasha olsalar qanday va ne kabi prog'rom atrofida to'planib ishlay oladilar? Mana shu jihatlarni o'rganmak maqsadi bilan Cho'qay o'g'li Mustafobek Toshkentda rus sotsialistlari bilan munosabatga kirib, ular bilan so'ylasha boshladi. Bu so'zlashuv chog'ida Mustafobek Muxtoriyat masalasini qo'ysada, turkistonliklarning Muxtoriyat e'lon etarkan tub maqsadi "Milliy istiqlol" ekanligini muhotiblariga[243] op-ochiq bildirib, bugungi navbatdagi masalaning Turkiston Muxtoriyati bo'lg'onini so'ylamish va shu pro'grom atrofida ular bilan

[243] Muhotib – maslakdoshlar.

kelishmak mumkin bo‘lg‘on taqdirda biz rus inqilobchilari bilan birlashib ishlashga hozirmiz” demishdir. Rus inqilobchilari Mustafobekning takliflarini qabul ko‘rganlar. Oxirda bu anglashma haqida xalq orasida propaganda yurgizmak va rus inqilobchi guruhlarini bolshevizmga qarshi to‘plamoq va ularni Turkiston milliy Muxtoriyati bayrog‘i ostiga kiritmak maqsadi ila rus tilida bir gazeta chiqarmoq kerakligini olg‘a surmishlar. Bu chiqarilmakchi bo‘lg‘on gazetaning nomini Cho‘qay o‘g‘li Mustafobek “Свободный Туркестан” (Hur Turkiston) deb atadi va bunga tegishli barcha chiqimlarni tadorik etmak ishini o‘z bo‘ynig‘a oldi.

Mustafo Cho‘qay
(1890-1941)

Yuqoridagi so‘zlardan ham anglashilganidek, “Hur Turkiston”ning tuzilishi haqidagi loyiha Muxtoriyat hukumatining qurulishindan avval yasalg‘on edi. Biroq, bu gazeta ba’zi sabablar orqasida kechikib 1918-yilning yanvarida dunyo yuziga chiqmishdir. Kundalik o‘laroq Toshkentda chiqib turg‘on “Hur Turkiston”ning tiraji dastlabki kunlarda 3000, bir haftadan keyin 5000 ga, keyinroq esa 8000 nusxaga chiqib

tarqalg‘on. Bosh muharriri sotsialist-revolyutsionerlardan Valentin Volpindir. “Hur Turkiston”ning sahifalarida bizning Cho‘qay o‘g‘li Mustafobekning turli taxalluslar ila bosilg‘on maqolalari bilan ma’ruf yozuvchilardan edi. O‘zining hur Lehistonida muharrirlik qilib yurgan Yunushaguvskiyning zalvorli maqolalari uchratilir. Qalami bilan bu gazetaga yaqindan qatnashg‘onlardan Yuriy Puplovskiyni ham aytib o‘tish kerak.

Qo‘qonda Muxtoriyat hukumati yiqitilg‘ondan so‘ng bolsheviklar “Hur Turkiston”ni to‘xtatib qo‘ydilar. Shundan so‘ng uning muassislari uni “Новый Туркестан” (“Yangi Turkiston”) nomi bilan davom ettirdilar.

“Hur Turkiston” u zamong‘i Turkiston vaziyatida va Turkiston miqyosida ahamiyatli rol o‘ynag‘on bir gazetadir. Bolshevizmga qarshi rus inqilobchi va demokrat kuchlarni o‘z atrofig‘a to‘play olgan edi. Uning xalafi “Новый Туркестан” (“Yangi Turkiston”) esa bolsheviklarning 1918-yil mart oyidagi Buxorog‘a qarshi qilgan hujumi to‘g‘risida ko‘p maqolalar chop etib, sovet askarlarining (U vaqtda “Qizil gvardiya” deyilardi) vahshiyligini ochib yozg‘on va Toshkent Temiryo‘l ishchilarini qisman sovet hukumatiga qarshi qo‘zg‘otishg‘a muvaffaq bo‘lg‘on edi.

“Yangi Turkiston” sahifalarida Cho‘qay o‘g‘li Mustafobekning, Qiziljarda Kulboy To‘g‘us tarafidan chiqarilg‘on “Uch juz” nomli gazetaning asl yuzini ochib ko‘rsatgan maqolalar bosilg‘ondir.

“Hur Turkiston” qisman Mustafobekning, qisman Qo‘qon hukumatining bergan moddiy yordamlari bilan chiqar edi. Uning xalafi “Yangi Turkiston” ham moddiy yordamni ayni manbalardan olmishdir. “Yangi Turkiston” 1918-yilning aprel oyi boshida sovet hukumati tarafidan to‘xtatilib uning barcha mulki, matbaa va asbob-uskunalari musodara etildi.

"Yangi Turkiston" gazetasi Turkistonda bolshevizmga qarshi kurashgan rus tilidagi gazetalarning eng muhim va eng so'nggisidir. Ayni maslakka xizmat etgan "Hur Turkiston" ila "Yangi Turkiston" Turkistonning siyosiy turmushida ahamiyatli o'rin tutg'oni uchun turkistonliklar tarafidan o'qishga arziydirgan nashriyot qatorig'a kiradir.

(Bitmadi)
To'qtamish o'g'li (Abduvahob O'qtoy).
"Yosh Turkiston". 1933 yil dekabr – №. 49.

TURK GAZETACHILIG'I IX

Turkistonda fevral inqilobidan so'ngra chiqqon gazetalar ila Muxtoriyat davridagi gazetalarning qanday shiorlar bilan chop etilganini yuqorida ko'rdik. Bu maqolada Moskovning moddiy-ma'naviy yordami va rus askarlarining qurollari bilan Turkiston Muxtoriyati hukumati yiqitilib, o'rnig'a Turkiston Muxtoriyati sho'ro jumhuriyati qurulg'onidan so'ng Toshkent shahrida chiqarilg'on ikki turkcha gazetaning qanday shiorlarni tashig'onlig'ini o'rganaylik.

Ma'lum bo'lishicha Moskov bolsheviklari aholisining 95 prosenti sof turk irqidan bo'lg'on Turkistonda Muxtoriyat hukumati qurulishi hodisasiga Turkistonda rus hukumatiga qarshi bir harakat deb qarab, yarim asr chor Rusiyasi hokimiyatida ezilgan Turkiston xalqining Muxtoriyat e'lonidan turgan sevinchlarini qisqa muddat ichida motamga aylantirib yubordilar. Turkiston Muxtoriyati hukumatining poytaxti bo'lg'on Qo'qon shahri to'pg'a tutilib, o'n minglarcha aholi qilichdan o'tkazildi, sarvati[244] talandi. Bunday qilib ilk milliy hukumat yiqitilib, uning o'rnig'a haqiqiy turkistonliklardan

[244] Sarvat – boylik, mol-mulk.

bir kishi ham qatnashmag'on Turkiston Muxtoriyati sho'ro jumhuriyati tuzildi. Buningla Turkistonda qaytadan rus va Moskov hokimiyati qurulg'on bo'ldi va qulag'on Chorliq Rusiyasining mustamlaka siyosati rus bolsheviklari tarafidan Turkistonda qaytadan tatbiq etila boshladi. Turkiston turkligi orqasig'a nifoq solinib, Turkistondagi milliy birlikni buzmoq siyosati takror yuritildi. Turkistonning turkcha zumrasi dushmanlarining bu turk urug'lari orasig'a solishni boshlag'on zahrini ta'sirsiz qoldirmoq uchun turli og'irliqlarg'a rag'man kerakli tadbirlarga kirishdilar va ilk ish o'laroq 1918-yilning may oyida "Turk so'zi" nomida bir gazeta chiqardilar. Toshkentda chiqarilg'on bu "Turk so'zi" gazetasining ilk sahifasi boshida yo'g'on harflar bilan "Turk bolalari birlashib, siz ham hayotdan o'z nasibangizni olingiz" so'zlari yozilg'ondir. Haftada ikki marotaba chiqib turg'on bu "siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va adabiy turk gazetasi" Turkiston turkligi birligini saqlab qolmoq yo'lida ko'p tirishdi va bu haqida ko'p zalvorli maqolalar bosib tarqatdi.Yosh turkchilar rus bolsheviklarining "Avval parchala, so'ngra yut!" degan shior bilan boshlag'on parchalash siyosatiga qarshi xalq orasida ko'ngildagidek harakat qila olmoq niyati bilan ikkinchi bir odim otib Toshkentda "Turk o'chog'i" ochildi. Bu milliy o'choqning ochilg'onlig'ini "Turk so'zi" quyidagicha e'lon etmishdir:

"Turkiston turklarini milliy tug'[245] ostig'a to'plab, ularg'a milliy ruh, milliy g'oya va milliy tarbiya bermak, Turkistonda yashovchi turk urug'larig'a hammasining bir turk o'g'li turk ekanligini bildirib oralaridagi qabilaviy nifoq va nafrat o'rnig'a birlik va muhabbatni birlashtirmak, milliy urf va odatimizga muvofiq suvratda ilm va ma'rifatimizni, tijorat, ziroat va sanoatimizni rivojlantirib chin bir turk madaniyatini vujudga

[245] Tug' – bayroq.

keltirmak va shu tariqada millatimizning ruhoniy va jismoniy quvvatini orttirish maqsadida Toshkent shahrida "Turk o'chog'i" nomida ilmiy va madaniy jamiyat ochildi. O'choqda haftada ikki marotaba ilmiy, fanniy va ijtimoiy musohaba[246] va va'zlar bo'ladir. Jamiyatning nizomnomasi ila oshno bo'lmoq va a'zo yozilmoqlikni xohlagan kishilar idoraga murojaat qilsinlar…".

"Ko'tarildi turkning milliy bayrog'i,
"Ko'karsun" deb turonlikning gulbog'i,
Turon yasha! Qachong'acha sanchilg'ay,
Yurt bag'rig'a yot ularning tirnog'i?
Bu to'qayning yolg'iz sendek arsloni,
Qolarmi sen, tulkilarning qo'nog'i?
Bilmay qolding, birlashmading, ezilding,
Kuchsizlanding… yoz iziga yiqilding,
Chop, kel emdi birlash, bilgil o'rtog'im,
Ochilmishdir, senga turklik o'chog'i".

"Turk so'zi"ning bosh muharriri Temirbek Xudoyorxon (Zobit) edi. Bu gazeta Muhammad Said (Ahroriy), Tuyg'un va shularg'a o'xshash zamonning yosh turkchilari qatnashg'onlar. Noshiri: "Turk o'rtoqlig'i"dir. Haftada ikki marotaba chiqadir.

"Turk so'zi" bolsheviklar Turkistonda ish boshig'a kelganidan so'ng ularning turli ichki masalalar bilan ovora bo'lib yurgan chog'larda chiqqon va qisqag'ina zamon davom eta olg'on yagona milliy-siyosiy bir turk gazetasidir. Undan so'ngra chiqqon "Xalq dorulfununi" nomidagi gazeta esa siyosatdan butunlay chetda turg'ondir. Bu gazetaning ilk soni 1918-yilning 31-may kuni Toshkentda chiqmishdir.

Dastlab haftada bir marotaba, keyinchalik ikki marotaba chiqib turg'on bu gazeta Turkiston qit'asi musulmon xalq

[246] Musohaba – suhbat.

dorulfununing fikr tarqatuvchisi va noshiri edi. Bosh sahifasida: "Siyosat va firqachilikdan boshqa mavzularda yozilg'on maqola va yozuvlarg'a gazeta sahifasi ochiqdir" so'zlari bor.

"Xalq dorulfununi"ning qanday maqsad ila chiqqonlig'ini o'zidan tinglaylik:

"Bu gazeta nomiga qarag'onda faqat dorulfunun uchungina maxsus bir organ, nashri afkori kabi ko'rinsa-da, haqiqatda esa butun Turkiston qit'asidagi maorif ishlarining o'rnagi bo'lajak, ta'lim va tarbiya va umuman maktab va madrasa masalasida yangi bir g'oya, yangi bir yo'l ta'qib qiluvchi yo'lboshchisi bo'lajakdir. "Xalq dorulfununi"ning g'oya xayoliyasi: Turkiston musulmonlari, boxusus kambag'al va bechorachilik sababli o'qishdan mahrum qolg'on mehnatkash xalq orasiga maorif va sanoe'[247] tarqatib ularning quvvayi ilmiya va fikrlarining taraqqiysiga ojizona bir xizmat qilmoqdir…".

"Islohi madaris va maktab masalasida tegishlicha ahamiyat berilib, zamin va zamonning musoidasi doirasida ta'lim va tadris usullari haqida va yoki usulda madrasa ochish to'g'rilarida atroflicha ma'lumot berarga ijtihod etilajakdir. "Xalq dorulfununi"da maxsus bir bob ochilib umuman dorulfununlarda o'qulg'on ba'zi bir muhim ko'rilgan munozara-leksiyalar dorulfunun darslari tarzida yozilib borajakdir. "Xalq dorulfununi" gazetasining maslagi faqat xalq orasiga ilm-fan va maorif tarqatmoq bo'lib siyosat va firqachilik masalalaridan uzoqdir. "Xalq dorulfununi" uchun firqachiliq dushmanligi yo'qdir. Uning faqat birgina dushmani bordirki, avvali jaholatdir. Ul faqat jaholat bilangina kurajakdir".

"Yashasin ilmiy inqilob", "Yashasin xalq maorifi" shiorlari bilan chiqqon "Xalq dorulfununi"ning mas'ul muharriri

[247] Sanoye' – san'at va teatr.

Muxtor Bakrdir. Bu gazetaga “Osiyolik”, Abu Bakr Devoy, Maslama, qo‘qonlik Abdullobek, Shokir Sodiq, Shamsiddin Rasulzoda, “El o‘g‘li”, Fotih Bakr, Tutash, “Haq gap”, “To‘rtko‘z”, Ahmadjon Mustafo, Lutfiy Oqberdi, Shoxkamol Soli va boshqalar qatnashg‘onlar.

“Xalq dorulfununi”ning bir nusxasi 25 tiyin edi. Idoraxonasi butun Toshkentda, eski shahar, Eski Juvadagi Vekula Morozov binosida, keyinchalik yangi shahar “Pushkin” ko‘chasidagi 8-uyda edi.

Buningla Turkistonda xususiy kishilar, turli jamiyat va shirkatlar tomonidan chiqarilg‘on va milliy ruh tashig‘on gazetalarning umri bitgan bo‘lib ularning o‘rnig‘a “shaklicha milliy, mundarija e’tibori ila sotsialistik” atalg‘on va “butun dunyo proletarlari birlashingiz” shiorini tashig‘on sovet gazetalari chiqara boshlag‘ondir. 1918-yilning iyun oyidan boshlab Turkistonda chiqqon barcha gazetalar rasmiy sovet nashriyotidir.

Bitdi
To‘qtamish o‘g‘li (Abdulvahob O’qtoy).
“Yosh Turkiston”. 1934 yil mart – №. 52.

MUNDARIJA

“YOSH TURKISTON” JURNALI HAQIDA O‘YLAR... 3
Mustafo Cho‘qay 9
Tohir Chig‘atoy 15
Abdulvahob O‘qtoy 27

SHE’RLAR 37
Turkiston 38
Yaproqlar 41
Surgun qilingan o‘rtog‘imdan 42
Surgun qilingan o‘rtog‘imga 42
Mirrix yulduziga 43
Ona faryodi 44
To‘lqun 44
Tilak yo‘lida 45
Shahidlarimizga 46
Bayrog‘im 47
“O‘lmasoy”g‘a 48
Do‘mbiramg‘a quloq sol 49
Yigitlar 50
Qit’a 51
Qit’a 52
Tilak 52
Millat shahidi Munavvarqori ruhina 52
Munavvarqori 53
Turkiston yoshlariga 54
Sharq nuri 54

TARIXIY SIYMOLAR 55
Bir turkistonlikning sarvatiga xiyonat 56
G‘aspirali Ismoilbek 59
Munavvarqori 67
Yo‘lboshchimiz Munavvarqori 76
Ustodimiz Munavvarqori 81
Marhum Sayyid Abdulloh 85
Orif Karimiyning aziz ruhiga 88
Buyuk Turkiston shoiri Abay 93
Abdulla Avloniy 96
Eshonxo‘ja Xoniy 99
Alimardonbek To‘pchiboshi 100
Marhum Alimardonbekning tobuti boshida 104
Abdulvahobbek 107
Ja’far Jabborli 109
Bir yosh yurtdoshimizning muvaffaqiyati 115
Ulug‘ milliy siymo 116
Ibn Sino vafotiga 900 yil to‘lishi munosabati bilan 118
Obidjon Mahmud 126

TURKISTON MUXTORIYATI TARIXI 130
Bolsheviklar “tarix”ni qanday yozadirlar? 131
Muxtoriyatdan istiqlolg‘a 133
Bir “ilmiy” yolg‘ong‘a qarshi I 136
Bir “ilmiy” yolg‘ong‘a qarshi II 143
Bir “ilmiy” yolg‘ong‘a qarshi III 154
Dekabr xotiralari 161
Qo‘qon Muxtoriyati 165

MILLIY ISTIQLOL KURASHI TARIXI 169
Bosmachiliq to‘g‘risida 170
Marhum Anvar Poshsho haqida xotira parchalari 174
Bosmachiliq 181
Turkiston “bosmachiliq” harakati davridan bir xotira 185
Turkiston milliy qo‘zg‘olish tarixidan bir parcha 193
Ibrohim Laqay qanday tutilg‘on edi? 201

TURKISTON MATBUOTI TARIXI 206
Turk gazetachilig‘i I 207
Turk gazetachilig‘i II 210
Turk gazetachilig‘i III 216
Turk gazetachilig‘i IV 219
Turk gazetachilig‘i V 222
Turk gazetachilig‘i VI 224
Turk gazetachilig‘i VII 230
Turk gazetachilig‘i VIII 240
Turk gazetachilig‘i IX 246

MUSLIMBEK ALIJONOV

Turkiston
HURRIYATI YO‘LIDA

Turkistonlik muhojirlar tomonidan 1929-1939-yillarda nashr etilgan “Yosh Turkiston” jurnalidagi maqolalar to‘plami

“Mahalla va oila” nashriyoti
Toshkent – 2024

Nashr uchun mas’ul: **B. Mavlonov**
Muharrir: **U. Yunusov**
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Sahifalovchi: **L. Abdullayev**

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 26.02.2024-y.
“Cambria” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 $^{1}/_{16}$
Nashriyot bosma tabog‘i 4,3.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.